

**Astrid Lindgren**



**Mittivoy  
va  
Karlson**

2021/34 A100





**Astrid Lindgren**



**Mittivoy  
va  
Karlson**

*Ertak - qissa*


*Ikkinchi nashri*

TOSHKENT – «O‘ZBEKISTON» – 2020

## Ruschadan Husan Ro'zimatov tarjimasi

Aziz o'quvchi! Qo'lingizdagi ushbu kitobning asosiy qahramonlaridan biri Karlson juda zamonaviy odam. U doimo ko'zimizga issiq ko'rinadi, tanishdek tuyuladi – kimgadir o'xshab ketadi. Ehtimol, vertolyot o'ynayotgan Mittivoyga o'xshasa kerak? Faqat Mittivoy o'ynaydi-yu, Karlson esa chinakamiga uchadi. Balki buraladigan o'yinchoqqa – uchadigan semiz odamchaga o'xshar? Faqat jonlisiga o'xshaydi.

Asar qahramoni bilan bog'liq voqea-hodisalarning hammasini qayerdadir ko'rganmiz, bir vaqtlar eshitganmiz, bularning barchasi bo'lib o'tgan gap. Bu ishlarni kim qilgan? O'zingiz, do'stlaringiz, do'stlaringizning do'stlari – yoshi to'rttdan oshgan, lekin o'n to'rttdan kichik hamma bolalarning ishi.



N1 32935  
491

# MITTIVOI VA TOMDA YASHOVCHI KARLSON

## TOMDA YASHOVCHI KARLSON

**S**tokgolm shahridagi odatdagi ko'cha-yu, odatdagi uylardan birida Svanteson familiyali oddiygina shved oilasi yashardi. Bu oiladagi ota ham, ona ham ko'pchilik ota-onalardan farq qilmasdi. Bosse, Betan va Mittivoy ismli uch bolakay ham o'z tengqurlariga juda o'xshashardi.

– Men hech ham oddiygina mittivoy emasman, – deydi Mittivoy. Bu to'g'ri emas, albatta. Axir, bu olamda yetti yashar, ko'zlari ko'm-ko'k, quloqlari kir, ishtonining tizzasi yirtilgan bolalar kammi?! Bunga shubhalanmasa ham bo'ladi: Mittivoy ko'cha changitib yurgan minglab bolalarning biri.

Bosse o'n beshga kirgan, u doska oldida turgandan ko'ra, futbol darvozasida turishni afzal ko'radi. Demak, u ham oddiy bolalardan.

Betan o'n to'rt yoshda, uning sochi ham oddiy tengdoshlarining sochiga juda-juda o'xshaydi.

Butun boshli uyda bitta zot o'zgalarga sira o'xshamasdi – bu tomda yashovchi Karlson. Ha, u chindan ham tomda yashardi. Shuning o'ziyoq antiqa edi. Balki boshqa shaharlarda sal boshqacharoqdir, biroq Stokgolmda birorta odamning tomda, yana alohida kichkina uychada yashaganini hech uchratishmagan. Lekin buni qarangki, Karlson xuddi shu biz aytgan tomda yashaydi.

Karlson – kichkinagina, baqaloq, kekkaygan bir odamcha, buning ustiga uchish qobiliyatiga ega. Samolyot-u vertolyotlarda hamma ham ucha oladi, lekin Karlsonning o'zi ucha oladi. Qornidagi tugmachani bossa bas, orqasidagi kichkina ajoyib motorcha tarillab ishlay boshlaydi. Parrak pirillab aylanguncha Karlson bir zum qimir etmay turadi, motor rosa ishlagandan keyin Karlson osmonga ko'tariladi-da, yengil chayqalib uchib keta-

di. Uning xuddi direktorga o'xshab kerilishini ko'rsangiz. Biroq orqasida parragi bor direktorni tasavvur etish mumkinmi o'zi?!

Karlson tomdagi kichkinagina uyda rohatda yashaydi. Kechqurunlari ostonada o'tirib, trubkasini chekib, yulduzlarni tomosha qiladi. Derazalardan ko'ra tomdan yulduzlar yaxshiroq ko'rinadi, shuning uchun ham nega odamlar tomda kam yashashadi-ya, deb hayron bo'lasan-da kishi. Balki, boshqa odamlar buning fahmiga borishmas. Axir, ular Karlsonning u yoqda uychasi borligini bilishmaydi, chunki uni kattakon mo'ri to'sib turadi. Umuman, kattalar unga qoqilib ketishganda ham kichkinagina uychaga e'tibor qilisharmidi.

Kunlardan bir kun mo'ri tozalovchi Karlsonning uychasini ko'rib qoldi. U juda hayron bo'lib, o'ziga-o'zi:

– Tavba... uychami? Yo'g'-e, ko'zimga shunday ko'rinyotgandir! Tomda kichkina uycha turibdimi?.. Qayoqdan kelib qoldi? – dedi.

Mo'ri tozalovchi mo'riga tirmashib chiqdi-yu, shu zahoti uycha yodidan ko'tarildi, shu-shu boshqa esiga olmadi ham.

Mittivoy Karlson bilan tanishganidan juda xursand bo'ldi. Karlson uchib kelishi bilanoq, juda g'alati sarguzashtlar boshlanardi. Aftidan, Mittivoy bilan tanishganidan Karlsonning ham ko'ngli chog' edi. Axir kichkinagina uyda yakka o'zi turgach, zerikadi-da. Yana bu uyni hech kim ko'rmasa, nimasi yaxshi? Uchib o'tayotganingda bitta-yarimta «Salom, Karlson» deb qichqirmasa, so'rashmasa, kishiga alam qilmaydimi?!

Mittivoy bilan Karlson nobop kunda tanishishdi-da. O'sha kuni Mittivoy bo'lishning hech qizig'i yo'q edi. Holbuki, odatda, Mittivoy bo'lish juda ko'ngilli. Mittivoy oilaning erkatoyi. Uning og'zidan chiqqanini muhayyo qilishadi. Biroq bugun negadir ish chappasiga ketdi. Oyisi uni yana ishtonini yirtgani uchun koyidi, Betan unga «Burningni artib yursang-chi» deb o'shqirdi, maktabdan kech qaytganiga dadasining jahli chiqdi.

– Ko'cha-ko'yda sanqib yurasan-a! – dedi dadasi. «Ko'cha-ko'yda sanqib yurarmish!» Axir, uyga kelayotib yo'lda kuchukchani uchratib qolganini dadasi bilmaydi-da. Kuchuk shunday yoqimtoy, shunday chiroyli ediki, asti qo'yaverasiz. U go'yo

Mittivoyga ergashib ketgisi kelganday, uni hidlab, hadeb dumini likillatardi.

Mittivoyga qolsa, kuchukni jon-jon deb olib ketardi-ya. Biroq oyisi bilan dadasi uyga it olib kelishga qarshi. Buning ustiga muyulishdan bir xotin chiqib: «Riki! Riki! Buyoqqa kel!» – deb qichqirib qolsa bo'ladimi. O'shandan keyin Mittivoy kuchukdan butunlay umidini uzdi.

– Butun umr itsiz o'tib ketadiganga o'xshayman, – dedi ishi o'ngidan kelmagan. Mittivoy kuyunib – Oyi, siz dadam bilan birgasiz, Bosse bilan Betan ham sira ajralishmaydi, doim birga. Meni-chi? Mening hech kimim yo'q!

– Oppog'im, Mittivoy, axir, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz-ku, – dedi oyisi.

– Bilmadim... – dedi Mittivoy ko'ngli battar cho'kib, chunki unga chindan ham bu dunyoda hech kimi va hech narsasi yo'qday tuyuldi.

Ha, aytmoqchi, uning o'z xonasi bor edi, u shu xonasiga kirib ketdi.

Bahor oqshomlaridan biri, derazalar ochib qo'yilgan, oq pardalar go'yo hozirgina musaffo osmon qo'ynida paydo bo'lgan mitti xira yulduzlar bilan salomlashayotgandek sekin hilpirardi. Mittivoy tirsagini deraza tokchasiga tiraganicha ko'chaga qarab o'tirdi. U bugun yo'lda ko'rgan chiroyli kuchuk haqida o'ylardi. Balki, o'sha kuchuk hozir oshxonada savat ichida yotgandir. Mittivoy emas, allaqanday boshqa bola uning yonida o'tirib, «Riki, sen ajoyib kuchuksan!» deb paxmoq boshini silayotgandir.

Mittivoy og'ir xo'rsinib qo'ydi. Birdan uning qulog'iga g'o'ng'illagan tovush eshitildi. U tobora kuchayib, keyin derazasi yonidan lo'ppigina kichkina odam uchib o'tdi. U ko'zlariga ishonmay angrayib qoldi. Bu, tomda yashovchi Karlson edi. Lekin Mittivoy hali uni tanimas edi.

Karlson Mittivoyga boshdan oyoq qarab chiqdi-da, keyin yana uchib ketdi. U baland ko'tarilib, tom ustida, mo'ri atrofidan bir aylandi-da, yana orqasiga, deraza tomonga qaytdi. Tez uchib, Mittivoyning yonidan xuddi kichik samolyotday g'uvillab o'tib ketdi. Keyin Karlson ikkinchi marta aylanib keldi. So'ng uchinchi marta.

Mittivoy, bu yog'i nima bo'larkin, deb qimir etmay turaverdi. Uning hayajondan nafasi tiqilib, yuragi shig'illab ketdi — axir, bunday semiz, kichkina odamcha derazasi yonidan har kuni ham uchib o'tavermaydi-da.

Kichkina odam bu orada uchishini sekinlatib, deraza ro'parasiga kelganda:

— Salom! Shu yerga birpasga qo'nsam maylimi? — dedi.

— Ha, ha, bermalol, — dedi Mittivoy shosha-pisha, keyin: — Nima, uchish qiyinmi? — deb qo'shib qo'ydi.

— Menga cho't emas, hech ham og'irmas, — dedi Karlson kerilib, — chunki dunyoda eng zo'r ucharmonman! Biroq to'nkaday qo'pol, beso'naqay odam menga taqlid qilishni o'ylamasa ham bo'ladi.

Mittivoy, uning «to'nkaday qo'pol» degan gapiga xafa bo'lmasa ham bo'ladi, deb o'yladi o'zicha, biroq uchishni hech qachon havas qilmaslikka ahd qildi.

— Oting nima? — deb so'radi Karlson.

— Mittivoy. Lekin asli otim Svante Svanteson.

— Mening otim Karlson. Ha, hayron bo'lma. Karlson, vassalom! Salom, Mittivoy!

— Salom, Karlson! — dedi Mittivoy.

— Yoshing nechada? — deb so'radi Karlson.

— Yettidaman, — deb javob berdi Mittivoy.

— Juda soz. Kel, bir gaplashaylik, — dedi Karlson. Shunday deb, kalta, semiz oyoqchalarini deraza tokchasidan tushirib, lip etib xonaga qo'ndi.

— Sening yoshing nechada? — deb so'radi Mittivoy kap-katta odamning o'zini bolalarday tutishidan hayron bo'lib.

— Nechaga kirding deysanmi? — deb takror so'radi Karlson. — Ayni qirchillama paytim, boshqa hech nima deyolmayman.

Mittivoy qirchillama paytning nimaligini aniq bilmasdi. Balki o'zining ham qirchillama paytidir-u, hali buni o'zi bilmas? Shuning uchun ham sekin o'smoqchilab so'radi:

— Qirchillama payt qaysi yoshda bo'ladi?

— Har qanday yoshda, — deb javob qildi Karlson mamnun kulimsirab. — Ayniqsa, men to'g'rimda gap ketganda o'sha



yoshdaman. Men chiroyli, aqlli, tobida semirgan, kuch-quvvatga to'lgan erkakman!

U Mittivoyning kitob javoni oldiga keldi-da, o'sha yerda turgan o'yinchoq bug' mashinani oldi.

– Kel, yurgizamiz, – deb taklif qildi Karlson.

– Dadamsiz yurgizish mumkinmas, – dedi Mittivoy. – Mashinani faqat dadam yoki Bosse borida yurgizish mumkin.

– Dadang, Bosse yoki tomda yashovchi Karlson bilan birga yurgizish mumkin. Bug' mashinalari bo'yicha jahondagi eng zo'r mutaxassis – o'sha tomda yashovchi Karlson bo'ladi. Dadangga ham xuddi shunday degin! – dedi Karlson.

U mashina yonida turgan denaturat quyilgan shishani chaqqon oldi-da, kichkinagina spirt lampani to'ldirib, pilikni yoqdi.

Karlson bug' mashinalari bo'yicha dunyodagi eng zo'r mutaxassis bo'lsa ham, denaturatni eplab quyolmay, to'kib yubordi. Javonda denaturatdan xalqob hosil bo'ldi. U pov etib yonib, alanga butun javonga o'rmaladi. Mittivoy qo'rqqanidan qichqirib yubordi va o'zini chetga oldi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Karlson va ogohlantirgan bo'lib semiz qo'lini ko'tardi.

Biroq Mittivoy alangani ko'rib, xotirjam turolmadi. U darhol latta olib, alangani urib o'chirdi. Yaltiroq javon yuzasida bir nechta katta-katta xunuk dog' qoldi.

– Qara, javon rasvo bo'ldi! – dedi Mittivoy tashvish bilan. – Endi oyimga nima deyman?

– O', parvo qilma, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku! Kitob javonining besh-olti joyi jindak dog' bo'ldi, xolos – bu ro'zg'orda bo'ladigan gap. Oyingga xuddi shunday degin.

Karlson bug' mashinasi yoniga cho'kkalab o'tirdi-da, ko'zlarini pirpiratib:

– Hozir yurib ketadi, – dedi.

Chindan ham bir soniya o'tar-o'tmas bug' mashina ishlab ketdi. «Pish, pish, pish» deb pishillardi u. U dunyodagi bor bug' mashinalarining eng yaxshisi edi. Karlson, go'yo bu mashinani o'zi ixtiro qilganday mamnun va mag'rur turardi.

– Men saqlagich klapanini tekshirib ko'rishim kerak, – dedi to'satdan Karlson va qandaydir kichkina dastani aylantira boshladi. – Saqlagich klapanlarini tekshirmasang, avariya bo'lishi mumkin.

«Pish, pish, pish, – deb tobora tezroq pishillardi bug' mashina. – Pish, pish, pish!» Bora-bora, go'yo juda tez chopgan odamday hansiray boshladi. Karlsonning ko'zlari chaqnab ketdi.

Mittivoy javondagi dog'larni o'ylamay ham qo'ydi. U ajoyib bug' mashinasi borligidan, saqlagich klapanlarini ustalik bilan



tekshirib turgan bug' mashinalari bo'yicha jahondagi eng zo'r mutaxassis Karlson bilan tanishganidan o'zida yo'q xursand, baxtiyor edi.

– Xo'sh, Mittivoy, – dedi Karlson, – mana bu chinakam «Psh, psh, psh!» Qoyil-e! Dunyoda eng zo'r...

Biroq Karlson gapini tugatolmadi, chunki xuddi shu payt kuchli portlash eshitildi-yu, bug' mashinasidan nom-nishon qolmadi. U parcha-parcha bo'lib, har tomonga uchib ketdi.

– U portlab ketdi! – deb qichqirib yubordi Karlson go'yo bug' mashinasida ajoyib fokus ko'rsatgan odamday sevinchi ichi-

ga sig'may. — Rostdanam portlab ketdi. Gumburlashini eshitdingmi! Qoyil-a!

Biroq Mittivoy Karlsondek xursand bo'lmadi. U ko'zlari yoshga to'lib, serrayib qolgandi.

— Bug' mashinam... — dedi u piq-piq yig'lab. — Bug' mashinam parcha-parcha bo'lib ketdi.

— Hechqisi yo'q, ro'zg'orda bo'lib turadi! — Karlson beparvolik bilan kichkina semiz qo'lini siltadi. — Senga bundan ham yaxshi mashina beraman, — dedi Mittivoyni yupatgan bo'lib.

— Sen-a? — deb so'radi Mittivoy.

— Bo'lmasa-chi. Tepada yuzlab xilma-xil bug' mashina yotibdi.

— Tepada deganing qayerda?

— Tepada, tomdagi uydamda.

— Nima, tomda uychang bormi? — deb takror so'radi Mittivoy. — Yuzlab bug' mashinang bormi?

— Ha-da. Har holda, ikki yuztacha bor.

— Uychangni juda ko'rgim kelyapti-da, — deb xitob qildi Mittivoy. Tomda, kichkina uychada Karlson yashashiga ishon-ging kelmaydi...

— Tavba, bir uy to'la bug' mashina bo'lsa-ya! — dedi Mittivoy ajablanib. — Ikki yuzta mashina-ya!

— To'g'risi, qancha qolganini aniq bilmayman, hisoblaganim yo'q, — dedi Karlson, — har holda ellikta-oltmishtacha chiqsa kerak.

— Menga bitta mashina berasanmi?

— Iye, bo'lmasam-chi!

— Hozir-a?

— Yo'q, avval ularni bir ko'zdan kechirib chiqishim, saqlagich klapanlarini tekshirib ko'rishim kerak... Yana boshqa ishlar bor. Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! Yaqin kunlarda mashinalik bo'lasan.

Mittivoy polda sochilib yotgan bug' mashinasining parchalarini tera boshladi.

— Dadamning rosa jahli chiqadi-da, — dedi tashvishlanib Mittivoy.

Karlson hayron bo'lib, qoshlarini chimirdi.

– Shu arzimagan bug' mashina uchun-a? Axir, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku! Kuyib-pishishingga arzimaydi. Dadangga xuddi shunday degin. Bu gapni unga o'zim ham aytardim-u shoshib turibman-da, ketishim kerak, ortiq qololmayman... Bugun dadang bilan uchrasholmasam kerak. Uyga uchib borishim, u yoqda nimalar bo'layotganini ko'rishim kerak.

– Biznikiga kelganing juda yaxshi bo'ldi-da, – dedi Mittivoy. – Faqat, shu bug' mashinaning... Yana kelasanmi?

– Xotirjamlik bo'lsin! Xotirjamlik! – dedi Karlson va qorni-dagi tugmani bosdi.

Motor gurilladi-yu, lekin Karlson joyidan qimirlamay, par-rakning rosa aylanishini kutib turdi. Mana, Karlson poldan ko'tarilib, xonada bir necha bor aylandi.

– Motor negadir yaxshi ishlamayapti. Ustaxonaga borib ke-lishim kerak, moylab qo'yishsin. O'zim ham moylab qo'yardim-u baxtga qarshi, hech vaqtim yo'q... Ha, ustaxonaga birrov borib kelmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi.

Mittivoy ham o'zicha, uning ustaxonaga borgani ma'qul deb o'yladi.

Karlson ochiq derazadan uchib chiqib ketdi; uning baqaloq kichkina gavdasi yulduzlar jimirlagan tiniq bahor osmonida aniq ko'rinib turardi.

– Ko'rishguncha xayr, Mittivoy! – deb qichqirdi Karlson semiz qo'lchasini silkitib va zum o'tmay ko'zdan g'oyib bo'ldi.

## KARLSON MINORA QURADI

—  ning ismi Karlson, tepada, tomda yashaydi deb sizga bir necha bor aytdim-ku, – dedi Mittivoy. – Axir, buning nimasiga hayron bo'lasiz? Axir, odamlar xohlagan yerida yashashadi-da, nima, mumkin emasmi?

– O'jarlik qilma, Mittivoy, – dedi oyisi. – Bilasanmi, bizni juda qo'rqitib yubording-ku! Chinakamiga portladi. Axir, o'lib qolishing mumkin edi-ya! Nahotki tushunmasang.

– Tushunaman, lekin, baribir, Karlson bug‘ mashinasi bo‘yicha jahonda eng zo‘r mutaxassis, – deb javob berdi Mittivoy va oyisiga jiddiy qarab qo‘ydi.

Axir, nahotki oyisi tushunmasa, bug‘ mashinasi bo‘yicha dunyodagi eng zo‘r mutaxassis saqlagich klapanlarini tekshirib ko‘rishni taklif qiladi-yu, «yo‘q, bermayman» deb bo‘ladimi!

– Qilmishingga o‘zing javob berishing kerak, – dedi dadasi jahl bilan, – hamma aybni tomda yashovchi qandaydir Karlsonga ag‘darishning nima keragi bor, umuman, bunaqa odamning o‘zi yo‘q.

– Yo‘q, – dedi Mittivoy, – u bor!

– Ucha oladi ham degin! – dedi Bosse masxaraomuz.

– Nega kulasan, ha ucha oladi, – dedi Mittivoy shartta. – Mana ko‘rasan, u bizning uyga uchib keladi, o‘z ko‘zing bilan ko‘rasan.

– Ertaga uchib kelsa yaxshi bo‘lardi-da, – dedi Betan. – Agar tomda yashovchi o‘sha Karlsonni o‘z ko‘zim bilan ko‘rsam, senga bir kron beraman, Mittivoy.

– Yo‘q, sen uni ertaga ko‘rolmaysan – ertaga u ustaxonaga borib, motorini moylab olishi kerak.

– Ke, bo‘ldi, ko‘p valdirayverma, – dedi oyisi. – Kitob javoningni bir ko‘rgin, rasvo bo‘libdi-ku.

– Parvo qilma, bu ro‘zg‘orda bo‘ladigan gap-ku! – Mittivoy xuddi Karlsonga o‘xshab qo‘lini siltab qo‘ydi. Bu uning, javondagi dog‘lar xafa bo‘lishga arzimaydi-yu, degani edi.

Biroq onasi Mittivoyning gaplariga ham, harakatlariga ham parvo qilmadi.

– Karlson shunday dedimi-a? – dedi oyisi jahl bilan. – Borib ayt, agar u yana uyimizga qadam bosguday bo‘lsa, shunday do‘pposlayki, bir umr esidan chiqmasin.

Mittivoy hech nima demadi. Oyisining bug‘ mashinalar bo‘yicha dunyodagi eng zo‘r mutaxassisni do‘pposlamochi bo‘lgani Mittivoyga juda dahshatli tuyuldi. Ha, hamma ish chap-pasiga ketgan bunday ko‘ngilsiz kunda yaxshilik kutmasa ham bo‘ladi.

Birdan Mittivoyning Karlsonni, «Ko‘ngilsizliklar – bu arzi-mas narsa, bu ro‘zg‘orda bo‘ladigan gap, buning uchun kuyib-

pishmasa ham bo'ladi» deb kichkina semiz qo'lchasini g'alati siltab qo'ygan o'sha tiyrak, xushchaqchaq odamni ko'rgisi kelib qoldi. «Nahotki Karlson boshqa uchib kelmasa?» deb o'yladi Mittivoy tashvishlanib.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Mittivoy o'ziga o'zi Karlsonga taqlid qilib. – Axir, Karlson kelaman deb va'da berdiku, bunaqa odamlar aldamaydi. Bu shundoq ko'rilib turibdi. Birikki kundan keyin keladi, albatta, keladi.

...Mittivoy o'z xonasida, polga yotib olib kitob o'qiyotgan edi, yana qulog'iga g'alati g'o'ng'illagan tovush eshitildi, sal o'tmay xonaga kattakon ariday Karlson uchib kirdi. U allaqanday sho'x bir qo'shiqni xirgoyi qilib shift ostida bir necha bor aylandi. Karlson devorga osib qo'yilgan suratlar oldidan uchib o'tarkan, ularni yaxshilab ko'rib olish uchun har gal uchishini sekinlatardi. U boshini qiyshaytirib, ko'zlarini qisib qarardi.

– Chiroyli suratlar, – dedi u nihoyat. – Judayam chiroyli. Biroq, menikiga yetmaydi, albatta.

Mittivoy o'rnidan sapchib turdi: Karlson qaytib kelganidan u juda xursand edi.

– Tomda suratlaring ko'pmi? – deb so'radi u.

– Bir necha ming. Axir, bo'sh vaqtlarimda o'zim ham surat solaman-da. Men kichkina xo'roz va qushlarning suratini, keyin eng chiroyli narsalarning rasmini solaman. Xo'rozlarning suratini dunyoda hech kim mendan yaxshi sololmaydi, – dedi Karlson va bir aylandi-da, Mittivoyning yoniga qo'ndi.

– Nimalar deyapsan! – dedi Mittivoy hayron bo'lib. – Sen bilan birga tomga chiqsam maylimi? Uyingni, bug' mashinalaringni, suratlaringni shunday ko'rgim kelyaptiki...

– Bo'lmasam-chi, bermalol, – deb javob qildi Karlson, – birga chiqasan, aziz mehmonim bo'lasan... Faqat boshqa safar.

– Sabrim chidamayapti! – dedi Mittivoy.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Karlson. – Uyimni u yoq-bu yog'ini yig'ishtirib olishim kerak. Birpasda bo'laman. Uyni tez yig'ishtirishda jahonda eng usta odam kimligini o'zing fahmlab turgandirsan?

– Hoynahoy sendirsan, – dedi Mittivoy, iymajibgina.

– «Hoynahoy emish!» – dedi Karlson jahli chiqib. – «Hoynahoy» deganing nimasi. Hali shubha ham qilasanmi?! Tomda yashovchi Karlson – uyni tez yig'ishtirishda jahonda tengi yo'q usta. Bu hammaga ma'lum.

Karlsonning hamma narsada «zo'rligiga» Mittivoy hech ham shubha qilmasdi. Har xil o'yinlar o'ynashda dunyoda hech kim unday o'rtoqni topolmasa kerak. Mittivoy buni o'z ko'zi bilan ko'rib, ishondi... To'g'ri, Krister bilan Gunilla ham yaxshi o'rtog'-u, lekin ular tomda yashovchi Karlsonning tirnog'iga ham arzimaydi! Krister bo'lsa, iti Yoffani maqtagan maqtagan. Mittivoyning ko'pdan buyon Yoffaga havasi kelib yuradi.

«Agar u ertaga ham Yoffasini maqtasa, unga Karlson haqida gapirib beraman. Kristerning Yoffasi tomda yashovchi Karlson oldida nima bo'пти! Unga xuddi shunday deyman».

Lekin Mittivoy itni juda yaxshi ko'radi, it desa dunyodagi hamma narsadan voz kechishga tayyor, o'zining iti bo'lishini erta-yu kech orzu qiladi...

Mittivoyning xayolini Karlson bo'ldi.

– Hozir jon deb bir ko'ngilxushlik qilardim, – dedi u atrofiga qiziqsinib alanglarkan. – Senga yangi bug' mashinasi olib berishmadimi?

Mittivoy boshini chayqadi. U bug' mashinasini eslab: «Mana hozir, Karlson shu yerdaligida oyisi bilan dadasi uning chindan ham borligiga ishonishlari mumkin edi», deb o'yladi. Agar Bosse bilan Betan uyda bo'lishsa, Karlsonni ularga ham ko'rsatadi.

– Oyim bilan dadamni ko'rasanmi, ular bilan tanishishni istaysanmi? – deb so'radi Mittivoy.

– Iye, bo'lmasa-chi! Jonim bilan! – deb javob qildi Karlson – Ular meni ko'rib xursand bo'lishadi. Axir, men shunday chiroyli va aqlliman... – Karlson xonada u yoqdan bu yoqqa mamnun yura boshladi. – Semizligim ham me'yorida, – deb qo'shimcha qildi, – xullas, kuch-quvvatga to'lgan, qirchillama vaqtim. Ha, ota-onang men bilan tanishganidan xursand bo'lishadi.

Oshxonadan kelayotgan yumaloqlab qovurilgan teftelining hididan Mittivoy hozir tushki ovqatga o'tirishlarini fahmladi. U o'ylab-o'ylab, ota-onasi bilan Karlsonni tushlikdan keyin tanishtirishga ahd qildi. Birinchidan, tefteli qovurilayotganda onasiga

xalaqit berilsa, buning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Bundan tashqari, oyisimi yoki dadasi birdan Karlson bilan bug' mashina yoki kitob javonidagi dog'lar haqida gaplashib qolishsa-ya. Bunga hech yo'l qo'ymaslik kerak. Tushki ovqat paytida Mittivoy bug' mashinalar bo'yicha dunyodagi eng zo'r mutaxassisga qanday muomala qilish zarurligini ota-onasiga bir amallab tushuntirib qo'yadi. Ular ovqatlanib bo'lib, hamma gapga tushunishganidan keyin Mittivoy hammalarini o'z xonasiga taklif qiladi.

«Iltimos, — deydi Mittivoy, — mening xonamga kirsanglar. Tomda yashovchi Karlson bugun menikiga mehmon bo'lib kelgan».

Ular hang-u mang bo'lib qolishadi! O'shanda ularning aftini rosa tomosha qiladi-da!

Xonada u yoqdan bu yoqqa yurib turgan Karlson to'satdan to'xtadi. U bir joyda qotib qoldi-da, xuddi iskovuch itga o'xshab hidlay boshladi.

— Qovurilgan tefteli, — dedi u. — Oh, oh qovurilgan teftelini o'lguday yaxshi ko'raman-da.

Mittivoy xijolat bo'ldi. Axir, Karlsonning bu gapiga: «Agar xohlasang, qolib biz bilan ovqatlan», deb javob qilish kerak edi, xolos. Biroq Mittivoyning bunday deyishga yuragi betlamadi, oldindan ota-onasi bilan gaplashib, kelishib olmay, Karlsonni tushki ovqatga taklif qilish mumkin emas-da. Krister bilan Gunillaning yo'rig'i boshqa: Mittivoy ularni hammalari stol atrofiga o'tirib bo'lganlaridan keyin olib kelishi, eshikdan kirishi bilanoq: «Oyijon, Krister bilan Gunillaga no'xat sho'rva va quy-moq bering», deyishi mumkin. Biroq kichkinagina, baqaloq, mut-laqo begona bir odamni, buning ustiga bug' mashinani portlatib, kitob javonini kuydirib yuborgan kishini uyga dabdurustdan olib kelib bo'ladimi, axir! Yo'q, bu osonmas! Lekin Karlson hozir-gina, qovurilgan qiymani juda yaxshi ko'raman, dedi, demak, qanday bo'lsa ham, uni mehmon qilish kerak. Yana Mittivoydan xafa bo'lib, u bilan o'ynamay qo'ysa-ya... Ha, hozir hamma gap shu mazali teftelida bo'lib qoldi!

— Birpas sabr qilgin, — dedi Mittivoy. — Hozir oshxonadan qovurilgan tefteli olib chiqaman.

Karlson ma'qullagandek bosh irg'adi.

– Tezroq olib kel, – deb qichqirdi u Mittivoyning ketidan. – Suratlarini tomosha qilgan bilan qorin to'yarmidi?

Mittivoy g'izillab oshxonaga kirib ketdi. Katak-katak peshband tutib olgan oyisi plita oldida turib, ajoyib tefteli pishirardi. U o'qtin-o'qtin tovani silkitib qo'yar, yong'oqday-yong'oqday teftelilar dik-dik sakrab, boshqa tomoniga ag'darilardi.

– E, bu senmiding, Mittivoy? – dedi oyisi. – Hozir ovqatlanamiz.

– Oyijon, – dedi Mittivoy muloyim bo'lishga urinib, – oyijon, iltimos, tarelkaga teftelidan besh-olti dona solib bering, xonamga olib chiqaman.

– Hozir hammamiz birga ovqatlanamiz, o'g'lim, – deb javob qildi onasi.

– Bilaman, biroq baribir olib chiqishim kerak... Ovqatdan keyin sizga hamma gapni tushuntirib beraman.

– Ha, mayli, mayli, – dedi oyisi va kichkina tarelkaga oltita tefteli solib berdi. – Ma, ol.

– Oh, mazali tefteli! Hidini aytmay sizmi, hidini! Qizarib pishgan, yesang, ta'mi og'zingda qoladigan qiyma.

Mittivoy tarelkani ikki qo'li bilan ushladi-da, ehtiyotlab o'z xonasiga olib chiqib ketdi.

– Mana, men keldim, Karlson! – deb qichqirdi Mittivoy eshikni ocharkan.

Biroq Karlson g'oyib bo'lgandi. Mittivoy tarelkani ushlaganicha xona o'rtasida turib, atrofga alanglab qarardi. Karlsondan esa nom-nishon yo'q. Mittivoyning ta'bi xira bo'ldi.

– U ketib qolibdi, – dedi Mittivoy ovozini chiqarib. – U ketib qolibdi.

Biroq shu payt birdan...

– Pip! – degan g'alati tovush eshitildi Mittivoyning qulog'iga.

Mittivoy o'girilib qaradi. Karavotda, adyol tagida yostiqqa yaqin yerda nimadir g'imirlab, chiyillardi:

– Pip! Pip!

Birozdan keyin adyol tagidan Karlsonning ayyorona yuzi ko'rindi.

— Xi-xi! Sen «u ketib qolibdi», «u ketib qolibdi...» deding-a... Xi-xi. «U» hech qayoqqa ketmagandi, «u» faqat yashirinib oluvdi! — chiyilladi Karlson.

Biroq shu payt Karlson Mittivoyning qo'lidagi tarelkani ko'rib qoldi-yu, shu zahoti qornidagi tugmasini bosdi. Motor gurilladi, Karlson karavotdan to'g'ri tefteli solingan tarelka oldiga uchib bordi. Uchib o'tayotib teftelidan bittasini oldi-da, keyin shiftga ko'tarildi, so'ngra lampa tagida bir aylandi-da, teftelini mazza qilib chaynay boshladi.

— Tefteli juda zo'r ekan! — dedi Karlson. — Men bunaqa mazali qiyma yemovdim! Dunyodagi eng zo'r pazanda pishirgan deb o'ylash mumkin!.. Lekin bunday emasligini o'zing yaxshi bilasan, — deb qo'shib qo'ydi u.

Karlson o'qday uchib kelib, teftelidan yana bittasini oldi.

Shu payt oshxonadan onasining ovozi eshitilib qoldi:

— Mittivoy, biz ovqatlangani o'tiryapmiz, tez qo'lingni yuv!

— Men borishim kerak, — dedi Mittivoy Karlsonga va tarelkani polga qo'ydi. — Lekin darrov qaytaman. Meni kutasan-a, ketmaysan-a?

— Bo'pti, kutaman, — dedi Karlson. — Biroq sensiz bu yerda nima qilaman? — Karlson Mittivoyning yonginasiga uchib tushdi. — Sen kelguncha biror qiziq ish qilib turay. Boshqa bug' mashinang yo'qligi to'g'rimi?

— Yo'q, — dedi Mittivoy, — mashinam yo'g'-u, lekin kubiklarim bor.

— Ko'rsat-chi, — dedi Karlson.

— Mittivoy o'yinchoqlari yotgan shkafdan binokorlikka oid har xil asbob-uskunalar solingan qutichani oldi. Uning ichida turli rangdagi, har xil shakldagi detallar bor edi. Ularni bir-biriga ulab, birlashtirib antiqa narsalar yasasa bo'lardi.

— Ma, o'yna, — dedi Mittivoy. — Mana bu narsalardan avtomobil ham, yuk ko'taradigan kran ham, umuman, istagan buyumlaringni yasab olishing mumkin.

— Dunyodagi eng zo'r quruvchi, binokor, — deb Mittivoyning gapini bo'ldi Karlson, — bu qurilish materialidan nimalar qurish mumkinligini nahotki bilmasa!

Karlson teftelidan og'ziga yana bittasini tashladi-da, kubik solingan qutichaga yopishdi.

– Mana hozir ko'rasan, – dedi u kubiklarning hammasini polga to'kib. – Mana hozir ko'rasan...

Mittivoy bu yerda qolib, jahondagi eng zo'r quruvchi-bino-korning ishini jon deb tomosha qilardi-ya, lekin borib ovqatini yeyishi kerak. U chiqib ketayotib ostonadan Karlsonga o'girilib qaradi. Karlson allaqachon polga, tog'-tog' kubiklar oldiga o'tirib olib, allaqanday sho'x qo'shiqni xirgoyi qilardi:

Ura, ura, ura!

Zo'r o'yin, qara!

Chiroyliman bilag'on,

Ham epchilman pahlavon.

O'ynashni ham sevaman,

Chaynashni ham sevaman.

U qo'shiqning oxirgi so'zlarini aytarkan, to'rtinchi teftelini og'ziga soldi.

Mittivoy yemakxonaga kirganida oyisi, dadasi, Bosse va Betan stol atrofida o'tirishardi. Mittivoy o'z joyiga lip etib o'tirdi-da, bo'yniga salfetka bog'ladi.

– Menga bitta narsani va'da qiling, oyi. Siz ham dada, – dedi u.

– Xo'sh, biz senga nimani va'da qilishimiz kerak? – deb so'radi oyisi.

– Yo'q, siz avval va'da bering.

– Dadasining nima gapligini bilmasdan turib va'da bergisi kelmadi.

– Bordi-yu, yana kuchukcha olib bering, deb turib olsang-chi, – dedi dadasi.

– Yo'q, kuchukcha emas, – deb javob qildi Mittivoy. – Ha, aytganday, agar xohlasangiz kuchukcha ham va'da qilishingiz mumkin!.. Yo'q, aytayotganim butunlay boshqa narsa, hecham xavfli emas. Va'da beramiz, deb va'da qilinglar!

– Ha, mayli, mayli, – dedi oyisi.

– Demak, sizlar, – dedi Mittivoy xursand bo‘lib. – Tomda yashaydigan Karlsonga bug‘ mashinasi haqida og‘iz ochmaymiz deb va‘da berasizlar-a...

– Tavba, bu juda qiziq bo‘ldi-yu, – dedi Betan, – axir, ular Karlsonni hech qachon ko‘rishmasa, qanday qilib unga bug‘ mashinasi haqida bir nima deyishlari mumkin?

– Yo‘q, ko‘rishadi, – dedi Mittivoy xotirjamlik bilan, – chunki Karlson hozir mening xonamda o‘tiribdi.

– Voy, hozir tiqilib qoladi, – deb yubordi Bosse. – Karlson uning xonasida o‘tirganmish-a!

– Ha, o‘tiribdi, kulmay qo‘ya qol! – Mittivoy «qoyil qildimmi» deganday atrofiga qarab qo‘ydi.

Qani endi ular tezroq ovqatlanib bo‘lishsa-yu, tezroq ko‘ra qolishsa...

– Karlson bilan tanishsak, juda xursand bo‘lardik, – dedi oyisi.

– Karlson ham shunday deyapti, – deb javob berdi Mittivoy. Mana, nihoyat kompotni ham ichib bo‘lishdi. Oyisi o‘rnidan turdi. Hal qiluvchi daqiqa keldi.

– Hammanglar bora qolinglar, – deb taklif qildi Mittivoy.

– Bo‘pti, chiqsak chiqaveramiz, yalintirib o‘tirmaymiz. O‘sha Karlsonni ko‘rmagunimcha ko‘nglim o‘rniga tushmaydi.

Mittivoy yo‘l boshladi.

– Faqat va‘dalaringda turinglar, – dedi u xonasining eshigiga kelib. – Bug‘ mashinasi haqida og‘iz ochmaysizlar.

Keyin u eshikni ochdi.

Karlson xonada yo‘q edi. Bu safar u chindan ham yo‘q edi. Hech qayerda ko‘rinmasdi. Hatto Mittivoyning karavotida ham hech nima qimirlamasdi.

Biroq polda kubiklardan qurilgan minora qad ko‘tarib turardi. Judayam baland minora. Karlson kubiklardan yuk ko‘taradigan kran-u yana allaqancha boshqa narsalarni yasashi mumkin edi, albatta. Lekin bu gal u kubiklarni shunchaki ustma-ust qo‘yib qo‘ya qoldi. Nihoyat, uzundan uzun ingichka minora hosil bo‘ldi. Minora shaklini bildirish uchun Karlson eng yuqoridagi kubik ustiga teftelini qo‘yib qo‘ygandi.

## KARLSON CHODIR TIKDI

**H**a, hozir Mittivoyning yuragi juda g'ash edi. Oyisi o'zi pishirgan tefteli bilan kubiklardan qurilgan binoni bezashganidan ranjigan edi. Bu Mittivoydan kelgan ish deb o'ylardi oyisi.

– Tomda yashovchi Karlson... – deb gap boshlagan edi Mittivoy, lekin dadasi gapini shartta bo'ldi:

– Menga qara, Mittivoy, Karlson haqidagi bema'ni gaplaringni ortiq eshitishni istamaymiz!

Bosse bilan Betan xaxolab kulib yuborishdi.

– O'sha Karlsoning o'lgudek ayyor ekan-a, – dedi Betan. – Xuddi biz kirgan paytda yashirinib oladi-ya.

Mittivoy xafa bo'lib, sovib qolgan teftelini og'ziga tiqdi-da, kubiklarini yig'ishtirib oldi. Hozir Karlson haqida gapirish ortiqcha edi.

Karlson uni uyaltirib yaxshi ish qilmadi-da.

– Yuringlar, borib qahva ichamiz. Bo'ldi, o'sha Karlsonni endi gapirmaylik, – dedi dadasi va Mittivoyni yupatgandek boshini silab qo'ydi.

Qahvani doimo yemakxonada, kamin<sup>1</sup> oldida ichishardi. Havo yaxshi bo'lsa ham, har galgiday ular bugun kechqurun qahvani yemakxonada ichishdi. Mittivoy qahvani yoqtirmasdi, biroq oyisi, dadasi, Bosse va Betan bilan olov gurillab turgan kamin oldida o'tirishni yaxshi ko'rardi...

– Oyi, birpas o'girilib turing, – dedi Mittivoy.

Oyisi qahva solingan idishni patnisi bilan kichkina stolga qo'yarkan:

– Nega endi o'girilib turarkanman? – dedi.

– Qandni qisirlatib yeganingni yomon ko'raman deysiz-u o'zingiz, hozir bir chaqmog'ini olmoqchiman, – dedi Mittivoy.

Mittivoy nima bilandir ovunishi kerak edi. Karlson ketib qolganidan u juda xafa bo'ldi. Axir, kubiklardan qurilgan minoradan bo'lak hech nima qoldirmay, to'satdan g'oyib bo'lishi yaxshi emas-da!

---

<sup>1</sup> Kamin – o'choqsimon, oldi ochiq pech.

Mittivoy o'zining sevgan joyi – kamingga iloji boricha yaqin o'tirdi.

Hozir, butun oila tushlikdan keyin qahva ichayotgan daqiqalar Mittivoy uchun eng yoqimli damlar edi. U dadasi, oyisi bilan xotirjam, bermalol gaplashishi mumkin, ular Mittivoyning gapini oxirigacha chidam bilan tinglashardi, chunki boshqa paytda bunday qulaylik bo'lmasligi mumkin. Bosse bilan Betanning bir-birlariga tegajaklik qilishlari, «yodlash» haqidagi gaplari juda g'alati edi. «Yodlash» degani dars tayyorlashning eng og'ir, eng murakkab usuli bo'lsa kerak. Mittivoyga boshlang'ich maktabda boshqacha o'rgatishgandi. Mittivoy ham o'zining maktabdagi o'qishlari haqida juda-juda gapirib bergisi kelardi-yu, lekin bu bilan oyisi va dadasidan bo'lak hech kim qiziqmasdi. Bosse bilan Betan bo'lsa uning gaplaridan kulishgani-kulishgan edi. Mittivoy kalaka bo'lishdan qo'rqib, gapirmay qo'ya qolardi. Ha, aytmoqchi, Bosse bilan Betan Mittivoyni mazax qilishmasdi, chunki Mittivoy ham ularga haqini yubormasdi. Mittivoy mazax qilishni ham juda o'rniga qo'yardi. Axir, akasi Bosse, opasi Betan bo'lgandan keyin nima bo'lardi.

– Mittivoy, darsingni tayyorlab bo'ldingmi? – deb so'radi oyisi.

Bunaqa savollarni Mittivoy unchalik yoqtirmasdi, albatta. Biroq oyisi uning bir chaqmoq qandni qisirlatib yeganiga indamay chidagani uchun, Mittivoy ham bu ko'ngilsiz gapni miq etmay eshitishga ahd qildi.

– Bo'lasam-chi, tayyorlab qo'ydim, – deb javob qildi u qovog'ini solib.

Mittivoyning fikr-xayoli Karlsonda edi. Karlsonning qayoqqa g'oyib bo'lganini bilmaguncha uning kallasiga dars kirarmidi. Nahotki odamlar shuni tushunmasa-a!

– Uyga nima vazifa berishdi? – deb so'radi dadasi. Mittivoyning juda jahli chiqib ketdi. Aftidan, bugun bu gaplar tugamaydiganga o'xshaydi. Axir, ular kamin oldida faqat darslar haqida gaplashgani o'tirganlari yo'q-ku!

– Alifboni yod olishni topshirishdi, – dedi darrov Mittivoy, – uzundan uzun alifbo. Uni o'rganib oldim, avvaliga «A» keladi, keyin boshqa hamma harflar.

U yana bir chaqmoq qand oldi-da, tag'in o'sha Karlsonni o'ylay ketdi. Mayli, ular istagan narsalari haqida gapiraverishsin u esa faqat Karlsonni o'ylaydi.

Uning fikrini Betan bo'ldi:

– Nima, eshitmayapsanmi, Mittivoy? Yigirma besh ere<sup>1</sup> ishlab olishni istaysanmi?

Mittivoy Betanning nima deyayotganiga darrov tushunmadi. U yigirma besh ere puli bo'lishini juda istardi, albatta. Biroq, eng muhimi, o'sha pulni olish uchun nima qilish kerak, gap mana shunda.

– Yigirma besh ere – juda kam, – dedi u qat'iy – Hozir shunday qimmatchilikki... Qani ayt-chi, stakandagi ellik erelik muzqaymoq necha pul turadi?

– Menimcha, ellik ere turadi, – dedi Betan mug'ambirona kulimsirab.

– Bo'pti-da, – dedi Mittivoy. – Yigirma besh ereining juda kamligini o'zing ham yaxshi bilasan.

– Gap nima haqda ketayotganini hali bilmaysan-ku, – dedi Betan. – Sen hech nima qilmaysan. Faqat ba'zibir narsalarni qilmasliging kerak.

– Xo'sh, nimalarni qilmasligim kerak?

– Sen bugun yemakxonaga qadam bosmasliging kerak. Bilasanmi, Pelle keladi, u Betanning yangi ermagi, – dedi Bosse.

Mittivoy bosh irg'adi. E, qoyil-e, juda puxta o'ylashibdi-da: oyisi bilan dadasi kinoga borishadi. Bosse futbolga ketadi.

Betan bo'lsa Pellesi bilan yemakxonada yarim kechagacha valaqlashib o'tiradi. Birgina Mittivoy o'z xonasida ko'milib o'tirishi kerak, yana arzimagan yigirma besh ere uchun... Oilasidagilarning qanaqa odamligini mana endi bilib oldi!

– Yangi ermagingni qulog'i qanaqa? U ham oldingisiga o'xshab shalpangquloqmi?

U jo'rttaga Betanning jahlini chiqarmoqchi edi.

– Mana, gapini eshitingizmi, oyi? – dedi Betan. – Mittivoyni bu yerdan chiqarib yubormasam bo'lmasligiga endi tu-

---

<sup>1</sup> Ere – Shvetsiyada mayda tanga.

shundingizmi? U oldimga kelganlarning hammasini cho'chitib yuboradi.

U boshqa bunday qilmaydi, — dedi oyisi ishonqiramay. U bolalarining janjallashganini yoqtirmasdi.

— Yo'q, u, hoynahoy, yana biror qiliq o'ylab topadi, — dedi Betan gapida qattiq turib. — Klaasni uydin haydab chiqargani esingizdami? U Klaasga tikilib turib: «Yo'q, Betanga bunaqa quloq yoqmaydi», desa bo'ladimi. O'shandan keyin Klaas uyimizga qadam bosarmidi?!

— Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! — dedi Mittivoy Karlsonga taqlid qilib. — Men o'z xonamda qolaman, ha, pulsiz, tekinga qolaman. Meni ko'rgilaring yo'q ekan, sizlarning ham pullaring menga kerakmas.

— Bo'pti, — dedi Betan. — Unday bo'lsa, kechqurun oldingga kirmayman deb va'da bergin, qasam ichgin.

— Qasam ichaman! — dedi Mittivoy. — Gapimga ishon, Pellelaring bilan ishim yo'q, boshimga uramanmi ularni. Ularni ko'rmasam deyman. Qaytaga ularni ko'rmaslik uchun o'zim yigirma besh ere berishga roziman.

Mana, oyisi bilan dadasi kinoga ketishdi, Bosse stadiongga jo'nab qoldi. Mittivoy o'z xonasida o'tiribdi, yana tekinga deng! U eshikni qiya ochganida yemakxonadan Betan bilan Pellening ming'irlab gaplashganlari eshitilardi. Mittivoy ularning nima haqda gaplashayotganliklarini, ayrim so'zlarni ilib olishga urindi-yu, biroq uddasidan chiqolmadi. O'shandan keyin u deraza oldiga borib, qorong'ilikka tikildi. So'ngra u Krister bilan Gunilla o'ynab yurishmaganmikin deb pastga, ko'chaga qaradi. Eshik oldida bolalar g'imirlashib yurishardi, ko'chada ulardan boshqa hech kim yo'q edi. Ular bir-birlarini quvlashar, mushtlashishardi. Mittivoy biroz tomosha qilib turdi, biroq afsuski bu yoqalashishlar birpasda tugadi-yu, u yana zerika boshladi.

Xuddi shu payt u o'sha tanish yoqimli tovushni eshitib qoldi. U motorning tirillagan ovozi aniq eshitdi, bir zum o'tmay derazadan Karlson uchib kirdi.

— Salom, Mittivoy! — dedi u beparvo.

— Salom, Karlson! Qayoqdan kelib qolding!

- Nima?.. Nima demoqchisan, gapingga tushunolmayapman.
- Axir, seni oyim bilan dadamga tanishtirmoqchi bo'lib turganimda birdan g'oyib bo'lib qolding-ku. Nega qochib ketding?

Karlsonning jahli chiqib ketdi. U ikki qo'lini beliga qo'yib kerilib:

– Tavba, shu ham gap bo'ldi-yu! Nima, uyimdan xabar olishga haqqim yo'qmi? Uy egasi ro'zg'origa qarab turishi kerak-da. Oying bilan dadang kelib-kelib uyimning u yoq-bu yog'ini yig'ishtirmoqchi bo'lganimda tanishgani kelishibdi-da. Nima, shunga men aybdormanmi? – deb xitob qildi.

Karlson xonaga ko'z yugurtirib chiqdi.

– Iye, men qurgan minora qani? Ajoyib, go'zal minorani kim buzdi, tefteli qani?

Mittivoy xijolat bo'ldi.

– Endi qaytib kelmaysan deb o'ylovdim, – dedi u.

– Iye, shunaqami hali? – deb baqirdi Karlson. – Dunyodagi eng zo'r binokor, quruvchi minora quradi-yu, kimdir buzadimi? Uning atrofini kim devor bilan aylantirib oladi? Uning asrlar osha mustahkam turishi uchun kim unga ko'z-quloq bo'ladi? Hech kim! Aksincha, minorani buzishadi, xonavayron qilishadi, bu yetmaganday, birovning teftelini pok-pokiza tushirishadi!

Karlson bir chekkaga borib qovoq-tumshug'ini osiltirib, past-takkina kursiga o'tirdi.

– Parvo qilma, – dedi Mittivoy, – bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku! – u shunday deb xuddi Karlsonga o'xshab qo'l siltdi. – Xafa bo'lganingga arzimaydi.

– Senga nima, gapiraverasan-da! – to'ng'illadi Karlson jahli chiqib. – Buzishdan osoni bormi? Buzishga buzib qo'yib, e, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku, xafa bo'lganingga arzimaydi, deyish hammaning ham qo'lidan keladi. Menga qiyin, menga! Essiz, minorani mana shu jajji qo'llarim bilan quruvdim-a!

Karlson shunday deb do'mboq qo'llarini Mittivoyning xuddi tumshug'iga tiradi. So'ngra u qovog'idan qor yog'ib, yana kursiga o'tirdi.

– Yo'q, sira chidolmayapman, – deb to'ng'illadi u. – G'azabim qaynab ketyapti!

Mittivoy judayam dovdirab qoldi. U nima qilarini bilmay, ser-rayib turardi.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi.

Nihoyat Karlson g'amgin bir ohangda gapirib qoldi...

– Agar yana biror kichkina sovg'a olsam, balki xursand bo'larman. To'g'ri, ishontirmayman-u, lekin menga biror narsa sovg'a qilishsa balki shu bilan xursand bo'larman...

Mittivoy stol yoniga chopib bordi-da, uning tortmalarini titkilay boshladi; eng qimmatbaho narsalar o'sha yerda turardi: xilma-xil markalar, rang-barang dengiz toshlari, rangli bo'rlar, qalay soldatchalar.

Kichkina elektr fonarcha ham o'sha stol tortmasida edi. Mittivoy bu fonarchasini juda ehtiyot qilardi.

– Senga shuni sovg'a qilaymi? – dedi u.

Karlson fonarchaga yalt etib qaradi-yu, darrov unga jon kirdi:

– Ha-ha, kayfim chog' bo'lishi uchunxuddi shunga o'xshash bir nima kerak edi. Qurgan minoram bundan ming marta ortiq edi-ya, albatta. Lekin sen menga shu fonarchani bersang, sal-pal xursand bo'lishim mumkin.

– U seniki, – dedi Mittivoy.

– Yonadimi? – deb so'radi Karlson shubhalanib, tugmachasini bosarkan. – Ura! Yondi! – deb qichqirib yubordi u, uning ko'zlari ham sevinchdan porlab ketdi. – Juda yaxshi bo'ldi-da, kechqurunlari uyimga ketayotganimda shu fonarchani yoqaman. Endi qorong'ida, trubalar orasida adashib yurmayman, – dedi Karlson fonarchani silab.

Bu gaplarni eshitib Mittivoy juda xursand bo'ldi. Endi uning birdan-bir orzusi – Karlson bilan atigi bir marta tomma-tom yurish, qorong'ida bu fonarcha ularning yo'lini qanday yoritishini o'z ko'zi bilan ko'rish edi.

– Mana, Mittivoy, yana kayfim chog' bo'ldi! Bor, dadang bilan oyingni chaqir, tanishib olaylik.

– Ular kinoga ketishdi, – dedi Mittivoy.

– Men bilan uchrashish o'rniga kinoga ketishdimi? – dedi Karlson hayron bo'lib.

– Ha, hammasi ketishdi. Uyda faqat Betan bilan uning yangi ermagi qoldi. Ular yemakxonada o'tirishibdi. Biroq ularning ol-diga kirish mumkinmas.

– Iye, nimalar deyapsan! – dedi Karlson. – Nima, sen xohlagan yeringga borolmaysanmi? Yo‘q, bunga biz yo‘l qo‘ymaymiz. Qani, ketdik olg‘a!

Axir, men qasam ichganman... – demoqchi bo‘lgan edi Mittivoy Karlson uning gapini bo‘ldi:

– Men ham, agar biror adolatsizlikni ko‘rsam, unga o‘sha zahotiyoq xuddi qarchig‘ayday chang solaman, deb ont ichganman...

U Mittivoyning yoniga keldi-da, yelkasiga qoqib qo‘ydi:

– Xo‘sh, nima deb va‘da qiluvding?

– Bugun hech kimga ko‘rinmayman, deb va‘da beruvdim.

– Bo‘pti, hech kimga ko‘rinmaysan, – dedi Karlson. – Aytchi, Betanning yangi ermagini juda ko‘rging kelyaptimi?

– Rostini aytsam, juda ko‘rgim kelyapti! – dedi Mittivoy kuyib-pishib. – Ilgari u bir shalpangquloq bola bilan do‘st edi. Bunisining qulog‘i qanaqa ekan, shuni juda ko‘rgim kelyapti.

– Ha, men ham uning qulog‘ini jon deb ko‘rardim, – dedi Karlson. – Bir daqiqa sabr qil! Hozir bir yo‘lini o‘ylab topaman. Har xil sho‘xliklar, hiyla-nayranglarning dunyoda eng ustasi – tomda yashovchi Karlson mana men bo‘laman. – Karlson tevarak-atrofga bir qarab qo‘ydi. – Bilasanmi, nima qilamiz, – deb baqirib yubordi u, adyolni imlab ko‘rsatib. – Xuddi shu adyol bizga ish beradi. Biror chora o‘ylab topishimizga sira shubha qilmasdim...

– Xo‘sh, nima o‘ylab topding? – deb so‘radi Mittivoy.

– Yemakxonada kechqurun hech kimga ko‘rinmayman deb ont ichgansan-a? Shundaymi? Biroq ustingga adyol yopib olsang seni hech kim ko‘rmaydi.

– To‘g‘ri... Lekin... – deb e‘tiroz bildirmoqchi bo‘ldi Mittivoy.

– Hech qanday «lekini» yo‘q! – deb shartta uning gapini bo‘ldi Karlson. – Agar adyol yopinib olsang, adyolni ko‘rishadiyu, seni ko‘rishmaydi. Men ham adyol yopinib olaman, meni ham ko‘rishmaydi. Bu Betan uchun juda og‘ir jazo bo‘ladi. U shunchalik nodon ekanmi, endi o‘zidan ko‘rsin... Bechora Betan meni ko‘rolmaydigan bo‘ldi-da! Karlson karavotdan adyolni sidirib oldi-da, ustiga yopdi.

– Bu yoqqa kel, tezroq kelsang-chi, – deb chaqirdi u Mittivoyni. – Kel, mening chodirimga kir.

Mittivoy lip etib adyol tagiga kirdi, ikkovi ham xursand bo'lib, piqillab kulib yuborishdi.

— Axir, Betan yemakxonada chodir ko'rishni istamayman deb gapirgani yo'qdir. Chodirni ko'rganda hamma odamlar ham xursand bo'lishadi. Ayniqsa, ichida chiroq yonib tursa judayam sevinishadi! — Karlson fonarchasini yoqdi.

Betan chodirni ko'rib xursand bo'lishiga Mittivoy unchalik ishonmasdi. Biroq qorong'ida, adyol tagida Karlson bilan yonma-yon turish, fonarcha bilan yo'lni yoritish shunday mazza, shunday qiziqarli ediki, Mittivoy xursandligidan hamma narsani unutib yuborgandi.

Mittivoy Betanga xalaqit bermay, xonasida chodir tagida maza qilib o'ynasa bo'ladi, deb hisoblardi-yu, biroq Karlson ko'nmasdi.

— Adolatsizlikka hecham chidayolmayman, — dedi u. — Nima bo'lsa ham yemakxonaga kirishimiz kerak!

Mana, chodir eshik tomonga siljiy boshladi. Mittivoy Karlsonning orqasidan izma-iz borardi. Adyol tagidan kichkina-gina do'mboq qo'lcha chiqib sekin eshikni ochdi. Chodir qalin parda bilan to'silgan dahlizga chiqdi.

— Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! — deb pichirladi Karlson.

Chodir asta dahlizdan o'tdi-da, parda oldida to'xtadi. Betan bilan Pelling g'o'ng'illab gaplashganlari endi ancha aniq eshilib turardi-yu, lekin baribir so'zlarini anglab olish qiyin edi. Betan bilan Pelle ga ko'chadan tushib turgan yorug'lik yetarli bo'lsa kerak. Yemakxonadagi chiroq o'chirib qo'yilgan edi.

— Bu juda yaxshi bo'ldi, — deb shivirladi Karlson. — Qorong'uda fonarchamning nuri yana ham yorug'roq bo'ladi.

Lekin u har ehtimolga qarshi hozircha fonarchasini o'chirib qo'ydi.

— Biz ular sira kutmaganda, to'satdan, lop etib kirib boramiz... — Karlson adyol tagida qiqirlab kuldi.

Chodir pardani asta-sekin surib yemakxonaga kirdi. Betan bilan Pelle ro'paradagi kichkina divanda o'tirishardi. Chodir ularning oldiga sekin yaqinlasha bordi.

— Men hozir seni o'paman, Betan, — Mittivoy bolalarnikiday ingichka ovozni eshitdi.

Bu Pelle juda g'alati ekan-ku!

– Mayli, – dedi Betan, keyin yana jimlik cho'kdi. Chodirning qora soyasi polda tovushsiz sirg'alib borardi, divanga atigi bir necha qadam qolgandi, biroq Betan bilan Pelle hech nimani sezishmay miq etmay o'tirishardi.

– Endi sen meni o'pgin, Betan, – Pellening qo'rqa-pisa gapirgani eshitildi.

Biroq javob eshitilmadi, chunki xuddi shu payt fonarcha birdan yonib, Pellening yuzini yoritdi. Pelle o'rnidan sapchib turdi, Betan qichqirib yubordi. Biroq shu zahoti qattiq kulgi va dahliz tomonga ketayotgan oyoq tovushlarining dupur-dupuri eshitildi.

Yorqin nurdan ko'zlari qamashgan Betan bilan Pelle hech nimani ko'risholmasdi, biroq ular parda orqasidan chiqayotgan kuchli qahqahani eshitishdi.

– Bu bezori ukamning ishi, – dedi Betan. – Hozir bir ta'zirini berib qo'yayki!

Mittivoy bo'lsa qotib-qotib kulardi.

– Bo'lmasam-chi, u seni albatta o'padi, – deb qichqirdi u. – Nega endi seni o'pmas ekan?! Betan hammani ham o'paveradi, bu aniq.

Keyin gursillagan tovush eshitildi, unga yana qahqaha ulanib ketdi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – deb shivirladi Karlson, qochayotganlarida qoqilib, polga gursillab yiqilib tushishganda.

Mittivoy o'zini tutishga urinib kulgisini arang tiydi. Karlson uning ustiga yiqilib tushdi. Mittivoy o'z oyoqlarini Karlsonning oyoqlaridan ajratolmay qoldi. Betan ularni bemalol ushlab olishi mumkin edi, shuning uchun emaklab qochishga majbur bo'lishdi. Betan endi ushlayman deganda, ular jonholatda Mittivoyning xonasiga o'zlarini urishdi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – deb shivirladi Karlson adyol tagida, uning kichkina, kalta oyoqchalari xuddi nog'ora tayoqchasiday polda do'pirlab yurardi. – Tomda yashovchi Karlson dunyodagi eng zo'r chopog'on, – deb qo'shimcha qildi u nafasini rostlab.

Mittivoy ham juda tez chopa olardi, hozir ayni xonasi edi. Ular Betan ostonaga yetganda eshikni shartta yopib, arang qutulib qolishdi. Karlson shosha-pisha kalitni buradi-yu, xursand bo'lib

kulib yubordi. Betan bo'lsa kuchining boricha eshikni do'pillatib taqillatardi.

– Shoshmay tur, Mittivoy, hali qo'limga tusharsan! – deb qichqirdi Betan jahli chiqib.

– Har holda, meni hech kim ko'rgani yo'q-ku! – deb javob berdi Mittivoy eshik orqasidan. Betanning qulog'iga yana kulgi eshitildi.

Agar Betan bunchalik xunob bo'lmaganida, bir emas, ikki kishi kulayotganini eshitgan bo'lardi.

### KARLSON GAROV O'YNADI

**B**ir kuni Mittivoy maktabdan peshonasi g'urra bo'lib, jahli chiqib keldi. Oyisi oshxonada edi. Mittivoyning peshonasidagi g'urrani ko'rib, oyisi unga achindi.

– Bechora Mittivoy, peshonangga nima qildi? – deb so'radi oyisi uni quchoqlab.

– Krister tosh bilan tushirib qoldi, – deb javob qildi Mittivoy, qosh-qovog'i osilib.

– Tosh bilan? Voy, yaramas bola ekan-ku, u! – dedi oyisi jahl bilan. – Nega menga darrov aytmadings?

Mittivoy yelkasini qisdi:

– Nima foydasi bor? Siz tosh otolmaysiz-ku, axir. Siz toshni hatto saroy devoriga ham tekkizolmaysiz-ku.

– Voy, tentag-ey! Nahotki meni Kristerga tosh otadi deb o'ylasang?

– Unga boshqa nima otishingiz mumkin? Har holda, toshdan tuzukroq boshqa narsa topolmaysiz.

Oyisi xo'rsinib qo'ydi. Xonasi kelganda birgina Krister emas, hamma bolalarning ham tosh otishi ma'lum edi. Uning erkatoyi, arzandasi ham ulardan qolishmaydi. Moviy ko'zlari mehr bilan boquvchi shu yoqimtoy bola nahotki urishqoq bo'lsa?

Menga qara, nima, urishmasdan o'ynasa bo'lmaydimi? Har qanday narsa haqida urush-janjalsiz, do'stona kelishib olsa bo'ladi-ku. Bilasanmi, Mittivoy, agar o'ylab ish tutilsa, dunyoda kelishib bo'lmaydigan narsa yo'q.

– Yo‘q, oyijon, kelishib bo‘lmaydigan narsalar bor. Mana, masalan, men ham kecha Krister bilan urishgan edim...

– Bekor qilibsan-da, – dedi oyisi. – Sizlar mushtlashmasdan, shunday tinchgina kelishib olishlaring mumkin edi.

Mittivoy oshxonadagi stulga o‘tirib, yorilgan boshini changal-lab oldi.

– Nima? Siz shunday deb o‘ylaysizmi? – deb so‘radi u va oyisiga xo‘mrayib qarab qo‘ydi. – Krister menga: «Seni do‘pposlashim mumkin», dedi. U xuddi shunday dedi. Men unga: «Yo‘q, do‘pposlayolmaysan», dedim. Qani, ayting-chi, jan-jalni siz aytganday hech qanaqa mushtlashishsiz – gap bilan hal qilishimiz mumkin edimi?

Oyisi nima javob qilishini bilmay qoldi-yu, pand-nasihatini yig‘ishtirdi. Uning urishqoq o‘g‘li tumshayib o‘tirardi, oyisi sho-sha-pisha uning oldiga bir chashka issiq qahva bilan yog‘li shirin bulochka qo‘ydi.

Mittivoy yog‘li shirin bulochkani juda yaxshi ko‘rardi. Hali zinadan chiqib kelayotganidayoq endigina pishirilgan bulochka-ning totli hidi dimog‘iga urilgandi. Oyisining pishirgan shirin bulochkasini yesa hamma xafaliklari tarqalib ketardi.

U oyisidan minnatdor bo‘lib, bulochkadan bir tishladi. U og‘zidagisini chaynab yutgunicha, oyisi peshonasidagi g‘urrasiga plastir yopishtirib qo‘ydi. Keyin og‘riyotgan joyini avaylabgina o‘pdi-da:

– Xo‘sh, bugun Krister bilan nima talashdilaring? – deb so‘radi.

– Krister bilan Gunilla, tomda yashovchi Karlson haqidagi hamma gaping yolg‘on, o‘zing to‘qib chiqargansan deyishyapti.

– Chindan ham shunday emasmi? – deb so‘radi oyisi ehti-yotlik bilan.

Mittivoy boshini ko‘tardi-da, oyisiga o‘qrayib qarab qo‘ydi.

– Hatto siz ham gaplaringa ishonmayapsiz-a? – dedi u. – Men Karlsondan, sen chindan ham bormisan, xayoliy emasmisan, deb so‘radim...

– Xo‘sh, u nima deb javob qildi? – deb qiziqib so‘radi oyisi.

– U, agar men xayoliy bo‘lsam, dunyoda eng zo‘r xayollardan bo‘lardim, deydi. Lekin gap shundaki, u xayoliy

emas, – Mittivoy yana bitta bulochkani oldi. – Karlson, aksincha, Krister bilan Gunillaning o'zlari xayol deyapti. «Xayol bo'lgandayam juda bema'ni, bachkana xayol», deydi u. Men ham shunday deb o'ylayman.

Oyisi hech nima demadi, chunki hozir Mittivoyning xayollariga e'tiroz bildirishning foydasi yo'qligini u yaxshi tushunardi.

– Menimcha, – dedi oyisi nihoyat. – Sen yaxshisi Gunilla va Krister bilan ko'proq o'ynab, Karlson haqida kamroq o'ylagin.

– Karlson har holda menga tosh otmaydi-yu, – deb to'ng'illadi Mittivoy va peshonasidagi g'urrani ushlab qo'ydi. U to'satdan nimanidir esladi-da, oyisiga kulimsirab qo'ydi. – Ha, sal bo'lmasa aytish esimdan chiqayozibdi, bugun Karlsonning uyini ko'raman.

Lekin shu zahoti buni aytganiga pushaymon bo'ldi. Axir, oyisiga bunaqa gapni aytib bo'ladimi, bu ahmoqlik-ku!

Biroq Mittivoyning bu gaplari, uning Karlson haqidagi boshqa gaplariga qaraganda oyisiga xavfli va tashvishli bo'lib tuyulmadi. Shuning uchun ham oyisi:

– Ha, mayli, juda qiziq bo'lsa kerak, – dedi beparvogina. Agar oyisi Mittivoyning gaplarining ma'nisiga yetganda hecham xotirjam, betashvish o'tirolmasdi, albatta. Axir, Karlsonning qayerda yashashligini bir o'ylab ko'ring-a!

Mittivoy stol yonidan qorni to'yib, juda xursand bo'lib turdi. Peshonasidagi g'urra endi og'rimasdi, yog'li shirin bulochkaning ta'mi og'zida qolgandi, yemakxona derazasidan quyosh nuri tushib turardi, oyisi ham katak-katak peshbandida juda mehribon, dilbar ko'rindi.

Mittivoy oyisining oldiga keldi-da, uning semiz, lo'ppi qo'lini cho'lp etib o'pdi-da:

– Oyijon, sizni shunday yaxshi ko'ramanki, – dedi.

– Men juda xursandman, – dedi oyisi.

– Ha... Sizni yaxshi ko'raman, chunki juda mehribonsiz.

Keyin Mittivoy xonasiga kirib, Karlsonni kuta boshladi. Ular bugun ikkovi birgalashib tomga chiqishlari kerak edi. Agar Karlson Krister aytganidek, shunchaki bir xayol bo'lsa, Mittivoy hech vaqt uning tomiga chiqolmagan bo'lardi.

«Men oldingga soat taxminan uch-to'rt yoki beshlarda uchib kelaman, lekin har holda soat oltidan oldin uchrasholmasak kerak», dedi unga Karlson.

Mittivoy uning qachon kelishini aniq bilolmadi, shuning uchun takror so'radi.

«Har holda yettidan kech qolmayman, biroq soat sakkizdan oldin kelolmasam kerak... Meni soat to'qqizlarda, soat bong ur-gandan keyin kutgin».

Mittivoy judayam uzoq kutdi, oxiri unga Karlson chindan ham yo'qdek tuyula boshladi. Mittivoy, Karlsonning shunchaki xayol ekanligiga endi ishonay deb turganida, birdan o'sha tanish guvillagan tovush eshilib qoldi-yu, xonaga xursand va tetik Karlson uchib kirdi.

– Judayam kuttirib qo'yding-ku, – dedi Mittivoy. – Soat nechada kelaman deb va'da beruvding?

– Men taxminan aytuvdim, – deb javob qildi Karlson. – Xuddi aytganim bo'ldi: taxminan keldim-da.

U Mittivoyning akvariumi oldiga keldi. Unda ola-bula baliqchalar suzib yurishardi. Karlson yuzini suvga botirdi-da, qo'lgillatib icha boshladi.

– Ehtiyot bo'li! Baliqchalarim bor! – deb qichqirdi Mittivoy. U Karlson bilmasdan baliqchalarimni yutib yuboradi deb qo'rqqandi.

– Odamni isitmasi bo'lganida ko'p suv ichishi kerak, – dedi Karlson. – Agar u ikki-uch yoki to'rtta baliqchani yutib yuborsa ham hech nima qilmaydi, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku.

Nima, isitmang bormi? – deb so'radi Mittivoy.

– Iye, bo'lmasa-chi! Ushlab ko'r. – U Mittivoyning qo'lini peshonasiga bosdi.

Biroq Mittivoyga uning peshonasi issiq tuyulmadi.

– Issig'ing qancha? – deb so'radi Mittivoy.

– O'ttiz-qirq gradus, kam emas!

Mittivoy yaqindagina qizamiq bilan og'rigandi, issig'i baland bo'lish nimaligini juda yaxshi bilardi. U shubhalanib bosh chay-qab qo'ydi:

– Yo'q, meningcha, sen kasal emassan.

– Iye, sen juda yaramas ekansan-ku! – deb qichqirdi Karlson yer depsinib. – Nima, boshqa odamlardek kasal bo'lishim mumkin emasmi?

– Sen kasal bo'lishni istaysanmi? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

– Bo'lmasam-chi, albatta-da. Hamma odamlar ham kasal bo'lishni xohlashadi! Isitmam ko'tarilib, ko'rpa-to'shak qilib yotishni istayman. Sen holimdan xabar olgani kelasan. Men dunyoda eng og'ir kasalman deyman. Sen, nima olib kelay deb so'raysan. Menga hech nima kerakmas, deb javob beraman. Kattakon tort, bir necha quti pecheniy, bir uyum shokolad va bir qop konfetdan boshqa hech nima kerakmas deyman!

Karlson Mittivoyga umid bilan qarab qo'ydi, biroq Mittivoy Karlson aytgan narsalarni qayerdan olishini bilmay, boshi qotganicha hayron bo'lib turardi.

– Sen menga o'z onamday bo'lishing kerak, menga achchiq dori ichirmoqchi bo'lasan, agar shu dorini ichsang, besh ere beraman deb va'da qilasan. Bo'ynimga issiq sharf bog'laysan. Men, sharf qichityapti deb tixirlik qilaman, lekin yana besh ere berishingni eshitib mayli, bo'ynimdan olib tashlamayman, deb va'da beraman.

Mittivoy Karlsonga o'z onasi o'rnida bo'lishni judayam istardi, lekin bu bor pulini xarj qilish degan so'z edi. Pul yig'ilgan chiroyli qutichasi kitob javonida turardi. Mittivoy oshxonaga kirib pichoq olib chiqdi-da, shu pichoq bilan qutichadan tangalarini birma-bir ola boshladi. Karlson unga jondildan yordam berar va polga tanga yumalab tushganida o'zida yo'q sevinardi. O'n va yigirma besh erelik tangalar ham bor edi, lekin Karlson ko'proq besh erelik tangalarga xursand bo'lardi.

Mittivoy uylarining yonidagi do'konga borib, hamma puliga obaki, shirali yong'oq va shokolad olib keldi. U sotuvchiga hamma pulini berganidan keyin, bu pullarni it sotib olish uchun to'plaganini eslab, xo'rsinib qo'ydi. Biroq Karlsonga ona bo'lmoqchi ekan, it sotib olishdek ortiqcha xarajatga yo'l qo'yolmaydi.

Mittivoy cho'ntaklariga shirinliklar to'ldirib uyga qaytib kelib qarasa, yemakxonada oyisi, dadasi, Betan va Bosse tushki ovqat-

dan keyin qahva ichib o'tirishibdi. Biroq Mittivoyning ular bilan o'tirishga vaqti yo'q edi. Birdan uning xayoliga hammalarini xonasiga chaqirib Karlson bilan tanishtirish fikri keldi. Biroq, yaxshiroq o'ylab ko'rib, bugun bu ishni qilish mumkin emasligini tushundi, chunki ular uning Karlson bilan birga tomga chiqishiga xalaqit berishlari mumkin. Yaxshisi, tanishtirish marosimini boshqa kunga ko'chirish kerak.

Mittivoy vazadan chig'anoqqa o'xshash bodomli pecheniydan bir siqim oldi-da, o'z xonasiga kirib ketdi. Axir, Karlson pecheniy ham yaxshi ko'raman degandi-da.

– Meni shunchalik uzoq kuttirib qo'yding-a. Meni, shunday kasal va baxtsiz odamni-ya, – dedi Karlson ta'na qilib.

– Iloji boricha tez keldim, – deb o'zini oqlagan bo'ldi Mittivoy, – senga bir talay shirinlik olib keldim...

– Bitta ham tangang qolmadimi? Axir, sharf bo'ynimni qichitgani uchun besh ere olishim kerak-ku! – dedi Karlson Mittivoyning so'zini bo'lib.

Mittivoy, bir necha tanga olib qo'yganman, deb uni tinchitdi. Karlsonning ko'zlari o'ynab ketdi, xursand bo'lganidan turgan yerida dik-dik sakray boshladi.

– Voy, men dunyoda eng og'ir kasalman! – deb qichqirdi u. – Men tezroq o'ringa yotishim kerak.

Shu orada Mittivoy, axir, uchishni bilmasam, tomga qanday chiqaman, deb o'ylanib qoldi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – deb javob qildi Karlson. – Seni yelkamga o'tqizaman-u uchaman-ketaman. Faqat ehtiyot bo'lgin, barmoqlaring parrakka tegib ketmasin.

– Meni yelkangda ko'tarib, tomga uchib chiqishga kuching yetarmikin?

– U yog'i bir gap bo'lar, – dedi Karlson. – Shunday kasal, nochor holimda sen bilan yo'lning yarmini ham uchib o'tishga ko'zim yetmayapti, albatta. Biroq doim chorasi topiladi: agar tinkam quriyotganini sezsam, seni tashlab yuboraman...

Mittivoy, eng yaxshi chora o'zini yerga tashlab yuborish deb o'ylamasdi, lekin u baribir tashvish torta boshladi.

– Lekin, menimcha, hammasi joyida bo'ladi. Ishqilib motor buzilib qolmasa bo'lgani.

– Bordi-yu, ishlamay qolsa-chi? Unda ikkovimiz yiqilib tushamiz-ku! – dedi Mittivoy.

– Bo'lmasa-chi, albatta, yiqilamiz-da, – deb ma'qulladi Karlson, – biroq parvo qilma, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku! – dedi u qo'l siltab.

Mittivoy o'ylab turdi-da, ha, chindan ham bu arzimas narsa, deb qo'ydi ko'nglida.

U bir parcha qog'ozga oyisi va dadasiga xat yozdi-da, stol ustida qoldirdi: «Men tomda yashovchi Karlsonnikidaman».

Dadasi bilan oyisi bu xatni topib o'qiguncha uyga qaytib kelishga ulgursa yaxshi bo'lardi-ya, albatta. Biroq kelolmasa, uning qayerdaligini bilib qo'yishsin-da! Bir kuni Mittivoy qishloqda yashovchi buvisinikiga mehmonga borib, birdan poyezdga o'tirib, uyga qaytgisi kelib qolgandi. Yana o'shandagiday bo'lmasin.

O'shanda oyisi yig'lab turib unga:

«Mittivoy, poyezdda ketging kelgan ekan, nega menga bir og'iz aytmading?» – degandi.

«Chunki bir o'zim ketgim keluvdi», – deb javob qilgandi Mittivoy.

Mana hozir ham xuddi shunday bo'lyapti. U Karlson bilan tomga chiqmoqchi, shuning uchun yaxshisi oyisidan javob so'rab o'tirmagani ma'qul. Agar ular Mittivoy uyda yo'qligini payqab qolishsa, xat qoldirgandim-ku, deb o'zini oqlashi mumkin.

Karlson uchishga tayyor edi. U qornidagi tugmachani bosuvdi, motor gurillab ketdi.

– Qani, tezroq yelkamga chiq, – deb qichqirdi Karlson, – hozir uchib ketamiz.

Chindan ham ular oynadan uchib chiqishdi-da, balandga ko'tarila boshlashdi. Karlson motorni sinab ko'rish uchun shu uy yaqinidagi tom ustida bir aylandi. Motor bir tekisda, ravon ishlardi, shuning uchun ham Mittivoy zig'ircha qo'rqqani yo'q.

Nihoyat Karlson o'z tomiga qo'ndi.

– Qani, ko'raylik-chi, mening uyimni topa olarmikinsan. Uyimning qaysi mo'ri orqasida ekanligini aytmayman. O'zing qidirib top.

Mittivoy hech tomga chiqmagandi, lekin bir kishining belidagi arqonning bir uchini mo'riga bog'lab olib, tomdan qor kuraga-



nini ko'p ko'rgan. Mittivoyning unga havasi kelardi. Mana endi o'zi ham tomda yuribdi. Faqat arqon bilan mo'riga bog'langan emas, albatta. Lekin bir mo'ridan ikkinchisiga o'tayotganida yuragi shig'illab ketardi. U mo'rilardan bittasining orqasida chindan ham kichkina uychani ko'rib qoldi. Uycha chiroyligina bo'lib, deraza darchalari ko'm-ko'k, pillapoyasi kichkinagina edi.

Mittivoyning tezroq uyga kirgisi, hamma bug' mashinalarini, xo'rozlarning suratlarini va boshqa ajoyib narsalarni o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelardi. Bu uychada kim turishini hamma bilishi uchun, taxtacha qoqib qo'yilgandi. Mittivoy unda:

«Tomda yashovchi Karlson» degan so'zlarni o'qidi.

Karlson eshikni lang ochib: «Xush kelibsiz, aziz Karlson, sen ham Mittivoy!» — deb qichqirdi va uyga o'zi birinchi bo'lib kirdi.

— Men darrov yotishim kerak, chunki dunyodagi eng og'ir kasalman! — dedi u va devorga taqab qo'yilgan qizil divanga yotib oldi.

Mittivoy uyga uning orqasidan ketma-ket chopib kirdi. U uyni zo'r qiziqish bilan tomosha qila boshladi.

Karlsonning uyi juda saranjom-sarishta edi. Mittivoy buni darrov payqadi. Xonada yog'och divanchadan bo'lak yana dastgoh (u stol o'rnida ham ishlatilardi), shkaf, ikki stul, temir panjarali kamin ham bor edi. Unda Karlson ovqat pishirardi. Biroq bug' mashinalar negadir ko'rinmasdi. Mittivoy uyni uzoq ko'zdan kechirdi, lekin bug' mashinalarini topolmagach, sabri chidamay, oxiri:

— Bug' mashinalaring qani? — deb so'radi.

— Hmm... — deb ming'irladi Karlson, — bug' mashinalarimmi... Ular to'satdan portlab ketsa bo'ladimi? Ehtiyot klapanlari sabab bo'lgan, ha, faqat klapanlar, boshqa narsa bo'lishi mumkinmas. Ha, mayli, dunyoning ishlari shunaqa, xafa bo'lishgayam arzimaydi.

Mittivoy yana u yoq-bu yoqqa alanglab qaradi.

— Xo'sh, chizgan xo'rozlarning rasmi qani? Nima, ular ham portlab ketishdimi? — deb so'radi u istehzo bilan Karlsondan.

— Yo'q, ular portlagani yo'q, — dedi Karlson. — Mana, ko'r. — U shkaf yonida, devorga osib qo'yilgan bir parcha kartonni ko'rsatdi.

Kattakon karton qog'ozning faqat pastdagi burchagiga kichkinagina qilib xo'roz surati solingandi.

— «So'qqabosh xo'roz» deb ataladi bu surat, — deb tushuntirdi Karlson.

Mittivoy kichkinagina xo'roz suratini tomosha qila boshladi. Axir Karlson, xilma-xil xo'rozlar rasmi solingan minglab surat-

larim bor degandi-yu! Qani, o'sha suratlar? Ularning o'rniga xo'roznusxa qizil bir narsani ko'rsatib o'tiribdi-ya.

— Bu «So'qqabosh xo'roz» suratini xo'rozlarning rasmini chizishda jahonda eng zo'r rassom ishlagan, — deb so'zida davom etdi Karlson va ovozi biroz titrab ketdi. — Eh, suratni juda boplaganman-da, ko'rib yuraging ezilib ketadi! Lekin men hozir yig'lamayman, chunki ko'z yoshidan isitmam ko'tarilib ketadi... — Karlson o'zini yostiqqa tashladi-da, boshini changal-ladi. — Sen menga onamday bo'lmoqchi eding-ku, qani, hunar-ringni ko'rsat, — dedi u ingrab.

Mittivoy ishni nimadan boshlashni aniq bilmasdi, shuning uchun ikkilanib so'radi:

— Biror, dori-poring bormi?

— Ha, bor, lekin uni ichgim kelmayapti... Besh ereali tangang bormi?

Mittivoy cho'ntagidan tangani oldi.

— Bu yoqqa ber.

Mittivoy unga tangani berdi. Karlson uni shartta olib, mushti-ga yashirdi. Uning ko'rinishi ayyorona va mamnun edi.

— Bilasanmi, hozir qanaqa dori ichardim?

— Qanaqa? — deb qiziqib so'radi Mittivoy.

— Tomda yashovchi Karlson retsepti bo'yicha tayyorlangan «ko'ngilni aynitadigan dori» ichardim. Ozgina shokolad, ozgina konfet olasan-u o'shanga pecheniy qo'shasan, keyin ularni may-dalab, yaxshilab aralashtirasan. Dorini tayyorlab bo'lishing bilan darrov ichaman. Isitmaga juda foydasi bor.

— Ishonmayman, — dedi Mittivoy.

— Kel, bitta shokoladdan garov o'ynaymiz. Aytganim to'g'ri chiqadi.

Mittivoy oyim janjalni musht bilan emas, so'z bilan hal etish kerak, deb maslahat berganida xuddi shu narsani nazarda tut-gan bo'lsa kerak, deb o'yladi o'zicha.

— Qani, kel, garov o'ynaymiz! — deb qistadi Karlson.

— Bo'pti, — rozi bo'ldi Mittivoy.

U bitta shokoladni oldi-da, nimaga garov o'ynashganini ikkovi ham aniq bilishsin uchun dastgoh ustiga qo'ydi. Shundan keyin Karlson retsept bo'yicha dori tayyorlashga kirishdi. U piyolaga

bir necha dona obaki, o'shancha yong'oq tashladi, jindek shokolad qo'shdi, keyin hammasini tuydi-da, yaxshilab aralashtirdi. Keyin chig'anoqqa o'xshagan bodomli pecheniy aralashtirdi. Mittivoy bunaqa dorini umrida hech ko'rmagandi, lekin u juda ajoyib chiqdi. Bu dorini ichish uchun Mittivoyning o'zi ham birpas kasal bo'lishga rozi edi.

Karlson divanda tik turib, xuddi palapon qushchaday og'zini ochdi. Mittivoy bu «ko'ngilni aynitadigan dori»dan o'ziga atigi bir qoshiq olishga ham uyaldi.

– Og'zinga ko'proq solgin, – deb iltimos qildi Karlson. Mittivoy uning aytganini qildi. Keyin ikkovi o'tirishib,



Karlsonning issig'i tushishini kutishdi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas, Karlson:

– Sen haq ekansan, bu dorining isitmaga foydasi yo'q ekan. Qani, shokoladni ber-chi, dedi.

– Sengami? – dedi Mittivoy ajablanib. – Axir, garovda men yutdim-ku.

– Ha, to'g'ri, sen yutding, demak, o'zinga tasalli berishim uchun shokoladni olishim kerak. Bu dunyoda haqiqat yo'q ekan! Sen-chi, sen yaramas bola, isitmam tushmagani uchun shokoladni yemoqchisan.

Mittivoy istar-istamas shokoladni Karlsonga uzatdi. Karlson shokoladning yarmini og'ziga soldi-da, chaynab turib dedi:

– Namuncha qosh-qovog'ing osilib ketdi: boshqa safar, garovda men yutganimda shokoladni sen olasan.

Karlsonning jag'i bir zum tinmadi, hash-pash deguncha shokoladni yeb ham bo'ldi, keyin yostiqqa suyanib, og'ir xo'rsindi.

– Barcha kasallar qanchalik baxtsiz-a! Men bechoraga ham osonmas! Ha, mayli, dardimga davo bo'lishiga zarracha ishonmasam ham «ko'ngilni aynitadigan dori»dan ikki yutum ichishga to'g'ri keladi.

– Nega endi? Ikki yutumning senga yordam berishiga ishonaman. Kel, garov o'ynaymiz! – deb taklif qildi Mittivoy.

To'g'risini aytganda, endi Mittivoy ham jindek ayyorlik qilsa, gunoh bo'lmasdi. U Karlson «ko'ngilni aynitadigan dori»dan uch yutumni ichganda ham isitmasi tushishiga mutlaqo ishonmasdi, biroq Mittivoy bu gal garovda yutqazishni juda istardi! Yana bitta shokolad qolgandi, agar Karlson yutsa, bu gal shokolad Mittivoyga tegardi.

– Bo'pti, kel, garov o'ynaymiz! Qani, «ko'ngilni aynitadigan dori»dan ikki yutumni hozirlab qo'ygin. Isitmani tushirish uchun hech nimadan tap tortmaslik kerak. Biz endi hamma dori-darmonlarni ichib ko'ramiz-u natijasini chidam bilan kutamiz.

Mittivoy dorining ikki yutumini Karlsonning katta ochilgan og'ziga solib yubordi.

Keyin ular yana o'tirishdi-da, jimgina kutishdi.

Yarim daqiqadan keyin Karlsonning chehrasi yorishib, divandan sapchib turdi.



– Qoyil-e, mo'jiza bo'ldi! – deb qichqirdi u. – Issig'im pasaydi! Sen yana yutding. Qani, shokoladni cho'z.

Mittivoy xo'rsindi-da, oxirgi shokoladni Karlsonga berdi. Karlson unga o'qrayib qarab qo'ydi:

– Senga o'xshagan o'jarlar umuman garov o'ynamasliklari kerak. Menga o'xshagan odamlargina garov o'ynasa bo'ladi. Karlson yutadimi, yutqazadimi, doim bir xil, jilmayib turadi.

Oraga jimlik cho'kdi, bu orada Karlson shokoladni yeb ham bo'ldi. Keyin u:

– Sen shunchalik mazaxo'rak, mechkay ekansan, qolgan shirinliklarni yaxshilikcha bo'lishib olaylik. Konfetingdan qoldimi? – dedi.

Mittivoy cho'ntaklarini timirskilab qaradi.

– Mana, uchitasi qolibdi. – U shunday dedi-da, cho'ntagidan ikkita shirin yong'oq va bitta obaki konfet oldi.

– Uchtani teng qilib bo'lib bo'lmaydi, – dedi Karlson, – buni yosh bolalar ham bilishadi-ku. – U Mittivoyning kaftidagi obaki konfetni chaqqon oldi-da, yutib yubordi. – Mana endi bo'lsa bo'ladi, – deb davom etdi Karlson va qolgan ikki yong'oqqa ochko'zlik bilan qarab qo'ydi: ulardan bittasi sal kattaroq edi. – Men juda xushfe'l, kamtar bo'lganim uchun birinchi olgan odam doim kichkinasini olishi kerak deyman, – dedi Karlson va Mittivoyga o'qrayib qarab qo'ydi.

– Mittivoy bir zum o'ylanib qoldi, keyin darrov fahmlab:

– Mayli, men roziman, birinchi bo'lib sen olgin, – dedi.

– Ha, mayli, o'jarlik qilsang olganim bo'lsin! – deb qichqirdi Karlson keyin katta yong'oqni shartta olib, og'ziga soldi. Mittivoy kaftidagi yong'oqqa qarab qo'ydi-da:

– Menga qara, – dedi, – birinchi olgan odam kichkinasini olishi kerak, deb o'zing gapirding-ku, axir.

– Hoy, mazaxo'rak, mechkay bola, birinchi bo'lib tanlaganingda qaysi birini olarding?

– Shubha qilmasang ham bo'ladi, kichkinasini olardim, – dedi qat'iy Mittivoy.

– Xo'sh, nega endi kuyib-pishasan bo'lmasa? Hali ham kichkinasini olding-ku.

– Mittivoy, oyim janjalni musht bilan emas, so'z bilan hal qilish kerak deganlari shu bo'lsa kerak, deb yana bir bor o'yladi.

Biroq Mittivoy uzoq arazlab yurolmasdi. Buning ustiga u Karlsonning isitmasi tushganidan juda xursand edi. Karlson ham bu haqda eslab qoldi.

– Men dunyodagi hamma vrachlarga isitmaga qanday dori yordam berishini xabar qilaman, – dedi u, – «Tomda yashovchi Karlson retsepti bo'yicha tayyorlangan «ko'ngilni aynitadigan dori ichinglar», deb yozaman. «Isitmaga yordam beradigan dunyodagi eng yaxshi dori», deb yozaman.

Mittivoy o'zining yong'og'ini hali ham yegani yo'q. Yong'oq uning ko'zini o'ynatib, ishtahasini qitiqlab, kaftida o'zini ko'zko'z qilib yotardi. Mittivoy unga biroz qarab turgisi, huzur qil-

gisi keldi. Axir, konfetni og'zingga solsang, darrov erib ketadi-da.

Karlson ham Mittivoyning yong'og'iga qarab turardi. U anchagacha yong'oqdan ko'zini uzmadi, keyin engashib shunday dedi:

– Kel, yong'og'ingni o'zingdan bildirmay olib qo'yishdan garov o'ynaymiz.

– Yo'q, ololmaysan, chunki men uni kaftimga qo'yib, undan ko'zimni uzmayman.

– Bo'pti, kel garov o'ynaymiz, – dedi yana Karlson.

– Yo'q, – dedi Mittivoy. – Bilaman, men yutaman, keyin sen yana konfetni olasan.

Bu xilda garov o'ynashning noto'g'ri ekanligiga Mittivoyning ishonchi komil edi. Axir, u Bosse yoki Betan bilan garov o'ynaganida yutuqni yutgan odam olardi-da.

– Men garov o'ynayman-u, faqat eskicha, haqiqiychasiga o'ynayman, konfetni yutgan odam olsin.

– Ixtiyoring, nima desang shu, mechkay. Demak, garov o'ynaymiz-a: kaftingdagi yong'oqni olganimni sezmay ham qolasan.

– Bo'pti, – rozi bo'ldi Mittivoy.

– Fokus-pokus-filipokus! – deb qichqirdi Karlson va yong'oqqa shartta chang soldi. – Fokus-pokus-filipokus, – deb takrorladi u va yong'oqni og'ziga soldi.

– Shoshma! – deb qichqirdi Mittivoy. – Yong'oqni olganingni ko'rdim.

– Nimalar deyapsan! – dedi Karlson va shosha-pisha yong'oqni yutib yubordi. – Demak, sen yana yutibsan-da. Garovda bunchalik omadi kelgan bolani sira ko'rmovdim.

– Ha...lekin konfetni... – deb g'o'ldiradi Mittivoy sarosimaga tushib. – Axir, konfetni yutgan odam olishi kerak edi-ku.

– Ha-da, – tasdiqladi Karlson. – Lekin konfet yo'q bo'lib qoldi. Uni qaytarib berolmayman, deb garov o'ynashga tayyorman.

Mittivoy indamadi-yu, biroq kim haq, kim nohaqligini so'z bilan aniqlab bo'lmasligini, bu vosita hech to'g'ri kelmasligi-

ni o'ylab qoldi; u bu haqda oyisiga aytmoqchi bo'ldi. Mittivoy qo'lini bo'sh cho'ntagiga soldi. Buni qarang-a, cho'ntagida yana bir yong'oq qolibdi, avval sezmagan ekan. Katta, ajoyib yong'oq.

– Garov o'ynaymizmi, mening yana yong'og'im bor! Garov o'ynaysanmi, men hozir uni yeb qo'yaman, – dedi Mittivoy va chaqqonlik bilan yong'oqni og'ziga soldi.

Karlson o'tirib qoldi. U darrov xomush tortdi.

– Senga tuqqan onangday bo'laman deb va'da beruvding-ku, shirinliklarni nuqul o'zing yeyapsan. Sendaqa mechkay, ochko'z bolani hech ko'rmagandim!

U bir zum indamay o'tirdi, qovoq-tumshug'i battar osilib ketdi.

– Birinchidan, sharf bo'ynimni qitiqlagani uchun besh erelik tangani olganim yo'q.

– To'g'ri. Axir, bo'yingga sharf o'raganimiz yo'q-ku, – dedi Mittivoy.

– Nima, sharfim bo'lmasa men aybdormanmi! Agar sharf bo'lganda bo'ynimga albatta o'ragan bo'lardim, u bo'ynimni qi-chitgan bo'lardi, besh ereni albatta olgan bo'lardim... – Karlson Mittivoyga iltijo bilan qarab qo'ydi, ko'zlariga yosh oldi. – Sharfim yo'qligidan ozor chekishim kerakmi? Nima, seningcha, shu to'g'rimi?

Yo'q, Mittivoy buni noto'g'ri deb hisoblardi. Shuning uchun ham u o'zining oxirgi besh erelik tangasini tomda yashovchi Karlsonga berdi.

## KARLSONNING QILMISHLARI

—  o'sh, endi bir ko'ngilni yozaylik, – dedi Karlson bir zumdan keyin. – Kel, avval, to-ma-tom chopamiz, keyin nima qilishimizni o'ylab olamiz.

Mittivoy jon deb rozi bo'ldi. U Karlsonning qo'lidan ush-lab oldi, ikkovi tomga chiqishdi. Qosh qoraya boshlagan edi, tevarak-atrofdagi hamma narsalar ko'zga juda chiroyli bo'lib ko'rinardi: osmon xuddi bahor kunlaridagidek ko'm-ko'k edi; uylar g'ira-shira qorong'ilikda qandaydir sirli bo'lib ko'rinardi.

Pastda, Mittivoy ko'pincha o'ynaydigan bog' ko'karib ko'rinardi, hovlidagi baland-baland teraklardan ajoyib, o'tkir, xushbo'y hid taralardi.

Bugungi kecha ayni tomma-tom sayr qilish uchun yaratilgandek. Ochiq derazalardan xilma-xil tovush va g'ovur-g'ovur: allaqanday odamlarning pichirlashib gaplashishlari, bolalarning sho'x kulgisi-yu achchiq yig'isi eshitilardi; kimdir jaranglatib oshxonada idish-tovoq yuvardi; itlar vovullardi; pianinoning darang-durungi quloqqa chalinardi. Qayerdadir mototsikl tariladi. U o'tib ketgach, ot tuyoqlarining dukur-dukuri-yu arava g'ildiraklarining taraqa-turuqi eshitildi.

– Agar odamlar tomda yurish qanday maza ekanligini bilishsa, ular allaqachon ko'chalarda yurmay qo'yishardi, – dedi Mittivoy. – Bu yer juda maza-ya!

– Ha, biroq juda xavfli, – dedi darrov Karlson, – chunki yiqilib ketish hech gap emas. Men senga bir necha joyni ko'rsataman, pastga qarasang, yuraging orqangga tortib ketadi.

Uylar bir-biriga shunday yaqin, jips ediki, tomdan tomga bemalol sakrab o'tish mumkin edi. Bo'g'otlar, boloxonalar, mo'rilar tomdan juda g'alati bo'lib ko'rinardi.

To'g'ri, tomda yurish juda xavfli edi, pastga qarasang, boshing aylanib ketardi. Bir joyda, uylar orasida keng kovak bor ekan, Mittivoyning o'sha kovakka yiqilib tushishiga sal qoldi. Bir oyog'i bo'g'otdan sirg'alib tushganda, baxtiga Karlson qo'lidan ushlab qoldi.

– Xo'sh, qalay? – dedi Karlson Mittivoyni tomga tortib olarkan. – Mana shunaqa joylar haqida gapirgandim. Oldingga ketdikmi?

Biroq Mittivoyning yuragi gup-gup urib, ortiq yurgisi kelmay qoldi. Ular shunday xavfli joylardan yurishdiki, yiqilib ketmaslik uchun qo'l va oyoqlari bilan tirmashib olishdi. Karlson bo'lsa, Mittivoyga qiziqarli bo'lsin uchun jo'rttaga qaltis yo'llarni tanlardi.

– Menimcha, endi biroz ko'ngilxushlik qilsak ham bo'ladi, – dedi Karlson. – Men ko'pincha kechqurunlari tomda aylanib yurib, boloxonada turadigan odamlar bilan hazillashishni yaxshi ko'raman.

– Hazillashganing nimasi? – deb so‘radi Mittivoy.

– Har xil odamlar bilan har xil hazil qilaman. Bitta hazilni hech qachon ikki marta takrorlamayman. Qani, ayt-chi, dunyoda eng zo‘r hazilkash kim?

Birdan yaqin joyda chaqaloqning yig‘isi eshitildi. Mittivoy kimdir yig‘layotganini avval ham eshitgandi-yu, lekin sal o‘tmay yig‘i tingandi. Aftidan, chaqaloq birpas dam olganga o‘xshaydi, hozir yana yig‘isini boshladi. Qichqiriq eng yaqin boloxonadan eshitalardi, chaqaloqning yig‘isi juda mungli, ayanchli edi.

– Bechora bola! – dedi Mittivoy. – Balki uning qorni og‘riyotgandir.

– Hozir bilamiz-da, – dedi Karlson.

Ular boloxonaning derazasigacha karnizdan emaklab borishdi. Karlson boshini ko‘tarib, ehtiyotlik bilan xonaga qaradi.

– Bola bechoraning bitta o‘zini tashlab ketishibdi-ya, – dedi u. – Turgan gap, ota-onasi qayerlardadir sanqib yurishibdi.

Bola bechora big‘illab yig‘lardi.

– Xotirjamlik bo‘lsin, xotirjamlik! – Karlson o‘rnidan turdida, baqirib gapirdi. – Tomda yashovchi Karlson – dunyoda eng yaxshi enaga kelyapti.

Mittivoyning tomda yolg‘iz o‘zi qolgisi kelmadi. U ham Karlsonning orqasidan ketma-ket derazadan oshib tushdi. Tushishga tushdi-yu, chaqaloqning ota-onasi kelib qolsa, nima bo‘ladi, deb o‘yladi qo‘rquv aralash. Karlson bo‘lsa juda xotirjam, pinagini buzmasdi. U chaqaloqning karavoti yoniga keldida, yo‘g‘on barmog‘i bilan uning bag‘baqasini qitiqladi.

– Bidi-bidi-bidi! – dedi u erkalab, keyin Mittivoyga o‘girilib tushuntira ketdi. – Chaqaloqlar yig‘laganda doim shunday deyiladi.

Chaqaloq hayron bo‘lib, bir zum jimib qoldi, keyin yana yig‘lab yubordi.

– Bidi-bidi-bidi! – deb takrorladi Karlson, keyin: – Chaqaloqlarni yana mana bunday qilishadi... – deb qo‘shib qo‘ydi u chaqaloqni qo‘liga oldi-da, bir necha bor qattiq silkitdi.

Chaqaloqqa bu yoqdi shekilli, birdan yig‘idan to‘xtab, tishsiz og‘zini ochib kulimsiradi.

Karlson o‘zida yo‘q xursand edi.

– Chaqaloqni ovuntirish juda oson-da! – dedi u. – Dunyodagi eng yaxshi enaga...

Biroq uning gapi og'zida qoldi, chunki chaqaloq yana yig'lab yubordi.

– Bidi-bidi-bidi! – deb to'ng'illadi Karlson achchig'i chiqib va qizchani yana qattiqroq silkitdi. – Eshityapsanmi, yo'qmi? Bidi-bidi-bidi! Tushunarlimi?

Biroq qizcha battar chinqirib yig'lardi; Mittivoy unga qo'lini cho'zdi.

– Kel, uni men olay-chi, – dedi u.

Mittivoy kichkina bolalarni juda yaxshi ko'rardi, shuning uchun ham oyisi bilan dadasiga, menga singilcha olib beringlar, deb ko'p yalingan. Axir, ular it sotib olib berishga hech ko'nmaydilar-ku.

U Karlsonning qo'lidan yig'lab turgan chaqaloqni oldi-da, uni ko'ksiga bosdi.

– Yig'lama, jajji qiz! – dedi Mittivoy. – Shunday oppoq, shunday shirin qizsan-a...

Qizcha indamay qoldi, u Mittivoyga charaqlagan ko'zlarini tikdi-da, yana kulimsiradi, keyin allanimalar deb chug'ulladi.

– Unga bidi-bidi-bidi deganim ta'sir qildi, – dedi Karlson. – Bidi-bidi-bidi doimo shunaqa tez ta'sir qiladi. Men buni ming martalab sinaganman.

– Qiziq, uning oti nima ekan? – dedi Mittivoy va ko'rsatkich barmog'i bilan chaqaloqning yuzini silab qo'ydi.

– Gulfiya, – deb javob qildi Karlson. – Qizchalarga ko'pincha shu ismni qo'yishadi.

Mittivoy qizlarni «Gulfiya» deb chaqirishganini hech qachon eshitmagandi, lekin chaqaloqlarga qanday ism qo'yishni hech kim bilmaganda ham dunyodagi eng yaxshi enaga bilsa kerak, deb o'yladi.

– Jajji Gulfiya, qorning ochganga o'xshaydi-ya, – dedi Mittivoy. Chaqaloq uning barmog'ini so'rmoqchi bo'lib talpinayotganini ko'rib.

– Agar Gulfiyaning qorni ochgan bo'lsa, mana bu yerda kolbasa bilan kartoshka bor ekan, – dedi Karlson bufetga qa-

rab. — Karlsonning kolbasa va kartoshkasi bor ekan, dunyoda bitta ham chaqaloq ochdan o'lmaydi.

Biroq Mittivoy Gulfiyaning kolbasa bilan kartoshka yeyishiga ishonmasdi.

— Bunaqa chaqaloqlarga menimcha sut berishardi, shekilli, — deb e'tiroz bildirdi u.

— Demak, seningcha, dunyodagi eng yaxshi enaga bolalarga nima berish mumkin-u nima mumkinmas, bilmaydimi? — dedi Karlson jahli chiqib. — Lekin sen meniki to'g'ri, deb turib olsang, uchib borib sigir olib kelishim mumkin... — Karlson derazaga norozi bo'lib qaradi-da, qo'shib qo'ydi: — Faqat sigirni bu kichkina derazadan olib kirish ancha qiyin bo'ladi-da.

Gulfiya Mittivoyning barmog'ini ushlayman deb talpinar va hiqillab yig'lardi. Chindan ham qizchani qorni ochganga o'xshardi.

Mittivoy bufetni tekshirib ko'rdi, sut topolmadi: tarelkadagi uch bo'lak kolbasadan boshqa hech nima yo'q edi.

— Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! — dedi Karlson. — Sutni qayerdan topish mumkinligini esladim... Men bitta joyga uchib borib kelishim kerak... Xo'p, men tezda qaytaman! — U qorni-dagi tugmachani bosdi, hash-pash deguncha derazadan o'qday uchib chiqib ketganini Mittivoy sezmay ham qoldi.

Mittivoy juda qo'rqib ketdi. Karlson har galgiday bir necha soat yo'q bo'lib ketsa-ya? Chaqaloqning oyisi bilan dadasi qaytib kelib, Gulfiyani Mittivoyning qo'lida ko'rishsa-ya? Xo'sh, unda nima bo'ladi?

Biroq Karlson bu safar uni uzoq kuttirib qo'ymadi. U derazadan gerdayib uchib kirdi, qo'lida odatda chaqaloqlarni emizadigan emizg'ichli shishacha bor edi.

— Qayerdan olding? — deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

— O'sha, har doim sut olib yuradigan joyimdan-da, — deb javob qildi Karlson, — Ostermalm'dagi boloxonalarning biridan oldim.

— Nima, o'g'rilab keldingmi? — deb so'radi Mittivoy jahli chiqib.

— Uni... qarzga oldim.

---

<sup>1</sup> Ostermalm — Stokgolm chekkasidagi shaharlardan biri.

– Qarzga? Qarzingni qachon qaytarib bermoqchisan?

– Hech qachon!

Mittivoy Karlsonga o'qrayib qo'ydi. Karlson esa qo'lini siltab qo'ya qoldi:

– Parvo qilma... Kichkinagina bir shisha sut-a. O'sha uyda yashovchi oilada birdaniga uch bola tug'ilibdi, ularning boloxonasida, muz solingan chelakda bunaqa shishachalar to'lib-toshib yotibdi. Ular Gulfiya uchun ozgina sut olganimga qaytaga xursand bo'lishadi.

Gulfiya kichkina do'mboq qo'lchalarini shishaga cho'zib, sabrsizlik bilan labini cho'pillata boshladi.

– Hozir sutni isitaman, – dedi Mittivoy va Gulfiyani Karlsonga berdi. U yana bidi-bidi-bidi deb, chaqaloqni silkita boshladi.

Mittivoy bu orada elektr plitkani qo'yib, sutni isita boshladi.

Mana, oradan bir necha daqiqa o'tdi, Gulfiya o'z karavotchasiida maza qilib uxlab yotardi. Uning qorni to'q, kayfi chog'edi. Mittivoy uning atrofida yelib-yugurardi. Karlson bo'lsa karavotchani zo'r berib tebratar va baland ovozda:

– Bidi-bidi-bidi... Bidi-bidi-bidi... – deb o'zicha alla aytardi.

Biroq shunchalik shov-shuvga qaramay Gulfiya uxlab qoldi, chunki uning ham qorni to'ygandi, ham charchagandi.

– Endi bu yerdan ketishdan avval bir jinnilik qilaylik, – dedi Karlson.

U bufet oldiga keldi-da, kesilgan kolbasa solingan tarelkani oldi. Mittivoy angraygancha uning xatti-harakatini kuzatib turdi. Karlson tarelkadan bir bo'lak kolbasani oldi.

– Jinnilik qilishning nimaligini hozir ko'rasan. – Karlson kolbasa bo'lagini eshik dastasiga ilib qo'ydi.

– Birinchi nomer, – dedi u xursand bo'lib va boshini likillatib qo'ydi.

Keyin Karlson chiroyli oq chinni kaptar turgan shkafcha oldiga bordi-da, Mittivoy bir nima deyishga ulgurmasidanoq, kaptarning tumshug'iga kolbasa tishlatib qo'ydi.

– Ikkinchi nomer, – dedi Karlson. – Uchinchi nomerni Gulfiya oladi.

U tarelkadagi oxirgi kolbasa bo'lagini oldi-da, uxlab yotgan Gulfiyaning qo'lchasiga tutqazib qo'ydi. Bu chindan ham kulgili edi. Gulfiya o'rnidan turib, kolbasani o'zi olib, keyin qo'lida kolbasasi bilan uxlab qolgan, deb o'ylash mumkin edi.

Biroq Mittivoy toqati-toq bo'lib:

– O'tinaman, bunday qilmagin, – dedi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Karlson unga javoban. – Biz qizchanning ota-onasini kechqurunlari uydan ketmaslikka o'rgatib qo'yamiz.

– Nega endi? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

– Oyog'i chiqqan, kolbasani o'zi borib oladigan bolaning bir o'zini tashlab ketishga ularning yuraklari betlamaydi. Keyinchalik bu bola nimalarni olmaydi? Balki otasining ko'chaga taqib chiqadigan galstugini olgisi kelib qolar?

Karlson kolbasa Gulfiyaning jajji qo'lchalaridan tushib ketmasmikin deb tekshirib ham ko'rdi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi u gapida davom etib. – Nima qilishimni juda yaxshi bilaman. Axir, men dunyodagi eng yaxshi enagaman-ku.

Xuddi shu payt Mittivoy kimningdir zinapoyadan ko'tarilayotganini eshitib qoldi-yu, qo'rqqanidan o'rnidan sapchib turib ketdi.

– Ular kelishyapti! – deb shivirladi u.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Karlson va Mittivoyni deraza oldiga yetaklab bordi.

Mana, qulf teshigiga kalit solishdi. Mittivoy, bo'lar ish bo'ldi, qo'lga tushdik deb o'yladi. Lekin baxtiga ular tomga chiqib olishga ulgurishdi. Oradan bir zum o'tmay, eshik ochilib, Mittivoyning qulog'iga quyidagi so'zlar chalindi:

– Bizning do'mboq Susannamiz haliyam uxlab yotibdiya! – dedi ayol kishi.

– Ha, qizchamiz uxlab yotibdi, – dedi erkak kishi.

Biroq shu payt birdan qichqiriq eshitildi. Gulfiyaning dadasi bilan oyisi qizchanning qo'lidagi kolbasani ko'rib qolishgan bo'lsa kerak.

Mittivoy Gulfiyaning ota-onasi dunyodagi eng yaxshi enaganing qilmishlari haqida nimalar deyishini kutib o'tirmadi. Eng yaxshi enaga bo'lsa, ularning ovozi eshitishi bilanoq mo'rining orqasiga chaqqon yashirib oldi.

– Bezorilarni ko'rishni istaysanmi? – deb so'radi Karlson Mittivoydan, sal nafaslarini rostlab olishgach. – Boloxonalarimning birida ikki zo'r, ashaddiy bezorilar turishadi.

Karlson bezorilar haqida, go'yo o'zining xususiy mulki haqida gapirayotganday gapirardi. Mittivoy uning gapiga ishonmadi-yu, biroq baribir o'sha bezorilarni ko'rgisi kelib qoldi.

Karlson ko'rsatgan boloxona derazalaridan g'ovur-g'uvur, kulgi va qiyqiriq eshitilardi.

– Ho, ular kayfi-safo qilishyapti! – dedi Karlson. – Yur, nimanani ermak qilishayotganini borib ko'ramiz.

Karlson bilan Mittivoy yana bo'g'ot yoqalab emaklab ketishdi. Ular boloxonaga yetishganida, Karlson boshini ko'tarib derazaga qaradi. Derazaga parda osib qo'yilgandi. Biroq Karlson pardadan bir teshik topdi, o'sha teshikdan hamma narsa ko'rinardi.

– Bezorilarnikida mehmon bor ekan, – deb shivirladi Karlson.

Mittivoy ham teshikdan ichkariga qaradi. Xonada ko'rinishi bezoriga o'xshagan ikki odam bilan yuvosh, yoqimtoy yigit o'tirardi. Mittivoy bunaqa yigitlarni buvisining qishlog'ida ko'rgandi.

– Bilasanmi, bu yerda nima gap bor? – deb shivirladi Karlson. – Menimcha, bezorilarimning niyati buzuq, ular biror xunuk ish qilishmoqchi. Lekin biz ularga xalaqit beramiz... – Karlson teshikdan yana bir bor qaradi. – Garov o'ynaymanki, ular qizil galstuk taqqan yigit bechorani shilishmoqchi!

Bezorilar bilan galstuk taqqan yigit deraza oldidagi stolcha atrofida ovqatlanib o'tirishardi.

Bezorilar o'qtin-o'qtin mehmonning yelkasiga qoqib qo'yishar va:

– Seni uchratganimiz juda yaxshi bo'ldi-da, aziz Oskar! Shaharga birinchi bor kelganingda ochiqko'ngil, sodiq, samimiy, ishonchli do'stlar topging keladi. Qallob, firibgar odamlarning qo'liga tushib qolsang bormi, seni birpasda shilib ketishadi-da, – deyishardi.

Bezorilar uning gapini ma'qullashib, boshlarini likillatishardi.

– Bo'lmasam-chi, firibgarlarga yem bo'lish hech gap emas. Omading bor ekan, yigit, Fille bilan meni uchratib qolding.

– To'g'ri, Rulle bilan meni uchratib qolmaganingda, bilmadim, holing nima kechardi. Mana endi bemalol maishatingni qilaver, – dedi Fille ismli yigit va yana Oskarning yelkasiga qoqib qo'ydi.

Keyin Fillening bir ishini ko'rib, Mittivoy hang-mang bo'lib qoldi: Fille Oskarning shimining orqa cho'ntagiga qo'lini solib, hamyonini oldi-yu, ehtiyotlik bilan o'z shimining orqa cho'ntagiga solib qo'ydi.

Oskar hech nimani sezmay qoldi, chunki xuddi shu payt Rulle uni mahkam quchoqlab olgan edi. Rulle quchog'ini yozganda, uning qo'lida Oskarning soati paydo bo'ldi. Rulle soatni ham shimining orqa cho'ntagiga solib qo'ydi. Oskar buni ham sezmedi.

Biroq tomda yashovchi Karlson birdan semiz, do'mboq qo'lini parda tagiga ehtiyotlik bilan suqdi-da, Fillening cho'ntagidan hamyonni olib qo'ydi Fille ham hech nimani sezmedi. Keyin Karlson do'mboq qo'lini parda tagiga suqib, Rullening cho'ntagidan soatni oldi. Rulle Fille va Oskar yana bir martadan qadah ko'tarishib, u-bu yeyishib, biroz gaplashib o'tirgandan keyin, Fille cho'ntagiga qo'lini solib ko'rsaki hamyon yo'q. U Rullega g'azab bilan qaradi-da, shunday dedi:

– Menga qara, Rulle, yur, tashqariga bir chiqib kelaylik. Ikkovimiz gaplashib olishimiz kerak.

Xuddi shu payt Rulle ham qo'lini cho'ntagiga soldi, qarasaki, cho'ntagida soat yo'q. Endi u ham Fillega jahl bilan tikildi-da:

– Yur! Mening ham senga aytadigan gapim bor! – dedi. Oskar yolg'iz o'zi zerikib ketdi shekilli, yangi og'aynilari nima qilishayotganini ko'rgani dahlizga chiqdi.

Karlson derazadan lip etib sakrab tushdi-da, hamyonni chinni idishga solib qo'ydi. Fille, Rulle, Oskarlar sho'rvani allaqachon ichib bo'lishgandi, shuning uchun ham hamyon ho'l bo'lmadi. Soatni esa Karlson lampaga ilib qo'ydi. U shundaygina ko'rinadigan joyda yengil chayqalib turardi. Fille, Rulle va Oskar xonaga kirishlari bilan soatni ko'rishdi. Biroq Karlsonni payqashmadi, chunki u dasturxon yozilgan stol tagiga kirib olgandi. Mittivoy ham stol tagida edi. U qanchalik qo'rqmasin, Karlsonni bunday xavf-xatarda yolg'iz qoldirib ketishni istamadi.

– Qaranglar, soatim lampada osilib turibdi-ya, – dedi Oskar hayron bo‘lib. – Tavba, u yoqqa qanday chiqib qoldi?

U lampa oldiga borib, soatni oldi-da, kamzulining cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

– Iye, hamyonim kosada yotibdi, rost, qaranglar-a! – deb qichqirib yubordi yana Oskar, kosani ko‘rsatib. – Juda qiziq bo‘ldi-ku.

Rulle bilan Fille Oskarga hayron bo‘lib qarab qolishdi.

– Qishlog‘ingiz yigitlari uddaburon ko‘rinadi, bo‘sh kelishmaydi-ya! – deb xitob qilishdi ular baravariga.

Keyin Oskar, Rulle, Fillelar yana stol atrofiga o‘tirishdi.

– Azizim Oskar, – dedi Fille, – to‘yguningcha yeb-ichgin!

Ular yana yeb-ichishdi, bir-birlarining yelkalariga qoqishdi.

Birozdan keyin Fille dasturxonni sal ko‘tarib, Oskarning hamyonini stol tagiga tashlab yubordi. U hamyonni o‘zining cho‘ntagidan ko‘ra polda yaxshi saqlanadi, but turadi deb o‘ylagan bo‘lsa kerak. Biroq aksi bo‘lib chiqdi: stol tagida o‘tirgan Karlson hamyonni oldi-da, Rullening qo‘liga qistirdi. O‘shandan keyin Rulle:

– Fille, senga nisbatan noinsoflik qildim, sen olijanob odam-san, – dedi.

Oradan biroz vaqt o‘tgandan so‘ng, Rulle qo‘lini stol tagiga suqib, soatni polga qo‘ydi Karlson soatni oldi-da, Fillening qo‘liga tutqazdi. Endi Fille bunday dedi:

– Senday sodiq do‘st kam topiladi, Rulle!

Biroq shu payt Oskar baqirib qoldi:

– Hamyonim qani? Soatim qani?

O‘sha zahoti hamyon bilan soat stol tagiga qo‘yildi, chunki Oskar g‘alva ko‘tarsa Fille ham, Rulle ham qo‘lga tushishni istamasdi.

Oskarning qattiq jahli chiqib, narsalarimni qaytarib beringlar, deb turib oldi. Fille ham:

– Bema‘ni, hamyoningni qayoqqa qo‘yganingni men qayoqdan bilay, – deb baqirib qoldi.

Rulle bo‘lsa:

– Biz sening bir pulga qimmat soatingni ko‘rganimiz yo‘q! O‘zingga ehtiyot bo‘lmaysanmi, – deb qo‘shimcha qildi.

Shu payt Karlson poldan hamyon bilan soatni oldi-da, ikkovini ham Oskarning qo'liga tutqazdi. Oskar hamyon bilan soatini oliboq:

– Rahmat senga, azizim Fille, rahmat Rulle, boshqa bunaqa hazil qilmalaring! – deb xitob qildi.

Shu payt Karlson kuchining boricha Fillening oyog'iga musht tushirib qoldi.

– Shoshmay tur hali, bu qilig'ing uchun dodingni beraman, Rulle! – deb o'shqirdi Fille.

Karlson bu orada Rullening oyog'iga shunday qattiq urdiki, u og'riqdan dodlab yubordi.

– Nima balo, esingni yedingmi? Nega urasan? – deb qichqirdi Rulle.

Rulle bilan Fille stol yonidan turib, bir-birlarini do'pposlab ketishdi, hamma tarelkalar polga tushib, chil-chil bo'ldi. O'takasi yorilib ketgan Oskar hamyon bilan soatini cho'ntagiga soldi-yu, tiraqaylab qochib qoldi.

Shu-shu Oskar bu tomonlarga qadam bosmadi.

Mittivoyning ham esxonasi chiqib ketdi-yu, lekin qochib ketolmadi. Shuning uchun ham stol tagida qimir etmay o'tirdi.

Fille Rulledan baquvvatroq edi, u Rulleni o'lasi qilib urish uchun dahlizga sudrab olib chiqdi.

Paytdan foydalanib, Karlson bilan Mittivoy stol tagidan chaqqon chiqib olishdi. Karlson polda sochilib yotgan tarelka siniqlarini ko'rib, dedi:

– Hamma tarelkalar sinibdi-yu, lekin chinni qozoncha butun-a. Endi bu bechora yolg'izlikdan siqilsa kerak.

U shunday deb idishni kuchining boricha polga urdi.

Keyin Mittivoy ikkovi derazadan lip etib tomga chiqib olishdi.

Mittivoy Fille bilan Rullening uyga qaytib kirishganini, Fillening:

– Menga qara, nega endi hamyon bilan soatni qaytarib berding, nodon? – deb so'raganini eshitdi.

– Nima, jinni bo'ldingmi? – deb javob qildi Rulle. – Axir, sen berding-ku!

Karlson ularning urishganini eshitib, qotib-qotib kuldi.

– Ha, bugun shuncha o'ynaganimiz yetar! – dedi u xaxolab kularkan.

Mittivoy ham bugun rosa jinnilik qildi.

Mittivoy bilan Karlson bir-birlarining qo'llaridan ushlab, Karlson yashaydigan, mo'ri orqasiga yashiringan kichkina uycha tomon ketishganda qosh qoraygan edi. Ular Karlsonning uychasiga yetay deb qolishganda, ko'chadan o't o'chiruvchi mashinaning signal berib o'tganini eshitib qolishdi.

– Biror joyda yong'in chiqqanga o'xshaydi, – dedi Mittivoy.

Eshitdingmi, o't o'chiruvchilar o'tib ketishdi.

– Balki sening uyingdadir, – dedi umid bilan Karlson. – O't tushgan bo'lsa, menga darrov ayt. Ularga jon deb yordam bera-man, chunki men jahonda eng zo'r o't o'chiruvchiman.

Ular tomda turishib, o't o'chirish mashinasining eshik oldiga kelib to'xtaganini ko'rishdi. Mashinani odamlar o'rab olishdi. Biroq negadir yong'in ko'rinmasdi. Lekin baribir mashinadan to tomgacha xuddi o't o'chiruvchilarnikiga o'xshagan uzun narvon qo'yishdi.

– Balki, ular meni olib tushgani kelishgandir? – deb so'radi Mittivoy tashvish aralash, birdan uyda qoldirgan xatini eslab; axir, kun ancha kech bo'lib qolgandi.

– Hayronman, nega endi hammalari tipirchilab qolishdi. Nahotki sening tomda biroz aylanib yurishing bitta-yarimtaga yoqmagan bo'lsa? – dedi Karlson jahli chiqib.

– Ha, – dedi Mittivoy, – oyimga. Bilasanmi, oyimni asab-lari...

Mittivoy bu haqda o'ylarkan, oyisiga achinib tezroq uyga qaytgisi keldi.

– O't o'chiruvchilar bilan biroz hazillashsak yomon bo'lmasdi... – dedi Karlson.

Biroq Mittivoyning endi ko'ngilxushlik qilishga xohishi yo'q edi. U narvondan ko'tarilayotgan o't o'chiruvchining tomga yetib kelishini kutib, bir chekkada indamay turardi.

– Ha, mayli, – dedi Karlson, – bo'lmasa men ham yotib uxlay. To'g'ri, biz o'zimizni juda yaxshi, sipo tutdik, boshqalar bizdan ibrat olsa bo'ladi. Lekin ertalab isitmam o'ttiz-qirq darajadan kam bo'lmaganini unutmash kerak.

Karlson shunday dedi-yu, uychasiga chopib ketdi.

– Xayr, Mittivoy! – deb qichqirdi u.

– Xayr, Karlson! – deb qichqirdi unga javoban Mittivoy, narvondan tobora baland ko'tarilayotgan o't o'chiruvchidan ko'zini uzmay.

– Hoy, Mittivoy, – deb qichqirdi Karlson, mo'ri orqasiga yashirinmasdan avval, – bu yerda turishimni o't o'chiruvchilarga ayta ko'rma! Axir, men jahonda eng yaxshi o't o'chiruvchiman-ku, biror uyga o't tushsa, ular menga odam yuborishadi.

O't o'chiruvchi juda yaqin qolgandi.

– Joyingda qimirlamay tur! – deb buyurdi u Mittivoyga. – Eshityapsanmi, qimirlama deyaqman! Hozir chiqib, seni olib tushaman.

Mittivoy, o't o'chiruvchining bu mehribonchiligini ko'rib, meni ogohlantirishning hojati yo'q edi, deb o'yladi o'zicha. Axir, u kechqurun tomma-tom rosa yuradi, hozir esa narvonga o'zi bermalol kelishi mumkin edi.

– Sizni oyim yubordimi? – deb so'radi Mittivoy o't o'chiruvchidan, u Mittivoyni ko'tarib, pastga tushayotganda.

– Bo'lmasam-chi, albatta oying-da. Lekin ko'zingga tomda yana bir bola yurgandek ko'rnuvdi.

Mittivoy Karlsonning iltimosini eslab:

– Yo'q, bu yerda mendan boshqa bola yo'q edi, – dedi jiddiy. Oyisining asabi chindan ham chatoq edi. Oyisi, dadasi, Bosse, Betan va bir qancha begona odamlar ko'chada Mittivoyning tushishini kutib turishardi. Oyisi yugurib kelib Mittivoyni bag'riga bosdi; u ham yig'lar, ham kulardi. Keyin dadasi Mittivoyni ko'tarib bag'riga mahkam bosganicha uyga olib ketdi.

– Bizni juda qo'rqitib yubording-ku! – dedi Bosse.

Betan ham yig'lab yubordi, u ko'z yoshi aralash:

– Endi bunday qilmagin. Xo'pmi, Mittivoy, hecham bunaqa qilmagin, – dedi.

Mittivoyni o'sha zahotiyoq karavotga yotqizishdi, uydagilarning hammasi, go'yo bugun uning tug'ilgan kunidek, atrofida parvona bo'lishardi. Biroq dadasi:

– Nahotki bizni xavotir oladi deb o'ylamading? Nahotki, oyingni o'takasi yorilib ketishini, kuyib-pishishini, yig'lashini bil-mading? – dedi jiddiy ohangda.

Mittivoy ko'rpasida g'ujanak bo'lib oldi.

– Nega endi tashvishlandinglar? – deb ming'illadi u.

Oyisi uni mahkam quchoqladi.

– Gapingni qara-yu! – dedi oyisi. – Tomdan yiqilib tushganingda nima bo'lardi? Sendan ajrab qolganimizda nima bo'lardi?

– Xafa bo'larmidinglar?

– Sen nima deb o'ylovding? – dedi oyisi. – Dunyodagi bor boyliklarga ham seni alishmasmiz. Buni o'zing ham yaxshi bilasan.

– Yuz ming million kron berishsa ham ko'nmasmidingiz? – deb so'radi Mittivoy.

– Ha, yuz ming million kronga ham rozi bo'lmasdik.

– Demak, men shunchalik qimmat turarkanman-da? – dedi Mittivoy hayron bo'lib.

– Albatta-da, – dedi oyisi uni yana bir bor quchoqlab. Mittivoy o'zicha o'ylay boshladi: yuz ming million kron ozmuncha pulmi, bir qop bo'ladi-ya! Nahotki u shunaqa qimmat tursa?

Axir, kuchukchani, chinakam chiroyli kuchukchani atigi ellik kronga sotib olsa bo'ladi-ya...

– Menga qarang, dada, – dedi to'satdan Mittivoy, – agar men chindan ham yuz ming million kron tursam, hozir menga ellik kron bermaysizlarmi? Kuchukcha sotib olardim.

## KARLSONNING «ARVOH-ARVOH» O'YNAGANI

rtasi kuni, tushki ovqat mahalida oyisi bilan dadasi Mittivoydan, tomga qanday qilib chiqib olding, deb so'rashdi.

– Nima, chordoqdagi tuynukdan chiqib oldingmi? – deb so'radi oyisi.

– Yo'q, men tomda yashovchi Karlson bilan birga uchib chiqib oldim, – dedi Mittivoy.

Oyisi bilan dadasi bir-birlariga qarab qo'yishdi.

– Yo'q, bunga ortiq chidab bo'lmaydi! – dedi oyisi. – Bu Karlson degani meni jinni qiladigan bo'ldi-da!

– Menga qara, – dedi dadasi, – tomda yashovchi Karlson deganing shunchaki bir gap, yo'q narsa.

«Yo'q narsa emish!» – deb takrorladi Mittivoy. – Kecha u har holda bor edi.

Oyisi tashvish bilan bosh chayqab qo'ydi:

– Yaxshiyamki, hademay ta'tilga chiqasan-u buvingnikiga jo'naysan. U yoqqa Karlson izingdan bormas deb o'ylayman.

Bu ko'ngilsizlik haqida Mittivoy o'ylamagan ham edi. Axir, uni yaqinda butun yozga, qishloqqa – buvisining oldiga jo'natishadi-ku! Demak, u Karlsonni ikki oy ko'rmaydi. To'g'ri, yozda buvisinikida maza qilib dam olsa bo'ladi, biroq Karlson-chi... Mittivoy qishloqdalgida Karlson bu tomdan ketib qolsa-chi?

Mittivoy tirsagini stolga suyaganicha, boshini changallab o'tirardi. U Karlsonsiz yashashini sira tasavvur etolmasdi.

– Nima, tirsakni stolga qo'yish mumkin emasligini bilmaysanmi? – deb so'radi Betan.

– Yaxshisi, o'zingga qarasang-chi! – dedi Mittivoy g'ijinib.

– Mittivoy, tirsagingni stoldan ol, – dedi oyisi. – Senga gulkaram olib beraymi?

– Yo'q, karam yegandan ko'ra ochimdan o'lganim ma'qul!

– Iye! – dedi dadasi xo'rsinib. – Bu nima gap, «yo'q, rahmat» deyish kerak.

«Yuz ming million kron turadigan bolaga nega hadeb buyruq qilishaveradi», deb o'yladi Mittivoy o'zicha, lekin bu haqda gap ochmadi.

– Axir, o'zingiz yaxshi bilasiz-ku, «gulkaram yegandan ko'ra ochimdan o'lganim ma'qul» deganim, «yo'q, rahmat» deganimda, – deb tushuntirdi u.

– Tarbiya ko'rgan odamlar bunaqa demaydi, – dedi dadasi. – Axir, sen odobli, qobil yigit bo'lmoqchisan-ku.

– Yo'q, dada, men sizday bo'lmoqchiman, – dedi Mittivoy. Oyisi, Bosse, Betan xaxolab yuborishdi.

Mittivoy ularning nega kulishganini tushunmadi, dadamdan kulishyapti deb o'yladi. Bunga sira chidab turolmadi.

– Ha, sizga o'xshamoqchiman, dada. Siz juda yaxshisiz! – dedi Mittivoy dadasiga tikilib turib.

– Rahmat, o'g'lim, – dedi dadasi. – Nima, chindan ham gulkaram yeging yo'qmi?

– Yo'q, gulkaram yegandan ko'ra, ochdan o'lgan ma'qul!

– Axir, u juda foydali-ku, – dedi oyisi xo'rsinib.

– Ovqat qancha bemaza bo'lsa, – dedi Mittivoy, – shuncha foydali bo'ladi, shekilli. Men shuni bilmoqchi edim, nega endi hamma vitaminlar bemaza ovqatda bo'ladi?

– Vitaminlar shokoladda va saqichda bo'lishi kerak, albat-ta, – dedi Bosse kalaka qilib.

– Keyingi vaqtlarda aytgan eng aqlli gaping shu bo'ldi-da, – dedi Mittivoy jerkib.

Tushki ovqatdan keyin Mittivoy xonasiga kirib ketdi. U Karlsonning uchib kelishini sabrsizlik bilan kutardi. Axir, Mittivoy hademay qishloqqa jo'nab ketadi, shuning uchun ham ular tez-tez uchrashib turishlari kerak.

Aftidan Karlson Mittivoyning sabrsizlik bilan kutayotganini sezgan bo'lsa kerak: Mittivoy derazadan shunday qarashi bilan Karlson uchib kelib qoldi.

– Bugun isitmang yo'qmi? – deb so'radi Mittivoy.

– Mendami? Isitmang nimasi? Menda hech qachon isitma bo'lmaydi! Boyagi shunchaki o'z-o'zini ishontirish edi.

– Isitmam bor deb o'zingni o'zing ishontirdingmi? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

– Yo'q, isitmam bor deb seni ishontirdim, – dedi Karlson xursand bo'lib va xaxolab kulib yubordi. – Qani, top-chi, dun-yoda eng zo'r lofchi kim?

Karlson joyida bir zum tek turmasdi. Gaplasharkan, xonada u yoqdan-bu yoqqa tinmay yurar, to'g'ri kelgan narsani ushlab ko'rar, yashiklarni birma-bir ochib-yopar va har bir narsani sin-chiklab ko'zdan kechirardi.

– Yo'q, bugun hecham isitmam yo'q. Bugun otdayman, sal ko'ngilxushlik qilmoqchiman.

Mittivoyning ham o'ynagisi bor. Biroq u, avval dadasi, oyisi, Bosse va Betan Karlsonni ko'rishlarini istardi. Mittivoy ularning Karlson hayoliy narsa deyishlarini boshqa eshitgisi kelmasdi.

– Meni birpas kutgin, – dedi Mittivoy shosha-pisha, – hozir kelaman.

U oshxona tomonga g'izillab chopib ketdi. Bosse bilan Betan uyda yo'q edi, bu Mittivoyga juda alam qildi. Xayriyatki, oyisi

bilan dadasi kamin oldida o'tirishgan ekan. Mittivoy hayajonlanib dedi:

– Oyi, dada, tezroq mening xonamga kiringlar!

U hozircha Karlson haqida hech nima demaslikka qaror qildi. Oyisi bilan dadasi Karlsonni to'satdan ko'rishsa yaxshi bo'ladi.

– Balki biz bilan birga o'tirarsan? – dedi oyisi. Biroq Mittivoy oyisining qo'lidan tortdi.

– Yo'q, sizlar mening xonamga borishlaring kerak. U yerda bir narsani ko'rasizlar...

Mittivoy axiri ularni ko'ndirdi. Dadasi bilan oyisi Mittivoyga qo'shilib uning xonasiga ketishdi. Mittivoy xursand bo'lib xonasining eshigini lang ochib yubordi – nihoyat ular Karlsonni ko'rishadi!

Biroq esankirab qolgan Mittivoyning yig'lab yuborishiga sal qoldi. Xonasida hech kim yo'q edi. U bir gal butun oilasini Karlson bilan tanishtiraman deb olib kelganida ham xonasida hech kim bo'lmagandi.

– Xo'sh, biz bu yerda nimani ko'rishimiz kerak? – deb so'radi dadasi.

– Nima bo'lardi... hech nimani... – deb g'o'ldiradi Mittivoy. Uning baxtiga telefon jiringlab qoldi. Dadasi telefonda gaplashgani ketdi, oyisi duxovkada shirin pirog borligini eslab qoldi-yu, shosha-pisha oshxonaga chiqib ketdi. Xullas, bu gal Mittivoy ularga tushuntirib o'tirmadi.

Mittivoy yolg'iz o'zi qolgach, deraza oldiga borib o'tirdi. Karlsondan juda xafa bo'ldi, agar u uchib kelguday bo'lsa, ko'nglidagi bor gapni to'kib solishga ahd qildi.

Biroq hech kim uchib kelmadi. Buning o'rniga shkaf eshigi ochildi-yu, Karlsonning makkorona basharasi ko'rindi.

Mittivoy hayron bo'lganidan qotib qoldi.

– Shkafimda nima qilayotuvding? – deb so'radi Mittivoy hang-u mang bo'lib.

U yerda tuxum ochayotgandim desam yolg'on bo'ladi, bu gapga ishonmaysan. O'z gunohlarim haqida o'yladim desam ham yolg'on gapirgan bo'laman. Balki tokchada yotib dam oldim desam to'g'ri bo'lar? Ha, shu gap juda to'g'ri, – dedi Karlson.

Mittivoy Karlsondan xafa bo'lganini shu zahoti unutdi. U Karlsonning topilganidan behad xursand edi.

– Bu ajoyib shkaf bekinmashoq o'ynash uchun yasalgan ekan-da. Kel, o'ynaymiz. Men hozir yana tokchaga yotaman, sen meni qidirasan, – dedi Karlson.

Karlson Mittivoyning javobini kutmasdanoq, shkafga kirib berkinib oldi. Mittivoy u shkafning yuqori tokchasiga qanday tirmashib chiqayotganini eshitib turdi.

– Mana endi qidir! – deb qichqirdi Karlson.

Mittivoy shkafning eshigini ochdi-yu, darrov tokchada yotgan Karlsonni ko'rdi, albatta.

– Qo'y-e, juda bemazasan-da, – deb qichqirdi Karlson. – Nima, karavotning tagi-yu yozuv stolining orqasi yoki boshqa joylarga qarab, meni biroz qidirsang bo'lmasmidi? Rost, shunaqa ekansan, men sen bilan boshqa o'ynamayman. Juda yaramas ekansan-ku!

Shu payt tashqaridan qo'ng'iroq tovushi eshilib, dahlizdan oyisining ovozi keldi.

– Mittivoy, Krister bilan Gunilla kelishdi. Bu gapni eshitibok Karlsonning kayfi chog' bo'ldi.

– Shoshmay tur, hozir ularni qiziq qilamiz! – deb shivirladi u Mittivoyga. – Orqamdan shkafning eshigini qattiqroq yopib qo'y...

Mittivoy shkaf eshigini endi yopib bo'lgan edi, xonaga Gunilla bilan Krister kirishdi. Ular ham Mittivoylarning ko'chasida turishar, u bilan bir sinfda o'qishardi. Mittivoyga Gunilla juda yoqardi, shuning uchun ham u Gunilla «juda yaxshi qiz-da» deb oyisiga ko'p maqtardi. Mittivoy Kristerni ham yaxshi ko'rardi, peshonasini g'urra qilganini allaqachon kechirib yuborgandi. To'g'ri, ular Krister bilan tez-tez urishib turishardi. Biroq o'sha zahotiyoq yarashib olishardi. Ha, aytmoqchi, Mittivoy yolg'iz Krister bilan emas, ko'chasidagi hamma bolalar bilan urishardi. Biroq Gunillani hech qachon urmagan.

– Qiziq, nechuk Gunillani shu vaqtgacha biror marta ham urmading? – deb so'rab qoldi oyisi bir kuni.

– U shunaqangi ajoyib qizki, urgani qo'ling bormaydi, – dedi Mittivoy.

Lekin, baribir, Gunilla ba'zida Mittivoyni juda xunob qilib yuborardi. Kecha uchovi maktabdan qaytib kelishayotganda, Mittivoy ularga Karlson haqida gapirib beruvdi. Gunilla bo'lmagan gap deb, xaxolab kulib yuborsa bo'ladimi. Krister ham Gunillaning gapiga qo'shildi, shuning uchun Mittivoy uni bir tushirib qoldi. Krister ham bo'sh kelmay, unga tosh otdi.

Lekin hozir ular, go'yo hech gap bo'lmaganday Mittivoynikiga mehmon bo'lib kelishdi, Krister bo'lsa hatto kuchugi – Yoffani ham olib keldi. Mittivoy Yoffani ko'rib, shunday sevinib ketdiki, hatto shkaf tokchasida yotgan Karlson ham butunlay esidan chiqayozdi. «Dunyoda itdan yaxshi narsa yo'q-da», – deb o'yladi Mittivoy. Yoffa dik-dik sakrar, g'inshir, Mittivoy uni quchoqlab erkalar, silardi. Krister uning yonida turib, Mittivoyning Yoffani silab-erkalaganini xotirjam kuzatardi. Axir, u Yoffa bittayarimta odamning iti emas, o'zining iti ekanligini yaxshi bilardi-da. Shuning uchun ham u Mittivoy kuchugi bilan bemalol, to'yguncha o'ynasin deb qo'yib qo'ygandi.

Mittivoy Yoffa bilan o'ynayotganida Gunilla to'satdan piching aralash so'rab qoldi:

– Tomda yashovchi Karlson og'ayning ko'rinmaydi, qani u? Uni senikida ko'ramiz deb o'ylovdik.

O'shandan keyingina Mittivoy Karlsonning shkaf tokchasida yotganini esladi. Biroq u Karlsonning bu gal nima qiliq ko'rsatishini bilmagani uchun ham, bu haqda Krister bilan Gunillaga hech nima demadi.

– Mana, sen Gunilla tomda yashovchi Karlson haqidagi gapimni o'zi to'qiyapti deb o'ylaysan-a. Kecha sen Karlsonni shunchaki bir xayol deding-a...

– Bo'lmasam-chi, albatta xayol-da, – dedi Gunilla va xaxolab kulib yubordi; yuzida kuldargichlar paydo bo'ldi.

– Bordi-yu, xayol emas, rost bo'lsa-chi? – deb so'radi Mittivoy ayyorona.

– Axir, u chindan ham yo'q narsa-ku? – deb gapga aralashdi Krister.

– Hech-da, – deb qichqirib yubordi Mittivoy.

Mittivoy, bu janjalni musht bilan emas, so'z bilan hal qilishga urinib ko'rsammikin yoki Kristerni bir ursammikin deb

o'ylashga ulgurmagan ham ediki, birdan shkaf ichidan qattiq va aniq qiyqiriq eshitilib qoldi:

– Ku-ku-ku!

– Bu nima? – deb so'radi Gunilla hayron bo'lganidan olchaday qip-qizil og'izchasini katta ochib.

– Qu-qu-qu! – Yana shkaf ichidan chinakam xo'roz qichqirig'i eshitildi.

Shkafingga xo'roz qamab qo'yganmisan? – deb so'radi Krister ajablanib.

Yoffa irillab, shkaf tomonga qarab qo'ydi. Mittivoy xaxolab kulib yubordi. U qotib-qotib kulganidan sira gapirolmasdi.

– Qu-qu-qu! – uchinchi marta eshitildi.

– Hozir shkafni ochib, nima borligini ko'raman, – dedi Gunilla va shkaf eshigini ochdi.

Krister ham chopib kelib, shkaf ichiga qaradi. Avvaliga ular kiyimdan bo'lak hech narsani ko'rishmadi, sezishmadi, lekin birozdan so'ng yuqori tokchadan kimningdir qiqirlab kulgani eshitildi. Krister bilan Gunilla yuqoriga qarashib, tokchada yotgan kichkina semiz odamni ko'rib qolishdi. U qo'lini boshi tagiga qo'yib, o'ng oyog'ini osiltirganicha uzala tushib yotardi. Uning moviy, sho'x ko'zlari kulib boqardi.

Krister bilan Gunilla bu odamchaga qotib indamay qarab turishardi. Faqat Yoffagina o'qtin-o'qtin irillab qo'yardi.

Gunilla sal o'ziga kelgach, eshitar-eshtilmas qilib:

– Bu kim? – deb so'radi.

– Shunchaki xayol, – dedi g'alati odamcha, keyin oyog'ini qimirlata boshladi. – Kichkintoy xayol dam olib yotibdi. Qisqasi, bu bir lof!

– Bu... bu... – deb g'o'ldiradi Krister duduqlanib.

– Kichkintoy xayol dam olib yotib, xo'roz bo'lib qichqiryapti, – dedi odamcha.

– Tomda yashovchi Karlson – shu odam! – deb shivirladi Gunilla.

– Albatta-da, boshqa kim bo'lardi! To'qson ikki yashar Gustovson kampir shkafga yashirinchalik kirib, yotib oldi deb o'ylaganmiding!

Mittivoy bo'lsa o'zini tiyolmay qotib-qotib kulardi. Chunki dovdirab qolgan Krister bilan Gunillalarning ko'rinishi kulgili edi.

– Ular soqov bo‘lib qolishdi, shekilli, – dedi arang Mittivoy. Karlson tokchadan dik etib sakrab tushdi-da, Gunillaning yoniga kelib, yuzini chimdib oldi:

– Bu qanaqa kichkina xayol?

– Biz... – deb g‘o‘ldiradi Krister.

– Sening isming Avgust bo‘lsa kerak-a? – deb so‘radi Karlson Kristerdan.

– Nega Avgust bo‘larkanman? – dedi Krister.

– Yaxshi. Yana gaplashamiz, – dedi Karlson.

– Ularning oti Gunilla va Krister, – deb tushuntirdi Mittivoy.

– Ha, ba‘zida odamlarning sira ishi yurishmaydi, omadi kelmaydi, turib-turib ishonging kelmaydi. Biroq endi biror narsa qilishning iloji yo‘q. Bundan tashqari, hammani ham Karlson deb atashlari mumkin emas-ku.

Karlson tevarak-atrofga ko‘z yugurtirib chiqdi-da, shoshapisha qo‘shimcha qildi:

– Endi bir ermak topsak degandim. Balki stullarni derazadan ko‘chaga otarmiz? Yoki biror boshqa o‘yin o‘ylab topish kerak.

Mittivoy bu o‘yinining qiziqarli bo‘lishiga unchalik ishonmasdi. Buning ustiga oyisi bilan dadasi buni ma‘qullamasligini Mittivoy juda aniq bilardi.

– E, juda qo‘rqoq ekansizlar-ku. Agar bunaqa ikkilanib turadigan bo‘lsak, hech ish chiqmaydi. Mening taklifim sizlarga yoqmadimi, o‘zlaring biror narsa o‘ylab topinglar, bo‘lmasa sizlar bilan yurmayman. Men o‘zimga biror ermak topishim kerak, – dedi Karlson biroz xafa bo‘lib.

– Shoshmay tur, biz hozir biror o‘yin o‘ylab topamiz! – deb shivirladi Mittivoy iltijo bilan.

Biroq Karlson chindan ham xafa bo‘ladigan ko‘rinadi.

– Hozir shartta uchaman-ketaman... – deb to‘ng‘illadi u.

Agar Karlson uchib ketsa, hamma ish rasvo bo‘lishini uchovi ham yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham ular baravariga yalina boshlashdi.

Karlson bir zum qosh-qovog‘ini osiltirib, indamay o‘tirdi.

– Men aniq ishontirib aytolmayman-u, biroq, agar u, – dedi Karlson semiz barmog‘i bilan Gunillani ko‘rsatib, – boshimni silab «Azizim, Karlson» desa, balki yana qolarman.

Gunilla bajonidil uning boshini siladi-da, mehribonlik bilan iltimos qildi:

– Azizim, Karlson, qola qol! Biz, albatta, biror o‘yin o‘ylab topamiz.

– Ha, mayli, – dedi Karlson, – qolsam qola qolay. Bolalar yengil nafas olishdi.

Mittivoyning oyisi bilan dadasi kechqurunlari odatda ko‘cha aylangani chiqib ketishardi. Shuning uchun ham oyisi hozir dahlizda turib tayinladi:

– Mittivoy! Krister bilan Gunilla soat sakkizgacha biznikida qolishlari mumkin, keyin darrov o‘rningga yotgin. Biz qaytib kelganimizdan keyin o‘zim oldingga kirib: «Yaxshi yotib tur», deyman.

Bolalar eshikning yopilganini eshitishdi.

– Nega oying mening bu yerda qachongacha qolishim mumkinligini aytmadi? – deb so‘radi Karlson pastki labini cho‘chchaytirib. – Agar hammasi meni kamsitadigan bo‘lsa, sizlar bilan o‘ynamayman.

– Sen bu yerda istaganingcha qolishing mumkin, – dedi Mittivoy.

Karlson labini battar cho‘chchaytirib oldi.

– Nega endi meni ham bu yerdan hamma qatori soat sakkizda haydab chiqarishmaydi? – dedi Karlson ranjigan bo‘lib. – Yo‘q, men bunaqada o‘ynamayman.

– Bo‘pti, oyimdan iltimos qilaman, seni ham uyingga soat sakkizda jo‘natsin! – deb va‘da berdi Mittivoy. – Sen o‘yin o‘ylab topdingmi?

Karlsonning ko‘ngli darrov ko‘tarildi.

– Biz arvoh bo‘lib, odamlarni qo‘rqitamiz. Atigi bitta kichkina choyshab bilan nimalar qilishimni ko‘rsangiz edi. Agar men rosa qo‘rqitgan odamlarning har biri besh eredan berganda bormi, tog‘-tog‘ shokolad sotib olgan bo‘lardim. Axir, men dunyodagi eng zo‘r arvohman-ku! – dedi Karlson ko‘zlarini javdiratib.

Mittivoy, Krister va Gunilla «arvoh-arvoh» o‘ynashga jon deb rozi bo‘lishdi. Biroq Mittivoy:

– Odamlarni qattiq qo‘rqitish, ularni o‘takasini yorish juda-yam shart emas, – deb qoldi.

— Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! — deb javob qildi Karlson. — Dunyodagi eng zo'r arvohga o'zini qanday tutishi kerakligini o'rgatmoqchi bo'lasanmi? Men hamma odamlarning sal o'takasini yoraman, hech kim buni sezmay ham qoladi. — U Mittivoyning karavotidan choyshabini oldi. — Shu choyshabdan arvoh uchun tuzukkina kiyim qilsa bo'ladi.

Karlson yozuv stolining tortmasidan rangli bo'rlarni oldida, choyshabning bir chetiga badbashara rasm soldi. Keyin qaychi oldi-da, ko'z uchun ikkita teshikcha qildi, Mittivoy uni to'xtatishga ham ulgurolmay qoldi.

— Choyshab arzimagan narsa, bu ro'zg'orda bo'ladigan gapku. Arvoh esa tevarak-atrofdan nimalar bo'layotganini ko'rishi kerak, bo'lmasa, u adashib-uloqib, qayerlargadir tushib qolishi mumkin.

Keyin Karlson boshiga choyshab yopib oldi, faqat kichkina semiz qo'lchalarigina ko'rinib turardi.

Bolalar choyshabga burkangan Karlsonning o'zi ekanligini bilishsa ham qo'rqib ketishdi: Yoffa esa jonining boricha vovilladi. Karlson motorini yurgizib, qandil atrofida gir aylanib ucha boshlaganida choyshab hilpirab yana ham dahshatliroq ko'rindi. Chindan ham buni ko'rib, har qanday odamning o'takasi yorilishi mumkin edi.

— Men motorli kichkina arvohman! — deb qichqirdi u. — Ko'rinishim sovug'-u, lekin yoqimtoyman.

Bolalar indamay, Karlsonning uchishini qo'rqa-pisa kuzatishardi.

Yoffa bo'lsa tinmay akillardi.

— Ochig'i, — deb so'zida davom etdi Karlson, — uchayotganimda motorning guvillashini yaxshi ko'raman, biroq hozir arvoh bo'lganim uchun motorning ovozi pasaytirib qo'yishim kerak, shekilli. Mana bu boshqa gap!

Motor ovozi o'chgach, u bir necha bor aylandi, arvohga yana ham ko'proq o'xshab ketdi.

Endi qo'rqitadigan odamni topish qolgandi, xolos.

— Zinapoya maydonchasiga chiqamizmi? Bitta-yarimta uyiga kirayotib arvohni ko'radi-yu, esi chiqib ketadi.

Shu payt telefon jiringlab qoldi, biroq Mittivoy borib trubkani olmadi. Mayli, jiringlayversin!

Bu orada Karlson qattiq uh tortib, xo'rsinib, har xil ohangda ingray boshladi.

— Har xil ohangda ingrayolmagan, oh-voh qilolmagan arvoh arvoh bo'ladimi, u bir tiyinga ham qimmat, — deb tushuntirdi Karlson. — Arvohlar maktabida yosh arvohchalarni birinchi galda shunga o'rgatishadi.

Tayyorgarlik ishlariga ancha vaqt ketdi. Ular eshik oldida o'tkinchi odamlarni qo'rqitish uchun zinapoya maydonchasiga endi chiqmoqchi bo'lib, eshik oldida turishganda qitirlagan tovush eshitilib qoldi. Mittivoy oyim bilan dadam uyga qaytib kelishyapti, deb o'ylagan ham edi, birdan pochta qutisining tir-qishiga kimdir po'lat sim tiqayotganini ko'rib qoldi. Mittivoy uylariga o'g'ri tushayotganini darrov fahmladi. U yaqinda dadasining oyisiga gazetadan bir maqolani o'qib berganini esladi. Unda shaharda o'g'rilar ko'payib ketganligi haqida gapirilgandi. Ular avval telefon qilisharkan. Uyda hech kim yo'qligini bilishgandan keyin, qulfni buzishib, hamma qimmatbaho narsalarni olib ketisharkan.

Mittivoy nimalar bo'lishi mumkinligini tushungandan keyin, juda qo'rqib ketdi. Krister bilan Gunillaning ham esi chiqib ketdi. Krister Yoffa vovillab, o'yinimizni buzmasin deb uni Mittivoyning xonasiga qamab qo'ygandi. Mana endi qilgan ishiga afsuslanib o'tiribdi. Birgina Karlson pinagini buzmasdi.

— Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! — deb shivirladi u. — Bunaqa paytda arvoh juda ish beradi. Yuringlar, sekin yemakxonaga kiramiz, dadang oltin-u durlarini o'sha yerda saqlasa kerak.

Karlson, Mittivoy, Gunilla va Krister oyoq uchida sekin yurib, yemakxonaga kirishdi. Ehtiyotlik bilan hammalari yashirinib olishdi. Karlson chiroyli, qadimiy bufetning ichiga kirib oldi. U yerda oyisining dasturxon-u sochiqlari turardi. Karlson bufet eshigini arang yopdi. U qattiq yopishga ham ulgurolmay qoldi, chunki xuddi shu payt yemakxonaga o'g'rilar pisib kirib kelishdi. Divan tagida yotgan Mittivoy sekin boshini chiqarib

qaradi: xonaning o'rtasida ikki badbashara yigit turardi. Buni qarang-a, bular Fille bilan Rulle edi!

– Endi pullari qayerda ekanligini bilish kerak, – dedi Fille shivirlab.

– Mana shu yerda bo'ladi-da, – dedi Rulle tortmalari ko'p qadimgi javonni ko'rsatib.

Mittivoy o'sha tortmalardan birida oyisining ro'zg'orga olib qo'ygan pullari, boshqasida buvisi sovg'a qilgan qimmatbaho uzuk va to'g'nag'ichlari, dadasining merganlikdan olgan oltin medallari borligini yaxshi bilardi. «O'g'rilar hammasini olib ketib qolishsa-ya», – deb o'yladi Mittivoy.

– Sen bu yerni qarab tur, – dedi Fille, – men oshxonani qarayman, kumush qoshiq va vilkalari yo'qmikin.

Fille g'oyib bo'ldi, Rulle stol tortmalarini birma-bir ochib qaray boshladi, keyin birdan xursand bo'lib, hushtak chalib yubordi.

«U pulni topdi shekilli», – deb o'yladi Mittivoy.

Rulle stolning boshqa tortmasini ochdi-da, yana hushtak chalib yubordi.

Biroq u boshqa hushtak chalmadi, chunki xuddi shu payt bufet eshiklari ochilib, dahshatli ingrab, oh-vohlar bilan arvoh uchib chiqdi. Rulle o'girilib, arvohni ko'rdi-yu, qo'rqqanidan baqirib yubordi, qo'lidagi pul, uzuk, to'g'nag'ich va boshqa narsalar polga sochilib ketdi. Arvoh uning atrofida gir aylanib uchar, ingrar, oh-voh qilardi; keyin u birdan oshxonaga otildi. Oradan bir zum o'tmay, yemakxonaga Fille o'qday uchib kirdi. Uning rangida qon qolmagandi.

– Arrulle, u yoqda voh! – deb baqirib yubordi.

U aslida: «Rulle, u yoqda arvoh!» deb qichqirmoqchi edi-yu, lekin qo'rqqanidan tili duduqlanib: «Arrulle, u yoqda voh!» deyoldi, xolos.

Ha, har qanday odamning ham yuragi chiqib ketardi! Fillening orqasidan ketma-ket arvoh uchib kirdi-da, shunaqayam dahshatli ingrab, oh-voh qildiki, eshitgan odamning o'takasi yorilardi.

Rulle bilan Fille eshikka otishdiki, arvoh bo'lsa ularning atrofida gir-gir aylanardi. Ular qo'rquvdan dag'-dag' titrashib, avval dahlizga, keyin zinapoya maydonchasiga o'qday otilib chiqishdi.



Arvoh ham izma-iz chiqib, ularni pastgacha quvib tusharkan, o'qtin-o'qtin dahshatli ovoz bilan qichqirardi:

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! Hozir sizlarga yetib olaman, ana unda kuningizni ko'rsataman.

Biroq arvoh birozdan keyin horib-charchab yemakxonaga qaytib keldi. Mittivoy poldan pul, uzuk va to'g'nag'ichlarni terib olib, stol tortmasiga solib qo'ydi. Gunilla bilan Krister Fille u yoqdan bu yoqqa chopib yurib tushirib qoldirgan vilka va qoshiqlarni yig'ishtirib olishdi.

– Dunyodagi eng zo'r arvoh – bu tomda yashovchi Karlsondir, – dedi Karlson va ustidan choyshabni olib tashladi.

Bolalar kulishardi; ular baxtiyor edilar. Karlson qo'shimcha qildi:

– O'g'rilarni qo'rqitishda arvohga hech kim teng kelolmaydi. Agar odamlar bilishsa edi, shahardagi har bir kassaning oldiga bittadan arvoh qo'yib qo'yishardi.

Mittivoy falokatning oldini olishganidan xursand bo'lib dikdik sakrardi.

– Odamlar ham juda ahmoq bo'lishadi, arvohga ishonishadiya. Kulging keladi! – dedi u. – Dadam, g'ayritabiiy narsaning umuman bo'lishi mumkinmas deydi, – Mittivoy buni tasdiqlaganday boshini silkib qo'ydi. – O'sha o'g'rilar o'lgudek ahmoq ekan, bufetdan arvoh chiqdi deb o'ylashdi-ya! Axir, tomdayashovchi Karlson edi-ku. Hecham g'ayritabiiy narsa emas.

## KARLSON ALBERG LAQABLI O'QIMISHLI KUCHUK BILAN TOMOSHA KO'RSATADI

**P**axmoq sochli bola ertasi azonlab, uyqudan turishi bilan oyoqyalang, yo'l-yo'l havorang pijamada oshxonaga, oyisining oldiga chiqib ketdi. Dadasi ishga, Bosse bilan Betan maktabga ketishgandi. Mittivoyning darsi kech boshlanardi, bu unga juda qo'l kelardi, chunki Mittivoy oyisi bilan ertalablari birpas bo'lsa ham birga qolishni yaxshi ko'rardi. Bunaqa paytlarda maza qilib miriqib gaplashishing, birgalashib qo'shiq aytishing, yoki bir-biringga ertak aytib berishing mumkin bo'ladi. Garchi Mittivoy maktabga boradigan katta bola bo'lsa-da, oyisining tizzasida jon deb o'tirardi, faqat buni bitta-yarimta ko'rmasa bo'ldi.

Mittivoy oshxonaga kirganida, oyisi stol yonida qahva ichib, gazeta o'qib o'tirardi. Mittivoy indamay oyisining tizzasiga chiqib oldi. Oyisi ham uni mehr bilan quchoqlab, bag'riga bosdi. Mittivoyning butun uyqusi qochguncha shu alfozda uzoq o'tirishdi.

Oyisi bilan dadasi kecha sayldan qaytgan vaqtlaridan kech kelishdi. Mittivoy o'z karavotida yotib allaqachon uxlab qolgandi. Uyqusida ham betoqat bo'lib, hadeb to'lg'anaverdi. Oyisi uning

ustini yopayotib choyshabdagi teshiklarni sezib qoldi. Choyshab shunday kir ediki, qarab bo'lmadi. Oyisi: «Mittivoy shuning uchun ham barvaqt uxlab qolgan ekan-da» deb o'yladi o'zicha. Mittivoy hozir go'yo hech gap bo'lmaganday oyisining tizzasida bemalol o'tirardi. Oyisi bor gapni aytmaguncha Mittivoyni qo'yib yubormaslikka ahd qildi.

– Menga qara, Mittivoy, choyshabingni kim teshdi, shuni bilmoqchi edim. Faqat hamma gapni yana o'sha tomida yashovchi Karlsonga to'nkamay, to'g'risini ayt.

Mittivoy indamay, diqqat bilan o'ylardi. Nima qilsam ekan? Axir, bu chindan ham Karlsonning ishi-ku. Oyisi bo'lsa uning haqida eshitishni ham istamaydi. Mittivoy o'g'rilar haqida ham og'iz ochmaslikka ahd qildi. Chunki oyisi baribir ishonmaydi.

– Xo'sh, kim qildi? – deb so'radi oyisi qat'iy, Mittivoy javob beravermagach.

– Shuni Gunilladan so'rasangiz bo'lmaydimi? – dedi Mittivoy mug'ambirona va o'zicha: «Yaxshisi hammasini Gunilla gapirib bera qolsin. Oyim unga mendan ko'ra ko'proq ishonadi», deb o'yladi.

«Ha! Demak, choyshabni Gunilla qirqibdi-da», – deb o'yladi oyisi. Oyisi yana, Mittivoy yaxshi bola, birovga tuhmat qilishni istamaydi, shuning uchun bor gapni Gunillaning o'zi gapirib bersin, deyapti-da, deb o'yladi.

Oyisi Mittivoyning yelkasidan quchoqladi. U hozir o'g'lidan boshqa hech nimani so'ramaslikka ahd qildi, xonasi kelsa Gunilla bilan bir gaplashib qo'yarman, deb o'yladi.

– Sen Gunillani juda yaxshi ko'rasanmi? – deb so'radi oyisi.

– Ha, juda, – deb javob berdi Mittivoy.

Oyisi yana gazeta o'qishga tushdi. Mittivoy uning tizzasida o'tirib, o'yg'a toldi.

Ha, aytmoqchi, chindan ham u kimni yaxshi ko'radi? Eng avval oyisini... keyin dadasini ham... U yana Bosse bilan Betanni ham sevadi... Ha-da, u chindan ham ko'proq ularni yaxshi ko'radi, ayniqsa, Bosseni... Biroq ba'zida ular Mittivoyning shunday jahlini chiqarishadiki, hatto bola bechoraning sevgisidan asar ham qolmaydi. U tomida yashovchi Karlsonni ham yaxshi ko'radi. Gunillani ham sevadi. Ha, u katta bo'lganida balkim Gunillaga

uylanar, chunki baribir xotin olishi kerak. To'g'ri, unga qolsa oyisiga jon deb uylanardi-yu, lekin bu mumkin emas-da.

Birdan Mittivoy miyasiga kelgan bir fikrdan cho'chib ketdi.

– Menga qarang, oyi, – dedi u. – Bosse katta bo'lganida, birdan o'lib qolsa, uning xotiniga uylanamanmi?

Oyisi piyolani oldiga surib, Mittivoyga hayron bo'lib tikildi.

– Nega bunday deb o'ylaysan? – so'radi oyisi, kulgisini arang bosib.

Mittivoy bema'ni gap qilganini fahmlab, indamay qo'ya qoldi. Biroq oyisi yana surishtira ketdi:

– Xo'sh, gapir, nega bu haqda o'ylab qolding?

– Axir, Bosse katta bo'lganidan keyin uning eski velosipe-di bilan chang'isini men oldim-u... Konkisi ham menga tegdi. Menday vaqtida o'sha konkida o'zi uchardi... Uning eski pijamasi, botinkasi va boshqa kiyimlarini ham men kiyib to'zdiryapman...

– Bossening qari xotinini olmaysan, seni bundan xalos qila-man, bu yog'iga xotirjam bo'l, – dedi oyisi jiddiy.

– Sizga uylansam bo'lmaydimi? – deb so'radi Mittivoy.

– Yo'q, buning iloji bo'lmasa kerak, – dedi oyisi. – Axir, men dadangga erga tekkanman-ku.

Ha, chindan ham shunday edi.

– Buni qarang-a, kelib-kelib, men ham, dadam ham sizni yaxshi ko'ramiz-a! – dedi Mittivoy norozi ohangda. Oyisi xaxo-lab kulib yubordi-da:

– Ikkoving ham meni yaxshi ko'rsalaring, demak, men yax-shi ekanman-da, – dedi.

– Bo'pti, unday bo'lsa Gunillaga uylanaman, – dedi Mittivoy xo'rsinib. – Axir, kimgadir uylanishim kerak-ku!

Mittivoy yana o'ylanib qoldi. Gunilla bilan yaxshi yasholma-sam kerak, chunki u bilan ba'zida kelishish qiyin bo'ladi, deb o'yladi. Umuman, unga qolsa, allaqanday bir xotin bilan tur-ganidan ko'ra oyisi, dadasi, Betan va Bosse bilan turgani ming marta yaxshi.

– Men xotindan ham ko'ra kuchugim bo'lishini istardim, – dedi Mittivoy. – Oyi, menga kuchuk sovg'a qilolmaysizmi?

Oyisi xo'rsinib qo'ydi. Ana xolos, Mittivoy yana o'zining se-vikli kuchugi haqida gap ochdi-ya! Oyisi tomda yashovchi Karlson

haqida gapni eshitgisi kelmaganday, kuchuk haqida eshitishga ham sira toqati yo'q edi.

— Menga qara, Mittivoy, — dedi oyisi, — kiyinsang bo'lardi, bo'lmasa maktabga kech qolasan.

— Ha, bo'ldi, tushunarli, — deb javob qildi Mittivoy, — kuchuk haqida gapirdimmi, bo'ldi, siz darrov maktab haqida gap ochasiz!

...O'sha kuni Mittivoy maktabga borishini o'ylab, o'zicha xursand bo'lib qo'ydi, chunki Krister va Gunilla bilan ko'p narsani gaplashib olishi kerak edi.

Uyga ular har galgiday birga qaytishdi. Bunga Mittivoy judayam xursand edi, chunki Krister ham, Gunilla ham endi Karlson bilan topishib olishgan edi.

— U judayam xushchaqchaq, quvnoq-a, to'g'rimi? Seningcha qalay, u bugun ham keladimi? — deb so'radi Gunilla.

— Bilmadim, — dedi Mittivoy. — U, «taxminan» uchib kelman, dedi. Demak, u xohlagan vaqtida kelishi mumkin.

— U «taxminan» bugun uchib keladi deb umid qilamiz-da, — dedi Krister. — Gunilla ikkovimiz senikiga borsak maylimi?

— Bo'lmasam-chi, albatta mumkin, — dedi Mittivoy.

Shu payt yana bir jonivor paydo bo'lib ularga ergashdi: bolalar endi ko'chani kesib o'tmoqchi bo'lib turishganda, Mittivoyning yoniga kichkina baroq kuchuk kelib oldi. U Mittivoyning tizzalarini hidlab-hidlab vovillab qo'ydi.

— Qaranglar, juda chiroyli kuchuk ekan-a! — dedi Mittivoy xursand bo'lib. — U, mashinalardan qo'rqib ketgan bo'lsa kerak, ko'channing narigi betiga olib o'tishimni so'rayapti.

Mittivoy kuchukni shaharning hamma ko'chalaridan ham jon deb o'tkazib qo'yishga tayyor edi. Kuchuk buni sezdi shekilli, dik-dik sakrab borarkan, Mittivoyning oyog'iga suykalgisi keldi.

— Juda yoqimtoy-a, — dedi Gunilla. — Bu yoqqa kelgin, kuchukcha!

— Yo'q, u mening yonimda bormoqchi, — dedi Mittivoy va kuchukchaning bo'yinbog'idan ushlab oldi. — U meni yaxshi ko'rib qoldi.

— Meni ham yaxshi ko'rib qoldi, — dedi Gunilla. Kuchukchaning ko'rinishidan, u dunyodagi hamma odamlarni ham

yaxshi ko'rishga tayyor edi, faqat uni yaxshi ko'rishsa bo'lgani. Mittivoy uni yoqtirib qoldi. U, chindan ham kuchukchani shunday yaxshi ko'rib qoldiki, asti qo'yaverasiz! U engashib kuchukchani silab-siypay boshladi, lablarini cho'pillatib, sekin hushtak chalib qo'ydi. Bu erkalashlar, qora kuchukcha dunyodagi eng yoqimli, eng chiroyli jonivor degan ma'noni anglatardi. Kuchukcha dumini likillatib, men ham shu fikrdaman demoqchiday bo'lardi. U xursand bo'lib dik-dik sakrar, akillardi. Bolalar o'z ko'chalariga burilishgach, kuchuk ham ular orqasidan chopib ketdi.

– Balki uning uyi yo'qdir? – dedi Mittivoy so'nggi umidim ham puchga chiqmasaydi deb qo'rqa-pisa gapirarkan: uning kuchukdan hech ajralgisi yo'q edi. – Ehtimol, xo'jayini yo'qdir.

– To'g'ri, balki yo'qdir, – dedi Krister Mittivoyning gapini ma'qullab.

– E, jim tur! – deb uning gapini bo'ldi Mittivoy jahli chiqib. – Sen qayoqdan bila qolding?

Kristerning Yoffa degan kuchugi bor. Shuning uchun ham kuchugi yo'qlar qanchalik baxtsiz ekanligini u bilmaydi-da.

– Bu yoqqa kel, jajji, oppoq kuchukcha, – deb chaqirdi Mittivoy, kuchukning uyi yo'qligiga o'zini borgan sari ishontirib.

– E, ehtiyot bo'l, tag'in senga yopishib olmasin, – deb ogohlantir-di Krister.

– Mayli, ergashsa ergashar. Menga ergashsin deyapmanda, – deb javob qildi Mittivoy.

Kuchuk chindan ham unga ergashdi. Shunday qilib, u Mittivoylar turadigan uyning eshigiga kelib qoldi. Mittivoy uni shartta qo'lga oldi-da, zinapoyadan ko'tarib chiqib ketdi.

«Hozir oyimdan, uni uyimizda olib qolsam maylimi, deb so'rayman».

Biroq oyisi uyda emasdi. Mittivoy oshxonadagi stol ustida yotgan xatni o'qidi: oyisi, kir yuvadigan xonaga ketdim, agar biror narsa kerak bo'lsa, oldimga kelarsan, deb yozgandi.

Bu orada kuchukcha Mittivoyning xonasiga lip etib kirib oldi. Bolalar uning orqasidan chopib kelishdi.

– Ana, ko'rdinglarmi, u mening xonamda turmoqchi! – deb qichqirib yubordi Mittivoy sevinchi ichiga sig'may.

Xuddi shu payt tomda yashovchi Karlson derazadan g'iz etib uchib kirdi.

– Salom! – deb qichqirdi u. – Nima, kuchukni yuvdinglarmi: Uning juni tanasiga yopishib qolibdi-ku!

– Axir, bu Yoffa emas, nahotki ko'rmayotgan bo'lsang? – dedi Mittivoy. – Bu mening itim!

– Yo'q, seniki emas, – deb e'tiroz bildirdi Krister.

– Sening iting yo'q, – deb unga qo'shildi Gunilla.

– U yoqda, tepada mening mingta itim bor, – dedi Karlson. – Dunyoda eng zo'r sakbon, mana...

– Senikida hech qanaqa it ko'rganim yo'q-ku, – deb uning gapini bo'ldi Mittivoy.

– Ular uyda emasdi-da, hammasi uchib ketuvdi. Axir, mening itlarim uchadigan itlar-da.

Mittivoy Karlsonning gaplariga parvo ham qilmadi. Bu jajji yoqimtoy kuchukcha oldida mingta uchadigan it bir pul edi.

– Yo'q, menimcha uning egasi yo'q, – dedi yana Mittivoy. Gunilla itga engashdi.

– Har holda, bo'yinbog'iga «Alberg» deb yozib qo'yishibdi, – dedi u.

– Aniq, bu egasining familiyasi, – dedi darrov Krister.

– Balki o'sha Alberg allaqachon o'lgandir! – dedi Mittivoy va o'zicha o'yladi: Alberg tirik bo'lgan taqdirda ham, u kuchukni yaxshi ko'rmasa kerak. Birdan Mittivoyning miyasiga ajoyib bir fikr keldi. – Balki kuchukning oti Albergdir? – deb so'radi u Krister bilan Gunillaga iltijo bilan qararkan.

Biroq ular miyig'ida kulib qo'ya qolishdi.

– Mening Alberg laqabli bir necha itim bor, – dedi Karlson. – Salom, Alberg!

Kuchukcha Karlsonning oldiga chopib keldi-da, xursand bo'lib akilladi.

– Ana, ko'rdinglarmi, – deb qichqirdi Mittivoy, – u o'z otini biladi! Alberg, Alberg, bu yoqqa kel! Gunilla kuchukchani ushlab oldi.

Bo'yinbog'ida telefon nomeri yozilgan, – dedi u bag'ritoshlik bilan.

– To'g'ri, itning shaxsiy telefoni bor, – deb tushuntirdi Karlson. – Unga ayt, egasiga telefon qilib, uyga kechroq bora-man deb ogohlantirib qo'ysin. Mening itlarim biror joyda ushlanib qolishsa, doim telefon qilib, aytib qo'yishadi. – Karlson semiz qo'lchasi bilan kuchukchani silab qo'ydi. – Itlarimdan bittasi yaqinda nima ham bo'lib ushlanib qoldi. Ha, aytmoqchi uning oti ham Alberg, – deb so'zida davom etdi Karlson. – U meni ogohlantirish niyatida uyga telefon qilmoqchi bo'libdi, biroq telefon nomerini adashtirib, Kungesxolmda yashovchi iste'fodagi bir kekxa mayorning uyiga tushib qolibdi. «Karlson itlaridan bittayarimtasi emasmi?» – deb so'rabdi Alberg. Mayorning jahli chiqib, urishib beribdi: «Eshak! Men mayorman, it emasman!» «Nega bo'lmasa akillaysiz?» – deb muloyimlik bilan so'rabdi Alberg. U mana shunaqa aqlli it!

Mittivoy Karlsonning gapiga quloq solmadi ham. Hozir uni kichkina kuchukchadan bo'lak hech nima qiziqtirmasdi. Hatto u Karlsonning, kelinglar, jindak ko'ngilxushlik qilaylik deganiga ham parvo qilmadi. Buni sezgan Karlson labini cho'chchaytirib, xafa bo'lib dedi:

– Yo'q, bunday qilsang, men o'ynamayman! Sen doim shu kuchuk bilan ovora bo'lyapsan, men ham biror narsani ermak qilishni istayman.

Gunilla bilan Krister ham Karlsonning gapini ma'qullashdi.

– Kelinglar, «Ajoyibotlar kechasi» tashkil etamiz, – dedi Karlson chehrasi ochilib. – Qani, topinglar-chi, dunyoda eng zo'r ko'z bog'lovchi kim?

– Albatta Karlson-da! – deb baqirishdi Mittivoy, Krister va Gunilla baravariga.

– Demak, «Ajoyibotlar kechasi» degan tomosha ko'rsatamiz-a?

– Ha, – deyishdi bolalar.

– Bu tomoshaga bitta konfet berib kiriladi, kelishdikmi?

– Bo'пти, – deyishdi bolalar.

– To'plangan konfetni xayrli ishlarga sarf qilamiz, shunga kelishdik-a?

– Qanaqasiga? – so'rashdi bolalar hayron bo'lishib.

– Bittagina chinakam xayrli ish bor – u ham bo'lsa Karlsonning g'amini yeyish.

Bolalar bir-birlariga hayron bo'lib qarab qo'yishdi.

— Balki... — deb Krister gap boshlagandi.

— Yo'q, biz shunga kelishdik! — deb uning so'zini bo'ldi Karlson. — Bo'lmasa men o'ynamayman.

Shunday qilib, yig'ilgan hamma konfetlar tomda yashovchi Karlsonniki bo'ladi, deb kelishib olishdi.

Krister bilan Gunilla ko'chaga chopib chiqishib, Mittivoyning xonasida «Ajoyibotlar kechasi» degan katta tomosha boshlanadi, deb hamma bolalarga aytishdi. Yonida atigi besh ere puli bo'lgan bolalarning hammasi do'konga chopib borishib, tomoshaga kirish uchun konfet sotib olishdi.

Mittivoyning xonasi eshigi oldida Gunilla turardi; u hamma tomoshabinlardan olgan konfetlarini «Xayrli maqsad uchun» deb yozib qo'yilgan qutichaga solardi.

Krister xonaning o'rtasiga tomoshabinlar uchun stullar qo'ydi. Xonaning bir burchagiga adyol to'sib qo'yilgandi, orqasidan shivir-shivir tovush va itning akillagani eshitilardi.

— Bizga nima ko'rsatishadi? — deb so'radi Kirre ismli bola. — Agar biror bemaza narsa ko'rsatishsa, konfetimni qaytib olaman.

Mittivoy, Gunilla va Krister Kirreni yoqtirishmasdi, chunki u doim nimadandir norozi bo'lgani bo'lgan.

Mana, nihoyat adyol orqasidan Mittivoy chiqdi. U kichkina kuchukchani ko'tarib olgandi.

— Hozir siz dunyodagi eng zo'r ko'z bog'lovchi bilan o'qimishli kuchuk — Albergni ko'rasiz, — dedi Mittivoy tantanavor ohangda.

— Hozirgina e'lon qilinganiday, sizlarga hozir dunyodagi eng zo'r fokuschi tomosha ko'rsatadi, — degan ovoz eshitildi adyol orqasidan, bir zum o'tmay tomoshabinlar oldida Karlson paydo bo'ldi.

U boshiga Mittivoyning dadasining shlapasini kiyib olgandi, yelkasiga oyisining katak-katak fartugini tashlab, bo'yniga bant qilib bog'lab olgandi. Bu fartuk Karlson uchun fokuschilar kiyadigan qora plashchi vazifasini o'tagandi.

Hamma baravariga chapak chalib yubordi. Birgina Kirre chapak chalmadi.

Karlson ta'zim qildi. U ko'rinishdan juda mamnun edi. U boshidan shlapasini olib, xuddi fokuschilarday hammaga ko'rsatdi, uning ichi bo'sh edi.

– Muhtaram janoblar, shlapaning ichida hech nima yo'qligini o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Hech narsa yo'q, – dedi u.

«Hozir u shlapaning ichidan tirik quyon oladi, – deb o'yladi Mittivoy. U bir marta sirkda fokuschining tomoshasini ko'rgandi. – Agar Karlson shlapaning ichidan chindan ham tirik quyon olsa bormi, juda qiziq bo'lardi-da!»

– Hali aytganimday, ichida hech nima yo'q, – deb gapida davom etdi. Karlson biroz xomush tortib. – Agar siz buning ichiga biror nima solmasangiz, hech qachon hech nima bo'lmaydi. Ko'rib turibman, ro'paramda kichkina mechkaylar o'tirib olishib, konfet yeyishyapti. Hozir shlapani bunday bir aylantirib chiqamiz, har biringiz bittadan konfet tashlaysiz. Buni xayrli ish uchun qilasiz.

Mittivoy shlapani olib, hamma bolalarni aylanib chiqdi. Konfet shlapaning ichiga duv-duv to'kilaverdi. Keyin Mittivoy shlapani Karlsonga uzatdi.

– Negadir u shubhali guldurayapti! – dedi Karlson va shlapani silkitdi. – Agar u to'la bo'lganda bunaqa gulduramas edi.

Karlson bitta konfetni og'ziga soldi-da, chaynay boshladi.

– Mana buni xayrli ish desa bo'ladi! – dedi u tez-tez kavshanib.

Shlapaga faqat Kirregina konfet solmadi, holbuki uning qo'lida bir qog'oz xalta to'la konfet bor edi.

– Aziz do'stlarim, sen ham Kirre, – dedi Karlson. – Ro'parangizda o'qimishli it Alberg turibdi. Uning qo'lidan hamma narsa keladi: telefon qila oladi, ucha oladi, non yopa oladi, gaplasha oladi, oyog'ini ko'tara oladi. Xullas, hamma narsani qila oladi.

Shu payt kuchuk chindan ham oyog'ini ko'tardi va Kirre o'tirgan stulning yonginasida kichkina ko'lmak hosil bo'ldi.

Mana endi o'zingiz ham ko'rib turibsiz, men hecham mubolag'a qilayotganim yo'q: bu chindan ham o'qimishli kuchuk.

– Bo'lmagan gap! – dedi Kirre va stulini ko'lmakdan sal nariga surib qo'ydi. – Bunday fokusni har qanday kuchuk ham



qila oladi. Qani, bu Alberging jindek gapirib ko'rsin-chi. Ha, bu osonmas, ha-ha!

Karlson kuchukchaga murojaat qilib:

– Nima, sen uchun gaplashish qiyinmi, Alberg? – dedi.

– Yo'q, – dedi kuchuk. – Faqat sigara chekayotganimda gaplashishga qiynalaman.

Bolalar hayron bo'lishganidan o'rinlaridan sapchib turib ketishdi. Biroq Mittivoy kuchuk o'rniga hoynahoy Karlsonning o'zi gapiryapti deb o'yladi. Hatto u bunga xursand bo'ldi, chunki Mittivoy allaqanday gapiradigan iti emas, odatdagi xonaki iti bo'lishini istardi.

– Azizim Alberg, do'stlarimiz bilan Kirrega itlik hayotingdan biror voqeani gapirib berolmaysanmi? – deb so'radi Karlson.

– Jonim bilan, – deb javob berdi Alberg va o'z hikoyasini boshladi, – o'tgan kuni kinoga boruvdim, – dedi u va Karlsonning atrofida dik-dik sakray boshladi.

– To'g'ri, – deb ma'qulladi Karlson.

– Ha-da, bo'lmasam-chi! Shunday yonginamda stulda ikki burga o'tirishsa bo'ladimi, – deb gapida davom etdi Alberg.

– Nimalar deyapsan! – dedi Karlson ajablanib.

– Ha-da! – dedi Alberg. – Keyin ko'chaga chiqqanimizda bitta burganing ikkinchisiga shunday deganini eshitib qoldim: «Xo'sh, uyga piyoda ketamizmi yoki itga minib olamizmi?»

Garchi «Ajoyibotlar kechasi» bo'lmasa-da, lekin tomosha hamma bolalarga yoqdi. Birgina Kirre norozi edi, noxush o'tirardi.

– Axir, u it non yopa oladi deb hammani ishontirdi-ku, – dedi Kirre masxaraomuz.

– Alberg, non yopib berasanmi? – deb so'radi Karlson. Alberg bir esnadi-da, polga uzala tushib yotib oldi.

– Yo'q, yopolmayman, – dedi u.

– Ha, ha! O'zim ham biluvdim-a! – deb qichqirib yubordi Kirre.

– Chunki yonimda xamirturushim yo'q, – deb tushuntirdi Alberg. Alberg hamma bolalarga juda yoqib qoldi, biroq Kirre hamon o'jarlik qilib, o'zinikini ma'qullardi.

– Bo'lmasa uchsini, buning uchun xamirturush kerakmas.

– Uchasanmi, Alberg? – deb so'radi Karlson itdan.

Kuchuk uxlab yotgandek edi, lekin u baribir Karlsonning savoliga javob berdi:

– Ha, mayli, faqat sen ham men bilan birga uchsang. Chunki kattalarsiz o'zim yolg'iz uchmayman deb oyimga va'da bergandim.

– Unday bo'lsa, bu yoqqa kel, Alberg, – dedi Karlson va kuchukni poldan ko'tarib oldi.

Oradan bir zum o'tmay Karlson bilan Alberg ucha boshlashdi. Ular avvaliga shiftga ko'tarilib, qandil ustida bir necha marta aylanishdi, keyin derazadan uchib chiqib ketishdi. Kirre hang-u mang bo'lib qoldi.

Bolalar oynaga yopirilishib, Karlson bilan Albergning tom ustida uchib yurishini tomosha qilishdi.

Mittivoy qo'rqqanidan qichqirib yubordi:

– Karlson, Karlson, orqangga qayt, kuchukchamni olib tush. Karlson Mittivoyning gapiga ko'ndi. U shu zahoti qaytib tushib,

Albergni polga qo'ydi. Uning ko'rinishi go'yo umrida birinchi bor uchganday g'alati edi.

– Ha, buguncha shu yetar. Boshqa ko'rsatadigan narsamiz qolmadi. Bu esa senga, ma, ol! – deb Karlson Kirreni turtib yubordi.

Kirre Karlsonning niyatini darrov tushunmadi.

– Qani, konfetdan cho'z! – dedi Karlson jahli chiqib. Kirre konfet solingan qog'oz xaltasini oldi-da, Karlsonga uzatdi, lekin shu orada yana bitta konfetni og'ziga solishga ulgurdi.

– Xasis bolaga uyat-e!.. – dedi Karlson va ko'zlari bilan nimanidir shosha-pisha qidira boshladi. – Xayrli ish uchun qilingan quticha qani? – deb so'radi u tashvish bilan.

Gunilla tomoshaga kelgan bolalar konfet solgan qutichani Karlsonga uzatdi. U endi Karlsonning konfeti ko'p, bolalarni ham mehmon qilsa kerak, deb o'yladi. Biroq bu Karlsonning xayoliga ham kelmadi. U qutichani oldi-da, konfetlarni xasislik bilan sanay boshladi.

– O'n besh dona, – dedi u. – Kechki ovqatga yetadi... Xo'p, xayr! Uyga borib ovqatlanaman.

U shunday dedi-yu, derazadan uchib chiqib ketdi.

Bolalar asta-sekin tarqala boshlashdi. Gunilla bilan Krister ham ketishdi. Mittivoy bilan Alberg ikkovigina qolishdi, bundan Mittivoy o'zida yo'q xursand edi. U kuchukni tizzasiga oldi-da, unga allanimalar deb shivirladi. Kuchukcha Mittivoyning yuzini yalab, shirin uyquga ketdi.

Keyin kir yuvadigan xonadan oyisi keldi, keldi-yu, hamma narsa o'zgardi qoldi. Mittivoyning juda ta'bi xira bo'ldi. Albergning yashashga boshpanasi yo'qligi oyisining xayoliga ham kelmadi, u bu haqda o'ylagani ham yo'q, u Albergning bo'yinbog'idagi telefon nomeriga qo'ng'iroq qilib, o'g'li kichkina baroq kuchuk topib olganini aytdi.

Mittivoy Albergni bag'riga bosganicha, telefon yonida turar va o'zicha shivirlardi:

– Ishqilib bu kuchuk ularniki bo'lmasin-da...

Lekin afsuski bu kuchuk o'shalarniki edi!

– Bilasanmi, o'g'lim, Bobbinig egasi kim ekan? – dedi oyisi telefon trubkasini qo'yib. – Stefan Alberg ismli bola ekan. – Bobbi? – qaytadan so'radi Mittivoy.

– Ha, kuchukning oti shunday ekan. Stefan rosa yig'layotganmish. U soat yettida kelib, Bobbini olib ketadi.

Mittivoy hech nima demadi-yu, biroq ko'zlari javdirab, rangi oqarib ketdi. U kuchukni bag'riga yana ham qattiqroq bosib, oyisi eshitmaydigan qilib sekin shivirladi.

– Jajji Alberg, mening kuchugim bo'lishingni shunday istardimki!

Soat yettida Stefan Alberg kelib, kuchukni olib ketdi. Mittivoy karavotda yotib, o'ksib-o'ksib yig'ladi, ko'rib odamning yuragi ezilib ketardi.

### **KARLSON MITTIVOYNING TUG'ILGAN KUNIGA KELADI**

**Y**oz ham keldi. Maktabda darslar tugadi, Mittivoyni qishloqqa – buvisining oldiga jo'natishga hozirlik ko'ra boshlashdi. Biroq ungacha muhim bir voqea sodir bo'lishi kerak edi – Mittivoy sakkiz yoshga to'layotgandi. Mittivoy tug'ilgan kunini juda uzoq, orziqib kutdi! Yetti yoshga to'lgan kunidan boshlab kutadi-ya!

Qiziq, tug'ilgan kunlar oralig'i rojdestvo bayramlariga o'xshab juda uzoq bo'ladi-ya.

Mittivoyning tug'ilgan kunini nishonlashdan bir kun burun Karlson ikkovi gaplashib qolishdi.

– Ertaga mening tug'ilgan kunim, – dedi Mittivoy. – Biznikiga Gunilla bilan Krister keladi, xonamda dasturxon yasatib berishadi... – Mittivoy indamay qoldi; u juda g'amgin ko'rinardi. – Seni ham jon deb taklif qilardim-u, – so'zida davom etdi u, – lekin...

Oyisi Karlsondan shunday xafa ediki, uni taklif etishga ruxsat so'rashning foydasi yo'q edi.

Karlsonning qosh-qovog'i osilib ketdi, u tumshayib oldi.

– Agar meni chaqirmasang, sen bilan boshqa o'ynamayman! Mening ham o'ynab-kulgim keladi.

– Ha, bo'пти, kelaver, – dedi Mittivoy shosha-pisha.

U oyisi bilan gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi. Ha, mayli, nima bo'lsa bo'lar, lekin tug'ilgan kunini Karlsonsiz nishonlay olmaydi.

– Bizni nima bilan mehmon qilishadi? – deb so'radi Karlson sal chehrasi yorishib.

– Shirin pirog bilan-da, albatta. Tug'ilgan kunimga atab sakkizta sham bilan bezalغان pirog pishirishadi.

– Juda soz, – dedi Karlson. – Bilasanmi, menda bir taklif bor.

– Qanday taklif? – deb so'radi Mittivoy.

– Oyingdan sakkizta shamli bitta pirog o'rniga, bitta shamli sakkizta pirog pishirib bering, deb iltimos qilsang qalay bo'larkin!

Biroq oyisining bunga rozi bo'lishiga Mittivoyning ko'zi yetmasdi.

– Senga ajoyib, chiroyli sovg'alar olib kelishsa kerak, a? – deb so'radi Karlson.

– Bilmadim, – dedi Mittivoy va xo'rsinib qo'ydi.

U o'zi istagan, jonidan ham ortiq ko'radigan narsani sovg'a qilmasliklarini juda yaxshi bilardi...

– Menga hech qachon it sovg'a qilishmasa kerak, – dedi Mittivoy. – To'g'ri, juda ko'p sovg'a olaman. Shuning uchun ham kuni bilan xursandchilik qilishga, it haqida sira o'ylamaslikka ahd qildim.

– Bundan tashqari, mana men borman. Axir, men itdan ortiq emasmanmi? – dedi Karlson va Mittivoyga qarab qo'ydi. – Qanday sovg'alar olishingni bilsam yaxshi bo'lardi-da. Agar senga konfet sovg'a qilishsa, sen ularni darhol xayrli ishga sarflashing kerak.

– Bo'пти, agar bir quti konfet olsam, uni senga beraman. Mittivoy Karlsondan hech nimani ayammasdi, ayniqsa, qishloqqa ketish oldidan hamma narsaga tayyor edi.

– Bilasanmi, Karlson, – dedi Mittivoy, – indinga qishloqqa, buvimnikiga ketyapman, butun yoz o'sha yerda bo'laman.

Karlson avvaliga ma'yus tortdi, keyin kerilib viqor bilan dedi:

– Men ham buvimnikiga ketaman, mening buvim sening buvingga qaraganda buviga ko'proq o'xshaydi.

– Buving qayerda turadi? – deb so'radi Mittivoy.

– Qayerda bo'lardi, uyda-da! Sen, hoynahoy, u ko'chada yashaydi, kechasi bilan izg'ib chiqadi, deb o'ylayotgan bo'lsang kerak.

Ular na Karlsonning buvisi, na Mittivoyning tug'ilgan kuni haqida boshqa gaplashisha olmadi, chunki qosh qorayib qolgandi, Mittivoy ertaga uxlab qolmaslik uchun bugun barvaqtroq yotishi kerak edi.

Mittivoy ertasiga uyg'onib, karavotida kutib yotdi: hozir eshik ochilib, hammalari uning xonasiga kirib kelishlarini, tug'ilgan kuniga atab pishirilgan pirog va boshqa sovg'a-salomlarni topshirishlarini u juda yaxshi bilardi. Vaqt haddan tashqari sekin o'tardi. Mittivoyning kutaverganidan yuragi siqilib ketdi, u sovg'alarni tezroq ko'rgisi kelardi.

Mana, nihoyat, yo'lakda oyoq tovushlari va g'ala-g'ovur eshitildi: «Ha, uyg'ongan bo'lsa kerak», – degan so'zlar qulog'iga chalindi. Eshik lang ochilib, hammalari: oyisi, dadasi, Bosse va Betan kirib kelishdi. Mittivoy karavotiga o'tirib oldi, uning ko'zlari yonardi.

– Tabriklaymiz seni, shirinim, jonginam Mittivoy! – dedi oyisi.

Dadasi ham, Bosse bilan Betan ham «Tabriklaymiz» deyishdi. Mittivoyning oldiga patnis qo'yishdi. Unda sakkizta sham qadalgan pirog va boshqa sovg'alar bor edi.

Sovg'a-salom ko'p edi, lekin ilgarigi tug'ilgan kunlarida bugungidan ko'p bo'lardi: bugun patnisda atigi to'rtta tugun yotardi; Mittivoy birpasda sanab chiqdi. Biroq dadasi shunday dedi:

– Hamma sovg'alarni ertalab olishing shart emas, balki kunduzi yana biror narsa olarsan...

Mittivoy to'rtta tugunni olib juda xursand bo'ldi. Ularni ochib qaradi, tugunchalarda: bo'yoqlar solingan quticha, o'yinchoq to'pponcha, kitob, yangi ko'k ishtonchalar bor edi. Bu sovg'alarning hammasi unga juda yoqdi. «Oyim ham, dadam ham, Bosse ham, Betan ham juda mehribon-da! – deb o'yladi Mittivoy. – Dunyoda hech kimning bunday mehribon oyisi, dadasi, akasi-yu opasi bo'lmasa kerak».

Mittivoy to'pponchani olib, bir necha marta otdi. To'pponcha paqillab otildirdi. Hammalari Mittivoyning karavoti yoniga o'tirib

olishib, uning to'pponcha otishini eshitishardi. Ular bir-birlarini juda yaxshi ko'rishardi-da!

– Buni qara, dunyoga kelganingga ham sakkiz yil bo'libdiya, o'shanda bir parcha go'sht eding-a... – dedi dadasi.

– Ha, – dedi oyisi, – vaqt juda tez o'tyapti-da! Esingizdami, o'sha kuni Stokgolmda rosa jala quyuvdi.

– Oyi, men shu yerda, Stokgolmda tug'ilganman-mi? – deb so'radi Mittivoy.

– Ha, albatta, – dedi oyisi.

– Lekin Bosse bilan Betan Malmada tug'ilishgan-ku?

– Ha, Malmada.

– Dada, siz axir Gyoteborgda tug'ilgansiz-ku? O'zingiz menga aytuvdingiz...

– Ha, men gyoteborglik bo'laman, – dedi dadasi.

– Siz-chi, oyi, siz qayerda tug'ilgansiz?

– Eskilstunda, – dedi oyisi. Mittivoy oyisini mahkam quchoqlab oldi.

– Hammamizning uchrashganimiz qanday yaxshi bo'ldi-ya! – dedi u. Hammalari Mittivoyning gapiga qo'shilishdi.

Keyin hammalari Mittivoyga «Ko'p yillar yasha» qo'shig'ini aytib berishdi, Mittivoy to'pponchasini otdi, uning ovozi gumburlab eshitildi.

Mittivoy to'pponchasini ustma-ust otardi, mehmonlarning kelishini kutardi, dadasining: «Kunduzi ham sovg'a-salom olishing mumkin», degan so'zlari sira uning xayolidan ketmasdi. U bir zum o'zini baxtiyor his etdi, baxtimga bitta-yarimtasi it sovg'a qilib qolsa-ya, deb o'yladi. Biroq bu orzusining hecham ushalmasligini u juda yaxshi bilardi, bunchalik hayolga berilgani uchun o'zidan-o'zi jahli chiqdi. Axir, u bugun it haqida sira o'ylamaslikka, hamma narsaga xursand bo'lishga ahd qilgan.

Mittivoy chindan ham har bir narsaga xursand bo'lardi. Oyisi tushlikdan keyin uning xonasidagi stolga dasturxon tuzay boshladi. Oyisi kattakon guldastani guldonga solib, chiroyli, guldor piyolalardan olib keldi. Uchta chashka.

– Oyi, – dedi Mittivoy, – to'rtta chashka kerak.

– Nega endi? – hayron bo'lib so'radi oyisi.

Mittivoy nima deyishini bilmay dovdirab qoldi. Endi u tug'ilgan kuniga Karlsonni ham taklif qilganini oyisiga gapirib berishi kerak edi, oyisining norozi bo'lishini juda yaxshi bilardi.

– Tomda yashovchi Karlson ham keladi, – dedi Mittivoy oyisining ko'ziga dadil boqib.

– Oh! – xo'rsindi oyisi. – Oh! Nima ham derdim, mayli, kelsin. Axir, bugun sening tug'ilgan kuning.

Oyisi kafti bilan Mittivoyning sochini silab qo'ydi.

– Xayolparastliging sira qolmadi-qolmadi-da. Sakkizga chiqqaningga odamning ishongisi kelmaydi. Nechaga chiqding, Mittivoy?

– Ayni qirchillama paytim, – dedi Mittivoy viqor bilan. – Karlson bilan yoshimiz tepa-teng.

Vaqt nihoyatda sekin o'tardi. Dadasi gapirgani o'sha «kunduz» ham allaqachon o'tib ketdi-yu, lekin hech kim yangi sovg'a olib kelmadi.

Mana, nihoyat Mittivoy yana bir sovg'a oldi.

Hali kanikulga chiqmagan Bosse bilan Betan maktabdan qaytib kelishdi-da, shu zahoti Bossening xonasiga kirishdi-yu, eshikni ichidan berkitib olishdi.

Mittivoyni u yoqqa qo'yishmadi. U yo'lakda turib, opasining qiqirlab kulganini, qog'ozning shitirlaganini eshitdi. Mittivoy nima gapligini bilishga juda qiziqardi.

Birozdan keyin ular chiqishdi. Betan kulimsirab Mittivoyga tugun uzatdi. Mittivoy juda sevinib, tugun o'ralgan qog'ozni endi yirtmoqchi bo'luvdi, Bosse uning qo'lini tutib dedi:

– Shoshma, avval ustiga yopishtirilgan she'rni o'qigin. Mittivoy, o'zi o'qiy olsin deyishib, she'rni yirik-yirik harflar bilan yozishgandi. Mittivoy she'rni o'qiy boshladi.

Senga kuchuk hadya etar aka-singil,  
Itlar bilan urishmaydi hech qachon, bil.  
Vovillamas, sakramaydi, tishlamaydi,  
Hech vaqt o'zin hech kimsaga tashlamaydi.  
Dumchasi ham, panjasi ham, qulog'i ham –  
Hammayog'i uning qora duxobadan.

Mittivoy indamadi, u go'yo toshday qotib qolgandi.

– Ana endi tugunni yech, – dedi Bosse.

Biroq Mittivoy tugunni burchakka otib yubordi, ko'zlaridan duv-duv yosh oqdi.

– Senga nima bo'ldi, Mittivoy? – deb so'radi Betan cho'chib.

– Yo'q, yig'lama, yig'lama, Mittivoy! – deb takrorladi Bosse sarosimaga tushib; Mittivoyning juda qattiq xafa bo'lgani shunday sezilib turardi.

Betan Mittivoyni quchoqlab oldi:

– Bizni kechirgin! Biz shunchaki hazillashmoqchi edik. Tushunaysanmi?

Mittivoy qattiq siltanib Betanning qo'lidan chiqib ketdi; yuzi ko'z yoshidan nam bo'lgandi.

– Axir, haqiqiy itim bo'lishini orzu qilib yurganimni bilardilaring-ku, – deb to'ng'illadi u entikib-entikib yig'larkan. – Meni kalaka qilishning nima keragi bor edi...

Mittivoy xonasiga chopib kirdi-da, o'zini karavotiga otdi. Bosse bilan Betan uning orqasidan chopib kirishdi. Oyisi ham chopib keldi. Biroq Mittivoy ularga parvo ham qilmadi – yig'idan uning yelkalari titrardi.

Tug'ilgan kuni ham o'ziga tatimadi, ta'bi xira bo'ldi. Mittivoy hatto unga it sovg'a qilishmasa ham kuni bilan xursand bo'lib yurmoqchi edi. Lekin opasi bilan akasining baxmal kuchukcha sovg'a qilishgani judayam o'tib tushdi. Buni eslasa, ho'ngrab ho'ngrab yig'lab yuborar, boshini yostiqqa yana ham qattiqroq bosardi.

Oyisi, Bosse va Betan karavot atrofida turishardi. Ularning hammasi ham juda xafa edi.

– Hozir dadangga telefon qilaman, ishdan ertaroq kelsin, – dedi oyisi.

Mittivoy hamon yig'lardi... Xo'sh, dadasining uyga kelganidan nima foyda? Endi Mittivoyning ko'ngli chiroq yoqsa ham yorishmasdi. Tug'ilgan kuni ham chipakka chiqdi, endi buni hech nima bilan tuzatib bo'lmaydi.

U oyisining telefon qilgani ketganini eshitdi, lekin yig'isi tingani yo'q. Mittivoy dadasining uyga qaytib kelganini eshitdi, lekin hamon yig'lardi. Endi u hech vaqt xursand bo'lmaydi! Hozir uning o'lgani ma'qul. Undan keyin Bosse bilan Betan bax-

mal kuchukchalarini qaytib olib, kichkina ukalarini tirikligida, tug'ilgan kunida qanday xo'rlashganini, kalaka qilishganini bir umr eslab yurishsin.

Mittivoy hammalari – oyisi ham, dadasi ham, Bosse ham, Betan ham uning karavoti yonida turishganini sezib qoldi. Lekin u yuzini yostiqqa qo'yib berkitib oldi.

– Menga qara, Mittivoy, eshik tagida seni kimdir kutib turibdi... – dedi dadasi.

Mittivoy javob bermadi.

Dadasi uni yelkasidan ushlab silkitdi:

– Nima, eshitmayapsanmi, eshikda seni bitta og'ayning kutib turibdi.

– Gunilla yoki Kristerdir-da, – deb to'ng'illadi Mittivoy.

Yo'q, seni kutib turganning ismi Bimbo, – dedi oyisi.

– Hech qanaqa Bimboni tanimayman! – deb to'ng'illadi Mittivoy.

– Ehtimol, – dedi oyisi. – Lekin uning sen bilan juda tanishgisi bor.

Xuddi shu payt dahliz tomondan sekingina akillagan tovush eshitildi.

Mittivoy tishini-tishiga qo'yib o'jarlik qilib indamay yotaverdi. Ha, u endi chindan ham bu xomxayollarni kallasidan chiqarib tashlashi kerak...

Biroq yana dahlizda akillagan tovush eshitildi. Mittivoy shartta turib o'tirdi.

– Bu nima, itmi? Chinakam itmi? – deb so'radi u.

– Ha, – dedi dadasi, – it, sening iting.

Bosse dahlizga chopib chiqdi-da, bir zum o'tmay, Mittivoyning xonasiga kuchukchani ko'tarib kirdi, Mittivoy ko'zlariga ishonmasdi! Tushimi yo o'ngimi bu!

– Bu mening itimmi? – deb shivirladi Mittivoy.

U qo'llarini Bimboga cho'zganida, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Mittivoy go'yo kuchukcha birdan bug'ga aylanib, yo'q bo'lib ketishidan qo'rqayotgandek edi.

Lekin Bimbo g'oyib bo'lmadi. Mittivoy Bimboni qo'lida ushlab turardi, kuchukcha bo'lsa uning yuzini yalar, qattiq akillar va quloqlarini hidlardidi.



— Xo'sh, endi xursandmisan, Mittivoy? — deb so'radi dadasi. Mittivoy xo'rsinib qo'ya qoldi. Dadasi xursandmisan deb so'rab o'tiribdi-ya! Mittivoy shunday baxtiyor ediki, sevinchini ichiga sig'dirolmasdi, hatto qayeridir jiz etib ketganday bo'ldi. Balki sen o'zingni baxtiyor his etganingda doim shunaqa bo'lsa kerak?

— Baxmal kuchukcha Bimboning o'yinchog'i bo'ladi. Tu-shundingmi, Mittivoy? Seni kalaka qilmoqchi emasdik... yaxshi bo'lmadi, — dedi Betan.

Mittivoy hammasini kechirdi. Umuman, hozir uning qulog'iga gap kirmasdi, chunki Mittivoy Bimbo bilan gaplashardi:

– Bimbo, jajji Bimbo, sen mening itimsan! Keyin Mittivoy oyisiga dedi:

– Menimcha mening Bimbom Albergdan chiroyli, yoqimtoy, chunki juni kalta, oyoqlari qiyshiq va kalta, bunaqa xonaki it dunyoda eng yaxshi it bo'lsa kerak.

Shu payt Mittivoy Gunilla bilan Kristerning hozir kirib kelishlarini eslab qoldi.

Eh-ha! Bir kunda kishiga shunchalik ko'p baxt kulib boqishini u tasavvur ham etmagandi. Hozir uning chinakam iti borligini hamma biladi. Endi Mittivoyning o'z iti bor, yana qanday it deng? Dunyodagi eng chiroyli it-a. Axir, bu hazilakam gapmi?!

Lekin birdan Mittivoy tashvishga tushib qoldi:

– Oyi, buvimnikiga Bimboni ham olib ketsam mayli-mi?

– Iye, bo'lmasam-chi. Sen uni mana bu kichkina savatga solib olib ketasan, – dedi oyisi it solib yuradigan maxsus savatni ko'rsatib. Uni xonaga kuchuk bilan birga Bosse olib kirgandi.

– O', zo'r-u, – dedi Mittivoy.

Qo'ng'iroq ovozi eshitildi. Gunilla bilan Krister kelishgandi. Mittivoy ularga peshvoz chiqarkan, ovozining boricha qichqirdi:

– Menga it sovg'a qilishdi! Endi mening o'z itim bor!

– Voy, buncha chiroyli-ya! – dedi Gunilla, keyin birdan esiga tushib qolib: – Tug'ilgan kuning bilan tabriklayman, – dedi dabdaba bilan. – Mana, Krister ikkovimizning sovg'amiz. – U Mittivoyga bir quti konfet uzatdi, keyin Bimboning qarshisida cho'kkalab, yana takrorladi: – Voy, munchayam chiroyli ekan-a.

Mittivoyga bu gaplar yog'dek yoqardi.

– Xuddi Yoffaga o'xshaydi-ya, – dedi Krister.

– Yo'g'-e, u Yoffadan, hatto, Albergdan ham chiroyli! – dedi Gunilla.

– Ha, u chindan ham Albergdan yaxshi, – deb Krister Gunillaning gapiga qo'shildi.

Mittivoy Gunilla va Krister ajoyib o'rtoq-da, deb o'yladi ichida va ularni yasatilgan dasturxonga taklif qildi. Xuddi shu payt oyisi tarelkachada ustiga pishloq bilan yog' quyilgan buterbrod va vazani to'ldirib pecheniy olib keldi. Mittivoyning tug'ilgan kuniga atab pishirilgan, atrofida sakkizta sham yonayotgan max-

sus pirog stol o'rtasida chiroyli bo'lib turardi. Keyin oyisi qaynoq shokoladli katta ko'zani oldi-da, chashkalarga quya boshladi.

– Nima, Karlsonning kelishini kutmaymizmi? – deb so'radi Mittivoy sekin.

Oyisi boshini chayqadi:

– Yo'q, menimcha, kutib o'tirish kerakmas. Ishonchim ko'milki, u bugun kelmaydi. Umuman, uning nomini boshqa tilga olmaylik. Axir, endi sening Bimbong bor-ku.

To'g'ri, endi Mittivoyning Bimbo laqabli iti bor, lekin u Karlsonning bu ziyofatda bo'lishini juda-juda istardi.

Gunilla bilan Krister stol yoniga o'tirishdi, oyisi ularni mehmon qila boshladi. Mittivoy Bimboni savatga soldi-da, keyin o'zi ham o'tirdi.

Oyisi chiqib ketib, bolalarning o'zi qolganda, Bosse eshikdan mo'ralab:

– Pirogni hammasini yeb qo'ymanglar, Betan ikkovimizga ham qolsin! – deb qichqirdi.

– Bo'pti, bir bo'lakdan qoldiraman, – dedi Mittivoy. – Lekin, bu adolatdan emas: men tug'ilmasimdan avval sizlar necha yil shirin pirog yegansizlar.

– Kattaroq bo'lagidan qoldirgin! – deb qichqirdi Bosse eshikni yoparkan.

Xuddi shu payt tashqarida motorning guvillagan tanish ovozi eshitildi. Bir zum o'tmay xonaga Karlson uchib kirdi.

– Iye, stol atrofiga o'tirdilaringmi? – dedi u. – Hamma narsani yeb bo'lgandirsizlar?

Mittivoy dasturxonda hali noz-ne'mat ko'p, istaganingcha yeb-ichishing mumkin, deb uni tinchitdi.

– Juda soz! – dedi Karlson.

– Mittivoyni tug'ilgan kuni bilan tabriklamaysanmi? – deb so'radi undan Gunilla.

– Ha, ha, albatta tabriklayman! – deb javob berdi Karlson. – Men qayerga o'tiray?

Oyisi stolga baribir uchta chashka qo'ygandi, Karlson buni sezdi-yu, darrov qosh-qovog'i osilib ketdi.

– Yo'q, bunaqa bo'lsa o'ynamayman! Bu adolatdan emas. Nega menga chashka qo'yishmadi?



Mittivoy darrov unga o'zining chashkasini berdi, keyin sekin oshxonaga chiqib boshqa chashka olib keldi.

– Karlson, – dedi Mittivoy, xonaga qaytib kirgach, – menga it sovg'a qilishdi. Uning oti Bimbo. Mana u. – Mittivoy savat ichida uxlab yotgan kuchukchani ko'rsatdi.

– Juda yaxshi sovg'a, – dedi Karlson. – Iltimos, menga buterbroddan uzatib yubor, mana bunisini ham, buni ham... Ha!.. – deb xitob qildi Karlson birdan. – Sal bo'lmasa esimdan chiqayozibdi-ya! Axir, men ham senga sovg'a olib keluvdim-u. Dunyodagi eng yaxshi sovg'a... – Karlson shiming cho'ntagidan hushtak oldi-da Mittivoyga uzatdi: – Endi sen Bimbonga hushtak chala olasan. Men doimo itlarimga hushtak

chalaman. Garchi itlarimning ismi Alberg-u o'zlari uchishni bilishsa ham...

– Iye, hamma itlarning oti Albergmi? – deb hayron bo'ldi Krister.

– Ha, mingtasining ham oti Alberg! – dedi Karlson. – Ha, bo'pti, endi pirogni tushirsak ham bo'lar deyman.

– Rahmat, azizim, azizim Karlson, hushtaging uchun rahmat. Bimboga jon deb hushtak chalaman.

– Ha, bilib qo'y, – dedi Karlson, – hushtakni sendan tez-tez olib turaman, juda tez-tez. – Keyin birdan tashvishlanib so'radi: – Ha, aytmochi, senga konfet sovg'a qilishdimi?

– Albatta-da, – dedi Mittivoy. – Gunilla bilan Krister olib kelishdi.

– Bu konfetlarni xayrli ishga sarflash kerak, – dedi Karlson va qutichani cho'ntagiga solib qo'ydi; keyin yana buterbrod yeya boshladi.

Gunilla, Krister va Mittivoy ham bizga hech nima qolmasa-ya, deb qo'rqib shosha-pisha yeyishardi. Lekin baxtlariga oyisi buterbrodni juda ko'p tayyorlagan ekan.

Bu vaqtda oyisi, dadasi, Bosse va Betan yemakxonada o'tirishardi.

– Qaranglar, bolalarning xonasi jimjit-a, – dedi oyisi. Mittivoyga it olib berganimizdan juda-juda xursandman. Hali bu kuchuk bizni ko'p ovora qiladi-yu, lekin ilojimiz qancha!

– Ha, endi u o'sha tomda yashovchi Karlson haqidagi bema'ni gaplarni unutar, – dedi dadasi.

Shu payt Mittivoyning xonasidan kulgi va bolalarning g'ovurg'uvuri eshitildi. O'shandan keyin oyisi:

– Yuringlar, borib ko'ramiz. Ular shunday ajoyib bolalarki, – deb taklif qilib qoldi.

– Bo'pti, yuringlar, boramiz! – deb qo'shildi Betan.

Hammalari – oyisi, dadasi, Bosse va Betan Mittivoy tug'ilgan kunini qanday nishonlayotganini ko'rgani ketishdi.

Eshikni dadasi ochdi. Biroq birinchi bo'lib oyisi qichqirib yubordi, negaki stol atrofida, Mittivoyning yonida pakana, semiz odamchani birinchi bo'lib oyisi ko'rib qolgandi.

Bu pakana semiz odamchaning butun yuzi qaymoqqa bulg'angan edi.

– Hozir hushimdan ketaman... – dedi oyisi.

Dadasi, Bosse va Betan indamay angrayib qarab turishardi.

– Ko'rdingizmi, oyi, Karlson baribir keldi, – dedi Mittivoy. – Bu galgi tug'ilgan kunim zo'r bo'ldi-da!

Kichkina, pakana odamcha barmog'i bilan labini artidda, do'mboq qo'lchasini Mittivoyning oyisi, dadasi, Bosse va Betanlarga shunday silkita boshladiki, qaymoq atrofga sachrab ketdi.

– Salom! – deb qichqirdi u. – Shu vaqtgacha men bilan tanishish baxtiga muyassar bo'lmovdingiz. Mening ismim Karlson, tomدا yashayman... Hoy, Gunilla, Gunilla, tarelkangga buncha ko'p solmasang! Axir, mening ham pirog yegim kelyapti...

U Gunillaning qo'lini shartta ushladi-da, olgan bir bo'lak shirin pirogni joyiga qo'yishga majbur qildi.

– Men bunday mechkay, ochko'z qizni hech ko'rماغandim! – dedi Karlson va o'z tarelkasiga pirogning katta bir bo'lagini qo'ydi. – Dunyoda pirogni eng ko'p iste'mol qiluvchi odam – bu tomدا yashovchi Karlsondir! – dedi u va xursand bo'lib kulimsirab qo'ydi.

– Yuringlar, bu yerdan ketamiz, – deb shivirladi oyisi.

– Ha, ketganlaring ma'qul bo'lar, bo'lmasa sizlardan uyalyapman – dedi Karlson.

– Menga va'da bering, – dedi dadasi oyisiga, hammalari Mittivoyning xonasidan chiqqanlaridan keyin. – Hammangiz menga va'da beringlar. Sen ham Bosse, sen ham Betan. Hozir ko'rgan-bilganlaringiz haqida hech qachon hech kimga og'iz ochmaymiz, deb va'da beringlar.

– Nega endi?– deb so'radi Bosse.

– Shuning uchunki, bu gapga baribir hech kim ishonmaydi, – dedi dadasi. – Bordi-yu, bitta-yarimta ishongan taqdirda ham so'rayverib, surishtiraverib jonimizga tegadi, o'la-o'lguningcha tinchlik bermaydi!

Dadasi, oyisi, Bosse va Betan Mittivoyning orttirgan ajoyib o'rtog'i haqida hech kimga hech qachon og'iz ochmaymiz, deb bir-birlariga va'da berishdi.

Ular va'dalarida qattiq turishdi.

Darhaqiqat, Karlson haqida hech kim hech narsa bilmadi. Shuning uchun ham Karlson o'zining kichkina uychasida xotirjam yashayapti, bu uycha haqida hech kim hech narsa bilmaydi. Holbuki, bu uycha Stokgolmning oddiy ko'chalaridan biridagi oddiy uyning oddiy tomida joylashgan. Shuning uchun ham Karlson hozirgacha bamaylixotir yuradi, xohlagan joyiga boradi, istagancha shumlik qiladi. Axir, shumlikda dunyoda unga teng keladigani yo'q-da!

Pishloqli non, pecheniy va piroglar yeb bo'linib, Krister bilan Gunilla uylariga ketishgach, Bimbo savatida dong qotib uxlagach, Mittivoy Karlson bilan xayrlasha boshladi.

Karlson uchishga tayyor bo'lib deraza tokchasida o'tirardi. Shamol deraza pardalarini hilpiratib o'ynar, havo bo'lsa yoz boshlangani uchun issiq edi.

– Azizim Karlson, men buvimnikidan qaytib kelgunimcha avvalgiday tomida yashayverasan-a? Shundaymi? – deb so'radi Mittivoy.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Karlson. – Ha, buvim qaytishimga ruxsat bersalar bo'lgani. Lekin hali ma'lummas, chunki u meni dunyoda eng yaxshi nevara deb hisoblaydi.

– Sen chindan ham dunyodagi eng yaxshi nevaramisan?

– Albatta-da. Men bo'lmay kim bo'lardi? Qani, sen boshqa birovni ayta olasanmi? – deb so'radi Karlson.

U shunday dedi-da, qornidagi tugmachasini bosdi, motorcha gurillab ishlab ketdi.

– Men qaytib uchib kelganimdan keyin ikkovimiz bundan ham ko'p pirog yeymiz! – deb qichqirdi Karlson. – Odam pirogdan semirmaydi!.. Ho'p, xayr, Mittivoy!

Karlson uchib ketdi.

Mittivoyning karavoti yonidagi savat ichida Bimbo shirin uxlab yotardi.

Mittivoy engashib, kuchukchanning boshini qoraygan jajji qo'lchalari bilan sekin siladi.

– Bimbo, ertaga buvimnikiga ketamiz, – dedi Mittivoy, – yaxshi yotib tur, Bimbo! Tinch uxlagin.

## TOMDA YASHOVCHI KARLSON YANA UCHIB KELDI

**Y**er kurrasi bepoyon, undagi uylarning son-sanog'i yo'q! Uylarning ichida kattasi ham, kichigi ham bor. Chiroylisi ham, xunugi ham, yangi qurilganlari ham, xarobalari ham bor. Yana tomda yashovchi Karlsonning kichkinagina uychasi bor. Bu uycha dunyodagi eng yaxshi uy ekanligiga, unda jahondagi Karlsonlarning eng yaxshisi turishligiga Karlsonning ishonchi komil. Mittivoyning ham bunga ishonchi komil.

Mittivoyga kelsak, u oyisi, dadasi, Bosse va Betan bilan birga Stokgolm shahridagi oddiy ko'chalarning biridagi eng oddiy uylardan birida yashaydi, lekin shu oddiy uyning tomida, shundaygina mo'rining orqasida kichkinagina bir uycha yashiringan, uning eshigi tepasiga quyidagi so'zlar yozilgan taxtacha qoqib qo'yilgan:

*«Tomda yashovchi Karlson,  
dunyodagi eng yaxshi Karlson!»*

Kimningdir tomda yashashiga hayron bo'ladigan odamlar topilib qolsa kerak, lekin bunday odamlarga Mittivoy shunday deydi:

– Buning hech ajablanadigan yeri yo'q. Har kim xohlagan joyida yashashi mumkin.

Oyisi bilan dadasi ham, har kim xohlagan joyida, ko'ngli tusagan yerda yashashi mumkin, deydi. Biroq ular avvaliga Karlsonning borligiga ishonishmadi. Bosse bilan Betan ham bunga ishonishmadi. Tomda kichkinagina semiz odamcha yashashligini, uning yelkasida parragi borligini, bemaolol ucha olishini ular tasavvur ham etisholmasdi.

– Bo'ldi, vaqillama, Mittivoy, – dedi Bosse bilan Betan, – sening Karlsoning – bu shunchaki bir xayol.

Mittivoy yana bir bor ishonch hosil qilish uchun kunlardan bir kun Karlsondan, sen xayol emasmisan, deb so'radi. Karlson jahli chiqib, to'ng'illadi:

– O'shalarning o'zi xayoliy.

Oyisi bilan dadasi: Mittivoy yolg'iz o'zi ko'pincha zerikadi, yolg'iz qolgan bolalar esa ko'pincha ermak uchun o'zlariga har xil o'rtoqlar o'ylab topishadi, degan fikrga kelishdi.

– Bechora Mittivoy, – dedi oyisi. – Bosse bilan Betan undan ancha katta! Uning o'ynaydigan sherigi yo'q, shuning uchun ham qayoqdagi narsalarni o'ylab topadi.

– To'g'ri, – deb ma'qulladi dadasi. – Biz unga kuchuk sovg'a qilishimiz kerak. U kuchukni ko'pdan buyon orzu qiladi. Mittivoy kuchuk bilan ovunib, Karlsonni darrov unutib yuboradi.

Chindan ham Mittivoyga Bimbo laqabli kuchuk sovg'a qilindi. Endi uning o'z iti bor. Bu kuchukni unga sakkiz yoshga to'lgan kuni sovg'a qilishdi.

Oyisi, dadasi, Bosse va Betan xuddi o'sha kuni Karlsonni ko'rishdi. Ha, ha, ular Karlsonni birinchi bor ko'rishdi. Voqea bunday bo'lgandi:

Mittivoy tug'ilgan kunini o'z xonasida nishonlayotgan edi. Krister bilan Gunilla unikiga mehmon bo'lib kelishgandi. Ular hammasi bir sinfda o'qishardi. Dadasi, oyisi, Bosse va Betan Mittivoyning xonasidan kelayotgan sho'x kulgi-yu g'ala-g'ovurni eshitgach, oyisi:

– Yuringlar, ularni bir ko'raylik, juda ajoyib bolalar-da, – deb taklif qilib qoldi.

– Bo'pti, yuringlar! – deb ma'qulladi dadasi.

Oyisi, dadasi, Bosse va Betan eshikni qiya ochib, Mittivoyning xonasiga mo'ralab, nimani ko'rishdi deng?

Stol to'rida o'tirgan, og'zi-burniga qaymoq chaplagan, odamning havasini keltirib, zo'r berib kavshanayotgan kim edi? Bu o'sha pakana, semiz odamcha edi! U shu zahoti ovozinig bori-cha baqirdi:

– Salom! Mening ismim Karlson, tomida yashayman. Siz, nazarimda, shu vaqtgacha meni ko'rish baxtiga muyassar bo'lmagansiz...

Oyisi sal bo'lmasa hushidan ketay dedi. Dadasi ham rosa xunob bo'ldi.

– Uni ko'rganingiz haqida hech kimga og'iz ochmang, – dedi dadasi. – Eshitdingizmi, hech kimga gapirmang.

– Nega endi? – deb so'radi Bosse. Dadasi tushuntira ketdi:

– Agar odamlar Karlson haqida bilib qolishsa, tinchimiz yo‘qoladi. Uni televizordan ko‘rsatishadi, albatta, kinoga olishadi. Zinadan ko‘tarilayotib doim televizion kabelga, yoritish asbob-uskunalarining simlariga qoqilib yuramiz. Karlson bilan Mittivoyni suratga olish uchun har yarim soatda muxbirlar kelishib, jonimizga tegib ketishadi. Bechora Mittivoyga jabr bo‘ladi, uni hamma «Tomda yashovchi Karlsonni topgan bola..» deb gapiradigan bo‘ladi. Xullas, orom degan narsani bilmaymiz.

Oyisi, Bosse, Betan dadasi haq ekanligini tushunishdi va Karlson haqida hech kimga og‘iz ochmaslikka va‘da berishdi.

O‘sha kunning ertasiga Mittivoy butun yozga qishloqqa – buvisinikiga jo‘nashi kerak edi. U juda xursand edi-yu, biroq Karlsonni o‘ylab tashvish tortardi. Uning yo‘qligida nimalar bo‘lishini kim bilib o‘tiribdi deysiz! Bordi-yu, u birdan g‘oyib bo‘lsa-yu, boshqa qaytib kelmasa-ya!

– Azizim, Karlson, men buvimnikidan qaytib kelganimda ham sen tomda yashaysan-a? Shunday emasmi? – deb so‘radi Mittivoy.

– Kim biladi deysan? – dedi Karlson. – Xotirjamlik bo‘lsin, faqat xotirjamlik. Axir, men ham buvimnikiga ketaman, mening buvimni chinakam, asl buvi desa bo‘ladi.

– Buving qayerda turadi? – deb so‘radi Mittivoy.

– Uyda-da, qayerda bo‘lardi? Nima, sen u ko‘chada yashaydi, kechasi bilan sanqib yuradi deb o‘ylaganmiding?

Mittivoy shu-shu Karlsonning buvisi haqida hech nima bilolmadi. Ertasiga Mittivoy qishloqqa jo‘nadi. U Bimboni ham olib ketdi. Mittivoy kuni bo‘yi qishloq bolalari bilan o‘ynardi, Karlson esiga ham kelmasdi. Yozgi kanikul tugab, Mittivoy shaharga qaytib keldi-yu, eshikdan kirishi bilanoq:

– Oyi, men yo‘qligimda Karlsonni hech ko‘rdingizmi? – deb so‘radi.

Oyisi bosh chayqadi:

– Yo‘q, ko‘rmadim. U endi qaytib kelmaydi.

Yo‘q, unday demang! U bizning tomda yashasin. Karlson yana qaytib kelsin!

– Axir, endi sening Bimbong bor-ku, – dedi oyisi, Mittivoyni yupatmoqchi bo‘lib. Oyisi Karlsonni endi boshqa tilga olmaslikka ahd qilgan edi.

Mittivoy Bimboni silab qo'ydi.

– Ha, mening Bimbom bor. U ajoyib kuchuk, biroq uning qornida parragi yo'q-da, ucholmaydi. Karlson bilan o'ynasang hech zerikmaysan.

Mittivoy xonasiga chopib kirdi-da, derazasini lang ochib yubordi.

– Hoy, Karlson! Sen tomdamisan? Javob ber! – deb qichqirdi u ovozinig boricha, biroq hech qanday javob bo'lmadi. Ertasiga ertalab Mittivoy maktabga ketdi. U endi ikkinchi sinfda o'qirdi.



Tushlikdan keyin xonasiga kirib, dars tayyorladi. U Karlson motorchasining g'uvillagan ovozi eshitmay qolmay, deb derazani yopmadi. Biroq ko'chadan avtomobil motorlarining g'uvillashi-yu, ba'zan esa samolyotlarning gurillagan ovozi eshitalardi, xolos. O'ziga tanish o'sha g'uvillagan tovush qulog'iga chalinmasdi.

– Ha, tushunarli, u qaytib kelmabdi, – dedi Mittivoy alam bilan. – U endi hech qachon qaytib kelmaydi.

Kechqurunlari Mittivoy o'rniga yotarkan, Karlson haqida o'ylardi, ba'zida Karlsonni boshqa ko'rolmasam-a, deb qattiq qayg'urib, ko'rpaga burkanib olib piq-piq yig'lardi. Kunlar o'taverdi, Mittivoy maktabga qatnayverdi, lekin Karlsondan hamon darak yo'q edi.

Kunlardan bir kun, tushki ovqatdan keyin Mittivoy o'z xonasida markalarini yopishtirib o'tirgandi. Oldida albom bilan bir taylay yangi markalar yotardi. U shu markalarni saralab chiqmoqchi edi. Mittivoy hash-pash deguncha, birpasda hamma markalarni yopishtirib bo'ldi. U eng yaxshi, chiroyli markani ataylab olib qoldi. Bu nemis markasi bo'lib, unda Qizil Shapkacha bilan Ochko'z Bo'rining surati solingandi. Marka Mittivoyga juda-juda yoqqandi. U markani oldiga qo'yib olib, tomosha qilardi.

Birdan Mittivoyning qulog'iga kuchsiz g'uvillagan ovoz eshittildi, buni qarangki, xuddi Karlson motorchasining g'uvillashiga o'xshaydi-ya! Ha, chindan ham bu Karlson edi! U derazadan uchib kirdi-da:

– Salom, Mittivoy! – deb qichqirdi.

– Salom, Karlson! – deb baqirdi Mittivoy va o'rnidan sapchib turdi. U sevinchi ichiga sig'may, qandil atrofida bir necha bor aylanib, polga o'ng'aysizgina qo'ngan Karlsondan ko'zini uzmasdi. Karlson motorini o'chirishi (buning uchun qornidagi knopkani sekingina bossa bo'lgani edi) bilan, Mittivoy unga o'zini otib, quchoqlamoqchi bo'ldi, biroq Karlson Mittivoyni do'mboq qo'lchalari bilan itarib yubordi-da, dedi:

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! Yeydigan biror narsang bormi? Balki, tefteli yoki shunga o'xshash biror narsang bordir? Tort bo'lsa ham bo'laveradi.

Mittivoy bosh chayqadi:

— Yo'q, oyim bugun tefteli pishirgani yo'q. Tort faqat bayram kunlaridagina bo'ladi.

Karlsonning qosh-qovog'i osilib ketdi:

— Qoyil-e, shu ham turmush bo'ldi-yu! «Faqat bayram kunlari bo'ladi» emish... Bir necha oy ko'rishmagan qadrdon do'sti kelsa-chi? Oying bunday uchrashuv uchun biror narsa tayyorlasa bo'lardi.

— Iye, bo'lmasam-chi, axir, biz sening kelishingni bilmovdik-da... — deb o'zini oqlamoqchi bo'ldi Mittivoy.

«Bilmovdik emish!» — deb to'ng'illadi Karlson. — Sizlar doimo Karlson kelib qolsa kerak, deb kutishlaring shart. Shuning uchun ham oying bir qo'li bilan teftelni qovurishi, boshqa qo'li bilan tort tayyorlashi kerak.

— Bugun tushlikka oyim kolbasa qovurdilar, — dedi Mittivoy xijolat bo'lib. — Kolbasa yeysanmi?

— Bir necha oy ko'rishmagan qadrdon do'sti mehmon bo'lib kelsa-yu, unga kolbasa qo'yishsa-ya! — dedi Karlson qosh-qovog'i battar osilib. — Ha, tushunarli! Siznikiga kelsang, to'g'ri kelgan narsani yeyishga o'rganib qolasan. Ha, bo'pti, olib kel o'sha kolbasangni.

Mittivoy chopganicha oshxonaga chiqib ketdi. Oyisi uyda yo'q edi, doktorga ketgandi. Shuning uchun ruxsat so'raydigan odam yo'q edi. Axir, Karlson kolbasa yeyishga rozi bo'ldi-yu.

Tarelkada tushki ovqatdan qolgan besh bo'lak kolbasa yotar-di. Karlson xuddi qarchig'ay jo'jaga chang solganday, kolbasaga tashlandi. U og'ziga kolbasa to'ldirib, xursand bo'lib, tirjayib qo'ydi!

— Ha, durust kolbasa ekan. Umuman, yomon emas, yesa bo'ladi. Lekin qovurma tefteliga nima yetsin. Biroq ba'zi odamlardan bundan ortig'ini talab ham qilib bo'lmaydi.

Mittivoy o'zi o'sha «ba'zi odamlar» toifasiga kirishini juda yaxshi tushundi. Shuning uchun Karlsonni boshqa gapga chalg'itmoqchi bo'ldi.

— Buvingnikida yaxshi dam oldingmi, zerikmading-mi? — deb so'radi u.

– Nimasini aytasan, juda mazza qildim. Shuning uchun gapirib o'tirmayman, – deb javob berdi Karlson va ochko'zlik bilan kolbasaning bir bo'lagini og'ziga soldi.

– Men ham mazza qildim, – dedi Mittivoy. U Karlsonga buvisinikida qanday dam olganini gapira ketdi. – Buvim juda, juda yaxshi, – dedi Mittivoy. – Mening borganimga qanchalik sevinganini ko'rsang edi. U meni bag'riga bosib, qattiq quchoqladi.

– Nega endi? – deb so'radi Karlson.

– Chunki u meni yaxshi ko'radi-da. Nahotki shuni tushunmasang? – dedi Mittivoy hayron bo'lib.

Karlson kavshashdan to'xtadi.

– Buvim meni kamroq sevadi deb o'ylaysanmi? Meni bag'riga bosib, quchoqlamadi deb o'ylaysanmi? Shunaqayam quchoqladiki, ko'karib ketdim... Buvim meni shunday yaxshi ko'radi. Senga shuni ham aytib qo'yayki, buvimning qo'llari kichkina-yu, lekin temirday qattiq. Agar u meni sal ko'proq yaxshi ko'rganida bormi, men hozir sening oldingda o'tirmagan bo'lardim. Chunki buvim meni bag'riga bosib quchoqlab, o'ldirib qo'yardi.

– Rostdan-a! – dedi Mittivoy hayron bo'lib. – Demak, sening buving quchoqlash bo'yicha chempion ekan-da.

Mittivoyning buvisi Karlsonning buvisi bilan tenglasha olmasdi, albatta. Mittivoyni juda qattiq quchoqlamasdi-yu, lekin u ham nevarasini juda yaxshi ko'rar va doim erkalardi. Mittivoy buni Karlsonga yana bir bor tushuntirmoqchi bo'ldi:

– Biroq buvim ba'zida juda ezma bo'lib ketadi, – deb qo'shib qo'ydi Mittivoy bir zum o'ylanib turgach. – Oyog'imni ho'l qilsam yoki Lasse Yanson bilan urishib qolsam, buvim javragani-javragan.

Karlson bo'sh tarelkani bir chekkaga surib qo'ydi:

– Mening buvim ezmalikda senikidan qolishadi deb o'ylaysanmi? Qayoqda. Shuni yaxshi bilib qo'yginki, buvim yotish oldidan budilnikni burab qo'yadi, keyin ertalab soat beshda turib oladi-da, nega oyog'ingni ho'l qilding, nega Lasse Yanson bilan urishding, deb javrashga tushadi.

– Nima, sen Lasse Yansonni taniysanmi? – deb so'radi Mittivoy ajablanib.

– Yaxshiyamki tanimayman, – dedi Karlson.

– Unday bo'lsa buving nega javraydi? – deb so'radi Mittivoy battar hayron bo'lib.

– Chunki u dunyoda eng ezma kampir, – dedi Karlson shartta. – Axir, tushunsang-chi! Sen Lasse Yansonni bilar ekansan, buvim eng ezma kampir, deb qanday isbot qila olasan? Sening buving mening buvimning oldida ip ham esholmaydi. Buvim: «Lasse Yanson bilan urishmagin, Lasse Yanson bilan olishmagin», deb ertadan kechgacha javragani-javragan, holbuki men bu bolani hech qachon ko'rgan emasman, bundan keyin ham ko'rmayman.

Mittivoyning boshi qotib qoldi. Axir, bu qanaqasi bo'ldi... U o'zicha buvimning javragani juda yomon deb o'ylab yurardi, endi bo'lsa u Karlsonni buvim aslida juda ezma, deb ishontirishi kerak.

– Oyog'ingni jindek ho'l qildingmi, bo'ldi, javray boshlaydi, paypo'gingni almashtirib ol deb hol-jonimga qo'ymaydi, – deb Mittivoy Karlsonni ishontira ketdi.

Karlson tushundim deganday bosh irg'ab qo'ydi:

– Nima, sen buvim doim, ketma-ket paypo'gingni almashtir deb zo'rlaydi deb o'ylaysanmi? Bilasanmi, men ko'lmakka shunday yaqin kelishim bilanoq buvim qishloqning bir chekkasidan g'izillab chopib keladi-da, hadeb: «Paypo'gingni almashtirib ol, paypo'gingni almashtirib ol, Karlson», deb javragani-javragan, to'ng'illagani-to'ng'illagan. Nima, ishonmaysanmi?

Mittivoy yelkasini qisdi.

– Yo'g'-e, nega endi ishonmas ekanman...

Karlson Mittivoyni bir turtdi, keyin uni stolga o'tqazdi, o'zi ro'parasida ikki qo'lini beliga tirab turib oldi.

– Yo'q, nazarimda, sen ishonmayapsan. Menga qara, hozir hammasini birma-bir gapirib beraman. Ko'chaga chiqdim-da, shartta ko'lmak kechib ketaverdim... O'zing bir o'ylagin-a? O'zim bo'lsam xaxolab kulaman. Shu payt birdan buvim chopib kelib qolsa bo'ladimi, qishloqni boshiga ko'tarib baqirdi: «Paypo'gingni almashtirib ol, Karlsonjon, paypog'ingni almashtirib ol!»

– Xo'sh, sen nima qilding! – deb so'radi Mittivoy qiziqib.

Men buvimga: «Almashtirmayman, almashtirmayman!» dedim, chunki men dunyodagi eng dilozor nevaraman, — deb tushuntirdi Karlson. — Men buvimdan qochib ketdim-da, o'z holimga qo'ysin deb daraxtga chiqib oldim.

— Buving o'zini yo'qotib qo'ygandir, — dedi Mittivoy.

— Mana, buvimning qanaqaligini bilmasliging shundan ham ko'rinib turibdi, — deb e'tiroz bildirdi Karlson. — O'zini yo'qotib ham qo'ymadi, dovdiramadi ham, faqat ketimdan daraxtga chiqdi.

— Daraxtga-ya? — deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

— Nima, buvimni daraxtga chiqolmaydi, deb o'ylaganmiding? Shuni bilginki, javray boshlasa, daraxt u yoqda tursin, undan baland joyga ham chiqadi. U men o'tirgan butoqqa chirmashib chiqarkan, hadeb: «Paypog'ingni almashtirib ol, Karlsonjon, almashtirib ol...» deb ming'irlayverdi.

— Sen nima qilding? — deb so'radi yana Mittivoy.

— Ilojim qancha, — dedi Karlson. — paypog'imni almashtirib oldim, bo'lmasam undan qutulmasdim. Baland daraxtning ingichka bir shoxida o'tirib, paypog'imni bir amallab almashtirib oldim, yiqilib tushishim hech gap emasdi.

— Ha-ha! Hammasi yolg'on, — dedi Mittivoy xaxolab kulib. — O'zing daraxt tepasidasan-u yangi paypog'ni qayoqdan olding?

— Aqling joyida, — dedi Karlson. — Demak, seningcha menda paypoq bo'lganmas, shundaymi?

Karlson shimining pochasinini shimarib kalta, yo'g'on oyoqlaridagi yo'l-yo'l paypog'ini ko'rsatdi.

— Bu nimadi? Balki noski emasdir? Yanglishmasam, ikkita paypoq bo'lsa kerak? Nega endi daraxt shoxida o'tirib paypog'imni almashtirib olishim mumkinmas: chap oyog'imdagi paypoqni o'ng oyog'imga, o'ng oyog'imdagini chap oyog'imga kiyib olishim nega mumkin emas ekan? Nima, kekxa buvimning ko'ngli uchun shu arziyas ishni ham qilolmaymanmi?

— Qila olarding, biroq oyog'ing baribir quruq bo'lmasdiyu, — dedi Mittivoy.

— Nima, senga quridi dedimmi? — dedi Karlson jahli chiqib. — Shunday dedimmi?

– Unday bo'lsa... – Mittivoy dovdiraganidan gapirolmay qoldi. – Unday bo'lsa, paypog'ingni bekor almashtiribsan-da.

Karlson «ha», deganday bosh irg'ab qo'ydi.

– Buvim dunyodagi eng vaysaqi kampir ekanligiga endi tushungandirsan? Sening buving noilojligidan javraydi: senday bebosh, yaramas nevarani tiyib olish osonmi? Mening buvim dunyoda eng vaysaqi, ezma kampir. Chunki bekordan bekorga vaysagani-vaysagan. Buni senga qanday tushuntirsam ekan?

Karlson birdan xaxolab kulib yubordi-da, Mittivoyning yelkasiga sekin turtib qo'ydi.

– Salom, Mittivoy! – deb qichqirdi u. – Kel, buvilarimiz haqida shuncha tortishganimiz yetar, hozir ayni ko'ngil yozadigan payt.

– Salom, Karlson! – deb javob qildi Mittivoy. – Men ham shuni o'ylab turuvdim.

– Balki sening yangi bug' mashinang bordir, – deb so'radi Karlson. – Esingdami, o'sha eskisi portlab ketganida ikkovimiz qanday maza qiluvdik? Balki senga yangisini sovg'a qilishgandir, uni yana portlatishimiz mumkin.

Lekin, afsuski, Mittivoyga yangi mashina sovg'a qilishmadi, buni eshitib Karlsonning darrov qosh-qovog'i osilib ketdi. Biroq birdan uning ko'zi pilesosga tushdi. Oyisi uyni tozalab bo'lib, uni olib qo'yishni unutgandi. Karlson sevinganidan qichqirib yubordi-da, o'zini pilesosga otdi.

– Bilasanmi, dunyoda eng zo'r pilesoschi kim? – deb so'radi u pilesosni tokka ulab. – Men tozalikka juda o'rganib qolganman, atrofim top-toza bo'lsa deyman, – dedi Karlson. – Sen hammasini iflos qilib yuboribsan. Darrov tozalash kerak. Omadlaring bor ekan. Menday eng zo'r pilesoschini uchratib qoldilaring.

Mittivoy oyisi uning xonasini hozirgina yaxshilab tozalab chiqqanini bilardi, bu haqda Karlsonga gapirdi, biroq u Mittivoyning gapiga parvo ham qilmay, istehzoli kulib qo'ydi, xolos.

Xotinlar bunday murakkab, nodir apparatni ishlatishni bilmaydi, bu hammaga ma'lum. Mana, qanday ishlatish kerakligini

ko'rib qo'y, — dedi Karlson va pilesosning rezina ichagini to'r pardaga tutdi. To'r pardaning yarmi birpasda rezina ichiga kirib ketdi.

— Qo'y, kerakmas, — deb qichqirib yubordi Mittivoy, — pardalar juda yupqa, nafis... Ko'rmayapsanmi, pilesos ularni so'rib oldi-yu! Qo'y, bas qill!..

Karlson yelkasini qisib qo'ydi.

— Ha, mayli, molxonaday iflos xonada turaveraman desang, o'zing bilasan, — dedi u.

Karlson pilesosni o'chirmasdan, pardalarni sug'urib olmoqchi bo'lib rosa tortqiladi, lekin foyda bo'lmadi, pilesos sira qo'yib yuboray demasdi.

— Bekorga o'jarlik qilyapsan, — dedi Karlson pilesosga. — Tomda yashovchi Karlsonning kimligini bilmas ekansan, pardalarni tortib chiqarishda bu dunyoda menga yetadigani yo'q!

U yana ham kuchliroq tortdi, nihoyat pardalarni rezina ichakdan sug'urib oldi. Pardalar qop-qora bo'lib, titilib ketgandi.

— Voy, qara, pardalar rasvo bo'libdi-ku, — deb qichqirib yubordi Mittivoy dahshat bilan. — Ular qop-qora bo'lib ketibdi-ya!

— Ha, hamma gap shunda-da, sen, isqirt, tozalamagin deb o'tiribsan-a, — Karlson sen hali hech narsani tushunmaysan deganday Mittivoyning yelkasiga qoqib qo'ydi, keyin yana gapida davom etdi. — Ha, mayli, xafa bo'lma, hammasi oldinda, garchi sen o'lguday isqirt, noshud bo'lsang ham kelgusida ajoyib yigit bo'lishing mumkin. Buning uchun seni bir tozalab qo'yishim kerak. Bugun seni tozalashdimi?

— Yo'q, — dedi Mittivoy iqror bo'lib.

Karlson shlangni qo'liga oldi-da, Mittivoyga yaqinlashdi.

— Eh, bu xotinlarga hayronman, — dedi u. — Xonani bir soatlab yig'ishtirishadi-yu, shunday isqirt bolani tozalab qo'yish eslariga kelmaydi! Kel, qulog'ingdan boshlaymiz.

Mittivoyni ilgarilari hech qachon pilesos bilan tozalashmagan-di, Mittivoyning shunday qitig'i keldiki, kulgidan ichaklari uzilguday bo'ldi.

Karlson bo'lsa juda hafsala bilan, bir boshdan tozaladi. U Mittivoyning qulog'i va sochidan boshladi, keyin bo'ynini,

qo'ltig'ining taglarini, so'ng orqasini, qornini tozaladi, nihoyat gal oyoqlariga keldi.

– Ha, mana buni chinakam tozalash desa bo'ladi, – dedi Karlson.

– Lekin odamni juda qitig'i kelarkan, – dedi Mittivoy.

– Insof bilan aytganda, mehnatim taqdirlanishi kerak, – dedi Karlson.

Mittivoy ham Karlsonni boplab tozalagisi keldi.

– Endi mening galim, – dedi u. – Bu yoqqa kel, avval quloqlaringni bir tozalab qo'yay.

– Hech hojati yo'q, – deb ko'nmadi Karlson. – Bultur sentabrda quloqlarimni yuvganman. Bu yerda mening qulog'imdan ham zarur tozalanadigan narsalar bor.

U xonaga ko'z yugurtirib, stol ustida yotgan markalarni ko'rib qoldi.

– Hammayoqda allaqanday rang-barang qog'ozlar sochilib yotibdi-ya, stolni ham axlat yashigiga aylantirib yuboribsan! – dedi u xunob bo'lib.

Mittivoy uni to'xtatishga ham ulgurmay qoldi, Karlson Qizil Shapkacha va Bo'ri surati solingan markani pilesosda tortib oldi. Mittivoy nima qilishini bilmay qoldi.

– Essiz markam! – deb baqirdi u. – Sen Qizil Shapkachani torttirib yubording, bu qilig'ingni hecham kechirmayman!

Karlson pilesosni o'chirdi-da, qo'llarini ko'ksida qovushtirib turdi.

– Meni kechirgin, – dedi u. – Shunday ko'ngilchan, mu-loyim, iltifotli, ozoda bo'lganim uchun meni kechir, qo'limdan kelgancha yaxshilik qilsam deyman. Buning uchun meni kechirgin...

Karlson go'yo hozir yig'lab yuboradiganday edi.

– Biroq xizmatlarim zoye – ketyapti, – dedi Karlson ovozi titrab. – Hech qachon rahmat deyishmaydi-ya... ta'na qilishgani-qilishgan...

– O', Karlson! – dedi Mittivoy. – Xafa bo'lma, tushunsangchi, axir, Qizil Shapkacha ketdi-ya.

– Bu Qizil Shapkacha deganing kim bo'ldi, shuni deb muncha shov-shuv qilasan? – deb so'radi Karlson ko'z yoshlarini artib.

– Uning markada surati bor edi, – deb tushuntirdi Mittivoy. – Bilasanmi, o'sha eng yaxshi markam edi.

Karlson o'yga cho'mib, jim turardi. Birdan ko'zlari porlab mug'ambirona kulimsirab qo'ydi.

– Qani top-chi, o'yin o'ylab topishga dunyoda kim usta! Hozir qanday o'yin o'ynaymiz, qani topgin-chi!.. Qizil Shapkacha va bo'ri bo'lib o'ynaymiz. Pilesos bo'ri bo'ladi, men ovchi bo'laman, kelib bo'rining qornini yoraman, ichidan lip etib Qizil Shapkacha sakrab chiqadi.

Karlson sabrsizlik bilan xonaga ko'z yugurtirib chiqdi.

– Boltang bormi? Axir, pilesos to'nkaday qattig'u.

Mittivoyning boltasi yo'q edi, yo'qligiga hatto u xursand ham bo'ldi.

– Pilesosni ochish mumkin-ku, go'yo bo'rining qornini yorgan bo'lamiz-da.

– Albatta qo'l uchida qiladigan bo'lsak, ochsak ham bo'ladi, – deb to'ng'illadi Karlson. – Bo'rilarining qornini yorishga to'g'ri kelganida men hecham bu yo'sinda ish tutmasdim. Ha, mayli, bu uyda arzimagan asbob ham topilmagandan keyin bir ilojini qilamiz-da.

Karlson qorni bilan pilesos ustiga yotib, uning dastasiga mahkam yopishib oldi.

– To'nka! – deb baqirdi u. – Qizil Shapkachani nega so'rib olding?

Karlsonning xuddi yosh boladay o'ynayotganini ko'rib Mittivoy juda hayron bo'ldi, lekin baribir uning o'yinini tomosha qilish juda qiziqarli edi.

– Xotirjamlik bo'lsin, faqat xotirjamlik, jajji Qizil Shapkacha! – deb baqirdi Karlson. – Shapkachang bilan kalishingni chaqqon kiyib ol, chunki men seni hozir ozod qilaman.

Karlson pilesosni ochib, ichidagi bor narsani gilam ustiga ag'dardi. Bir uyum chang to'kildi.

– E, gazetaning ustiga to'kishing kerak edi, – dedi Mittivoy.

– Gazetaga?.. Axir, ertakda bunday deyilmagan-ku, – dedi Karlson jahli chiqib. – Nima, ertakda, ovchi Qizil Shapkachani ozod qilish uchun bo‘rining qornini yorishdan avval yerga gazeta soldi deyilganmi? Qani, gapir.

– Ertakda bunday deyilmagan, albatta, – deb noiloj iqror bo‘ldi Mittivoy.

– Unday bo‘lsa jim tur, – dedi Karlson. – Ertakda yo‘q gaplarni o‘ylab topasan-a! Bunaqa qilsang, o‘ynamayman!

Karlson boshqa gapirmadi, chunki ochiq derazadan esgan shamol changni to‘zitib yubordi. Chang Karlsonning burniga kirib ustma-ust aksirdi. Uning aksirishidan chang yana to‘zg‘ib, kichkina bir narsa pol ustida bir zum uchib yurdi-da, so‘ng Mittivoyning oyog‘i tagiga tushdi.

– Voy, mana Qizil Shapkacha, ko‘rgin-a, – deb qichqirdi Mittivoy va chang bosgan markani olgani engashdi. Karlson xursand edi.

– Ana ko‘rdingmi! – dedi Karlson biroz kerilib. – Bir aksirgandim, qidirgan narsam topildi-qoldi... Kel, bundan keyin bechora Qizil Shapkachani deb talashib-tortishib o‘tirmaylik.

Mittivoy qimmatbaho markasining changini puflab tozaladi. U juda xursand edi.

Karlson birdan yana aksirib yubordi, poldan yana chang to‘zoni ko‘tarildi.

– Qani, top-chi, dunyoda eng zo‘r aksiruvchi kim? – dedi Karlson. – Men aksirib butun xonani changga to‘ldirishim mumkin. Xonadan yig‘ilgan chang joy-joyini topsin. Mana hozir ko‘rasan.

Biroq Mittivoy uning gapiga quloq solmadi. Uning es-xayoli Qizil Shapkachani tezroq albomga yopishtirish edi.

Karlson bo‘lsa chang-to‘zonga bulanib, hadeb aksirardi. Xullas u changni butun xonaga to‘zg‘itib yubormaguncha ketma-ket aksiraverdi!

– Mana ko‘rdingmi, gazeta solish kerak deb o‘tiribsan-a. Chang yana o‘z joyiga qo‘ndi. Ha, har bir ishda tartib bo‘lishi kerak, men shunga o‘rganganman. Ifloslikka, to‘ng‘izlikka sira toqat qilolmayman, sira ko‘nika olmayman.

Mittivoy bo'lsa markasidan boshini ko'tarmasdi. U markani yopishtirib bo'lib, uni maroq bilan tomosha qildi. Judayam chiroyli-da!

– Quloqlaringni yana bir bor tozalashim kerak shekilli! – dedi Karlson. – Sen hech nimani eshitmayapsan!

– Nimalar deyapsan? – takror so'radi Mittivoy.

– Karquloq! Hadeb men bir o'zim ishlayveramanmi, bu insofdan emas, deyaipman. Qaragin, qo'llarim qadoq bo'lib ketdi! Xona top-toza bo'lsin deb o'lib-tirilib, terlab-pishib ishlayapman. Endi sen men bilan birga uchib borib, xonamni tozalashda yordam berishing kerak, aks holda, noinsoflik bo'ladi.

Mittivoy albomni bir chekkaga qo'ydi. Karlson bilan birga tomga uchib chiqishni u faqat orzu qila olardi, xolos. U Karlsonning tomdagi kichkina uyhasida atigi bir marta bo'lgan edi. Biroq o'shanda oyisi negadir juda qo'rqib ketdi va o't o'chirish ko'mandasini chaqirdi.

Mittivoy o'ylanib qoldi. Axir, unga ancha bo'ldi, endi u katta bo'lib qoldi, istagan tomiga bemalol chiqib tushishi mumkin. Biroq oyisi buni tushunarmikin? Hamma gap shunda. Hozir oyisi uyda yo'q, kimdan ham ruxsat so'raydi. Eng yaxshisi, bormagani ma'qul...

– Qani, uchdikmi? – deb so'radi Karlson. Mittivoy yana bir bor yaxshilab o'ylab ko'rdi.

– Bordi-yu, meni yiqitvorsang-chi? – deb so'radi Mittivoy biroz cho'chib.

Karlson bu gapga parvo ham qilmadi.

– Parvo qilma! – dedi u. – Axir, dunyoda bolalardan ko'pi yo'q. Bitta bola ko'paydi nima-yu ozaydi nima, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku.

Mittivoy Karlsondan chinakam xafa bo'ldi.

– Men ro'zg'or bo'ldimmi? Yo'q, agar men yiqilib tushsam...

– Xotirjamlik, faqat xotirjamlik bo'lsin, – dedi Karlson va Mittivoyning yelkasiga qoqib qo'ydi. – Sen yiqilmaysan. Seni buvim meni quchoqlaganday mahkam quchoqlab olaman. Sen albatta, bir isqirt bolasan, lekin baribir menga yoqasan.

U Mittivoyning yelkasiga yana qoqib qo'ydi.

– Tavba, o‘zim ham hayronman, nega sen tentakka juda o‘rganib qoldim-a? Shoshmay tur hali, tomdagi uychamga yetib olaylik, seni bir qattiq qisayki, ko‘karib ketgin. Axir, buvimdan mening qayerim kam?

Karlson qornidagi knopkasini bosdi – motorcha g‘uvillab ketdi. Karlson do‘mboq qo‘lchalari bilan Mittivoyni mahkam quchoqlab oldi. Ular derazadan uchib chiqishib, asta-sekin yuqoriga ko‘tarila boshlashdi.

Titilib ketgan qora to‘r pardalar go‘yo ular bilan xayrlashayotgandek tinmay silkinardi.

## KARLSONNING UYIDA

**T**om ustidagi kichkina uychalar doim shinam, fayzli bo‘ladi, Karlsonning uyini-ku, gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi. Yashil darchalari kichkina, chiroyli pillapoyasi bor uychani bir tasavvur qiling-a? Kechqurunlari ostonada o‘tirib yulduzlarni tomosha qilishga, kunduzlari meva sharbati ichib, shirin kulchalar yeyishga nima yetsin. O‘shanda ham sharbat, kulchalar bo‘lsa, albatta. Agar kechasi uy isib ketsa, bemalol pillapoyada uxlash mumkin. Ertalab, uyqudan turib, Ostermalm orqasida, tomlar ustida ko‘tarilayotgan quyoshni tomosha qilasan.

Ha, chindan ham Karlsonning uychasi juda shinam, chiroyli. U mo‘rining orqasiga shunday qulay joylashganki, uni darhol topolmaysan ham. Mo‘ri orqasidan arvohlarni qidirmasdan, shunchaki tomma-tom sayr qilib yurgan bo‘lsang Karlsonning uychasini topish ancha mushkul, albatta. Axir, bu hech kimning xayoliga ham kelmaydi-da.

– Bu yerda, tepada hamma narsa boshqacha, – dedi Mittivoy Karlson ikkovi uychaning eshigi oldiga kelib tushishgandan so‘ng.

– Ha, yaxshiyamki shunday, – deb javob berdi Karlson. Mittivoy tevarak-atrofga qaradi.

– Qayoqqa qaramagin, hammayoqda tomlar! – dedi u.

– Tomlarning uzunligi bir necha kilometr keladi, bemalol aylanib yurish, sho‘xlik qilish mumkin.

– Biz ham sho‘xlik qilamizmi? Ko‘p emas, jindakkina, a? – deb so‘radi Mittivoy xursand bo‘lib.

U o‘tgan safar Karlson ikkovi tomida qilgan sho‘xliklarini esladi. O‘shanda juda mazza qilishgandi-da.

Biroq Karlson unga bir xo‘mrayib qo‘ydi:

– Ha, tushunarli, uyni tozalaging yo‘g‘-a, shundaymi? Sen uchun o‘lib-tirilib ishlayapman, molxonangni sal bo‘lsayam tozalab qo‘yay deb terlab-pishib yotibman-u sen bo‘lsang aylanaylik, sho‘xlik qilaylik deysan-a. Topgan gapingni qara-yu, qoyilman-e!

Biroq, Mittivoy aytarliq hech nima o‘ylab topolmadi.

– Senga jon deb yordam beraman, kerak bo‘lsa men ham supurib-sidiraman.

– Ha, bu boshqa gap, – dedi Karlson va eshikni ochdi. Tashvish tortma, xotirjam bo‘l, – deb takrorladi Mittivoy. – Agar zarur bo‘lsa yordamlashaman, albatta...

Mittivoy jahondagi eng yaxshi odam – Karlsonning uychasiga kirdi-yu, serrayib qotib qoldi. U anchagacha indamay qotib turdi ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketgandi.

– Ha, yordam berish kerak ekan, – dedi u nihoyat. Karlsonning uyi atigi bitta xonadan iborat edi. Xonada bitta dastgoh turardi, bu topilmaydigan ajoyib narsa. Unda randalash ham mumkin, ovqatlansa ham bo‘ladi, eng muhimi – ustiga istagan narsani qo‘yish mumkin. Kichkina divancha ham bor edi, unda uxlash, dik-dik sakrash, eski-tuski narsalarni tashlash mumkin. Ikki stul ham bor edi. Ularga o‘tirish, har xil buyumlarni qo‘yish, shkafning yuqori tokchasiga biror narsa qo‘yish kerak bo‘lsa ustiga chiqish mumkin edi. Ha, aytmoqchi, odatda u yerga hech nima qo‘yib bo‘lmasdi, chunki shkaf to‘la edi, hech nima sig‘masdi. Shuning uchun polga ham, devorga ham hech narsa sig‘masdi. Chunki pol ham, devorlar ham har xil buyumlarga to‘lib-toshib ketgandi, jindek ham bo‘sh joy yo‘q edi. Karlsonning xonasida uch oyoqli temir o‘chog‘i bor edi, unda ovqat pishirardi. Kaminning tokchasiga ham har xil narsalar uyub tashlangandi. Shiftan deyarli hech nima osilib turmasdi: faqat parma, yong‘oq solingan to‘rxalta, piston solingan paket, ombir, bir-ikki juft shippak, randa, Karlsonning yotganda kiyadigan ko‘ylagi, qozon sochiq, temir kosov, kichkina sakvo-

yaj, quritilgan olcha solingan xaltadan boshqa hech nima osilib turmasdi.

Mittivoy ostonada uzoq turib qoldi, sarosimada hammayoqni ko'zdan kechirib chiqdi.

— Ha, nega hang-u mang bo'lib qolding? Ha, bu yerda ko'radigan, tomosha qiladigan narsa ko'p, sening xonang menikining oldida ip esholmaydi, sening poling xuddi dasht-sahroga o'xshaydi-ya.

— Ha, to'g'ri aytding, seniki sahroga o'xshamaydi, — dedi Mittivoy. — Shuning uchun ham uyingni yig'ishtirmoqchisanda, ha, tushunib turibman.

Karlson divanga uzala tushib yotib oldi.

— Yo'q, sen gapimni tushunmading, — dedi u. — Men hecham uyimni yig'ishtirmoqchi emasman. Uni sen yig'ishtirmoqchisan... Sening xonangni yig'ishtirganim ham yetar. Shunday emasmi?

— Nima, menga yordam ham bermaysanmi? — deb so'radi Mittivoy tashvishlanib.

Karlson yostiqqa yonboshladi-da, pishillay boshladi. Juda yaxshi o'rnashib olgan odamgina shunday pishillashi mumkin edi.

— Yo'q, nega endi, senga yordam beraman, albatta, — deb Mittivoyga tasalli bergan bo'ldi, pishillashdan to'xtab Karlson.

— Juda soz, — dedi Mittivoy xursand bo'lib. — Qo'rqib ketuvdim-a, menga yordam...

— Albatta yordam beraman, — dedi Karlson uning gapini ilib olib. — Ashula aytib, maqtovli so'zlar bilan senga madad berib, ko'nglingni ko'tarib turaman. Bir-ikki, uch deyman-u, sen xuddi o'yin tushgandek, xonada pildirab aylanasan. Xursand bo'lasan.

Mittivoy bunga unchalik ishonmasdi. U umrida hech bunchalik ko'p ishlamagandi. To'g'ri, u uyida o'yinchoqlarini yig'ishtirib qo'yardi, xolos. Lekin doim oyisi uch-to'rt, ba'zida besh marta bu haqda ogohlantirishi shart edi. O'shandan keyingina Mittivoy yig'ishtira boshlardi. Biroq u bu ishni juda zerikarli, eng muhimi, mutlaqo ortiqcha, bema'ni narsa deb hisoblardi.

— Nimadan boshlay? — deb so'radi Mittivoy.

— To'nka! Yong'oq po'chog'idan boshlashni hamma ham biladi-ku, — javob qildi Karlson. — Judayam tozalab o'tirma, chun-

ki keyin narsalarni hozirgiday qilib joy-joyiga yaxshilab qo'yib chiqolmayman. Sal-pal yig'ishtirsang bo'ladi.

Yong'oq po'chog'i polda apelsin po'chog'i, olcha danagi, kol-basa po'sti, g'ijimlangan qog'ozlar, yoqilgan gugurt cho'plari va boshqa cho'p-xaslar bilan aralash-quralash bo'lib sochilib yotardi. Ularning ko'pligidan pol ko'rinmasdi.

— Pilesosing bormi? — deb so'radi Mittivoy, bir zum o'ylanib turgach.

Bu savol Karlsonga yoqmadi. U Mittivoyga xo'mrayib qaradida:

— Oramizda dangasa, ishyoqmaslar bor ekan-a, tavba, dunyodagi eng zo'r pollatta bilan jahondagi eng yaxshi xokandoz u kishiga yoqmasa-ya. Pilesos ber emish, bir amallab qutulib qolsa-da! — dedi zarda bilan va jahli chiqqanidan to'ng'illab qo'ydi: — Agar istasam, bir emas, yuzta pilesosim bo'lardi. Lekin men ba'zi birovlariga o'xshab dangasa, ishyoqmas emasman. Men mehnatdan qo'rqmayman.

— Nima, men qo'rqamanmi? — dedi Mittivoy o'zini oqlab. — Ha, aytmoqchi, baribir elektring yo'q, demak, pilesosning ham bo'lishi mumkin emas.

Mittivoy Karlsonning uyida zamonaviy qulayliklarning bittasi ham yo'qligini eslab qoldi. Uning uyida na elektr, na vodoprovod bor edi.

Kechalari Karlson kerosin chiroq yoqardi, suvni esa tarnov tagidagi bochkadan olardi.

— Axlat tashlanadigan quvuring ham yo'q, — deb gapida davom etdi Mittivoy, — holbuki senga judayam zarur.

— Nega endi bo'lmas ekan! — dedi Karlson xunobi oshib. — Sen qayoqdan bilasan? Sen polni supurgin-a, men senga dunyodagi eng zo'r axlat quvurini ko'rsataman.

Mittivoy xo'rsinib, qo'liga supurgi olib, ishga tushdi. Karlson bo'lsa qo'llarini boshi tagiga qo'yib, divanda cho'zilib yotganicha uning ishini kuzatardi. U ko'rinishdan juda xursand edi.

U xuddi va'da qilganiday Mittivoyga madad bo'lsin deb, ashula boshlab yubordi:

Kunduz uzun tuyular,  
Kim dangasa bo'lsa gar.  
Ishlab bo'ldingmi halol –  
O'ynayvergin bemalol!

– Oltin so'zlar, – dedi Karlson va yostiqni balandroq qo'yib, yaxshilab o'rnashib oldi.

Mittivoy bo'lsa boshini ko'tarmay supurardi. Ayni ish qizigan paytda Karlson ashulasini to'xtatib:

– Birpas damingni olib, menga qahva qaynatib berishing mumkin, – dedi.

– Qahva qaynat dedingmi? – deb qaytalab so'radi Mittivoy

– Ha, iltimos, – dedi Karlson. – Seni ortiqcha qiynamoqchi emasman. Pechga o't yoqib, suv obkelib, qahva tayyorlasang bo'ldi, boshqasi kerakmas. Ichishni, mayli, o'zimga qo'yib ber.

Mittivoy polga xomush qarab qo'ydi, pol hali-veri toza bo'ladigan emasdi.

– Men supurib bo'lgunimcha balki qahvani o'zing qaynatarsan?

Karlson og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Odam degan ham shunchalik yalqov bo'ladimi? – deb so'radi u. – Dam olarkansan, nahotki qahva qaynatib berish sen uchun shunchalik og'ir?

– Og'irlikka og'ir emas-u, – deb javob qildi Mittivoy, – gapimni tugatay, oxirigacha eshit. Menimcha...

– Eshitmayman, – deb uning gapini bo'ldi Karlson. – Bekorga gapirib, og'zingni charchatma! Yaxshisi, sen quloq-burningni pilesos bilan terlab-pishib tozalagan, sen uchun o'lib-tirilayotgan odamga biror yaxshilik qilishga uringin.

Mittivoy supurgini bir chetga qo'ydi-da, chelak olib suvga ketdi. Keyin o'tinxonadan o'tin olib keldi, o't yoqmoqchi bo'lib ko'p urindi-yu, hech ish chiqarolmadi.

– Bilasanmi, mening hech tajribam yo'q-da, – dedi Mittivoy biroz xijolat bo'lib, – o'zing... faqat yoqib berolmaysanmi-a?

– Hecham-da, – deb gapini bo'ldi Karlson. – Agar yurib turganimda boshqa gap edi, unda senga qanday o't yoqishni

ko'rsatib qo'yardim. Axir, men hozir yotibman. Shuning uchun ham atrofingda girdikapalak bo'lishimni talab ham qilma.

Mittivoyga Karlsonning gapi asosliday tuyuldi. U yana bir marta gugurt chaqdi, birdan olov lovullab, o'tin chirsillab yona boshladi.

– O't oldi! – deb qichqirdi Mittivoy sevinganidan.

– Ana, ko'rdingmi! Faqat dadil va chaqqon harakat qilish kerak, bironing yordamiga ishonmaslik zarur, – dedi Karlson. – Endi olovga qahva qaynatadigan choynakni qo'y, qahvaga zarur narsalarning hammasini manavi chiroyli patnisga qo'y, bulochka qo'yish esingdan chiqmasin. Keyin uyni yig'ishtiraver; qahva qaynaguncha hammayoqni yig'ishtirib bo'lasan.

– Ayt-chi, qahvani o'zing ichishingga ko'zing yetadimi? – deb so'radi Mittivoy istehzo bilan.

– Iye, bo'lmasam-chi, o'zim ichaman, – deb ishontirdi uni Karlson. – Sen ham jindek ichasan, menday mehmondo'st odam kamdan kam topiladi.

Mittivoy hammayoqni supurib-sidirib, yong'oq po'chog'i, olcha danagi va iflos qog'ozlarni katta axlat chelakka solganidan keyin Karlson yotgan divanchaning bir chetiga borib o'tirdi. Keyin ikkovlari qahva ichib, bir talay bulochka yeyishdi. Mittivoy juda yayradi. Karlsonning uyini tozalash, yig'ishtirish ancha charchat-sa ham, unikida o'zini juda yaxshi his qildi.

– Axlat quvuring qani? – deb so'radi Mittivoy bulkaning so'nggi bo'lagini og'ziga solarkan.

– Hozir ko'rsataman, dedi Karlson. – Axlat chelakni olib, orqamdan yur.

Ular eshik oldiga chiqishdi.

– Mana, – dedi Karlson, tomlarni ko'rsatib.

– Nima, bu nima deganing? – deb so'radi Mittivoy juda hayron bo'lib.

– Pastga shartta to'kaver, – dedi Karlson. – Mana senga dunyodagi eng yaxshi axlat quvuri.

– Axir, axlatni ko'chaga to'kkan bo'laman-ku, – dedi Mittivoy e'tiroz bildirib.

Karlson chelakni shartta oldiga surib oldi:

– Mumkinmas deysanmi? Mana hozir ko'rasan. Orqamdan yugur.

Karlson chelakni ko'targanicha, tomning chetiga borganida o'zini to'xtatolmay qolsa-ya, deb qo'rqib ketdi.

– To'xta! – deb qichqirdi Mittivoy. – To'xta!.

Karlson to'xtadi. Lekin u tomning eng chetiga borganda to'xtadi.

– Nimani kutib turibsan? – deb qichqirdi Karlson Mittivoyga. – Oldimga chopib kel.

Mittivoy o'tirdi-da, ehtiyotkorlik bilan pastga sirg'alib tusha boshladi.

– Dunyoda eng zo'r axlat quvuri!.. Axlat yigirma metr balandlikdan tushadi, dedi Karlson va chelakni shartta ag'dardi.

Yong'oq po'chog'i, olcha danagi, g'ijimlangan qog'ozlar dunyodagi eng yaxshi «axlat quvuridan» kuchli oqim bilan ko'chaga, sigara chekib trotuardan ketayotgan bashang bir janobning xud-di boshiga to'kildi.

– Voy, – deb qichqirib yubordi Mittivoy, – voy, qaragin, qaragin-a, hammasi uning boshiga tushdi.

Karlson yelkasini qisib qo'ya qoldi:

– Kim unga mening axlat quvurim tagida yursin debdi? Mittivoy bo'lsa hamon tashvish tortardi.

– Yong'oq po'chog'i hoynahoy uning botinkalariga kirib qolgandir, olcha danaklari sochiga ilashib qolgan bo'lsa kerak. Yaxshi bo'lmadi-da.

– Bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku, – deb Karlson Mittivoyga tasalli berdi. – Agar odamning yashashiga faqat botinkasiga kirib qolgan yong'oq po'chog'i xalaqit berayotgan bo'lsa, u o'zini baxtiyor hisoblashi mumkin.

Lekin sigara chekayotgan janob negadir o'zini baxtiyor hisoblayotganga o'xshamasdi. Ular tomdan hammasini tomosha qilib turishdi. Haligi janob u yoq-bu yog'ini uzoq tozaladi, keyin politsiyachini chaqirayotganini eshitishdi.

– Ba'zilar bo'lar-bo'lmasga shovqin-suron ko'tarishadi, – dedi Karlson. – U, aksincha bizdan minnatdor bo'lishi kerak. Agar olcha danagi nish urib, sochida ildiz otsa-yu, boshida olcha da-

raxti o'sib chiqsa maza-ku. U kuni bilan istagan yerida sayr qilib yurishi, xohlaganida olchadan bermalol yeyishi mumkin bo'ladi.

Karlson bilan Mittivoy bu orada mo'ri orqasidagi uychariga eson-omon yetib olishdi.

– Mening ham olcha yegim kelyapti, – dedi Karlson xonaga kirishlari bilan. – Ha, qo'ymading-qo'ymading-da, bor, olchadan olib kel, xaltada shiftda osig'liq turibdi.

– Nima, mening bo'yim yetadimi? – deb so'radi Mittivoy.

– Dastgohning ustiga chiqib olgin.

Mittivoy xuddi shunday qildi, keyin Karlson ikkovi eshik oldiga o'tirib olishib, olcha qoqisidan yeyishga tushishdi. Ular olcha danagini tupurib tashlashar va tomdan dumalab pastga tushishini tomosha qilishardi.

Qosh qorayib qolgandi. Yoqimli, iliq kuz oqshomi tomlar va uylar ustiga cho'ka boshlagandi. Mittivoy Karlsonning yoniga borib o'tirdi. Eshik oldida olcha qoqi yeb o'tirish juda maza-yu, lekin atrof tobora qorong'ilasha boshladi. Uylar endi butunlay boshqacha ko'rinardi, avvaliga kulrang tusga kirib, qandaydir sirli bo'lib qolishdi, keyin oxirida butunlay qorayib ketishdi. Go'yo birov kattakon qaychilar bilan qora qog'ozlardan uychar qirqib olgan-u chiroq yonib turgan derazalarni ifodalash uchun ba'zi joylariga bir parcha yupqa zar qog'oz yopishtirib chiqqanday edi. Bu zar darchalar tobora ko'payardi, chunki odamlar xonalarida chiroq yoqishardi. Mittivoy bu yorug' darchalarni sanab chiqmoqchi bo'ldi. Avvaliga uchta edi, keyin o'ntaga yetdi, so'ng shunday ko'paydiki, Mittivoyning ko'zlari qamashib ketdi. Derazalarda odamlar ko'rinib turardi – ular xonadan xonaga o'tishib, har biri o'z ishi bilan mashg'ul bo'lardi. Ularning nima qilayotganini, qiyofasini, nega boshqa joyda emas, xuddi shu yerda turishini shunchaki taxmin qilish mumkin edi.

Ha, aytmoqchi, bu haqda faqat Mittivoygina taxmin qilardi. Karlsonga hammasi ma'lum edi.

– Bechoralar qayerda ham turishardi, – dedi u. – Axir hamma ham tomda yashayolmaydi, hammasi ham jahondagi eng zo'r Karlsonlar bo'lolmaydi-da.

**M**ittivoy Karlsonnikida mehmon bo'lgan paytida oyisi doktorga ketgandi. U o'ylaganidan ko'proq ushlanib qoldi. Oyisi uyga qaytib kelganida Mittivoy o'z xonasida bamaylixotir markalarini tomosha qilib o'tirardi.

– Mittivoy, hali ham o'sha markalar bilan ovora bo'lib o'tiribsanmi?

– Ha, – deb javob berdi Mittivoy. U chindan ham markalarini o'ynab o'tirgandi.

Atigi bir necha daqiqa oldin tomdan tushgani haqida Mittivoy lom-mim demadi. To'g'ri, oyisi juda aqlli xotin, hamma narsani tushunadi, biroq Mittivoyning tomga chiqishi juda zarur bo'lganini oyisi tushunarmikin? Bunga Mittivoyning ishonchi komil emasdi. Shuning uchun ham u Karlsonning kelgani haqida hech nima demaslikka ahd qildi. Har holda hozir bu gapning xonasi emas. Hamma oila a'zolari to'planmasdan burun aytolmaydi. U bu «xushxabar»ni tushki ovqat paytida aytadigan bo'ldi. Oyisi ham negadir xafa ko'rinadi. Ikki qoshining orasiga ajin tushibdi. Bu ajin qayoqdan paydo bo'ldi deb Mittivoy uzoq bosh qotirdi.

Nihoyat, hamma oila a'zolari to'planishdi, oyisi hammani ovqatga chaqirdi; oyisi ham, dadasi ham, Bosse ham, Betan ham, Mittivoy ham stol atrofiga o'tirishdi. Tushlikka do'lma qilishibdi – yana karam-a! Mittivoy bo'lsa foydasi yo'q narsalarnigina yaxshi ko'radi. Biroq stol tagida, uning oyoqlari yonida Bimbo yotardi, u farqiga bormay hamma narsani yeyaveradi. Mittivoy do'lmani ochib, karamni g'ijimlab sekin polga, Bimboning oldiga tashladi.

– Oyi, unga gapirsangiz-chi, bunday qilish yaxshimas, – dedi Betan, – bo'lmasa Bimbo ham Mittivoyga o'xshab tartibsiz, bebosh bo'lib o'sadi.

– Ha, ha, to'g'ri, – dedi oyisi parishonlik bilan. U go'yo hech nima eshitmaganday beparvogina gapirdi.

– Kichkinaligimda oldimga qo'ygan ovqatning hammasini yeyishga majbur qilishardi, – dedi Betan sira bo'sh kelmay.

Mittivoy unga tilini ko'rsatdi.

– Ana, ana ko'rib qo'ying. Kimga gapiryapsan demaydi-ya. Nazarimda, oyimning gaplari senga kor qilmayotganga o'xshaydi, Mittivoy.

Birdan oyisi ko'ziga yosh oldi.

– Urishmalaring, iltimos, – dedi u. – Ko'nglimga g'idi-bidilaring sig'maydi.

Oyisining nega xafa ko'ringani endi ma'lum bo'ldi.

– Doktor menga, siz juda kamqonsiz, qattiq charchagansiz, dalaga chiqib, yaxshilab dam olishingiz kerak deyapti.

Xonaga jimlik cho'kdi. Anchagacha hech kim og'iz ochib gapirmadi. Bu juda ko'ngilsiz xabar edi! Oyisi betob bo'lib qolibdi, bu hammalari uchun og'ir musibat deb o'ylashardi ular. Mittivoy bo'lsa oyisining ketib qolishi haqida o'ylab battar ezilardi.

– Maktabdan kelganimda har doim oshxonada bo'lishingizni, peshband tutib olib menga har kuni yog'liq shirin bulochka yopib berishingizni istayman, – dedi Mittivoy.

– Sen doim o'zingni o'ylaysan, – deb darrov tanbeh berdi Bosse. Mittivoy oyisining pinjiga tiqildi.

– Bo'lmasam-chi, oyim bo'lmasa menga bulochka tegarmidi. Biroq oyisi uning bu gapini eshitmadi. U dadasi bilan gaplashayotgan edi.

– Men yo'g'imda sizlarga qarab turishi uchun uy xizmatchisi topishga harakat qilib ko'ramiz.

Dadasi ham, oyisi ham tashvishda edi. Tushki ovqat har galgidan ko'ngilsiz o'tdi. O'tirganlarning sal bo'lsayam ko'nglini ko'tarish uchun nimadir qilish kerakligini Mittivoy tushunardi; bu ishni o'zidan boshqa kim boplaydi?

– Endi bir xushxabar eshitinglar, – deb gap boshladi u. – Qani, topinglar-chi, bugun kim qaytib keldi?

– Kim qaytib keldi? Har holda, Karlson bo'lmasa kerak? – deb so'radi oyisi tashvish aralash. – Iltimos, bizni boshqa xafa qilma!

Mittivoy oyisiga gina aralash qarab qo'ydi.

– Men Karlsonning qaytib kelganini eshitib hamma xursand bo'ladi deb o'ylabman.

Bosse xaxolab kulib yubordi:

– Endi juda mazza bo'larkan-da. Oyim ketib, o'rniga Karlson qaytib kelsa, bu yoqda xizmatkor ayol o'z bilganicha ish tutsa, rosa kunimizni ko'rarkanmiz-da.

– Meni qo'rqitmalar! – dedi oyisi. – Agar xizmatkor ayol Karlsonni ko'rsa nima bo'lishini bilasizlarmi?

Dadasi Mittivoyga bir o'qrayib qo'ydi.

– Bu haqda gap bo'lmaydi, – dedi u. – Xizmatkor ayol Karlsonni hech qachon ko'rmaydi, uning haqida hech nima eshitmaydi. Shunga va'da bergin, Mittivoy.

– Aslini olganda, Karlson istagan tomoniga uchib boradi, – dedi Mittivoy. – Lekin uning haqida xizmatkor ayolga hech nima gapirmayman, deb va'da berishim mumkin.

– Umuman, hech kimga bu haqda og'iz ochma, – dedi oyisi. – Shartimizni unutmagin.

– Agar hech kimga aytish mumkin bo'lmasa, demak, muallim opamizga aytish mumkin ekan-da.

Biroq dadasi bosh chayqadi:

– Yo'q, ayta ko'rma, ungayam mumkin emas.

– Tushunarli! – dedi Mittivoy. – Demak, men xizmatkor ayol haqida ham hech kimga hech narsa demasligim kerak ekan-da? Chunki u ham Karlsondan battar boshog'riq bo'lsa kerak.

Oyisi xo'rsinib qo'ydi.

– Hali xizmatchi topa olamizmi, yo'qmi, ma'lum emas. Ertasi kuni ular gazetaga e'lon berishdi. Biroq bittagina ayol telefon qildi. Uning ismi Bok xonim ekan. Bir necha soatdan keyin u kelishib olgani uyga keldi. Xuddi shu payt Mittivoyning qulog'i og'rib qolsa bo'ladimi. U oyisining oldida bo'lgisi keldi. Uning tizzasida o'tirsa yaxshi bo'lardi-ya, lekin ochig'ini aytganda, Mittivoy bu yoshdan allaqachon o'tib qolgandi.

«Quloq og'rib turganida o'tirsa bo'ladi», deb o'yladi u o'zicha va oyisining tizzasiga chiqib o'tirib oldi.

Shu payt eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Bok xonim keldi. Mittivoyga oyisining tizzasidan tushishga to'g'ri keldi. Lekin Mittivoy oyisining yonidan bir qadam ham jilmadi, oyisi o'tirgan stulning suyanchig'iga osilib oldi-da, og'riq qulog'ini uning qo'lga bosdi, og'riq judayam kuchayganida sekin hiqillab yig'lab qo'yardi.

Mittivoy xizmatkor yosh, chiroyli, maktabdagi muallima opasiga o'xshab yoqimtoy qiz bo'lsa kerak deb umid qiluvdi. Lekin butunlay aksi bo'lib chiqdi. Bok xonim baland bo'yli, barvas-ta, qattiqqo'l, o'z aytganini qiladigan bir so'zli ayol edi. Uning bag'baqasi bir nechta bo'lib, ko'zlari xunuk boqardi. Mittivoy avvaliga, hatto qo'rqib ham ketdi. U Bok xonimni hech qachon yaxshi ko'rmasligini darrov tushundi. Bimbo ham buni tushunganday tinmay akillardi.

– E, itimiz ham bor denglar? – dedi Bok xonim.

Oyisi tashvishga tushib qoldi.

– Nima, itni yomon ko'rasizmi, Bok xonim? – deb so'radi oyisi.

– Yo'q, nega, yaxshi tarbiya ko'rgan itlarni yoqtiraman.

– Bimboning yaxshi tarbiya ko'rganiga unchalik ishonmayman, – deb e'tirof etdi oyisi.

Bok xonim qo'l siltab qo'ydi.

– Hechqisi yo'q, sizlarnikiga kelsam u yaxshi tarbiyalanadi. Itlarni birpasda ipakday qilib qo'yaman.

Mittivoy, shu xotin biznikiga hech qachon kelmasin, deb o'zicha duo qildi. Buning ustiga qulog'i yana sanchib qoldi, u sekin ihrab qo'ydi.

– Akillagan it bilan hiqillagan bolaning tanobini tortib qo'yish qo'limdan keladi, – dedi Bok xonim kulimsirab.

Aftidan, u bu gapi bilan Mittivoyni uyaltirmoqchi bo'ldi shekilli, lekin Mittivoy o'zicha hech uyaladigan yerim yo'q deb hisoblardi. Shuning uchun ham sekin, xuddi o'ziga-o'zi gapirganday:

– Botinkam g'irchillaydi, – dedi.

Oyisi eshitib, uyalganidan qizarib ketdi.

– Siz bolalarni yaxshi ko'rsangiz kerak-a, Bok xonim?

– O, bo'lmasam-chi, odobli, tarbiya ko'rgan bolalarni yaxshi ko'raman, – deb javob qildi Bok xonim. Keyin Mittivoyga tikilib qoldi.

Oyisi yana xijolat bo'ldi.

– Mittivoyni juda yaxshi tarbiya ko'rgan, odobli deb aytolmayman, – deb ming'illadi oyisi.

– U yaxshi tarbiya oladi, odobli bo'ladi, – deb oyisini ishontirdi Bok xonim. – Tashvish tortmang, bolalar ham mening qo'limga tushsa, darrov ipakday muloyim bo'lib qolishadi.

Mittivoy hayajonlanganidan qizarib ketdi: Bok xonim qo'lga tushib, mo'min, muloyim bo'lgan bolalarga juda rahmi keldi. Hademay o'zi ham o'shalarining biri bo'ladi. Bunchalik qo'rqib ketganiga hayron bo'lmasa ham bo'ladi.

Ha, aytmoqchi, oyisi ham ancha gangib qolgandi. U Mittivoyning boshini siladi-da:

– Bu bolaga yaxshi gapirsangiz, hamma aytganingizni qiladi, – dedi.

– Tajribadan shuni sinadimki, shirin gap hammavaqt ham yordam beravermas ekan, deb qat'iy e'tiroz bildirdi Bok xonim. – Bolalarga nisbatan qattiqqo'l bo'lish kerak, ular katalardan biroz cho'chisin.

Keyin Bok xonim oyiga qancha pul olishi haqida gapirdi, meni uy xizmatchisi emas, uy bekasi, uy xo'jayini deb atanglar, deb ogohlantirib ham qo'ydi. Shu bilan muzokara tugadi. Xuddi shu payt dadasi ham ishdan keldi, oyisi ularni bir-biriga tanishtirdi. Bizning uy bekamiz Bok xonim.

– Bizning... uy zolimamiz, – deb shivirladi Mittivoy va xonadan chopqillagancha chiqib ketdi.

Ertasiga oyisi buvisinikiga jo'nab ketdi. Uni kuzatishayotib hammalari yig'lashdi, ayniqsa, Mittivoy ko'p yig'ladi.

– Bu uy zolimasi bilan yolg'iz qolishni istamayman! – dedi Mittivoy hiqillab yig'lab.

Biroq qolmaslikning iloji yo'q edi, buni uning o'zi ham bilardi. Bosse bilan Betan maktabdan kech kelishardi, dadasi bo'lsa ishdan soat beshdan oldin qaytmasdi. Har kuni Mittivoy uy zolimasi bilan bir necha soatlab birga bo'lishi kerak edi. U shuning uchun ham yig'lagandi.

Oyisi uni bag'riga bosib o'pdi:

– Yaxshi bola bo'lib yurgin... men uchun! Iltimos, uni uy zolimasi deb atama.

Ertasi kuni Mittivoy maktabdan kelishi bilanoq ko'ngilsizliklar boshlandi. Oshxonada na oyisi, na qahva, na shirin kulcha bor

edi. Endi oshxonada Bok xonim xo'jayinlik qilardi. Mittivoyning kelganiga u xursand bo'lmadi ham.

– Xamir ovqat ishtahani bo'g'adi, – dedi. – Hech qaysing shirin kulcha yemaysan.

O'zi esa bir talay shirin kulcha pishirib, sovusin deb deraza tokchasiga qo'ygandi.

– Axir... – deb gap boshlagandi Mittivoy.

– Hech qanday «axir-paxiri» yo'q, – dedi Bok xonim uning gapini bo'lib. – Avvalambor, o'g'il bolaning oshxonada qiladigan ishi yo'q. O'z xonangga kirib, darsingni tayyorla. Kamzulingni osib qo'y, qo'lingni yuv! Qani, chaqqon-chaqqon bo'!!

Mittivoy o'z xonasiga chiqib ketdi. Uning ham jahli chiqqan, ham qorni och edi. Bimbo savat ichida uxlab yotardi. Biroq Mittivoy ostonadan xatlab o'tishi bilan Bimbo savat ichidan dik etib sakrab tushdi-da, unga peshvoz chiqdi.

«Meni ko'rib xursand bo'ladigan odam bor ekan-ku», – deb o'yladi Mittivoy va kuchukni quchoqladi.

– U senga ham ozor bergandir-a? Uni ko'rarga ko'zim yo'q! «Kamzulingni osib qo'y, qo'lingni yuv» emish! Ehtimol men ham shkafni shamollatib, oyoqlarimni yuvishim kerakdir? Kamzulimni birov aytmasa ham osib qo'yaman! Ha, ha!

U kamzulini Bimboning savatiga tashladi, Bimbo kamzulning yengini tishlaganicha ustiga chiqib yotib oldi.

Mittivoy deraza oldiga kelib ko'chaga qaradi. U deraza oldida turib, o'zining qanchalik baxtsizligi, oyisi bo'lmasa qanchalik yuragi siqilishi haqida o'yladi. Birdan xursand bo'lib, yuzi yorishib ketdi: tom tepasida, ko'chaning narigi betida Karlson uchish bo'yicha juda murakkab mashqlar qilardi. U mo'rilar orasidan gir-gir aylanib, ahyon-ahyonda havoda charxpalak bo'lib uchardi.

Mittivoy kuchining boricha qo'lini silkitdi, Karlson shu zahoti uchib keldi. Kelganidayam shiddat bilan o'qday uchib kelgandiki, Mittivoy chekkaga arang qochib qoldi, bo'lmasa unga urilishi mumkin edi.

– Salom, Mittivoy! – deb qichqirdi Karlson. – Seni xafa qilmadimmi ishqilib? Nega xafa ko'rinasan? Nima, mazang yo'qmi, tobing qochdimi?

– Yo‘q, gap bunda emas, – deb javob berdi Mittivoy, keyin Karlsonga o‘zining mushkul ahvoli, oyisining qishloqqa ketib, o‘rniga uy zolimi – o‘lguday sovuq, jahli tez, xasis bir xotin kelgani, maktabdan kelganingdan keyin hatto shirin kulcha ham bermasligi, holbuki shirin kulcha deraza tokchasida uyulib yotgani haqida birma-bir gapirib berdi.

Karlsonning ko‘zlari charaqlab ketdi.

– Omading bor ekan, – dedi u. – Qani top-chi, uy zolimlarini tiyib qo‘yishda dunyoda eng usta kim?

Mittivoy darrov fahmladi, lekin u Karlson Bok xonimga bas kela oladi, deb sira o‘ylamagandi.

– Men ishni uning popugini pasaytirishdan boshlayman.

– Sen uning «joniga tegaman» demoqchisan-da? – deb takror so‘radi Mittivoy.

Karlsonning bunaqangi bema‘ni e‘tirozga toqati yo‘q edi.

– Agar «joniga tegaman» demoqchi bo‘lsam, xuddi shunday derdim: «Popugini pasaytirish» ham xuddi o‘sha joniga tegishning o‘zi-yu, faqat yana ham kulgili bo‘ladi-da. Buni o‘zing ham tushungandirsan.

Mittivoy biroz o‘ylab turdi-da, Karlsonning haqligiga noiloj tan berdi. «Popugini pasaytirish» chindan ham juda kulgili eshitilardi.

– Menimcha, ishni shirin kulchalarni yo‘q qilishdan boshlagan ma‘qul, – dedi Karlson. – Sen menga yordam berishing kerak.

– Qanday qilib? – deb so‘radi Mittivoy.

– Oshxonaga kirib, uy zolimasini gapga sol.

– Mayli-yu, lekin... – deb gap boshlagandi Mittivoy.

– Hech qanday «lekini» yo‘q, – deb shartta uning gapini bo‘ldi Karlson. – Sen u bilan istagan narsang haqida gaplashishing mumkin, u sal chalg‘isa bo‘lgani.

Karlson xaxolab kulib yubordi, u go‘yo tovuqday qaqillab xandon otardi. Keyin knopkani bosdi, parrak g‘uvillab aylandi-yu, Karlson hamon xaxolab kulganicha derazadan uchib chiqib ketdi.

Mittivoy oshxonaga dadil ketdi. Uy zolimasining tanobini tortib qo‘yadigan eng zo‘r odam bo‘lganidan keyin u nimadan ham qo‘rqardi.

Bu gal Bok xonim Mittivoyni yana ham sovuq qarshi oldi. U endi o'ziga qahva qaynatayotgan edi. Bok xonim bir necha daqiqa yolg'iz o'zi orom olib, shirin kulchalar bilan qahva ichmoqchi ekanligini Mittivoy juda yaxshi bilardi. Demak, xamir ovqat bolalarga zarar qilar ekan-da.

Bok xonim Mittivoyga bir qarab qo'ydi. U tumtayib olgandi.  
– Senga nima kerak? – deb so'radi u ensasi qotib.

Hozir ayni u bilan gaplashadigan payt, deb o'yladi Mittivoy. Lekin gapni nimadan boshlashni bilmay garang edi.

– Qani toping-chi, sizday katta bo'lganimda men nima ish qilaman? – deb so'radi u nihoyat.

Shu payt uning qulog'iga g'uvillagan tanish tovush eshitildi. Biroq Karlson ko'rinmasdi. Faqat do'mboq kichkina qo'lcha derazada lip etib ko'rindi-yu, lagandagi shirin kulchani ilib ketdi. Mittivoy qiqillab kulib yubordi. Bok xonim hech nimani sezmadi.

– Xo'sh, katta bo'lganingda nima qilasan? – deb so'radi u peshonasi tirishib. Bu narsa uni mutlaqo qiziqtirmasligi shunday sezilib turardi. U Mittivoydan tezroq qutulishni istardi.

– Yo'q, siz toping-da! – deb turib oldi Mittivoy.

Shu payt u kichkina do'mboq qo'lchaning lagandan yana bir kulchani olganini ko'rib qoldi. Mittivoy yana qiqillab kulib yubordi. U o'zini tiymoqchi bo'ldi-yu, lekin sira ilojini qilolmadi. Aftidan, unda kulgi yig'ilib qolganga o'xshaydi, go'yo u tutqich bermay, ichidan otilib chiqayotganday edi. Bok xonim jahli chiqib, Mittivoy dunyoda eng injiq, kishining joniga tegadigan bola deb o'yladi o'zicha. Kelgan vaqtini qarang-a, xotirjam qahva ichmoqchi bo'lib turuvdi-ya.

– Qani toping-chi, sizday katta bo'lganimda nima ish qilaman? – deb takror so'radi Mittivoy va avvalgidan battar qiqillab kuldi, chunki endi ikki kichkina qo'lcha lagandagi qolgan kulchalarning hammasini olib ketdi.

– Sening bema'ni gaplaringni eshitishga vaqtim yo'q, – dedi Bok xonim. – Katta bo'lganingda nima ish qilishing haqida bosh qotirmoqchi emasman. Hozircha yosh bola ekansan, kattalarning aytganini qil. Oshxonadan jo'na, borib darsingni tayyorlagin.

– Ha, hoziroq tayyorlayman, – dedi Mittivoy va shunday xaxolab kuldiki, o'zini tutolmay eshik kesakisiga suyanib qol-

di. — Lekin sizday katta bo'lganimda men tinmay javraydigan bo'laman, bu turgan gap.

Bok xonimning yuzi g'alati bo'lib ketdi, go'yo u hozir Mittivoyni do'pposlaydiganday edi. Lekin shu payt ko'chadan sigirning ma'rashiga o'xshash g'alati bir tovush eshitildi. Bok xonim shartta o'girilib, laganda kulchalarning yo'qligini ko'rib qoldi.

Bok xonim jahli chiqib baqirdi:

— Voy xudoyim, kulchalar qani?

U deraza oldiga chopib bordi. Aftidan, u shirin kulchalarni qo'yninga solib qochib ketayotgan o'g'rini ko'rib qolamanmi, deb o'yladi shekilli. Svanteson oilasi to'rtinchi qavatda turadi, bunday uzun oyoqli o'g'rilar bo'lmasligini u yaxshi biladi, albatta.

Bok xonim hang-u mang bo'lib, stulga o'tirib qoldi.

— Nahotki kaphtarlar? — deb ming'illadi u.

— Ma'ragan tovush eshitilganiga qaraganda hoynahoy sigir bo'lsa kerak, — dedi Mittivoy. — Shirin kulchalarni yaxshi ko'radigan uchar sigirdir. U kulchalarni ko'rib qolgan-u tili bilan yalab ketgan.

— Bema'ni gaplaringni qo'y, — deb to'ng'illadi Bok xonim. Lekin shu payt deraza tomondan Mittivoyning qulog'iga yana tanish ovoz eshitildi. O'sha ovozni bosib yuborish va Bok xonimni boshqa narsaga chalg'itish uchun Mittivoy ovozinig boricha ashula aytib yubordi:

Ey, xonqizi, xonqizi  
Uchgin ko'k tomon,  
Keltir bizga non,  
Ham shirin kulcha,  
Bo'g'irsoq ancha.

Mittivoy oyisi bilan birga tez-tez she'r yozib turardi. Oyisi ikkovining «xonqizi», «shirin kulcha», «teshikkulcha» haqida yozgan she'rlari yaxshi chiqqanini Mittivoyning o'zi ham bilardi. Lekin Bok xonim boshqacha fikrda edi.

— Jim bo'li! Bu bema'ni qiliqlaring jonimga tegdi! — deb o'shqirdi u.

Xuddi shu payt deraza oldida nimadir jaranglab ketdi, ikkovi ham qo'rqanlaridan seskanib ketishdi. Ular o'girilib qarashdida, bo'sh laganda yotgan besh ere tangani ko'rishdi. Mittivoy yana qiqillab kuldi.

– Juda vijdonli sigir ekanmi, – dedi u kulgi aralash. – Shirin kulchalarga pul tashlab ketibdi.

Bok xonim g'azabdan qip-qizarib ketdi.

– Bu qanaqa ahmoqona hazil! – deb baqirdi u va yana deraza oldiga chopib bordi. – Tepadagi kvartirada turadiganlardan bitta yarimtasi hazillashib kulchalarimni o'g'rilab, o'rniga besh ere tanga tashlab ketyapti shekilli.

– Tepamizda hech kim turmaydi, – dedi Mittivoy. – Biz eng yuqori qavatda turamiz, tepamizda tom bor, xolos.

Bok xonim tutaqib ketdi.

– Hech nimaga tushunolmay qoldim! – deb o'shqirdi. – Aqlim yetmay qoldi.

– Ha, men buni allaqachon payqovdim, – dedi Mittivoy. – Keling, shunga ham xafa bo'lib o'tirasizmi. Axir, hamma ham aqli bo'lavermaydi-yu.

Mittivoy bu gapi uchun tarsaki yedi.

– Men senga qo'pollik qilishni ko'rsatib qo'yaman! – deb baqirdi u.

– Yo'q, yo'q, kerakmas, ko'rsatmay qo'ya qoling, – deb yalindi Mittivoy va yig'lab yubordi. – Bo'lmasa, oyim qaytib kelganlarida meni taniyolmaydilar.

Mittivoyning ko'zlari yiltirardi. U hamon yig'lardi. Uni hech qachon hech kim urmagan edi. Shuning uchun ham juda xo'rligi keldi. U Bok xonimga o'qrayib qarab qo'ydi. Bok xonim uning qo'lidan ushlab, xonasiga olib kirdi.

– Shu yerda o'tir, o'z qilmishingdan o'zing uyalgin, – dedi u. – Men eshikni berkitib, kalitini olib qo'yaman. Endi har besh daqiqada oshxonaga kirib-chiqavermaysan.

U qo'lidagi soatiga qaradi.

– Menimcha, seni ipakday muloyim qilish uchun bir soat yetar deyman. Soat uchda seni chiqarib yuboraman. O'tirib, kechirim so'raganda nimalar deyish kerakligini eslab olgin.

Bok xonim shunday dedi-yu, chiqib ketdi. Mittivoy qulfnig shiq etib yopilganini eshitdi: endi eshik berk, u hech qayoqqa chiqolmaydi. Axir bundan yomoni bormi? U Bok xonimni juda yomon ko'rib qolgandi. Biroq o'zidan ham ayb o'tdi, chunki odob saqlayolmadi. Mana endi uni to'rqovoqqa o'tqazib qo'yishdi. Oyisi, Mittivoy uy zolimasini mazax qilgan, qo'pollik qilgan deb o'ylaydi. U oyisi haqida, uni hali-veri ko'rolmasligi haqida o'yladi-yu, yana yig'lab oldi.

Biroq shu payt guvillagan tovush eshitdi va xonaga Karlson uchib kirdi.

### KARLSON ZIYOFAT BERDI

— **S**eni oddiygina nonushtaga taklif qilsam nima deysan? — deb so'radi Karlson. — Qahva bilan yumshoqqina shirin kulchalarim bor. Taklif qilaman.

Mittivoy unga minnatdorlik bilan qarab qo'ydi. Dunyoda Karlsondan yaxshi odam yo'q! Mittivoy uni quchoqlagisi keldi. U quchoqlamoqchi ham bo'lgandi, lekin Karlson uni itarib yubordi.

— O'zingni bos, o'zingni. Men senga buving emasman. Xo'sh, uchdikmi?

— Iye, bo'lmasam-chi! — deb qichqirib yubordi Mittivoy. — Ha aytmoqchi ustimdan berkitib qo'yishgan. Bilasanmi, xuddi qamoqda o'tirgandayman.

— Ha, bildim. Bu uy zolimasidan chiqqan hunar. Unga qolsa, sen xonangdan tashqariga bir umr chiqmasang.

Karlsonning ko'zlari birdan porlab ketdi, xursand bo'lganidan dik-dik sakradi.

— Bilasanmi, nima qilamiz? O'yin o'ynaymiz. Sen go'yo qamoqdasan-u, o'sha zolim nazoratchi — uy zolimasining dastidan ko'p azob tortyapsan. Tushundingmi? Kutilmaganda dunyoda eng zo'r, qo'rqmas, to'ladan kelgan ajoyib bir bahodir paydo bo'ladi-yu, seni qutqaradi.

— O'sha qahramon kim ekan? — deb so'radi Mittivoy.

Karlson Mittivoyga gina aralash qarab qo'ydi.

– Qani top-chi! Topolmadingmi?

– Ehtimol sendirsan, – dedi Mittivoy. – Lekin sen meni hoziroq qutqarishing mumkin, shunday emasmi?

Bunga Karlson e'tiroz bildirmadi.

– Bo'lmasam-chi, albatta qutqara olaman, chunki o'sha qahramon judayam epchil, abjir, chaqqon, – deb tushuntirdi u. – Qarchig'ayday uchqur, ha, ha, rost aytyapman, ham dovyurak, ham baquvvat, ham kelishgan, ham semizgina. U to'satdan paydo bo'ladi-yu, seni qutqaradi, chunki u haddan tashqari jasur. Bir, ikki, uch, mana u.

Karlson Mittivoyni mahkam quchoqlab oldi-da, o'qday uchib ketdi. Ha, chindan ham dovyurak qahramon! Bimbo Mittivoyning derazadan chiqib ketayotganini ko'rib, vovilladi, lekin Mittivoy unga yo'l-yo'lakay qichqirdi:

– Xotirjam bo'l, xotirjam! Men tezda qaytib kelaman.

Tepada, Karlsonning eshigi oldida qip-qizil qilib pishirilgan o'nta shirin kulcha qator qilib terib qo'yilgandi. Ular odamning ishtahasini qitiqlardi.

– Ular uchun halol haq to'ladim, – deb maqtandi Karlson. – Biz kulchalarni teng bo'lib olamiz – senga yettita, menga yettita.

– Bo'lib bo'lmaydi, – deb e'tiroz bildirdi Mittivoy. – Yetti-yu yetti o'n to'rt bo'ladi, bizning esa o'nta kulchamiz bor.

Karlson javob o'rniga shosha-pisha yettita kulchani bir chetga qo'yib qo'ydi.

– Bular meniki, o'zimnikini ajratib oldim, – dedi u do'mboq qo'lchasi bilan kulchalarni berkitib. – Hozir maktablarda ahmoqona hisob qilishadi. Biroq men shu bema'ni hisobni deb jabrlanishni istamayman – biz yettitadan bo'lib olamiz, vassalom, mana bular meniki.

Mittivoy itoatkorona bosh irg'adi.

– Bo'pti, baribir men uchtdan ortiq yeya olmayman. Qahvachi, qahva qani?

– Pastda, uy zolimasinikida, – deb javob berdi Karlson. – Hozir borib olib kelimiz.

Mittivoy unga qo'rquv aralash qarab qo'ydi. Bok xonimni yana ko'rishga, buning ustiga tarsaki yeyishga tobi yo'q edi.

Buning ustiga qahva solingan bankani qanday qilib olishadi, Mittivoyning bunga sira aqli yetmasdi. Axir, banka ochiq deraza tokchasida emas, Bok xonimning shunday ko'zi oldida, plitaning yonidagi javon ustida turibdi-ya.

– Uni qanday olish mumkin? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

Karlson zavqi ichiga sig'may qiyqirib yubordi:

– E, sening bunga aqling yetarmidi, axir, sen kaltafahm bir bolasan-da! Biroq dunyoda eng zo'r shumtaka ishga kirishadigan bo'lsa, tashvish tortishning hojati yo'q.

– To'g'riku-ya, lekin qanday... – deb gap boshlagandi Mittivoy, Karlson uning so'zini bo'ldi.

– Ayt-chi, bizning uyimizda kichkina balkonchalar borligini bilasanmi? – deb so'radi Karlson.

– Bo'lmasam-chi, Mittivoy buni biladi. Oyisi poyandozlarni ko'pincha shu balkonchada qoqardi. Bu balkonchalarga faqat orqa eshikdagi zinadan o'tish mumkin.

– Orqa eshik bilan balkonchani oralig'i bitta zinachalik kelishini, hammasi bo'lib o'nta pog'ona borligini bilasanmi? – deb so'radi Karlson.

Mittivoy hali ham hech nimaga tushunmagandi.

– O'sha balkonchaga chiqishning nima keragi bor? Karlson bir xo'rsinib qo'ydi.

– Uh, buncha ham nodon bo'lmasang, hamma narsani og'zingga chaynab solib qo'yish kerak-a. Men o'ylab topgan narsani qulog'ingni berib yaxshilab eshitib ol.

– Qani, gapir, gapir! – deb shoshiltirdi Mittivoy sabri chidamay.

– Gap bundoq, – deb sekin gap boshladi Karlson. – Bitta tentak bola «Karlson» sistemali vertolyotda o'sha balkonga uchib keladi, keyin zinadan atigi o'n pog'ona tushadi-da, eshiklarningning qo'ng'irog'ini kuchining boricha bosadi. Tushundingmi? Jahldor uy zolimasi qo'ng'iroq ovozi eshitib, gursillatib qadam bosib, shoshmasdan eshikni ochgani ketadi. Shunday qilib, oshxona bir necha daqiqa dushmandan tozalanadi. Dovyurak, miqtidan kelgan qahramon derazadan uchib kiradi-da, o'sha zahoti qahva solingan bankani olib, uchib chiqadi. Tentak bola qo'ng'iroqni

yana bir bor uzoq bosadi va qaytadan balkonchaga chopib chiqadi. Jahldor uy zolimasi eshikni ochadi-yu, hech kim yo'qligini ko'rib, battar jahli chiqadi. Balki u Qizil atirgul olib kelishdi deb o'ylagandir. U to'ng'illab, eshikni yopadi. Balkonchadagi tentak bola miqti qahramonning kelishini kutarkan, o'zicha qotib-qotib kuladi. Qahramon uni ajoyib ziyofat – shirin-shakar, yumshoq kulchalar kutayotgan tomga olib chiqib qo'yadi. Qoyilmisan, Mittivoy, qani topchi, dunyoda eng zo'r shumtaka kim? Qani, endi ishga kirishaylik.

Mittivoy es-hushini yig'ib ulgurmasidanoq, Karlson uni olib balkoncha tomonga uchib ketdi! Ular shunday keskin burildilarki Mittivoyning qulog'i shang'illab, yuragi Amerika tog'larida yurgandagidan ko'ra kuchliroq shuvullab ketdi. Keyin hamma ish xuddi Karlson aytganidek bo'ldi.

Karlsonning motorchasi oshxona derazasi oldida g'uvillab turdi Mittivoy bo'lsa orqa eshikning qo'ng'irog'ini kuchining boricha bosdi. U o'sha zahoti yaqinlashayotgan qadam tovushini eshitib, orqa-oldiga qaramay chopdi va hash-pash deguncha balkonchaga chiqib oldi. Bir zum o'tmay eshik ochilib, Bok xonim boshini chiqarib qaradi. Mittivoy ehtiyotlik bilan mo'ralab, uni balkon eshigining oynasidan ko'rdi. Karlson juda topib gapirgan ekan: jahldor uy zolimasi hech kim yo'qligini ko'rib, g'azabidan ko'karib ketdi. U ovozing boricha baqirib qarg'ab, haligina qo'ng'iroqni bosgan odamning yana qaytib kelishini kutayotganday, ochiq eshik oldida ancha turib qoldi. Biroq qo'ng'iroqni bosgan odam balkonchada yashirib olib, qotib-qotib kulardi. Nihoyat miqtidan kelgan qahramon uchib kelib, uni mo'ri orqasidagi uychaning eshigi oldiga olib borib qo'ydi. U yerda bularni ajoyib ziyofat kutardi.

– Qoyil! – dedi Mittivoy, zinapoyada Karlson bilan yonmayon o'tirarkan. U kulcha yeb, qahva icharkan, quyosh nurida yaltirab ko'rinayotgan Stokgolmning tom va minoralarini tomosha qilardi.

Kulchalar juda shirin, qahva ham juda mazali edi. Mittivoy uni Karlsonning uch oyoqli temir o'chog'ida qaynatdi. Sut bilan qandni Karlson Bok xonimning oshxonasidan qahva solin-

gan bankaga qo'shib olib kelgandi. Axir sutsiz, qandsiz qahva bo'ladimi.

– Hammasining haqini halol to'ladim, besh erelik tanga tashlab keldim, u hozir ham oshxonadagi stol ustida yotibdi, – dedi Karlson g'urur bilan. – Halol odam hamisha halolligicha qoladi, bu turgan gap.

– Sen bu besh erelik tangalarni qayoqdan olding? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

– Ko'chadan topib olgan hamyondan, – deb tushuntirdi Karlson. – Uning ichi tangaga to'la, boshqachalari ham bor.

– Demak, kimdir hamyonini yo'qotib qo'yibdi-da. Bechora xafa bo'lgandir.

– Iye, bo'lmasam-chi, – dedi Karlson. – Lekin izvoshchi anqov bo'lmasligi kerak.

– O'sha odamning izvoshchi ekanligini qayoqdan bila qolding? – deb so'radi Mittivoy ajablanib.

– Uning hamyonini yo'qolganini o'z ko'zim bilan ko'rdim-da, – dedi Karlson. – Uning izvoshchi ekanini shlapasidan bilib oldim. Axir, men ahmoq emasman-ku.

Mittivoy Karlsonga ta'na aralash qarab qo'ydi. Ko'zing oldida birov narsasini yo'qotsa, kishi o'zini bunday tutmaydi. U buni Karlsonga tushuntirib qo'yishi kerak. Faqat hozir emas... boshqa vaqt, o'rni kelganda! Hozir u zinapoyada Karlson bilan yonmayon o'tirib quyosh nuridan bahra olgisi, kulcha yeb, qahva ichib maza qilgisi kelyapti.

Karlson hash-pash deguncha o'zining yettita kulchasini yeb bo'ldi. Mittivoy imillab endi ikkinchi kulchani yeyayotgandi, uchinchisi esa zinada yotardi.

– Juda mazza qilyapman-da! – dedi Mittivoy.

Karlson u tomonga engashdi-da, Mittivoyning ko'zlariga tikildi.

– Ko'riningingdan hecham maza qilayotganga o'xshamaysan. Ko'rininging yomon, ha, juda yomon, ranging o'chib ketibdi.

Karlson tashvishlanib Mittivoyning peshonasini ushlab ko'rdi.

– Ha, o'zim biluvdim-a! Kulcha bezgagiga chalinibsan.

Mittivoy hayron bo'ldi:

– Bu yana qanaqa kasal, kulcha bezgaging nimasi?

– Juda xavfli, og‘ir kasal, kulchani ko‘proq yeb qo‘ysang, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olasan.

– Agar unday bo‘lsa, kulcha bezgagi kasali bilan eng avvalo sen og‘rishing kerak edi!

– Sen yanglishyapsan. Bilasanmi, men uch yoshligimda bu kasal bilan og‘riganman, bu kasal qizamiq yoki ko‘kyo‘talga o‘xshab bir marta bo‘ladi.

Mittivoyning hech qayeri og‘rimasdi, o‘zini juda sog‘lom sezardi, bu haqda Karlsonga gapirmoqchi bo‘ldi.

Biroq Karlson baribir o‘z aytganini qilib, Mittivoyni chalqancha tushib yotishga majbur qildi va yuziga qahvadan rosa sepdi.

– Hushingdan ketib yiqilmagin deyapman-da, – tushuntirdi Karlson va Mittivoyning uchinchi kulchasini o‘z yoniga surib qo‘ydi, – endi sen bir tishlam ham yeyishing mumkinmas, chunki shu zahoti o‘lib qolishing mumkin. Buni qaragin-a, mana bu bechora kulchaning baxtiga yaxshiyamki men bor ekanman, bo‘lmasa zinapoyada yakka-yolg‘iz yotardi, – dedi Karlson va kulchani shartta yutib yubordi.

– Endi u yolg‘iz emas, – dedi Mittivoy.

Karlson mamnun bo‘lib qorniga urib qo‘ydi.

– Ha, endi u o‘z og‘aynilari davrasida, o‘zini mixday sez-yapti! Mittivoy ham o‘zini yaxshi his qilardi. U zinapoyada yotardi. Garchi u kulcha bezgagiga chalingan bo‘lsa-da, o‘zini juda yaxshi sezardi. Mittivoyning qorni to‘q edi. Shuning uchun ham Karlson uning uchinchi kulchasini tuya qilganiga hech ranji-madi.

Lekin u shu payt minoradagi soatga qaradi. Bir necha daqi-qasi kam uch edi. U xaxolab kulib yubordi:

– Hademay meni xonadan chiqarib yuborgani Bok xonim ke-ladi. Yo‘qligimni ko‘rib, qay ahvolga tushishini bir ko‘rsam edi.

Karlson Mittivoyning yelkasiga do‘stona qoqib qo‘ydi.

– Qanday istaging bo‘lsa Karlsonga murojaat qilaver, u ham-masini to‘g‘rilaydi, qoyil qiladi, bu yog‘idan xotirjam bo‘laver. Faqat uyga borib mening durbinimni olib kel. U divanchaning tepasida, xuddi shift tagida o‘n to‘rtinchi mixda osilib turibdi; dastgohning ustiga chiqqin.

Mittivoy mug‘ambirona kulimsirab qo‘ydi.

– Axir, men kulcha bezgagi bilan og‘riganman, qimirlamasdan yotishim kerak emasmi?

Karlson bosh chayqab qo‘ydi.

– «Qimirlamay yotish, qimirlamay yotish!» Nima, buning foydasi bor deb o‘ylaysanmi? Aksincha, sen qancha ko‘p yelib-yugursang, sakrasang, shunchalik tez tuzalib ketasan. Bu aniq gap, ishonmasang doktorlar spravochnigidan ko‘rishing mumkin.

Mittivoy tezroq tuzalishni istagani uchun ham darrov uyga chopib ketdi, dastgohning ustiga chiqib, divancha tepasida, o‘n to‘rtinchi mixda osilib turgan durbinni oldi. O‘sha mixda surat ham osig‘liq turardi, uning pastki burchagiga kichkina qizil xo‘rozchaning rasmi solingandi. Mittivoy Karlsonning xo‘roz rasmini chizishda dunyoda eng zo‘r rassom ekanligini eslab qoldi: axir, «yolg‘iz qolgan xo‘rozning» rasmini Karlsonning o‘zi chizgan-da. Bu rasmning pastki tomoniga yuqoridagi so‘zlar yozib qo‘yilgandi. Chindan ham bu xo‘roz Mittivoy shu vaqtgacha ko‘rgan xo‘rozlarning ichida eng qizili, eng g‘aribi, so‘qqaboshi edi. Biroq uni yaxshilab ko‘rishga Mittivoyning vaqti bo‘lmadi, chunki soat strelkasi uchga yaqinlashib qolgandi, hayallash mumkin emasdi.

Mittivoy durbinni olib kelganida Karlson uchishga shay bo‘lib turardi. Mittivoy es-hushini yig‘ib olmasdanoq Karlson bilan birga havoga ko‘tarilib, ko‘chaning narigi yuziga uchib o‘tdi-da, ro‘paradagi tom ustiga qo‘ndi.

Karlsonning niyatini Mittivoy shundagina tushundi.

– Bu yer ajoyib kuzatish posti. Agar ham durbin, ham xohish bo‘lsa xonamda nimalar bo‘layotganini miriqib ko‘rish mumkin.

– Durbin ham bor, xohish ham bor, – dedi Karlson va durbinni olib qaradi. Keyin uni Mittivoyga uzatdi.

Mittivoy o‘z xonasini ko‘rdi, o‘zi o‘sha yerda bo‘lganda ham bunchalik aniq ko‘rolmasdi. Ana, Bimbo savatida uxlab yotibdi, ana Mittivoyning karavoti, manavi u dars tayyorlaydigan stol, ana devor soati. U roppa-rosa uchni ko‘rsatib turibdi. Biroq Bok xonim negadir ko‘rinmaydi.

– Xotirjam bo‘l, xotirjam, – dedi Karlson. – U hozir kelib qoladi, sezib turibman: qovurg‘alarim qaltirab, a‘zoyi badanim jimirlab ketyapti.

U Mittivoyning qo'ldan durbinni tortib oldi-da, ko'ziga tutdi:  
– Men nima devdim? Ana eshik ochilyapti, ana u jodugar-  
ning jilmayishini qilib kirib kelyapti.

Mittivoy qiqillab kulib yubordi.

– Qara, qara, uning ko'zlari hayronlikdan tobora kattaroq  
ochilyapti. Mittivoyning qayoqqa ketganini bilolmay garang.  
Hoynahoy derazadan tushib qochib ketdi, deb o'ylasa kerak.

Chindan ham Bok xonim xuddi shunday deb o'yladi, chunki  
u vahimada deraza oldiga chopib bordi. Mittivoyning unga hatto  
rahmi keldi. Bok xonim derazadan beligacha engashib, go'yo  
Mittivoyni ko'rmoqchi bo'lganday ko'chaga tikilib qaradi.

– Yo'q, U ko'chada emas, – dedi Karlson. – Nima, qo'rqib  
ketdingmi?

Biroq Bok xonim darrov sarosimaga tushmadi, o'zini  
yo'qotmadi. U xona o'rtasiga keldi.

– Endi u qidiraypti, – dedi Karlson. – Karavotni qarayapti...  
stol tagiga... karavot tagiga qaradi... Qoyil-e, zo'r ish bo'ldi-da!  
Shoshma, ana u shkaf yoniga bordi... Seni uning ichida g'ujanak  
bo'lib yig'lab yotibdi, deb o'ylayapti shekilli...

Karlson yana xaxolab kulib yubordi.

– Kel, bir sho'xlik qilaylik, – dedi u.

– Qanday qilib? – deb so'radi Mittivoy.

– Mana bunday qilib, – dedi Karlson va Mittivoy es-hushini  
yig'ib olgunicha bo'lmay, u bilan ko'chaning narigi yuziga uchib  
o'tdi-da, Mittivoyni o'z xonasiga tashladi.

– Yaxshi qol, Mittivoy! – deb qichqirdi u uchib ketayo-  
tib. – Iltimos, uy zolimasi bilan muloyim gaplashgin.

Mittivoy, buni sho'xlikning eng yaxshi usuli, deb hisoblamas-  
di, albatta. Biroq Karlsonga, senga qo'limdan kelgancha yordam  
beraman deb va'da qilgandi. Shuning uchun u stoli yoniga sekin  
borib o'tirdi-da, hisob-kitobini ochdi. U Bok xonimning shkafni  
titkilayotganini eshitdi. U hozir o'girilib qaraydi. Mittivoy nafa-  
sini ichiga yutib, jim o'tirardi.

Chindan ham Bok xonim shkaf ichidan chiqdi-yu, birinchi  
ko'zi tushgani Mittivoy bo'ldi. U orqasiga tisarilib borib, shkaf  
eshigiga suyanib qoldi. Ko'zlarini Mittivoydan uzmay, miq et-

may uzoq turib qoldi. U go'yo o'zini tekshirgan bo'lib, shunday ko'rinmayaptimi deganday ko'zlarini bir necha bor yumib-ochdi.

– Xudo xayringni bergur, ayt-chi, qayerga yashiringanding? – dedi u nihoyat.

– Men yashiringanim yo'q. Stol yonida o'tirib, hisobimni ishlayotgandim. Bok xonim, sizning men bilan bekinmashoq o'ynamoqchi bo'lganingizni qayoqdan bilay? Lekin tayyorman... Shkaf ichiga qaytadan kiring-a, men jon deb qidiraman.

Bok xonim Mittivoyning bu gapiga hech nima demadi. U indamasdan nima haqdadir o'ylardi.

– Balki men kasaldirman, – deb g'o'ldiradi nihoyat Bok xonim. – Bu uyda juda g'alati, vahimali narsalar bo'lyapti-da.

Shu payt Mittivoy xonasining eshigini tashqaridan kimdir sekin qulflaganini eshitib qoldi. Mittivoy xaxolab kulib yubordi. Uy zolimalarini tiyib qo'yishda dunyoda tengsiz bo'lgan Karlson uyga oshxona derazasidan uchib kirgan va uy zolimasiga uyda qamalib o'tirishning nimaligini ko'rsatib qo'ymoqchi edi.

Bok xonim hech nimani sezmad. U hamon jim turar va nima haqdadir bosh qotirardi. Nihoyat u gapirib qoldi:

– Qiziq! Ha, mayli, men tushlik tayyorlaguncha o'ynab kelishing mumkin.

– Rahmat, juda katta iltifot qildingiz, – dedi Mittivoy. – Demak, men endi qamab qo'yilgan emasman-a?

– Yo'q, o'ynab kelishing mumkin, ruxsat beraman, – dedi Bok xonim va eshik oldiga keldi.

U eshik dastasini ushlab, bir, ikki, uch marta itardi. Biroq eshik ochilmadi. Bok xonim eshikni butun gavdasi bilan itardi, lekin baribir ochilmadi.

Bok xonim baqirib yubordi:

– Eshikni kim berkitdi?

– O'zingiz berkitgandirsiz-da, – dedi Mittivoy. Bok xonim jahli chiqqanidan o'shqirdi.

– Nimalar deb valdirayapsan! Axir uy ichida turib, qanday qilib tashqarisidan berkitib qo'yishim mumkin.

– Bunisini bilmadim, – dedi Mittivoy.

– Balki Bosse yoki Betanning ishidir, – deb so'radi Bok xonim.

– Yo‘q, axir, ular maktabda-ku, – dedi Mittivoy ishonch bilan Bok xonim og‘ir xo‘rsinib, stulga o‘tirib qoldi.

– Bilasanmi, nima? Menimcha, uyda ajina bor, – dedi u. Mittivoy quvonch bilan boshini silkitdi.

«Juda zo‘r bo‘ldi-da! – deb o‘yladi u. – Karlsonni ajina deb o‘ylayaptimi, demak, u ketadi, bu yerda qolmaydi: uning ajina bor uyda qolishiga ko‘zim yetmaydi».

– Siz, Bok xonim, ajinalardan qo‘rqasizmi? – deb so‘radi Mittivoy.

– Aksincha, – deb javob berdi u. – Ularni ko‘rishni ko‘pdan beri orzu qilaman! Kim biladi, balki men ham endi televizorga tusharman! Bilasanmi, ularning maxsus eshittirishi bor, teletomoshabinlar chiqib, o‘zlarining jinlar bilan uchrashganlarini gapirib berishadi. Men bu yerda bir kunda ko‘rgan-kechirganlarim o‘nta televizion eshittirishga yetadi.

Bok xonimning sevinchi ichiga sig‘masdi.

– Singlim Fridani boplaydigan bo‘ldim, ha, gapimga ishonaver! Frida televizorga chiqib, ko‘rgan jinlari, eshitgan allaqanday g‘alati tovushlari haqida gapirib beruvdi. Men uni bir tuzlaydigan bo‘ldim, gap topolmay qolsin.

– Nima, siz ham g‘alati tovushlar eshitdingizmi? – deb so‘radi Mittivoy.

– Nima, kulchalar g‘oyib bo‘lganda deraza tagida sigirnikiga o‘xshash ma‘ragan tovush eshitmadingmi? Teletomoshabinlar uning qanday jaranglashini o‘z quloqlari bilan eshitishlari uchun men o‘sha tovushni takrorlab berishga urinib ko‘raman.

Bok xonim g‘alati bir ovoz chiqardiki, Mittivoy o‘tirgan joyida bir seskanib tushdi.

– Sal-pal o‘xshayapti, – dedi Bok xonim xursand bo‘lib. Lekin shu payt yana allaqanday dahshatli tovush eshitildi.

Bok xonimning rangi dokaday oqarib ketdi.

– U menga javob beryapti, – dedi u shivirlab. – O‘sha... ajina... u ovozinga javob qilyapti! Shularning hammasini televizorda gapirib beraman. Fridaning rosa jahli chiqadi, rosa hasad qiladi-da.

U Fridaning televizorda chiqib, ajinani ko‘rganligi haqida rosa maqtanganini Mittivoyga birma-bir gapirib berdi.

– Agar uning gapiga ishonsak, butun Vazastan rayoni g'ij-g'ij ajina emish, ularning hammasi Fridaning xonasida bo'larmish-u mening xonamga sira qadam bosishmasmish. Bir kun kechqurun devorda ajinaning, ha, ha, ajinaning qo'lini ko'rganligini, u sakkizta so'z yozganini aytib, meni ishontirmoqchi bo'ldi. Ha, aytmoqchi, singlim chindan ham o'zini ehtiyot qilishi kerak edi, – dedi Bok xonim.

– Nimaga ehtiyot qilishi kerak edi? – deb so'radi Mittivoy qiziqsinib.

Bok xonim o'ylanib qoldi:

– Haligi... Nimayam edi. Ha, esladim: «Ehtiyot bo'l! Sen ancha yengiltaksan! Umr esa shunchalar qisqaki!» deyilgan edi.

Mittivoyning hech nimani tushunmagani ko'rinishidan sezilib turardi.

Bok xonim bu gapning ma'nosini unga tushuntirmoqchi bo'ldi.

– Bilasanmi, bu Fridani o'zgarishing kerak, tinch-xotirjam yashashing, qadamingni bilib bosishing kerak, deb ogohlantirish edi.

– U o'zgardimi? – deb so'radi Mittivoy.

Bok xonim jahli chiqib po'ng'illadi:

– Qayoqda. Har holda, men sezmayapman. Maqtangani-maqtangan. Televizorda atigi bir marta chiqdi-yu, o'zini televi-deniyening guliman, deb yuradi. Ha, mana endi popugini pasaytirib qo'yaman.

Bok xonim zavq bilan kaftlarini ishqaladi. Mittivoy bilan bir xonada qamalib o'tirganidan u hecham tashvish tortmasdi. Nihoyat, u Fridaning popugini pasaytirib qo'yadigan bo'ldi! Hozir uning og'zi qulog'ida edi. U Fridaning televizorda aytganlari bilan o'zining ajinalarni ko'rgani-yu boshidan kechirganlarini qayta-qayta solishtirib ko'rardi; Bosse maktabdan kelgunicha Bok xonim shular haqida o'ylab o'tirdi.

– Bosse, eshikni ochib, bizlarni chiqarib yubor? Men uy zoli... Bok xonim bilan birga qamalib o'tiribman.

Bosse eshikni ochdi – u hang-u mang bo'lib qolgandi.

– Ana xolos! Sizlarni bu xonaga kim qamab qo'ydi?

Bu haqda batafsil gapirib o'tirishga Bok xonimning vaqti yo'q edi, u shundayam tushlik ovqatni vaqtida tayyorlayolmadi. Bok xonim shosha-pisha oshxonaga chiqib ketdi.

Bir zum o'tmay uning qichqirgan ovozi eshitildi.

Mittivoy uning orqasidan o'qday uchib chiqib keldi.

Bok xonim stulda qimir etmay o'tirardi, rangida rang qolmagandi. U indamay devorni ko'rsatdi. Ma'lum bo'lishicha, ajina faqat Fridaning o'zini ogohlantirmabdi. Bok xonimni ham ogohlantirib ketibdi.

Devorga yirik harflar bilan, qing'ir-qiyshiq qilib quyidagi so'zlar yozib qo'yilgandi:

«Shu ham shirin kulcha bo'ldi-yu! Pulimizni shilib olasan-u dolchinni ayaysan-a. Shoshmay tur!»

## KARLSON VA TELEVIZOR



adasi tushki ovqatga uyga kelib, yana bir ko'ngilsizlik haqida gapirib qoldi

– Siz bechoralarga qiyin bo'ladigan bo'ldida, bir necha kun uyda yolg'iz qolasiz. Men zudlik bilan Londonga uchishim kerak, ishxonadan jo'natishyapti. Hammasi ko'ngildagiday bo'ladi, deb ishonsam bo'ladimi?

– Iye bo'lmasam-chi, sira tashvish tortmang, – deb uni ishontirdi Mittivoy. – Ishqilib, parrak tagiga borib turmasangiz bo'lgani.

– E, tushunmadilaring, – dedi dadasi xaxolab kulib. – Men uyni gapiryapman. Mensiz, oyilaringsiz hollaring nima kechadi?

Bosse bilan Betan ham, bizlardan hech xavotir olmang, hammasi joyida bo'ladi, deb dadasini ishontirishdi. Betan bo'lsa otonasiz bir necha kun yashash hatto juda qiziq bo'lardi, dedi.

– Ha, faqat Mittivoyga doim ko'z-quloq bo'lib turinglar, – dedi dadasi.

Betan Mittivoyning boshini mehr bilan silab qo'ydi.

– Men unga onalik qilaman, – dedi u.

Biroq dadasi uning bu gapiga unchalik ishonmasdi, Mittivoyning ham bunga ko'zi yetmasdi.

– Hech uyda o'tirmaysan, bolalar bilan tentiraganing-tentiragan, – deb po'ng'illadi Mittivoy.

Bosse uni yupatgan bo'ldi:

– Axir, mana men borman-ku.

– Ha, borsan, faqat Ostermalmdagi stadiondan beri kelmay-san, erta-yu kech o'sha yerdasan, – dedi Mittivoy.

Bosse xaxolab kulib yubordi.

– Demak, bitta uy zolimasi qolarkan-da. U bolalar bilan tentiramaydi, stadiongga bormaydi.

– Ha, afsuski, shunday, – dedi Mittivoy.

U Bok xonimning qanaqa xotinligini ularga gapirib bermoqchi edi. Lekin Mittivoy, Bok xonimdan hecham xafa emasligini payqab qoldi. Hatto Mittivoyning o'zi ham hayron edi: u Bok xonimdan zarracha ham xafa emasdi! Nega bunday bo'lib qoldi? Demak, bir odam bilan ikki soat uyda qamalib o'tirsang, apoq-chapoq bo'lib ketishing hech gap emas ekan-da. U Bok xonimni birdan yaxshi ko'rib qolgani yo'q, albatta. Lekin u Bok xonimga ancha mehribon bo'lib qoldi. Bechoraga o'sha Frida bilan bir uyda turish, murosa qilish osonmi? Xarakteri og'ir opa yoki singil bilan yashash qandayligini Mittivoy juda yaxshi biladi. Betan hozircha Fridaga o'xshab, men televizorda chiqib gapirdim, deb maqtanmayapti.

– Kechasi yolg'iz o'zlaring qolishlaringni istamayman, – dedi dadasi. – Bok xonimdan iltimos qilib ko'ray-chi, men yo'qligimda biznikida yotib turmasmikim?

– Endi Bok xonim faqat kunduzi emas, kechasi ham meni tinch qo'ymas ekan-da, – dedi Mittivoy og'ir xo'rsinib. Lekin ko'nglida, biz bilan bitta-yarimta odamning, hatto o'sha uy zolimasining birga turgani ham ma'qul deb o'yladi.

Bok xonim bolalar bilan birga turishga bajonidil rozi bo'ldi. Mittivoy ikkovi yolg'iz qolishganida nima uchun bunga rozi bo'lganini gapirib berdi:

– Bilasanmi, ajinalar ko'pincha kechalari kelishadi, sizlarniki-da turib televizion eshittirish uchun juda ko'p material to'plashim mumkin. Frida meni ekranda ko'rib, og'zi lang ochilib qoladi, o'tirgan stulidan yiqilib tushadi!

Mittivoy juda tashvishga tushib qoldi. Bok xonim dadasi yo'qligida uylariga televideniya bir dunyo odam boshlab kelsa, o'shalardan birortasi Karlson haqida bilib qolsa, degan fikr Mittivoyga tinchlik bermasdi. Karlson haqida bilib qolishsa, ajinalar qolib Karlson haqida eshittirish qilishadi. Bu haqda o'ylasa, Mittivoyning yuragi orqasiga tortib ketadi. Ana undan keyin butun oilaning boshi tashvishdan chiqmay qoladi, tinchi buziladi. Mittivoy Karlsonni ogohlantirib qo'yishi, undan sal ehtiyotroq bo'l, deb iltimos qilishi kerak.

Lekin Mittivoy Karlson bilan ertasi kechqurungina uchrasha oldi. U uyda yolg'iz o'zi edi. Dadasi Londonga uchib ketgan, Bosse va Betan ham uyda yo'q edi, Bok xonim Freyगतendagi uyiga, Fridadan yangi ajinalarni ko'rgan-ko'rmaganligini so'rab bilib kelgani jo'nagandi.

— Men tezda qaytib kelaman, — dedi u ketayotib Mittivoyga. — Agar yo'qligimda jinlar kelishsa, ularga ayt, meni kutib turishsin, ha, ularga joy ko'rsatish esingdan chiqmasin!

Bok xonim endi sira so'kinmas, hech koyimas, doim kulgani-kulgan edi. To'g'ri, u ba'zi-ba'zida Mittivoyni koyib turardi, lekin Mittivoy hech xafa bo'lmas, aksincha, o'qtin-o'qtin urishgani uchun undan minnatdor edi. Bok xonim bu gal ham ko'ngli chog' edi. Uning oyoq tovushlari zarbidan devorlar zirillab uzoq eshitilib turdi.

Hademay derazadan Karlson uchib kirdi.

— Salom, Mittivoy! Xo'sh, bugun nima qilamiz? — deb so'radi u. — Bug' mashinang yo'qmi, uni portlatardik. Popugini pasaytirib qo'yish uchun uy zolimang shu yerdami? Menga baribir, ishqilib, biror narsa bilan ovunsam bo'lgani, bo'lmasa o'ynamayman.

— Biz televizor ko'rishimiz mumkin, — deb taklif qildi Mittivoy.

Buni qarangki, Karlson televizor nimaligini mutlaqo bilmas ekan. U umrida televizorni ko'rmagan ekan. Mittivoy uni mehmonxonaga boshlab kirdi-da, yangi, ajoyib televizorlarini faxr bilan ko'rsatdi.

— Mana, ko'r!

— Bu qanaqa quti? — deb so'radi Karlson.

– Bu quti emas, televizor, – deb tushuntirdi Mittivoy.

– Unga nima solishadi? Shirin kulchalarmi? Mittivoy xaxolab kulib yubordi.

– Shoshma, hozir nimaligini ko'rasan.

U televizorni buradi, shu zahoti ekranda bir odam paydo bo'ldi. U Nurlandda qanday ob-havo bo'lishi haqida gapirardi. Karlson ko'zlarini katta ochib, ang'rayib qoldi.

– Bu odamni quti ichiga qanday qilib kiritdilaring?

Mittivoy ichagi uzilguday bo'lib qotib-qotib kulardi.

– Shunga hayron bo'lyapsanmi? U kichkinaligida ichiga kirib olgan, tushundingmi?

– Uni boshlaringga urasanlarmi? – deb so'radi Karlson bo'sh kelmay.

– Iye, hazilni tushunmas ekansan-ku! U kichkinaligida kirgan emas, uning bizga ham keragi yo'q, albatta. U o'zi chiqib, ertaga ob-havo qanday bo'lishini gapirib beradi... U keksalarday hamma narsani biladi, tushundingmi?

Karlson qiqillab kuldi.

– Bu odam ertaga ob-havo qanday bo'lishini aytib turishi uchun uni qutining ichiga tiqib qo'yganmisizlar?.. Bu narsani mendan ham bimalol so'rashlaring mumkin!.. Chaqmoq chaqadi, yomg'ir yog'adi, do'l yog'adi, bo'ron bo'ladi, yer qimirlaydi. Xo'sh, endi sen xursandmisan?

– Nurland bo'ylarida ertaga bo'ron aralash yomg'ir yog'ishi kutiladi, – dedi televizordagi «bilag'on».

Karlson battar xaxolab kuldi.

– Mana men ham, bo'ron aralash yomg'ir yog'adi deyapman. Karlson televizor oldiga keldi-da, burnini televizordagi «bilag'on»ning burniga tekkizdi.

– Yer qimirlashini aytish esingdan chiqmasin! Bechora nurlandliklarga va'da qilayotgan ob-havosini qara-ya, hecham havas qilmaysan! Biroq, ular shunga ham xursand bo'lishlari kerak, har holda, nimadir bo'ladi-yu. O'zing o'ylab ko'r, umuman, hech qanday ob-havo bo'lmaganda ularning holi nima kechardi. – U ekrandagi odamning yelkasiga do'stona qoqib qo'ydi. – Juda yoqimtoy chol ekanmi?! – dedi u. – Ha, u mendan pastroq ekan. U menga yoqib qoldi.

Keyin Karlson tiz cho'kib, televizorning tagiga qaradi:

– Axir, bu yerga qanday kirib oldi?

Mittivoy bu tirik odam emas, faqat aksi deb unga tushuntirmoqchi edi-yu, lekin Karlsonning jahli chiqib ketdi:

– Sen menga aql o'rgatmay qo'ya qol, to'nka! Senchalik aqlim bor! Bu o'zgacha odamligini ham tushunaman. Oddiy odamlar Nurlanddagi ob-havo haqida gapirib o'tirisharmidi?

Mittivoy ham televideniye haqida ko'p narsa bilmasdi, lekin u har holda buning nimaligini Karlsonga tushuntirib bergisi keldi. Bundan tashqari u Karlsonga tahdid solayotgan xavf-xatarining oldini olmoqchi edi.

– Bok xonimning televizorda chiqib gapirishni qanchalik istayotganini bilsang edi, – dedi Mittivoy.

Karlson xaxolab kulib, Mittivoyning gapini bo'ldi:

– Uy zolimasi shunday kichkina qutining ichiga kirmoqchimi? Shunday barvasta xotin-a! Uni to'rt buklab solish kerak-da!

Mittivoy uh tortib qo'ydi. Karlson hech nimani tushunmadi. Mittivoy yana bir boshdan tushuntira ketdi. Lekin yana biror ish chiqarolmadi. Axiri u televizorning antiqa narsa ekanligini, uning nimalarga qodirligini Karlsonga bir amallab tushuntirdi.

Bok xonimning televizorda chiqishi uchun uning quti ichiga kirishi shart emas. U televizordan bir necha kilometr uzoqda bemalol o'tiraverishi mumkin, o'shanda ham u ekranda xuddi tirikday bo'lib ko'rinadi, – deb tushuntirdi Mittivoy.

– Uy zolimasi xuddi tirikday bo'lib ko'rinadi... bu dahshatku! – deb qichqirdi Karlson. – Sen yaxshisi bu qutini yo sindir yoki boshqasiga, shirin kulchalar solinganiga almashtirib ol, ular bizga kerak bo'ladi.

Xuddi shu payt ekranda chiroyli, yoqimtoygina diktör qizning yuzi ko'rindi. U shunday samimiy, yoqimli jilmaydiki, Karlson hang-u mang bo'lib qoldi.

– Shoshma, yaxshilab o'ylab olish kerak, – dedi u. – Har holda agar almashtiradigan bo'lsak, yangi pishirilgan, yumshoq kulchalarga almashtirish kerak. Chunki nazarimda bu quti ancha qimmat turadiganga o'xshaydi.

Diktör qiz bo'lsa hamon Karlsonga qarab jilmayardi, Karlson ham kulimsirab qo'ydi. Keyin u Mittivoyni bir chekkaga surib qo'ydi:

– Unga bir qaragin-a! Men unga yoqib qoldim, ha, ha, axir, u mening chiroyli, kelishgan, aqlli, qirchillama yigit ekanligimni ko‘rib turibdi-da.

Birdan diktör qiz g‘oyib bo‘ldi. Uning o‘rniga ikkita semiz janob paydo bo‘lib, gapga tushib ketishdi. Bu Karlsonga yoq-madi.

U hamma knopkalarni birma-bir bosib, dastalarini aylantira boshladi.

– Aylantirma, mumkinmas, – dedi Mittivoy.

– Mumkin emasing nimasi! O’sha chiroyli qizni qaytadan burab chiqarmoqchiman, – dedi Karlson.

U televizor dastalarini har tomonga aylantirib ko‘rdi, lekin dik-tör qiz ko‘rinmadi. U hadeb burayverganidan haligi semiz janob-lar battar semirib, oyoqlari kalta bo‘lib, peshonalari esa cho‘zilib ketdi. Bu o‘zgarishlar Karlsonni juda xursand qildi – bu o‘yin unga anchagacha ermak bo‘ldi.

– Chollar mening aytganimni qilishyapti, – dedi Karlson xursand bo‘lib.

Ekrandagi janoblar esa qiyofalarini o‘zgartirib, hamon tinmay gapirardi. Nihoyat Karlson ularga xalaqit berdi.

– Mening fikrimcha... – deb gap boshladi bittasi.

– Sening fikring bilan qancha ishim bor? – deb uning ga-pini bo‘ldi Karlson. – Yaxshisi uyingga borib, yotib uxlasang-chi!

U televizorni shartta o‘chirdi-da, xursand bo‘lib kulib yubordi.

– Hoynahoy, jahli chiqqandir! Fikrini ayt-tirmadim, gapi og‘zida qoldi-da!

Televizor Karlsonning joniga tegdi, endi unga yangi ermak kerak edi.

– Uy zolimasi qani? Chaqir uni, bir kalaka qilay?

– Kalaka qilaman... bu nima deganing? – deb so‘radi Mitti-voy tashvish aralash.

Uy zolimalarini tiyib qo‘yishning uch usuli bor, – deb tu-shuntirdi Karlson. Ularning popugini pasaytirib qo‘yish, masxara qilish, kalaka qilish mumkin. Ochig‘ini aytganda bularning ham-masi ham bir narsa-yu, biroq ular bilan ochiqdan ochiq kura-shishning birdan bir yo‘li bu – kalaka qilish.

Mittivoy battar tashvishga tushdi. Agar Karlson Bok xonim bilan ochiqdan ochiq kurashadigan bo'lsa, u Karlsonni albatta ko'radi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Dadasi bilan oyisi yo'q ekan Mittivoyga qanchalik qiyin bo'lmasin, nima qilib bo'lsa ham ularning uchrashuviga yo'l qo'ymasligi kerak. Bir nima qilib Karlsonni qo'rqitish, uning yuragiga g'ulg'ula solish kerak. Bok xonimning ko'ziga ko'rinmaslikka uning o'zi harakat qilsin. Mittivoy o'ylab oldi-da, keyin mug'ambirona dedi:

– Karlson, televizorga tushging kelayotganga o'xshaydi-a? Karlson boshini sarak-sarak qildi.

– Mana shu qutiga-ya! Men-a? Hech-da! O'zimni himoya qila olarkanman, meni u yerga hech kim olib kirolmaydi. – Lekin u bir zum o'ylanib qoldi-da, qo'shib qo'ydi: – Nima, kirsam ki-raveraman-da... Agar o'sha yoqimtoy qiz bilan yonma-yon turib qolsam-a...

– Mittivoy bunga umid qilmasang ham bo'ladi, deb uni ishontira boshladi. Aksincha, agar televizorga chiqsang, o'sha uy zolimasi bilan birga chiqishing aniq, – dedi.

Karlson seskanib ketdi.

– Uy zolimasi ikkovimiz shunday kichkina qutichaga sig'armidik?... Yo'g'-e? Bunaqada Nurlandda yer qimirlaydi-da! Miyangga qayoqdagi bema'ni fikrlar keladi-ya.

Mittivoy unga Bok xonimning televizor uchun ajinalar haqida eshittirish tayyorlash niyatida ekanligini, eshittirish Frida ko'rsa stuldan yiqilib tushadigan darajada bo'lishi kerakligini gapirib berdi.

– Nima, uy zolimasi sizlarnikida ajinani ko'rdimi? – deb so'radi Karlson hayron bo'lib.

– Yo'q, ko'rishga ko'rgani yo'g'-u, – dedi Mittivoy, – lekin uning deraza tagida g'o'ldiraganini eshitdi. Bilasanmi, u seni ajina deb o'ylayapti.

Mittivoy, Frida, uy zolimasi va Karlson o'rtalarida ma'lum bir bog'liqlik borligini tushuntira boshladi, lekin u taxminlarida juda qattiq yanglishdi.

Karlson tiz cho'kdi-da, huzur qilganidan qiyqirib yubordi, keyin Mittivoyning yelkasiga urib dedi:

– Uy zolimasini ehtiyot qilgin! U uyingizdagi eng qimmatba-ho buyum. Uni ko'z qorachig'iday asra! Chunki biz endi chindan ham vaqtixushlik qilamiz, miriqib o'ynaymiz.

– Qanday qilib? – deb so'radi Mittivoy cho'chib.

– E, gapirma! – deb qichqirib yubordi Karlson. – Stuldan birgina Frida yiqilib tushmaydi. Faqat chollar emas, olamdagi hamma bu ko'rsatuvni ko'rib lol bo'lib qoladi.

Mittivoyni yana ham tashvish bosdi.

– Xo'sh, biz nima ko'ramiz?

– Vazastandan kelgan kichkina ajina! – dedi Karlson va ovozining boricha baqirdi: – Xop, xop, ura!

Mittivoy indamay qoldi. U Karlsonni ogohlantirdi, xavf-xatar-dan asrab qolmoqchi bo'ldi, u oyisi bilan dadasining aytganini vijdonan qilmoqchi bo'ldi. Lekin endi Karlsonning aytgani bo'la qolsin. Baribir Karlsonning aytgani bo'ladi. Mayli, Karlson bil-gan qilig'ini, o'yiga kelganini qilsin, ajina bo'lib o'ynasin, Bok xonimni istagancha kalaka qilsin. Mittivoy endi uning ra'yini qaytarmoqchi emas. U bu qarorga kelib, endi chindan ham bir maza qilarkanmiz-da, deb o'ylab qo'ydi. U Karlsonning bir kuni ajina qiyofasiga kirib, oyisining pulini va oshxonadagi kumush idish-tovoqlarni o'g'irlamoqchi bo'lgan o'g'rilarni qanday quvib borganini esladi. Bu voqea Karlsonning ham esida edi.

– Esingdami, o'shanda rosa xursandchilik qiluvdik-a? – deb so'radi u. – Ha, aytmoqchi, mening ajina kostumim qani?

Mittivoyning, uni oyim olib ketdi, deyishdan boshqa chorasi qolmadi. Oyisi o'shanda choyshabni teshgani uchun juda xafa bo'luvdi. Biroq keyin uni yamab, ajina kiyimini yana choyshabga aylantirib qo'ygandi.

Karlsonning jahli chiqib, to'ng'illadi:

– Saranjom-sarishtalikni yaxshi ko'rgan odamni jinim yoq-tirmaydi! Uylaringda hech nimani qoldirib bo'lmaydi-ya. – U stulga o'tirib tumshayib oldi. – Yo'q, bunaqasi ketmaydi, men o'ynamayman. Istasang, o'zing ajina bo'lishing mumkin.

Lekin shu zahoti o'rnidan sapchib turib, shkaf oldiga bordi-da, eshigini lang ochib:

– Bu yerdan biror choyshab topilar, hoynahoy, – dedi.

U oyisining eng yaxshi choyshablaridan birini olmoqchi edi, biroq Mittivoy uning qo'lini ushladi:

– Yo'q, bunga tegma! O'rniga qo'y... Mana bu yerda eskilari, yamalganlari bor.

Karlson basharasini bujmaytirdi:

– Eskilari, yamalganlari emish! Men Vazastandan kelgan ajina bashang kiyinib yursin degandim-da. Ha, mayli, uyingiz shunday ekan... Qani, o'sha eski-tuskilarini olib kel.

Mittivoy ikkita eski choyshabni oldi-da, Karlsonga berdi:

– Ularni qo'shib tiksang, ajina uchun binoyidek kiyim bo'ladi. Karlson choyshablarni qo'lida ushlaganicha qovog'ini solib turrardi.

– Agar ularni qo'shib tiksam? Sen ularni o'zim tiksam demoqchimisan? Yur, biznikiga uchib ketdik, uy zolimasi qo'qqisdan kelib qolsa, qo'lga tushib o'tirmaylik!

Mittivoy Karlsonnikida bir soatcha o'tirib, ajina uchun kiyim tikdi. Maktabda, mehnat darsida u har xil chokni o'rganib olgandi, lekin ikkita eski choyshabdan qanday qilib ajina uchun tuzuk-kina kiyim tikishni unga hech qachon hech kim o'rgatmagandi. Buni o'zi o'ylashiga to'g'ri keldi.

U Karlsondan yordam so'ramoqchi ham bo'ldi.

– Sen aqalli bichib bersang bo'lardi, – deb so'radi Mittivoy. Biroq Karlson bosh chayqadi.

– Bunaqa ish bilan shug'ullanadigan bo'lsam, avvalo, oyingning ta'zirini berardim! Ha! Ha! Ajina kiyimimni rasvo qilishni unga nima keragi bor edi? Endi sen menga yangisini tikib berishing kerak. Ha, bu adolatdan bo'ladi. Qani, tez-tez, chaqqon-chaqqon bo'l, ko'p noliyverma!

Yana ham ishonchliroq bo'lsin uchun Karlson, tikishga vaqtim yo'q, chunki zudlik bilan rasm solishim kerak, deb qo'shib qo'ydi.

– Bilasanmi, ilhom kelganida hamma narsani yig'ishtirib qo'yish kerak, menga hozir ilhom kelib qoldi. «La, la, la» ichimda, qalbimda nimadir kuylayapti, bilaman, ilhom degani shu bo'ladi.

Mittivoy ilhom degani nimaligini bilmasdi. Biroq Karlson ilhom barcha rassomlarni chulg'ab oladi, o'shanda ularning ajina

uchun kiyim tikish o'rniga ustma-ust rasm solgisi kelib qoladi deb Mittivoyga tushuntirdi.

Mittivoyning dastgoh tikuvchilarday ishlashdan boshqa chorasini qolmadi. Karlson bo'lsa bu payt bir burchakka tiqilib olib, surat solardi.

Tashqariga allaqachon qorong'ilik cho'kkan edi, biroq Karlsonning xonasi yorug', issiq, shinam edi — lampa yonib turar, kaminda esa o't gurillardi.

— Maktabda mehnat darsida erinchoqlik qilmagan bo'lsang kerak, — dedi Karlson. — Ajina uchun tikkan kiyiming chiroyli bo'lsin deyman-da. Shuni bilib qo'ygin. Kichkina yoqa qilsang yoki hatto burma qilsang ham bo'ladi.

Mittivoy hech nima demadi. U qunt bilan tikardi, kaminda olov chirsillar, Karlson rasm solardi.

— Sen nimaning suratini solyapsan? — deb so'radi Mittivoy jimlikni buzib.

— Tayyor bo'lganda ko'rasan, — deb javob qildi Karlson.

Nihoyat Mittivoy allaqanday kiyimni tikib tugatdi.

«Ajinaga bo'laversa kerak», — deb o'yladi u. Karlson kiyib ko'rib xursand bo'ldi. Mittivoy uning kiyimini yaxshilab ko'rsin, deb Karlson xonani bir necha bor aylandi.

Mittivoy seskanib ketdi. Unga Karlson judayam g'alati, sirli ko'rindi — ajinaning xuddi o'zi edi.

Bechora Bok xonimga jabr bo'ldi-da, bu ajinani ko'rsa yuragi chiqib ketadi, har qanday odam ham qo'rqadi-da.

— Uy zolimasi televizordagi kishilarga shu zahotiyoq odam yuborishi mumkin, — dedi Karlson. — Chunki hozir pastda motorli, g'alati, go'zal, lekin juda-juda xavfli vazastanlik ajina paydo bo'ladi.

Karlson yana xonani aylanib uchib chiqdi, hatto xursand bo'lganidan qaqag'lab yubordi. U solayotgan rasmini xayolidan ham chiqarib yubordi. Mittivoy Karlson nima solganini ko'ray deb kamin oldiga keldi. Rasmning pastki tomoniga qing'ir-qiyshiq harflar bilan: «Quyoning surati» deb yozib qo'yilgandi. Biroq Karlson kichkinagina bir qizil hayvonchanning suratini chizgan edi, u quyondan ko'ra ko'proq tulkiga o'xshardi.

— Bu tulki emasmi? — deb so'radi Mittivoy.

Karlson chizgan suratini polga yozib qo'ydi-da, o'zi tepasiga borib maroq bilan tomosha qildi.

— Ha, albatta, tulki. Buning tulkiligiga hecham shubha qilinmasa bo'ladi. Axir, buni jahondagi eng zo'r rassom solgan.

— Ha, lekin... Axir bu yerga: «Quyoning surati» deb yozib qo'yilgan... Qani o'sha quyon?

— Tulki uni yeb qo'ygan, — dedi Karlson.

## KARLSONNING QO'NG'IROG'I

**B**osse bilan Betan ertalab turishsa, butun badanlariga g'alati narsa toshib ketibdi.

— Qizilcha, — dedi Bok xonim.

U chaqirtirgan doktor ham xuddi shu gapni aytdi.

— Qizilcha! Ularni darrov kasalxonaga jo'natish kerak.

Keyin doktor Mittivoyni ko'rsatib:

— Uni hozircha ajratib qo'yish kerak, — dedi.

Mittivoy bu gapni eshitib yig'lab yubordi. U o'zini boshqalardan ajratib qo'yishlarini istamasdi. To'g'ri, u ajratib qo'yish deganlari nimaligini bilmasdi-yu, lekin bu so'z juda sovuq, xunuk eshitildi.

— Tentak, — dedi Bosse, — bu hozircha maktabga bormaysan, boshqa bolalar bilan ko'rishmaysan degani. Boshqalarga kasal yuqtirmaslik uchun, tushundingmi?

Betan yotgan joyida o'ksinib-o'ksinib yig'lardi.

— Bechora Mittivoy, — dedi u ko'z yoshini arang tiyib. — Juda zerikasan-da! Oyimga telefon qilsammikin?

Biroq Bok xonim bu haqda eshitishni ham istamasdi.

— Hecham-da, — dedi u, — Svanteson xonim yaxshilab dam olishlari kerak. Axir, u ham kasal, shuni unutmalarig-da. Mayli, qiynalsam ham Mittivoyga o'zim qarab turaman.

U shunday deb Betanning karavoti yonida yig'lab turgan Mittivoyga qarab qo'ydi.

Biroq ular bafurja gaplashib olisholmadi, chunki shu payt «tez yordam» mashinasi kelib qoldi. Mittivoy yig'lardi. U akasi bilan opasidan ba'zida xafa bo'lardi, lekin Mittivoy ularni juda yaxshi

ko'rardi! Bosse bilan Betanni kasalxonaga olib ketishayotganiga Mittivoy juda xafa bo'ldi.

– Xayr, Mittivoy, – dedi Bosse, sanitarlar uni pastga olib tushib ketishayotganda.

– Yaxshi qol, mehribon ukajonim, xafa bo'lma! Biz tezda qaytib kelamiz, – dedi Betan.

Mittivoy ho'ngrab yubordi.

– Shunchaki gapiryapsan-da! Birdan o'lib qolsalaring-a?

Bok xonim uni koyib berdi: «Odam ham shunchalik befahm bo'ladimi?! Axir qizilchadan odam o'larmidi?!»

«Tez yordam» mashinasi jo'nab ketganidan keyin Mittivoy o'z xonasiga kirib ketdi. U yerda Bimbo bor. Mittivoy kuchukni qo'liga oldi.

– Endi sendan boshqa hech kimim yo'q, – dedi Mittivoy Bimboni bag'riga qattiq bosib. – Ha, Karlson ham bor, albatta.

Mittivoyning nimadandir xafaligini Bimbo juda yaxshi bilardi. U: «Ha, yoningda men borman. Bu aniq. Karlson ham bor!» deyayotganday edi. Mittivoy, yaxshiyam Bimbo bor deb o'ylardi o'zicha. Lekin baribir u oyisini sog'ingandi. Shu payt u oyisiga xat yozaman deb bergan va'dasini eslab qoldi. Paysalga solmay shu zahotiyoq xat yozmoqchi bo'ldi.

– Mehribon oyijon, – deb boshladi u. – Oilamiz qirilib ketadiganga o'xshaydi Bosse bilan Betan allaqanday zilcha degan kasalga yo'liqdi ularni kasalxonaga olib ketishdi meni ajratib qo'yishdi bu – hecham og'ritmas ekan biroq o'sha zilcha bilan albatta og'riyman dadam Londonda u endi tirikmi-o'likmi bilmayman hozircha uni kasal deb eshitganim yo'q biroq kasal bo'lsa kerak axir hammamiz kasalmiz-ku sizni juda sog'indim ahvollaringiz qalay siz juda kasalmisiz yo unchalik emasmi men faqat Karlson bilan gaplashaman kam gapirishga harakat qilaman chunki siz bezovta bo'lasiz uy zolimamiz sizni yaxshilab dam olishi kerak deyapti u kasal emas Karlson ham sog'lom biroq ular ham hademay kasal bo'lishadi.

Xayr oyijon sog' bo'ling.

– Hammasini batafsil yozib o'tirmayman, – deb tushuntirdi Mittivoy Bimboga, – chunki uni qo'rqitmoqchi emasman.

U deraza oldiga keldi-da, Karlsonga qo'ng'iroq qildi. Ha, ha, u chindan ham qo'ng'iroq qildi. Kecha kechqurun Karlson antiqa bir ish qildi: u o'zining tomdagi uychasi bilan Mittivoyning xonasi o'rtasiga ip tortdi.

— Ajina dabdurustdan kelishi kerakmas, — dedi Karlson. — Biroq endi Karlson senga dunyoda eng yaxshi qo'ng'iroq hadya qildi. Sen qo'ng'iroq qilib, ajinani uy zolimasi pistirmada o'tirib, qorong'ida biror yovuz, xavfli narsa ko'rinmayaptimi deb qarayotgan vaqtida chaqirishing mumkin.

Qo'ng'iroq g'alati qilib o'rnatilgandi: Karlson uychasining bo'g'otiga, sigirlarning bo'yniga osib qo'yiladigan qo'ng'iroqcha qoqib qo'ydi, unga bog'langan ipni Mittivoyning derazasiga uladi.

— Shunday ipni tortsang, — deb tushuntirdi, — eshigim tepasidagi qo'ng'iroqcha jiringlaydi-yu, vazastanlik ajina o'sha zahoti yoningga uchib boradi, uy zolimasi hushidan ketib yiqiladi. Zo'r bo'ladi-a?

— Juda zo'r bo'ladi, albatta. — Mittivoy ham xuddi shunday deb o'ylardi, ilgarilari u Karlsonning kelishini uzoq kutardi. Endi bo'lsa ipni tortsa bas, Karlson shu zahoti uchib keladi.

Mittivoy birdan Karlson bilan gaplashish zarurligini sezib qoldi. U ipni bir, ikki, uch marta tortdi... Tomdan qo'ng'iroqchanning jiringlagan ovozi eshitildi. Hademay motorchanning guvillagani qulog'iga chalindi-yu, Karlson derazadan uchib kirdi. Uning uyqusi qonmaganligi, kayfi buzuqligi shunday ko'rinib turardi.

— Sen, buni qo'ng'iroqcha emas, budilnik deb o'ylayotgan bo'lsang kerak-a? — deb po'ng'illadi u.

— Meni kechir, — dedi Mittivoy, — uxlab yotganingni bil-mabman.

Uyg'otishdan avval bilishing kerak edi-da, o'zing dong qotib uxlasang kerak, menga o'xshab kechasi bilan mijja qoqmay chiqadigan odamlarning ahvolini tushunarmiding? Odam endi ko'zi uyquga ketganida, og'aynim meni bekordan bekorga bezovta qilmasa kerak, tinchimni o'ylasa kerak, deb umid qiladi.

— Nima, yaxshi uxlolmaysanmi? — deb so'radi Mittivoy.

Karlson xomush bosh irg'adi.

— Ha, hamma gap shunda-da.

«Juda og'ir-a», deb o'yladi Mittivoy va:

– Senga juda achinyapman... Chindan ham yaxshi uxlo olmay-sanmi? – dedi.

– Aytma, bundan battar bo'lishi mumkinmas, – deb javob qildi Karlson. – Kechasi-ku dong qotib uxlayman, hecham uyg'onmayman, tushki ovqatdan oldin ham miriqib uxlayman, faqat tushki ovqatdan keyin uyquning mazasi qochadi-da, ko'zlarimni ochganimcha yotaveraman, ag'darilganim-ag'darilgan.

Karlson jimib qoldi, uyqusizlik uni adoyi-tamom qilganga o'xshaydi, lekin bir zum o'tmay, u xonani zo'r qiziqish bilan ko'zdan kechira boshladi.

– To'g'ri, agar biror kichik narsa sovg'a qilsang, ehtimol, uyg'otib yuborganingni ham kechirarmidim.

Mittivoy Karlsonning xafa bo'lishini hecham istamasdi, unga nima sovg'a qilsam ekan, deb o'ylay boshladi.

– Mana, og'izda chaladigan garmoshka. Qalay, olasanmi? Karlson garmoshkani shartta tortib oldi.

– Musiqa asbobim bo'lishini doim orzu qilib yurardim, sovg'a uchun rahmat... Hoynahoy kontrabasing bo'lmasa kerak?

U garmoshkani labiga tutib g'alati xunuk ovoz chiqardi-yu, ko'zlari porlab Mittivoyga qaradi:

– Eshityapsanmi? Men hozir «Jajji ajinaning ko'z yoshi» degan qo'shiq to'qiyman.

Mittivoy, uydagilarning hammasi kasal, betob, shuning uchun mungli, hazin kuyning chalinishi juda o'rinli-da, deb o'yladi va Karlsonga qizilcha haqida gapirib berdi.

Biroq Karlson, qizilcha – har bir oilada bo'ladigan gap, sira tashvish tortmasa ham bo'ladi, deb e'tiroz bildirdi. Yana shuni yaxshiki, ajina Betan bilan Bosse kasalxonaga yotgan kuni paydo bo'ldi.

Shu gaplarni aytib ulgurmasidanoq Mittivoy qo'rquvdan bir cho'chib tushdi, chunki tashqarida Bok xonimning oyoq tovushini eshitib qoldi. Uy zolimasining hozir uyga kirib kelishi aniq edi. Karlson ham tezda biror chora ko'rish zarurligini tushundi. U uzoq o'ylab o'tirmadi. Shartta karavotning tagiga kirib oldi. Mittivoy o'sha zahoti karavotga chiqib o'tirdi, tizzasiga yuvin-

ganda artinadigan katta sochig'ini tashlab qo'ydi. Uning polga osilib tushgan tomoni Karlsonni arang berkitib turardi.

Shu payt eshik ochilib, xonaga pol cho'tka va xokandoz ushlagan Bok xonim kirib keldi.

– Xonangni yig'ishtirib qo'yay, – dedi u. – Hozircha osh-xonaga chiqib tur.

Mittivoy hayajonlanganidan qip-qizarib ketdi.

– Chiqmayman, – dedi u. – Axir meni ajratib qo'yishdi, shu yerda qimir etmay o'tiraman.

Bok xonim Mittivoyga jahl bilan qaradi.

– Karavotingning tagini bir ko'r, nimalar bo'lyapti, – dedi u.

Mittivoyni jiqqa ter bosdi... Nahotki u Karlsonni payqab qolgan bo'lsa?

– Karavotimning tagida hech nima yo'q... – deb to'ng'illadi u.

– Yanglishasan, bekorlarni aytibsan, – deb uning gapini bo'ldi Bok xonim. – Changning ko'pligidan qarab bo'lmaydi. Bir supurib tashlay. Qani, bu yerdan chiqib tur!

Biroq Mittivoy o'jarlik qilib o'tirib oldi:

– Meni ajratib qo'yishdimi, turmayman, karavotimda o'tiraveraman!

Bok xonim po'ng'illay-po'ng'illay xonaning boshqa tomonini supura boshladi.

– Mayli, boshqa joylarni supurib-sidirib bo'lgunimcha karavotingda o'tiraver. Lekin keyin baribir bu yerdan chiqib ketishing kerak bo'ladi. O'zingni boshqa biror joyda yakkalab qo'ygin, o'jar bola!

Mittivoyning boshi qotib qolgandi: xo'sh, nima qilishi kerak. Biroq u birdan o'tirgan yerida qiqillab kula boshladi, chunki Karlson uning tizzasining tagini qitiqlay boshlagandi. Mittivoy qitiqdan juda qo'rqardi.

Bok xonim ko'zlarini chaqchaytirdi:

– Ha, kul, kulaver, uyatsiz! Oying, opang, akang kasal-u sening parvoyingga kelmaydi-ya. O'zi yo'qning ko'zi yo'q, deb shunga aytadilar-da.

Karlson bo'lsa Mittivoyni battar qitiqlardi, Mittivoy shunday qotib-qotib kulardiki, oxiri, karavotiga yotib oldi.

– Nega bunchalik kulayotganingni bilsa bo'ladimi? – deb so'radi Bok xonim xo'mrayib.

– Xa-xa-xa.. – Mittivoy arang gapirardi. – Bir kulgili voqea esimga tushib ketdi.

U biror kulgili narsani eslashga urinardi.

– ...Bir kuni buqa otni quvib qolibdi-yu, ot qo'rqqanidan daraxtga chiqib ketibdi... Shunaqa hikoyani eshitganmisiz, Bok xonim?

Bosse shu voqeani tez-tez gapirib berardi, biroq Mittivoy hech qachon kulmasdi, chunki daraxtga chiqib ketgan bechora otga uning juda rahmi kelardi.

Bok xonim ham kulmadi.

– Bo'ldi, meni aldamay qo'ya qol! Bo'lmagan gap. Tavba, otlar ham daraxtga chiqarkanmi?

– Albatta, ular chiqisholmaydi, – deb qo'shildi Mittivoy Bossening gapini birma-bir takrorlab. – Biroq uni quvlagan buqa quturgan edi-da, ko'ziga hech nima ko'rinmasdi, shunday ekan, shayton ursin, bechora ot nima ham qila olardi.

Bosse, «shayton» so'zi hikoyada bormi, uni ishlatish, talafuz etish mumkin deb ishontirardi. Biroq Bok xonim boshqacha fikrda edi. Mittivoyga darg'azab bo'lib qaradi:

– Onasi, opasi, akasi kasal, qiynalib yotishsa-yu, bu esa karavotga o'tirib olib xaxolab kulsa. Tavba, hayronman, bu qanaqa...

Mittivoy Bok xonimning nega hayron bo'lishini bilolmadi, chunki xuddi shu payt «Jajji ajina yig'isi» qo'shig'i eshitilib qoldi. Karavot tagidan xunukdan xunuk churillagan ovoz eshitildi. Bok xonim qo'rqqanidan o'tirgan yerida bir sapchib tushdi:

– Voy, xudoyim-ey, bu nimadi?

– Bilmadim, – dedi Mittivoy.

Biroq Bok xonim bilardi.

– Bu ovozlar narigi dunyodan kelyapti. Bunga sira shubha qilmasa bo'ladi.

– «Narigi dunyo» deganingiz nimasi? – deb so'radi Mittivoy.

– Ajina, alvastilar dunyosi, – dedi Bok xonim. – Bu xonada ikkovimizdan boshqa hech kim yo'q, lekin ikkovimiz ham bunaqa g'alati tovush chiqara olmaymiz. Bu odam ovozi emas,

ajina ovozi. Nima, sen eshitmadingmi?.. Bu orom ololmagan qalb nidosi.

U qo'rqqanidan piyoladek bo'lib ketgan ko'zlari bilan Mittivoyga qaradi.

– Voy xudoyim, endi buning hammasini televizorga yozib berishim kerak.

Bok xonim qo'lidagi cho'tka bilan xokandozni bir chetga uloqtirib yubordi-yu, Mittivoyning stuliga o'tirdi-da, qog'oz, qalam olib yozishga tushdi.

U bosh ko'tarmay uzoq yozdi.

– Yozganlarimni bir eshitgin-a, – dedi u xatni tugatib.

*«Shved radiosida va televideniyesiga. Singlim Frida Bok sizning ajina va alvastilar haqidagi eshittirishlaringda qatnashib gapirgan edi. O'sha eshittirishning yaxshi chiqqaniga ko'zim yetmaydi, chunki Frida ancha vasvos bo'lib qolgan. Ko'ziga doim allanimalar ko'rinib yuradi. Lekin yaxshiyamki, hamma narsaning oldini olish, tuzatish mumkin. O'sha eshittirishni ham tuzatish mumkin. Chunki men hozir turgan uyda ajina-yu alvastilar g'ij-g'ij to'lib yotibdi. Mana ular bilan uchrashganimni ro'yxat qilib qo'yganman:*

1. Oshxonamning derazasi tagida g'alati bir ma'ragan tovush eshitildi, bu sigir bo'lishi mumkinmas, chunki biz to'rtinchi qavatda turamiz. Demak, bu tovush shunchaki sigirning ma'rashiga o'xshaydi.

2. Shunday ko'z oldimda turli narsalar sirli ravishda yo'q bo'lib qoladi. Bir kuni shirin kulchalar-u xonaga qamab ketilgap bolalar yo'q bo'lib qolishdi.

3. Eshiklar tashqaridan qulflanib qoladi, holbuki o'sha payt xonada bo'laman, nima gapligiga sira aqlim yetmay qoldi!

4. Oshxona devorida allaqanday sirli yozuvlar paydo bo'lib qolyapti.

5. To'satdan allaqanday yurakni ezadigan qiyqiriqlar, ovozlar eshitiladi, yig'idan o'zingni arang tiyib turasan. Biznikiga tezda kelinglar, kechikmanglar, juda ajoyib eshittirish bo'lishi mumkin, odamlar doim gapirib yuradigan bo'ladi.

*Chuqur hurmat bilan Xildur Bok.*

*Hayronman, Fridani nega televizorga taklif qilib o'tirib-sizlar?»*

Bok xonim sabri chidamay xatni tashlab kelgani o'sha zahotiyoq chopib ketdi. Mittivoy Karlson nima qilayotganikin, deb karavot tagiga qaradi. U ko'zlari porlab, xotirjam uzala tushib yotardi. U karavot tagidan ko'ngli chog' bo'lib chiqdi:

– Voh-voh! – dedi u. – Qani, kech bo'lsin-chi. Qosh qorayganda uy zolimasining televideniyeiga xat yozish uchun qo'lida chindan ham dalili bo'ladi.

Mittivoy yana kula boshladi va Karlsonga mehr bilan qarab qo'ydi.

– Yakkalab qo'yish ham yaxshi bo'larkan-a, maza qilarkansan, ayniqsa, sen bilan birga ajratib qo'yishsa, – dedi Mittivoy.

Shu payt u Krister bilan Gunillani esladi. Ochig'ini aytganda, Mittivoy ular bilan biroz vaqt o'ynayolmasligidan xafa bo'lishi kerak edi.

«Hechqisi yo'q, – deb o'yladi Mittivoy. – Karlson bilan o'ynash baribir ko'ngilli».

Biroq shu payt Karlson mening boshqa vaqtim yo'q, deb qoldi. Darrov uyga uchib borib, motorga ovoz yutgich qilib olishim kerak dedi.

– Vazastanlik ajina temir bochkaday guldirab kelmasinda. Tushundingmi? Ajina shov-shuvsiz, sirli bir holda ajinaga o'xshab kelishi kerak-da. Ana o'shanda uy zolimasining o'takasi yorilib ketadi.

Karlson bilan Mittivoy qo'ng'iroq orqali qanday sirli signallar berish haqida kelishib olishdi.

Bir marta qilingan qo'ng'iroq – «Darrov uchib kel!», ikki marta qilingan qo'ng'iroq – «Uchib kela ko'rma!», uch marta qilingan qo'ng'iroq esa – «Dunyoda senday kelishgan, aqlli, tobida semirgan, dovyurak, jahonda eng yaxshi Karlson borligi qanday baxt-a», degani bo'ladi.

– Buning uchun qo'ng'iroq qilishimning nima keragi bor? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib.

Shuning uchunki, do'stlarga taxminan har besh daqiqada ularni xursand qiladigan, ko'nglini ko'taradigan gaplar aytib turish kerak. O'zing bilasan-ku, oldingga tez-tez kelolmayman.

Mittivoy Karlsonga o'ychan qarab qo'ydi.

– Axir men sening do'stingman-ku, shundaymi? Biroq menga biror marta yoqimli gap aytganingni eslayolmayman.

Karlson xaxolab kulib yubordi:

– O'zingni tenglashtirib o'tiribsanmi? Xo'sh, sen kimsan o'zi? Bir nodon bolasan, xolos...

Mittivoy Karlsonning haqligini bilib jim turardi.

– Lekin sen meni baribir yaxshi ko'rasan-a?

– Bo'lmasam-chi, albatta yaxshi ko'raman, chin so'zim! – dedi Karlson. – Seni nega yaxshi ko'rishligimni o'zim ham bilmayman. Tushki ovqatdan keyin uyqum kelmay qiynalib yotganimda bu haqda rosa o'yladim. – U Mittivoyning yuziga urib qo'ydi. – Seni yaxshi ko'raman, albatta, negaligini hatto fahmlab turibman. Shuning uchunki, sen menga hecham o'xshamaysan, sho'rlik bola!

U derazadan uchib chiqib, xayrlashib qo'l siltadi.

– Bordi-yu o't o'chiruvchi mashinaga o'xshab yana ketmaket qo'ng'iroq qilaversang, – deb qichqirdi u, – chindan ham yong'in chiqqan bo'ladi, yoki «Seni yana uyg'otdim, azizim Karlson, darrov yonimga uchib kel, hamma o'yinchoqlarimni solib olishing uchun kattaroq qop ola kel... Men ularni senga hadya qilaman!» degan ma'noni anglatgan bo'ladi.

Karlson shunday dedi-yu, uchib ketdi.

Bimbo Mittivoyning yoniga kelib yotdi-da, dumini likillataverdi. Kuchuk nimadandir xursand bo'lsa, menga ham e'tibor bergin demoqchidek, shunday qilardi. Mittivoy uning yoniga uza-la tushib yotib oldi. Bimbo sapchib turib, sevinganidan akillab yubordi. Keyin u Mittivoyning yelkasiga tumshug'ini tiradi-da, ko'zlarini yumdi.

– Meni yakkalab, ajratib qo'yishganiga, maktabga bormay, uyda o'tirganimga xursand bo'lyapsanmi? – deb so'radi Mittivoy. – Sen, Bimbo, meni dunyodagi eng yaxshi bola deb o'ylasang kerak-a...



ittivoyga kunning o'tishi juda og'ir bo'ldi. U yolg'iz o'zi o'tirar, kunning kech bo'lishini sabrsizlik bilan kutardi.

«Rojdestvo arafasiga o'xshaydi-ya», deb o'yladi.

U Bimbo bilan o'ynadi, markalarini ermak qildi, hatto sinfdoshlaridan orqada qolmay deb, arifmetika bilan jindek shug'ullandi. U Kristerning maktabdan qaytish vaqtini taxminan bilib, unga telefon qildi va qizilcha haqida gapirib berdi.

– Men maktabga borolmayman, chunki meni ajratib qo'yishgan, tushundingmi?

Bu juda g'alati eshitar, kishini qiziqtirardi. Mittivoyning o'zi shunday deb o'ylardi. Krister ham shu fikrda bo'lsa kerak, chunki hadeganda javob qilolmadi.

– Buni Gunillaga ham gapirib bergin, – deb qo'shib qo'ydi Mittivoy.

– Zerikmayapsanmi? – deb so'radi Krister arang o'ziga kelib.

– Yo'g'-e, nega endi? Axir, mening... – deb gap boshladi-yu Mittivoy, lekin shu zahoti tilini tishlab qoldi.

U «Karlson bor» demoqchi edi-yu, lekin otasining gapini eslab gapirmadi. To'g'ri, bultur bahorda Krister bilan Gunilla Karlsonni bir necha bor ko'rishgandi, biroq ular dadasining gapidan avval ko'rishgandi. Mittivoyning dadasi Karlson haqida hech kim bilan gaplashma deb qattiq tayinlagandi.

«Balki Krister bilan Gunilla Karlsonni allaqachon unutilib yuborishgandir, unda juda soz bo'lardi-da! – deb o'yladi Mittivoy. – U mening shaxsiy sirli Karlsonim bo'lib qolardi». Mittivoy Krister bilan shosha-pisha xayrlashdi.

– Xayr, hozir sen bilan gaplashib o'tirishga vaqtim yo'q, – dedi u.

Bok xonim bilan ovqatlanish juda zerikarli edi, biroq u juda shirin, mazali tefteli pishirib qo'ygandi. Mittivoy ikki kishining ovqatini yedi. Uchinchisiga vanil qo'shib pishirilgan olmalı zapkanka yedi. U o'zicha, ehtimol Bok xonim unchalik yomon emasdir, deb o'yladi.

«Uy zolimasidagi eng yaxshi fazilat – bu olмали zapekan-ka, olмали zapekankadagi eng yaxshi narsa – bu vanil qaylasi, vanil qaylasidagi eng yaxshi narsa – uni yeyishim», deb o‘yladi Mittivoy. Baribir tushki ovqat zerikarli bo‘ldi, chunki stol atro- fida ancha joy bo‘sh edi. Mittivoy oyisini, dadasini, Bosse bi- lan Betanni sog‘ingandi. Ha, tushki ovqat juda-juda ko‘ngilsiz o‘tdi, buning ustiga Bok xonim nuqul Frida haqida gapirib, Mittivoyning joniga tegdi.

Mana, kech ham kirdi. Kuzda tez qorong‘i tushadi. Mittivoy xonasida derazadan osmondagi jimirlagan yulduzlarga qarab tu- rardi. Hayajonlanganidan rangi bo‘zarib ketgandi. U kutardi. Bu rojdestvo arafasidan ham yomon edi. Arafada ham kutaverib charchaysan. Lekin buni vazastanlik jajji ajinaning kelishini ku- tish bilan tenglashtirib bo‘larmidi!!! Hech-da! Mittivoy kutaverib toqati-toq bo‘lganidan tirnoqlarini kemirardi. Tepada Karlson ham kutayotganini u yaxshi bilardi. Bok xonim oshxonada tog‘oraga suv quyib oyoqlarini solib o‘tiribdi. U doim shunday qilib, uzoq o‘tiradi. Keyin Mittivoyning oldiga kirib, unga, yaxshi yotib tur- gin, deydi. Ha, o‘zi Mittivoyga va‘da bergan. Kirishi bilan signal berish kerak. Ana o‘shanda, zo‘r tomosha bo‘ladi-da. Bunaqa paytlarda Bok xonim doimo yo tangrim, qiyomat ish bo‘ldi-da, deb gapiradi.

– Agar yana anchagacha kelmasa, sabrim chidamay tars yo- rilib ketaman, – deb ming‘illadi Mittivoy.

Mana, nihoyat Bok xonim keldi. Mittivoyga dastavval uning toza yuvilgan katta oyoqlari ko‘rindi. Mittivoy to‘rga tushgan baliqday tipirchilardi. Garchi Mittivoy uni kutayotgan, kelishini aniq bilsa ham juda qo‘rqib ketgandi.

Bok xonim unga xo‘mrayib qarab qo‘ydi.

– Pijamada nega ochiq deraza oldida turibsan? Qani, hoziroq o‘rningga yot!

– Men... men yulduzlarni tomosha qilayotgandim, – deb g‘o‘ldiradi Mittivoy. – Siz, siz-chi, Bok xonim, ularni tomosha qilmaysizmi?

Bok xonimni derazaga yaqin kelishga majbur etish uchun u shunday hiyla ishlatgandi. O‘zi sezdirmaygina parda orqasidagi

ipni qattiq tortdi. U tomdagi qo'ng'iroqchaning jiringlaganini eshitdi. Bok xonim ham eshitdi.

– Yuqorida, allaqayerda qo'ng'iroq jiringlayapti-ya, – dedi Bok xonim. – Tavba, qiziq bo'ldi-yu!

– Ha, juda g'alati, – deb qo'shildi Mittivoy.

Lekin shu zahoti Mittivoyning yuragi hapqirib ketdi, chunki uncha katta bo'lmagan oq yumaloq ajina tomdan ko'tarilib qorong'i osmonda uchib ketdi. Ketma-ket allaqanday mungli kuy tarala boshladi. Ha, xato bo'lishi mumkinmas. «Jajji ajinaning yig'isi» qorong'i kuz osmonini tutib ketgandi.

– Ana... Voy, qaragin, qaragin... Yo tangrim! – deb qichqirib yubordi Bok xonim.

Uning rangi dokadek oqarib ketdi, oyoqlari dag'-dag' qaltirab, stulga gurs etib o'tirib qoldi. Ajina, alvastilardan qo'rqmayman deb maqtangandi-ya!

Mittivoy unga tasalli bermoqchi bo'ldi.

– Ha, ajina borligiga endi men ham ishona boshladim, – dedi u. – Axir, u juda kichkina, uning nimasi qo'rqinchli?

Biroq Bok xonim Mittivoyning gapini eshitmasdi. U ola-kula ko'zlarini derazadan uzmasdi – Bok xonim ajinaning g'alati uchishini kuzatardi.

– Uni yo'qotinglar! Yo'qotinglar uni! – deb shivirlardi u nafasi siqilib.

Biroq vazastanlik jajji ajinani yo'qotib bo'lmasdi. U tun qo'ynida charx urib yurar, goh uzoqlashib ketar, goh yana yaqin kelar, dam osmonga ko'tarilar, dam pastga tushar, ba'zi-ba'zida havoda jindek dam olardi. Mungli kuy ham bir zum tinmasdi.

«Jajji oq ajina, yulduzlar charaqlagan qorong'i osmon, mungli musiqa – bundan ham chiroyli, ajoyib narsa bo'ladimi?!» – deb o'ylardi Mittivoy.

Biroq Bok xonim butunlay boshqacha fikrda edi. U Mittivoyga mahkam yopishib olgandi:

– Yur, tezroq, yotoqxonaga yashirinib olamiz. Svantesonlar uyida beshta xona, oshxona, vannaxona va dahliz bor edi. Bosse, Betan, Mittivoylarning har qaysisining o'z xonasi bo'lib, oyisi bilan dadasi yotoqxonada uxlashardi. Bundan tashqari, yemak-xona bor edi. Hammasi shu yerga yig'ilishardi. Endi oyisi bilan

dadasi yo'qligida Bok xonim ularning xonasida yotib yurardi. Yotoqxonaning derazasi boqqa, Mittivoyniki esa ko'chaga qaragandi.

– Yur, – deb shivirladi Bok xonim hamon qaltirab, – tezroq yur, yotoqxonaga yashirinib olamiz.

Mittivoy ko'nmadi: shunday yaxshi boshlangan o'yinni oxiriga yetkazmay bo'ladimi! Biroq Bok xonim hadeb qistayverdi:

– Qani, bo'l tezroq, bo'lmasa hozir hushimdan ketib yiqilaman. Mittivoy qanchalik qarshilik qilmasin, noiloj yotoqxonaga borishga majbur bo'ldi. Yotoqxonaning ham derazasi ochiq edi. Bok xonim chopib borib, uni sharaqlatib yopdi. Keyin pardalarni tushirib qo'ydi, eshikka xonadagi stol-stullarni tirab qo'ymoqchi bo'ldi! Yaqindagina ajinani bir ko'rsam, deb orzu qilib yurgan Bok xonimning ajinani ko'rishiga toqati yo'q edi.

Mittivoy hech nimaga tushunolmay qoldi. U dadasining karavotiga o'tirdi-da, qo'rqib ketgan Bok xonimga qarab boshini chayqab qo'ydi.

– Frida bunchalik qo'rqoq bo'lmasa kerak, – dedi u.

Biroq Bok xonim hozir Frida haqida hech nima eshitishni istamasdi. U hamon eshikni mahkamlash bilan ovora edi. Avval javonni, keyin stol-stullarni birma-bir taqab qo'ydi. Xullas, haqiqiy barrikada hosil bo'ldi.

– Mana endi, qo'rqmasdan, xotirjam o'tiraversak bo'ladi, – dedi Bok xonim o'zicha mamnun bo'lib.

Lekin shu payt dadasining karavoti tagidan bo'g'iq bir ovoz eshitildi. Bu ovozda ham mamnuniyat sezilib turardi.

– Ha, mana endi xotirjam bo'lsam bo'ladi! Eshikni berkitib qo'ydim. Kechasi bilan hech kim kirolmaydi ham, chiqolmaydi ham.

Jajji ajina karavot tagidan chiyillab shiddat bilan uchib chiqdi.

– Yordam beringlar! – deb baqirdi Bok xonim. – Hoy, kim bor, yordam beringlar!

– Nima bo'ldi? – deb so'radi ajina. – Stol-stullarni o'zingiz suryapsiz, nahotki yordam beradigan hech kim bo'lmasa?

Ajina qotib-qotib kuldi. Biroq Bok xonimning kuladigan holi yo'q edi. U eshikka tashlandi-da, stol-stullarni har tomonga

irg'ita boshladi. Hash-pash deguncha Bok xonim barrikadani yig'ishtirib tashlab, baqirganicha dahlizga chopib chiqdi.

Ajina orqasidan uchdi, Mittivoy ham ularga ergashdi. Eng orqada akillab Bimbo chopib kelardi. U ajinani hididan bilib olgan, endi g'alati o'yin bo'ladi deb o'ylardi. Ha, aytmoqchi, ajina ham xuddi shunday deb o'ylardi.

– Hoy, hoy! – deb qichqirardi u, Bok xonimning boshi ustida tegib ketay-tegib ketay deb uchib yurarkan.

Keyin chinakam quvlayotgan odamga o'xshash uchun sal orqada qoldi. Ular shu alfozda xonama-xona chopib yurishdi: oldinda Bok xonim yugurar, orqasidan ajina chopardi. Ular oshxonadan yemakxonaga, yemakxonadan Mittivoyning xonasiga, undan yana oshxonaga chopishardi. Xullas, girdikapalak bo'lib aylanib yurishdi.

Bok xonim tinmay dodlar, baqirib-chaqirardi. Ajina uni yupatmoqchi ham bo'ldi:

– Ha bo'ldi, bo'ldi, bo'kiraverma! Mana endi miriqib o'ynaymiz, xursandchilik qilamiz!

Lekin bu yupatishlar, ovutishlarning hech nafi bo'lmadi. Bok xonim hamon dodlar, betoqat bo'lib oshxonada u yoqdan bu yoqqa yurardi. Suv quyilgan tog'ora hamon o'sha yerda, pol-da turardi. Ajina Bok xonimni izma-iz quvib yurardi. Uning: «Hoy, hoy», deb qiyqirishi quloqlarda jaranglardi. Bok xonim oxiri tog'oraga qoqilib, gursillab yiqilib tushdi. U shunday dodlab yubordiki, ovozi xuddi bo'g'izlayotgandagidek eshitildi.

– Axir, uyalmaysanmi? Yosh bolaga o'xshab baqirasan-a, meni ham, qo'shnilarni ham o'takasini yorib yubording-ku. Sal ehtiyot bo'lg'in, yana politsiya kelib o'tirmasin!

Polning hammayog'ini suv bosgan, kattakon ko'lmak o'rtasida Bok xonim tipirchilardi. U turishga ham urinmay, oshxonadan juda tez emaklab chiqib ketdi.

Ajina tog'oraning ichiga tushib, bir necha bor dik-dik sakradi – axir, tog'orada bir tomchi ham suv qolmagandi-da!

– Devorga ozgina suv sachrabdi, shunga shunchalikmi? – dedi ajina Mittivoyga. – Hamma odamlar ham odatda tog'oraga qoqilishadi. Bok xonim buncha dod-voy qilmasa?

Ajina yana bir marta sakradi-da, keyin yana Bok xonimni quvlab ketdi. Lekin u hech qayerda ko'rinmasdi. Faqat dahlizda uning oyoq izlari qolgandi.

– Uy zolimasi qochib ketibdi! – deb qichqirdi ajina. – Mana, uning qo'l izlari. Qani, ko'raylik-chi, bu izlar qayoqqa olib borar-kin! Qani, top-chi, dunyoda eng zo'r izquvar kim?

Izlar vannaxonaga olib bordi. Bok xonim vannaxonaga kirib, eshikni ichidan berkitib olgandi, uning «bopladimmi» deganday qilib kulishi dahlizga eshilib turardi.

Ajina vannaxonaning eshigini taqillatdi:

– Och! Eshityapsanmi, och deyaрман!

Biroq eshik orqasidan xaxolagan kulgi eshitildi.

– Och! Bo'lmasa o'ynamayman, – deb baqirdi ajina.

Bok xonim indamadi-yu, lekin baribir eshikni ochmadi. Ajina hali ham nafasini rostlab olmagan Mittivoyga murojaat qildi.

– Unga ayt, ochsin! Agar bunday qiladigan bo'lsa, o'ynashning qizig'i yo'q-da.

Mittivoy qo'rqa-pisa eshikni tiqillatdi.

– Bu menman, – dedi u. – Bok xonim, vannaxonada anchagacha o'tirmoqchimisiz?

– Ertalabgacha, – deb javob berdi Bok xonim. – Tagimga hamma sochiqlarni solib yotaman.

Endi ajina boshqacha gapirdi:

– Ha, mayli, solib yot! Mayli, o'yinimizni buzish, bizni xafa qilish uchun bilganingni qil! Lekin qani top-chi, bunaqada yangi eshittirish uchun materialni Fridaga kim olib borib beradi?

Vannaxonada uzoq jimlik hukm surdi. Aftidan, Bok xonimni bu do'q-po'pisa o'ylantirib qo'ygandi. Oxiri u ayanchli, yalingan ovoz bilan:

– Yo'q, yo'q, bunday qilma, o'tinaman!.. Men bunga chiday-olmayman, – dedi.

– Unday bo'lsa, bu yoqqa chiq! – dedi ajina. – Bo'lmasa ajina hoziroq Freyगतenga uchib ketadi. Keyin singling Frida yana televizorda chiqadi. Ha, bu turgan gap!

Bok xonimning bir necha bor og'ir xo'rsingani aniq eshitildi. Nihoyat, u Mittivoyni chaqirib qoldi:

– Mittivoy! Qulog'ingni qulf teshigiga tutgin, o'zingga bir gap aytdiqchiman.

Mittivoy xuddi u aytganday qildi. U qulog'ini qulf teshigiga tutdi, Bok xonim sekin shivirladi:

Bilasanmi, ajinadan qo'rqmayman deb o'ylovdim, endi bil-sam, qo'rqar ekanman. Biroq sen dovyuraksan. Undan iltimos qil, hozir ketib, boshqa gal kelsin. Men unga sal ko'nikib olay. Biroq eng muhimi, u Fridaning oldiga bormasin! U Freyगतenga bormayman deb qasam ichsin!

– Urinib ko'raman, lekin oldindan bir narsa deyolmayman, – dedi Mittivoy va ajina bilan gaplashmoqchi bo'lib, orqasiga o'girildi.

Biroq ajinaning izi ham qolmagandi.

– U yo'q! – deb qichqirdi Mittivoy. – Uyiga uchib ketibdi. Chiqavering.

Biroq Mittivoy butun xonalarni aylanib chiqib, ajinaning yo'qligiga qat'iy ishonmagunicha Bok xonimning vannaxonadan chiqishga yuragi betlamadi.

Keyin Bok xonim qo'rquvdan dag'-dag' qaltirab Mittivoyning xonasida uzoq o'tirdi. Lekin asta-sekin o'ziga kelib, es-hushini yig'ib oldi.

– Voy, juda dahshat-ku... – dedi u. – Lekin o'zing o'ylab ko'r, televideniye uchun ajoyib eshittirish bo'ladi-da! Bunaqa narsalar Fridaning yetti uxlab tushiga kirmagan.

Bok xonim xuddi yosh boladek sevinardi. Lekin o'qtin-o'qtin ajinaning uni izma-iz quvib yurganini eslasa, yuragi orqasiga tortib ketardi.

– Xullas, ajinalaringni boshqa ko'rmay, – dedi u nihoyat. – Shunaqa uchrashuvlar bo'lmasa, taqdirimdan mingdan ming rozi bo'lardim.

Shu gapni aytib tugatmasdanoq Mittivoyning shkafi ichidan sigirning ma'rashiga o'xshash g'alati tovush eshitildi. Buni eshit-di-yu, Bok xonim yana dod-voyini boshladi:

– Eshityapsanmi? O'lay agar, ajina shkaf ichiga yashirinib olgan! Voy, xudoyim, hozir o'lib qolaman...

Mittivoyning unga juda rahmi keldi, lekin Bok xonimni qan-day yupatishni bilmasdi.

– Yo'g'-e... – dedi bir zum o'ylanib turgandan keyin, – u ajina emas... Bu... bu... buzoqcha, ha, buzoqcha ma'radi. Ha, buzoqcha bo'lishi kerak.

Biroq shu zahoti shkaf ichidan ovoz eshitildi:

– Buzoqcha! Endi shu qoluvdi! Yo'q, bunaqasi ketmaydi! Xomtama bo'lmang!

Shkaf eshiklari lang ochilib, oq kiyim kiygan vazastanlik jajji ajina parillab uchib chiqdi. Uning kiyimini Mittivoyning o'zi tikib bergan. U sirli va chuqur xo'rsinib, shiftga ko'tarildi-yu, qandil atrofida ucha boshladi.

– Hoy, hoy, men buzoqcha emasman, dunyodagi eng xavfli ajinaman!

Bok xonim qichqirardi. Ajina gir-gir aylanib, tobora tez uchardi. Bok xonim uyni boshiga ko'tarib dodlar, ajina bo'lsa quyunday uchardi.

Biroq birdan kutilmagan hodisa ro'y berdi. Ajina xilma-xil murakkab harakatlar qilishga berilib ketib, juda tor doira hosil qilib uchayotganida kiyimi qandilga ilinib qoldi. Eski choyshablar Karlsonning yelkasidan shunday sidirilib tushdi-yu, qandilda osilib qoldi. Karlson endi qandil atrofida o'zini odatdagi ko'k ishtoni, katak-katak ko'ylagi, yo'l-yo'l paypog'ida uchaverdi. U o'yinga berilib ketganidan buni sezmedi ham. U tinmay uchar ajinalarga o'xshab ingrar, oh-voh qilardi. Biroq yana bir aylanayotganida u qandilda nimadir osilib turganini, u havoda hilpirayotganini sezib qoldi.

– Voy, chiroqqa qanaqa latta osib qo'ygansizlar? – deb so'radi. – Pashshadanmi?

Mittivoy og'ir, ayanchli xo'rsinib qo'ydi:

– Yo'q. Karlson, pashshadan emas...

O'shandan keyin Karlson o'ziga qaradi-yu, ko'k ishtonini ko'rib qoldi va qanday falokat yuz berganini, endi vazastanlik ajina emas, shunchaki Karlson ekanini tushundi.

U Mittivoy yoniga qo'polgina qo'ndi: u o'sal bo'lib qolgandi.

– Ha, – dedi u, – ishing yurishmasa, hamma o'ylaganlaring barbod bo'ladi. Bunga hozirgina ishonch hosil qildik... Parvo qilma, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap.

Bok xonim rangi quv o'chib, Karlsonga tikilib qolgandi. U qirg'oqqa uloqtirib tashlangan baliqqa o'xshab zo'rg'a, entikib-entikib nafas olardi. Biroq, axiri arang og'iz juftlab, bir-ikki og'iz so'z ayta oldi.

– Kim... Kim... yo tangrim, bu yana kim bo'ldi? Mittivoy ko'z yoshlarini arang tiyib dedi:

– Bu tomda yashaydigan Karlson.

– Kim u? Tomda yashaydigan Karlson kim o'zi? – deb so'radi Bok xonim nafasi siqilib.

Karlson ta'zim qildi:

– Chiroyli, aqli, tobida semirgan, qirchillama yigit! O'sha zot mana biz bo'lamiz.

### **KARLSON AJINA EMAS, SHUNCHAKI KARLSON**

**O**'sha kechani Mittivoy bir umrga eslab qoldi. Bok xonim stulda yig'lab o'tirar, Karlson bir chekkada xijolat bo'lib turardi. Hech kim hech nima demas, hamma o'zini baxtsiz hisoblardi.

«Ha, hayoting shunaqa bo'lsa, soching barvaqt oqaradi», deb o'yladi Mittivoy, chunki oyisi ko'pincha shunday derdi. Bosse uyga birdaniga uchta ikki olib kelsa yoki dadasi qarzga olgan televizorga pul to'lagan kuni Betan yoqasi mo'ynali yangi charm kamzul olib berasizlar, deb xarxasha qilsa, yoki Mittivoy maktab derazasini sindirib, pulini ota-onasi to'laydigan bo'lsa, oyisi og'ir xo'rsinib shunday derdi:

«Ha, turmushing shunaqa bo'lsa, soching barvaqt oqaradi!»

Mittivoyning miyasiga ham xuddi shu fikr keldi. Eh, hamma ish chappasiga ketdi-ya! Bok xonim yoshi duv-duv to'kilib, o'ksib-o'ksib yig'layapti. Yana nimaga deng? Karlsonning aslida ajina emasligiga shunchalik yig'layapti.

– Bu qanaqasi bo'ldi! Televizor uchun tayyor eshittirishni qo'ldan boy berib qo'ydim, – dedi Bok xonim entikib, keyin Karlsonga o'qrayib qarab qo'ydi. – Men ahmoq atayin uyga borib, hammasini Fridaga gapirib o'tiribman-a...

U yuzini qo'llari bilan berkitib, ho'ngrab yig'lab yubordi, Fridaga nima deganini hech kim eshitolmadi.

– Men chiroyli, aqlli, tobida semirgan, qirchillama yigitman – dedi Karlson, Bok xonimni sal bo'lsa-da yupatishga urinib. – Bu qutida meni ham ko'rsatsa bo'ladi...

Bok xonim Karlsonga qaradi-da, jahl bilan to'ng'illadi:

– «Chiroyli, aqlli, tobida semirgan, qirchillama yigit!» emish. Bunaqalar televizorda to'lib-toshib yotibdi, buni televizorga olib borib obro' topmaysan.

Bok xonim yana Karlsonga ishonqiramay, jahl bilan qarab qo'ydi... Bu kichkina semiz bola chindan ham erkakka o'xshaydi...

– Xo'sh, u kim o'zi? – so'radi Bok xonim Mittivoydan. Mittivoy to'g'risini aytib qo'ya qoldi:

– Mening o'rto'g'im, doim birga o'ynaymiz.

– Buni sensiz ham bilaman, – dedi Bok xonim va uning gapini shartta bo'ldi-yu, yana yig'lab yubordi.

Mittivoy hayron edi: axir, dadasi bilan oyisi, bitta-yarimta Karlsonning borligini bilib qolsa bo'lgani, halovatimiz buziladi, jon-holimizga qo'yishmaydi, hamma Karlsonni ko'rgisi keladi, uni televizorda ko'rsatishadi, deb o'ylashgandi; mana endi uni begona bir ayol ko'rdi. Karlson ajina emas ekan, demak, uning hech qizig'i, ahamiyati yo'q deb ho'ng-ho'ng yig'layapti. Yelkasida parragi bo'lsa, ucholsa nima bo'пти, buning Bok xonim uchun nima ahamiyati bor, boshiga uradimi? Shu payt Karlson shiftga ko'tarilib, qandildan o'zining ajina kiyimini ola boshladi, lekin Bok xonim unga o'qrayib qaradi-da, po'ng'illadi:

– Ol-a, parragi, knopkasi bor emish... xo'sh, nima bo'пти... hozirgi bolalarda yana nima bo'lishi mumkin! Hademay ular maktabga bormay turib Oyga uchishadi.

Uy zolimasi stulda o'tirganicha battar xunobi oshardi. U birdan shirin kulchalarini kim o'g'irlaganini, deraza tagida kim ma'raganini, oshxona devoriga kim yozganini fahmlab qoldi. Bolalarga shunaqa o'yinchoq berib bo'ladimi, axir. Ular xohlagan joyiga uchib borishsa, kattalarni behayolarcha kalaka qilsa, xo'rlasa-ya. Bu nima degan gap. U shved televideniyesiga yozib bergan ajina haqidagi har xil sirli, g'alati narsalar bir shum-

takaning sho'xligi bo'lib chiqsa-ya. Yo'q, u bu yaramas kichkina, semiz odamning bu yerda bo'lishiga hech yo'l qo'ymaydi.

– Hoziroq uyingga jo'na, eshityapsanmi?.. Oting nima edi?

– Karlson! – deb javob berdi Karlson.

– Karlsonligingni bilaman, – dedi Bok xonim jahli chiqib. – Axir, familiyangdan bo'lak isming ham bo'lsa kerak?

– Mening ismim Karlson, vassalom!

– Hoy, menga qara, jahlimni chiqarma, bo'lmasa to'nimni teskari kiyib olaman-a, shundayam bo'ladiganimcha bo'ldim, – deb to'ng'illadi Bok xonim. – Isming nimaligini bilasanmi o'zi, uyda seni nima deb chaqirishadi? Xo'sh, uxlash kerak bo'lganida dadang seni nima deb chaqiradi?

– Bezori, – deb javob berdi Karlson kulimsirab. Bok xonim mamnun bo'lib bosh irg'adi:

– Juda topib aytibdi! Boshqacha bo'lishi ham mumkinmas. Karlson uning gapiga qo'shildi:

– Ha, ha, bolaligimizda biz hammamiz juda ham ko'p bezorilik qilganmiz. Biroq bu gaplarga ancha bo'ldi, men hozir dunyodagi eng qobil bolaman!

Biroq Bok xonim uning gapiga boshqa quloq solmay qo'ydi. U o'yga tolib indamay o'tirardi, aftidan, endi-endi o'ziga kela boshlagandi.

– Ha, – dedi u nihoyat, – bu gaplarni bir odam eshitsa «ajab bo'пти» deb rosa xursand bo'ladi-da.

– Kim? – deb so'radi Mittivoy.

– Frida-da, – deb javob qildi Bok xonim alam bilan. Keyin og'ir xo'rsinib qo'ydi-da, polni yuvish va tog'orani olib chiqib qo'yish uchun oshxonaga kirib ketdi.

Karlson bilan Mittivoy o'zlari qolganlaridan xursand bo'lishdi.

– Odamlar arzimagan narsaga xafa bo'lib yurishadi-ya, – dedi Karlson yelkasini qisib. – Axir, men unga hecham yomonlik qilganim yo'q-ku.

– Ha-da, – dedi Mittivoy ishonar-ishonmas. – Faqat sal jig'iga tegding. Endi juda qobil, gapga kiradigan bo'lamiz.

Karlson ham shunday deb o'ylardi.

– Iye, bo'lmasam-chi. Faqat men biroz vaqtixushlik qilsam deyman, bo'lmasa o'ynamayman!

Mittivoy qiyinalib bo'lsa ham Karlsonga doim biror ermak topib berardi. Lekin bu gal bekorga urindi, chunki Karlson hamma narsani o'zi o'ylab topdi, keyin birdan, kutilmaganda Mittivoyning shkafiga tashlanib qoldi.

– Shoshma! – deb qichqirdi u. – Ajina bo'lganimda o'sha yerda ajoyib bir narsani ko'ruvdim!

U shkafdan sichqon tutadigan kichkina qopqonni chiqardi. Mittivoy uni qishloqda buvisinikida topib olib, shaharga keltirgandi.

«Men sichqon tutib, uni qo'lga o'rgatmoqchiman», – deb tushuntirdi Mittivoy oyisiga. Biroq oyisi, shahardagi uylarda sichqon bo'lmaydi, har holda, biznikida bitta ham sichqon yo'q, dedi.

Mittivoy shularni Karlsonga aytdi, biroq Karlson e'tiroz bildirdi:

– Sichqonlar sezdirmasdan paydo bo'ladi. Agar uylaringda kichkinagina bir sichqoncha paydo bo'lsa ham oying bunga xursand bo'ladi, xolos.

U, Mittivoyga, o'sha kichkinagina sichqonni tutib qo'ysak bo'lardi, deb tushuntirdi. Axir, Karlson uni o'z uyida asrashi mumkin, ko'payganidan keyin sichqonlar fermasini qurish mumkin bo'ladi.

– Keyin men gazetaga e'lon beraman, – dedi Karlson. – «Kimga sichqon kerak bo'lsa, Karlsonning sichqon fermasiga murojaat qilsin».

– Ha, juda to'g'ri! Ana unda shahardagi hamma uylarda sichqonlarni ko'paytirsak bo'ladi, – dedi Mittivoy xursand bo'lib va qopqonni qanday qo'yishni Karlsonga tushuntira ketdi. – Uning ichiga, albatta, jindek pishloq yoki cho'chqa yog'idan qo'yish kerak, bo'lmasa sichqon kelmaydi, yaqinlashmaydi.

Karlson cho'ntagidan bir tishlam cho'chqa yog'i oldi.

– Saqlab qo'yganim yaxshi bo'libdi! Tushki ovqatdan keyin uni axlat chelakka tashlab yubormoqchi bo'lgandim.

U qopqonga o'sha bir tishlam cho'chqa yog'ini ildi-da, uni Mittivoyning karavoti tagiga qo'ydi.

– Endi sichqon istagan vaqtida kelishi mumkin.

Ular Bok xonimni butunlay unutib yuborishgandi. Lekin birdan oshxonadan taraq-turuq tovush eshitildi.

– U ovqat qilyapti, shekilli, – dedi Karlson. – Tovalarni tiqirlatyapti.

Uning aytgani to'g'ri chiqdi, chunki chindan ham oshxonadan ishtahani qitiqlovchi g'alati bir hid keldi.

– U tushlikdan qolgan teftelini isityapti, – deb tushuntirdi Mittivoy. – Voy, biram qornim ochdiki!

Karlson chopib eshik oldiga bordi.

– Qani, olg'a, oshxonaga! – deb qichqirdi u.

Mittivoy, Karlson shunga jur'at etdimi, demak, chindan ham dovyurak ekan, deb o'yladi. Mittivoy qo'rqq bo'lib qolishni ishtamasdi, u ham qo'rqa-pisa oshxona tomonga yurdi.

– Hoy, hoy, biz ayni vaqtida kelibmiz. Kechki ovqat bizni kutyapti, – dedi Karlson.

Bok xonim plita yonida turib, teftelini aylantirardi, biroq u Karlsonni ko'rishi bilan tovani tashladi-da, u tomonga bostirib kela boshladi. Uning vajohati juda yomon edi.

– Jo'na! – deb qichqirdi u. – Jo'na bu yerdan!

Karlsonning lablari qaltirab, qosh-qovog'i osilib ketdi.

– Bunaqada men o'ynamayman! Bunday qilish yaramaydi. Teftelidan men ham yemoqchiman. Kechqurun rosa «ajina-ajina» o'ynaganingdan keyin ishtahang juda ochilib ketar ekan, nahotki shuni bilmasang?

U plita yoniga bordi-da, tovadani bir dona teftelini oldi. Bunday qilmasligi kerak edi. Bok xonim darg'azab bo'lib unga tashlandi. Karlsonni yelkasidan ushlab, tashqariga itarib chiqarib yubordi.

– Jo'na! – deb o'shqirdi. – Uyingga jo'na, boshqa qorangni ko'rsatma!

Mittivoy juda xafa bo'ldi.

– Voy, nega buncha jahlingiz chiqadi, Bok xonim? – dedi u ko'zlariga yosh olib. – Karlson mening o'rtog'im, uni uydan haydab bo'ladimi?

Mittivoy boshqa gap aytishga ulgurolmadi, chunki oshxona-ning eshigi shartta ochilib, Karlson kirib keldi. U ham tutaqib ketgan edi.

– Men bunday o'ynamayman! – deb qichqirdi u. – Yo'q, o'yin bunaqa bo'lmaydi! Meni orqa eshikdan haydab yubormoqchi bo'ldingizmi?! Qo'lingizdan kelmaydi!

U Bok xonimning oldiga uchib keldi-da, depsinib qo'ydi.

– Tavba, orqa eshikdan quvarmish-a!.. Meni odamlarday ko'cha eshikdan haydasin-da!

Bok xonim Karlsonni yana yoqasidan ushlab oldi.

– Ko'cha eshikdan? Bajonidil! – deb qichqirdi u va Karlsonni xonama-xona sudrab ko'cha eshikdan chiqarib yubordi. Mittivoyning ko'z yoshlariga, yalinib-yolvorishlariga parvo ham qilmadi. Karlson o'ziga-o'zi qildi.

– Mana, endi senga himmat qilishdimi? – deb so'radi Bok xonim.

– Ha, durust, – dedi Karlson. Bok xonim eshikni shunday sharaqlatib yopdiki, butun uy larzaga keldi.

– Xayriyat-e, – dedi u va oshxonaga kirib ketdi.

Mittivoy uning orqasidan soyadek ergashib yurardi, u juda xunob edi:

– Eh, Bok xonim, bunchalik jahlingiz tez bo'lmasa! Karlsonning oshxonada bo'lishga haqi bor!

Karlson chindan ham hozir oshxonada edi. Pechka yonida turib teftelini yerdi.

– Ha, ha, orqa eshikdan qaytib kirib, teftelidan yeyishim uchun meni ko'cha eshikdan haydashi kerak edi, – deb tushuntirdi Karlson.

O'shandan keyin Bok xonim Karlsonni yana yoqasidan ushlab, bu gal uni orqa eshikdan uchinchi marta chiqarib yubordi.

– Tavba, hayronman, – dedi u xunobi oshib, – unga hech bas kelib bo'lmayapti-ya. Hozir eshiklarni berkitib qo'yaman, ana shundan keyin kirib bo'pti.

– Ha, ko'ramiz hali, – dedi Karlson xotirjam.

Bok xonim eshikni sharaqlatib yopdi, keyin qulflanganini tekshirib ko'rdi.

– Voy, buncha ham jahlingiz tez bo'lmasa, Bok xonim, – deb Mittivoy bir zum tinmay gapirardi.

Biroq Bok xonim uning gaplariga hech e'tibor bermasdi. U tefteli qip-qizarib pishgan pechka yoniga keldi.

– Bugungi shuncha tashvish va to‘polonlardan keyin bitta teftelini yeya olarmikinman? – dedi.

Biroq xuddi shu payt ochiq derazadan ovoz keldi:

– Hoy, bu uyning egalari bormi? Sizlarda ikkita-uchta tefteli topilmaydimi?

Deraza tokchasida Karlson o‘tirardi, u juda xursand, og‘zi qulog‘ida edi. Mittivoy uni ko‘rib, kulgisini tiyib turolmadi.

– Bu yerga balkonchadan uchib keldingmi?

Karlson bosh irg‘adi.

– Ha, mana, yana sizlar bilan birgaman! Kelganimdan xursand bo‘lsangiz kerak... ayniqsa, sen, plita oldida turgan xotin!

Bok xonim qo‘lidagi teftelini endi og‘ziga solmoqchi bo‘lib turgandi, biroq Karlsonga ko‘zi tushdi-yu, unga tikilgancha ser-rayib qotib qoldi.

– Bunaqa mechkay, ochofat xotinni endi ko‘rishim, – dedi Karlson va pechka ustida aylanib ucharkan, teftelidan bir nechasinini og‘ziga soldi. Keyin shift ostida ucha boshladi.

Bok xonimning toqati-toq bo‘lib, juda tutaqib ketdi. U ovozinig boricha baqirib, qo‘liga gilam qoqadigan tayoqni oldida, Karlsonni quvlab ketdi:

– Ha, shumtaka! Axir bu nima degan gap! Nahotki seni quvib chiqarolmasam!

Karlson esa xursand bo‘lib, lampa atrofida gir-gir aylanardi.

– Eh, eh, mana miriqib o‘ynaymiz, ko‘ngil ochamiz, rosa yayraymiz! – deb qichqirdi u. – Dadam qo‘liga pashsha o‘ldiradigan tayoq olib quvlagandan buyon bunchalik xursand bo‘lmagandim! Men o‘shanda kichkina edim, lekin hammasi esimda, rosa maza qiluvdik!

Karlson o‘zini katta xonaga urdi, yana xonama-xona chop-chop boshlaydi. Oldinda Karlson uchardi. U sevinganidan qiy-qirar, xaxolab kular, uning orqasidan qo‘lida tayog‘i bilan Bok xonim chopar, uning ketidan Mittivoy arang ulgurardi, hammaning orqasidan tinmay vovillab Bimbo chopardi.

– Hoy, hoy! – deb qichqirardi Karlson.

Bok xonim Karlsonning ketidan bir zum qolmas, lekin har gal endi ushlab olaman deganida, Karlson yuqoriga, shiftga ko‘tarilib

ketardi. Bok xonim qo'lidagi tayog'ini tinmay silkitsa, Karlson chap berib o'tib ketardi.

— Hoy, hoy, oyoqqa tegmasin, bunaqada o'ynamayman! — deb qichqirardi Karlson.

Bok xonim harsillab qolgandi, lekin hamon yelib-yugurar, katta, yalang oyoqlari polda shalop-shalop qilardi. Bechora oyog'iga biror narsa kiyib olishga ulgurolmagandi, chunki kechqurundan beri xonama-xona yugurib yurardi. U juda charchagandi-yu, lekin bo'sh kelgisi kelmasdi.

— Kuningni ko'rsatib qo'yaman, shoshmay tur hali! — deb qichqirardi u Karlsonni quvib yurarkan.

U tayog'i bilan urib qolish uchun sakrab qo'yar, lekin buning uddasidan chiqolmasdi. Karlson kula-kula tobora baland uchardi. Mittivoy ham xaxolab kular, o'zini sira tiyolmasdi. Uning hadeb kulaverganidan qorni og'rib qoldi. Uning xonasiga uchinchii marta kirib qolganlarida Mittivoy birpas bo'lsayam dam olgani o'zini karavotga otdi. Uning kulishga ham quvvati qolmagandi, lekin Bok xonimning Karlsonni ushlamoqchi bo'lib, bo'zchining moki-siday u yoqdan bu yoqqa chopishini ko'rib, yana kulib yubordi.

— Hoy, hoy! — deb qichqirardi Karlson xuddi uni gijgijlaganday.

— Men senga «hoy», «hoy»ni ko'rsatib qo'yaman! — deb baqirardi Bok xonim hansirab nafas olarkan. U tayoqni jon-jahdi bilan silkitardi, nihoyat, Bok xonim Karlsonni Mittivoyning karavoti turgan burchakka tiqib qo'ydi.

— Xo'sh, qalaysan, — deb qichqirdi Bok xonim tantanavor, — qo'lga tushdingmi, azizim?

Lekin Bok xonim birdan shunday qichqirib yubordiki, Mittivoyning quloqlari shang'illab ketdi. Kulgisi ham tindi.

«Eh, Karlson qo'lga tushdi-da», — deb o'yladi u.

Biroq Karlson qo'lga tushmagandi. Bok xonimning o'zi qo'lga tushib qolgandi. U o'ng oyog'ining bosh barmog'ini sichqon tutadigan qopqonga bexosdan tiqib oldi.

— Voy, voy, voy! — deb ingradi Bok xonim. — Voy, voy, voy! Bok xonim oyog'ini ko'tardi-da, barmog'ini changallab olgan bu g'alati buyumga vahima ichida tikilib qoldi.



– Voy, voy, voy! – deb baqirdi Mittivoy. – Shoshmang, hozir uni ochaman... Kechirasiz, bunday bo'lishini hecham o'ylamovdim...

– Voy, voy, voy! – deb ingrardi hamon Bok xonim, Mittivoy uning barmog'ini qopqondan chiqararkan. – Nega endi qopqon sening karavoting tagida turibdi?

Mittivoy qopqonga juda achindi, shuning uchun ham tutila-tutilla zo'rg'a gapirdi:

– Chunki... chunki... biz qo'qqisdan sichqon tutib olmoqchi edik.

– Lekin, bunaqa kattasini emas! – deb tushuntirdi Karlson. – Dumi uzun kichkina sichqonni tutmoqchi edik.

Bok xonim Karlsonga bir xo'mrayib qaradi-da, ingradi:

– Yana shu yerdamisan?! Axir, bu yerdan qachon daf bo'lasan? Bok xonim shunday dedi-yu, yana Karlsonni quvlay ketdi.

– Hoy, hoy! – deb qichqirdi Karlson.

Karlson dahlizga uchib chiqdi, dahlizdan katta xonaga kirdi, u yerdan Mittivoyning xonasiga uchib kirdi. Xullas, yana xonama-xona yelib-yugurib quvish boshlandi: oshxonaga kirishar, oshxonadan yotoqxonaga, u yerdan...

– Hoy, hoy! – deb qichqirardi Karlson bir zum tinmay.

– «Hoy, hoy»ni hozir senga ko'rsatib qo'yaman, – deb do'q qildi Bok xonim, tez chopganidan hansirab nafas olarkan.

Bok xonim tayoqni silkitib, kuchining boricha sakradi, quvish bilan ovora bo'lib uydagi stol-stullarni yotoqxona eshigiga tiraganini butunlay unutib qo'ygandi. Shuning uchun ham u kitob javoniga boshi bilan urilib gursillab polga yiqilib tushdi.

– Bo'ldi! Endi Nurlandda yana yer qimirlaydi, – dedi Karlson. Lekin Mittivoy qo'rqib ketib Bok xonimga tashlandi.

– Voy, u yer-bu yeringiz lat yemadimi? – deb so'radi. – Bechora Bok xonim...

– Karavotga borib olishimga yordamlashib yubor... Kel, baraka topgur... – deb shivirladi Bok xonim.

Mittivoy yordamlashdi, to'g'rirog'i, yordamlashmoqchi bo'ldi. Biroq Bok xonim shunday barzangi, Mittivoy bo'lsa shunday kichkina ediki, u bu ishni uddalay olmadi. Lekin shu payt ularning oldiga Karlson uchib keldi.

– Bir o'zing ovora bo'lmay qo'ya qol, – dedi u Mittivoyga. – Uni ko'tarib borishingga men ham yordamlashib yuboray. Axir, men senga o'xshagan emasman, dunyoda eng qobil, gapga kiradigan odamman.

Karlson bilan Mittivoy ikkovlashib Bok xonimni arang karavot oldiga sudrab olib borishdi.

– Bechora Bok xonim, – dedi Mittivoy og'ir xo'rsinib. – O'zingizni qanday sezyapsiz? U yer-bu yeringiz og'rimayaptimi?

Bok xonim go'yo mulohaza qilayotganday darrov javob bermadi.

– Menimcha, tanamda biror sog' joyim bo'lmasa kerak, – dedi u nihoyat. – Biroq og'rishga-ku og'rimayapti... faqat kulsam...

Bok xonim xaxolab kulib yubordi, hatto karavot ham silkinib ketdi.

Mittivoy unga qo'rquv aralash qarab qo'ydi – unga nima bo'ldiykin?

– Sizlarni bilmadim-u, lekin menimcha, bugun kechqurungi trenirovka zo'r bo'ldi-da, bunaqasi kamdan kam bo'ladi, – dedi u. – Ey xudoyim, kishini rosa tetik qilarkan-a!

Bok xonim boshini likillatib gapira ketdi:

– Biz Frida ikkovimiz «uy bekalari uchun mashq» programmasi bo'yicha badantarbiya qilamiz. Endi Fridaga chopish nimagilini ko'rsatib qo'yaman. Shoshmay turinglar-a...

– Hoy, hoy! – deb baqirdi Karlson. – Haligi tayoqni o'zing bilan ola ket, ana o'shanda Fridani zal bo'ylab quvishing, tetik qilishing mumkin-ki, u o'zining qarindoshlarini ham tanimay qoladi!

Bok xonim unga ko'zlarini chaqchaytirdi.

– Sen yana men bilan gaplashib o'tiribsanmi-a? Yaxshisi ovozingni o'chirib, oshxonadan menga teftelini olib kelib bersang bo'lardi.

Mittivoy xursand bo'lib kulib qo'ydi.

– Ha, shunaqa chop-choplardan keyin, ishtaha ham karnay bo'lib ketarkan.

– Qani, top-chi, teftelini keltirib berishda dunyoda eng zo'rkim? – dedi Karlson oshxona tomonga choparkan.

Keyin Karlson, Mittivoy, Bok xonim karavotga o'tirib olishib, teftelini shunday ishtaha bilan tushirishdiki, chapillagan ovoz xonani tutib ketdi. Karlson oshxonadan bir patnis ovqat olib kelgandi.

– Men olmadan qilingan zapekankani ko'rib qoldim. Bundan tashqari, cho'chqa yog'i, pishloq, kolbasa, tuzlangan bodring, bir necha sardinka, bir parcha jigar qiyma ola keldim. Qani ayt-chi, qaymoqli tortni qayoqqa qo'yuvding? Uni topolmadim...

– Bizda tort yo'q, – deb javob berdi Bok xonim.

Karlsonning lablari titrab ketdi.

– Nima, sen tefteli, olmadan qilingan zapekanka, yog', pishloq, kolbasa, tuzlangan bodring, jindek sardinkaga to'yamiz deb o'ylaysanmi?

Bok xonim uning ko'zlariga tikildi:

– Yo'q, – deb xotirjam javob berdi u. – Lekin jigar qiyma ham bor-ku.

Mittivoy hech qachon bunday maza qilib ovqat yemagandi. Mittivoy, Karlson va Bok xonim karavotda yonma-yon o'tirishib, tinmay ovqat yeyishar, dam kavshanishar, dam yutishardi! Uchovlon o'tirganlari maza edi. Biroq Bok xonim baqirib yubordi:

– Voy, xudoyim, axir, Mittivoyni ajratib qo'yishimiz kerak edi-ku, biz bo'lsak manavini bu yerda olib o'tiribmiz-a. – Shunday deb u qo'li bilan Karlsonni ko'rsatdi.

– Uni hech kim olib kelgani yo'q, – dedi Mittivoy, – uning o'zi uchib keldi. – Lekin, baribir, Mittivoy bezovtalandi. – Menga qara Karlson, o'sha zilcha kasali bilan sen ham og'rib qolsang-a?

– Hm... hm, – deb ming'illadi Karlson, chunki og'zida ovqati bo'lgani uchun darrov gapira olmadi. – Zilchang bilan qancha ishim bor!.. Shu ham kasal bo'ldi-yu! Buning ustiga shirin kulcha isitma kasali bilan og'rig'an odamga hech qanday dard yuqmaydi.

– Yo'q, baribir mumkinmas, – dedi Bok xonim og'ir xo'rsinib. Karlson oxirgi teftelini yutdi-da, barmoqlarini yalarkan, dedi:

– E, nimasini aytay, bu uydagi odamlar to'yib ovqat yemas ekan, lekin boshqa tomondan hamma narsa yaxshi. Xullas, men ham o'zimni ajratib qo'yishim mumkin.

– Voy xudoyim-ey, bu nima ko'rgilik! – dedi Bok xonim. U avval Karlsonga, so'ngra quruq patnisga qaradi-da: – Sendan keyin nima ham qolardi, – dedi.

Karlson polga sakrab tushdi-da, qorniga urib-urib qo'ydi.

– Men ovqat yeb bo'lganimdan keyin stol qoladi, – dedi u. – Ha, birdan-bir qoladigan narsa shu stol.

Keyin Karlson qornidagi knopkasini bosdi, motor tarilladi-yu, Karlson ochiq deraza tomonga uchib ketdi.

– Xayr! – deb qichqirdi u. – Endi biroz vaqt mensiz yashashlaringizga to'g'ri keladi, ilojlaring qancha. Men shoshib turibman.

– Xayr, Karlson! – deb qichqirdi Mittivoy. – Ha, sen chindan ham uchib ketishing kerak, vaqt bo'ldi.

– Shunday tez-a! – deb qo'shib qo'ydi Bok xonim g'amgin.

– Ha, shoshilishim kerak! – deb qichqirdi Karlson. – Bo'lmasa kechki ovqatga kech qolaman. Xayr! – U uchib ketdi.

## YOSHGINA MAG'RUR QIZCHA UZOQ-UZOQLARGA UCHIB KETDI

 rtasi ertalab Mittivoy juda uzoq uxladi. U telefon jiringlaganidan uyg'onib ketdi, u trubkani olgani dahlizga chopib chiqdi. Telefon qilgan oyisi edi.

– Bechora o'g'lim... Voy, qanday dahshat...

– Nima dahshat? – deb so'radi Mittivoy uyqu aralash.

– Xatda yozganlaring hammasi dahshat. Sizlardan shunday xavotir olyapmanki...

– Nega? – deb so'radi Mittivoy.

– O'zing bilasan-ku, – dedi oyisi. – Bechora bolaginam... Ertaga ertalab uyda bo'laman.

Mittivoy sevinib ketdi, garchi oyisining nima uchun «bechora bolaginam» deganini tushunmasa-da, ancha ko'ngli ko'tarildi!

Mittivoy endi yotib, ko'zi uyquga ketgani ham yo'q edi, yana telefon jiringlab qoldi. Dadasi Londondan telefon qildi.

– Xo'sh, ishlaring, ahvollaring qalay? – deb so'radi dadasi, – Bosse bilan Betan bezorilik qilishmayaptimi?

– Qilishyapti chamamda, – dedi Mittivoy, – lekin anig'ini bilmayman, chunki ular epidemiyada yotishibdi.

Mittivoy gaplari dadasini tashvishga solib qo'yganini tushundi.

– Epidemiyada yotibdi? Bu nima deganing?

Mittivoy nima demoqchi bo'lganini tushuntirganidan keyin, dadasi xuddi oyisining gaplarini takrorladi:

– Bechora bolaginam... Ertaga ertalab uyda bo'laman.

Shu bilan suhbat tugadi. Lekin ko'p o'tmay yana telefon jiringladi. Bu gal Bosse telefon qilgandi.

– Uy zolimasi bilan uning keksa doktoriga aytib qo'yishing mumkin. Garchi ular o'zlarini bilag'on hisoblasalar ham aslida hech baloni bilishmas ekan. Betan ikkovimizda qizilcha kasali emas ekan. Ertaga uyga qaytamiz.

– Zilcha emas ekanmi? – deb qayta so'radi Mittivoy.

– Ha, zilcha emas ekan. Biz shunchaki nimanidir ko'p yeb qo'yibmiz, bu yerdagi doktor shunday dedi. Shundan ham ba'zilarga issiqlik tosharkan.

– Tushunarli, shirin kulcha isitmasiga chalinibsalar-da, – dedi Mittivoy.

Biroq Bosse trubkani osib qo'ygandi.

Mittivoy kiyinib, Bok xonimga, meni boshqa ajratib qo'ymang, deb aytgani oshxonaga chiqib ketdi. Bok xonim nonushta qilayotgandi.

Oshxonani shirin, mazali ovqatlar hidi tutib ketgandi.

– Ketishim mumkin bo'ladi, – dedi Bok xonim, Mittivoy unga, ertaga hamma jamuljam bo'lishini aytgandan keyin. – Juda soz, bu yerda juda ham asabiy bo'lib qolaman.

U kastrulda nimanidir zo'r berib aralashtirardi. Kastrulda qandaydir zirvak qaynar, Bok xonim unga tuz, qalampir va yana allaqanday ko'katlar solardi.

– Mana ko'rdingmi, – dedi u, – unga tuz solish, qalampir qo'shish zarur, keyin uzoq qaynatish kerak, ana o'shanda mazali bo'ladi. – Keyin u Mittivoyga tashvish aralash qarab qo'ydi. – Sen nima deysan, o'sha yaramas Karlson bugun ham uchib kelarmikin? Sizlarning uyingizda so'nggi soatlarimni xotirjam o'tkazsam degandim.

Mittivoy javob berishga ham ulgurmagan edi, tashqarida sho'x qo'shiq eshitildi, uni kimdir zavq bilan baralla aytardi:

Quyosh, quyosh, quyoshjon,  
Derazadan boq bir on!

Deraza tokchasida yana Karlson o'tirardi.

– Salom! Mana, quyoshingiz keldi, endi tashvish tortmasangiz ham bo'ladi.

Biroq shu payt Bok xonim yalingansimon unga qo'llarini cho'zdi:

– Yo'q, yo'q, xudo xayringni bersin, o'tinib so'rayman, shu bugun bizni tinch qo'y.

– Tinch qo'y, shunaqami! Biroq eng avval bizga nonushta kerak, albatta, – dedi Karlson va bir sakrab oshxonadagi stol yoniga kelib oldi.

Bok xonim o'zi va Mittivoy uchun stolga pichoq, vilka qoshiqlarni qo'yib qo'ygandi. Karlson o'tirdi-da, qo'lga pichoq va vilka oldi:

– Boshladik! Kelinglar, nonushta qilaylik! – U Bok xonimga qarab muloyimgina bosh irg‘ab qo‘ydi. – Sen ham yonimizga o‘tirishing mumkin. O‘zingga tarelka olib, bu yoqqa kel.

U ishtahani ochadigan mazali taomni burnini jiyirib hidladi.

– Bizga nima berishadi? – deb so‘radi u tamshanib.

– Adabingni berishadi, – deb javob qildi Bok xonim zirvakni aralashtirarkan. – Ha, sen bunga juda munosibsan. Biroq hammayog‘im qaqshab zirqirab og‘riyapti, ketingdan chopib yurolmasam kerak.

U zirvakdan tovoqqa quydi-da, stol ustiga qo‘ydi.

– Ichinglar, – dedi u. – Sizlar yeb bo‘lguncha kutib tura-man, chunki ovqat yeyayotganimda hecham bezovta bo‘lmasligim kerak, doktor shunday degan.

Karlson rahmi kelganday bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Ha, bo‘pti, aqalli bir necha bo‘lak qotgan non topilar. Stoldagi hamma narsani pok-pokiza tushirib bo‘lganimizdan keyin, sen o‘sha qotgan nonlarni yeb tamaddi qilasan. Hammayoq osoyishta, jimjit bo‘lgach, stolning bir chekkasida qattiq non kemirib, maza qilasan.

Karlson zirvakdan shosha-pisha o‘ziga bir tarelka quyib oldi. Mittivoy esa o‘ziga jindek quydi. U notanish ovqatlardan doimo sal hayiqib turardi. Bu zirvakni ham hech qachon ichmagan edi.

Karlson go‘shtdan minora qura boshladi, minora atrofida zirvak to‘la qal‘a hosil bo‘ldi. Karlson bu ish bilan ovora bo‘lib o‘tirganida, Mittivoy go‘shtdan jindek yeb ko‘rdi. Voy! U entikib qoldi, ko‘zlariga yosh keldi. Og‘zi lovullab yonardi. Biroq yonginasida turgan Bok xonim unga shunday bir qarash qildiki, Mittivoy indamay qo‘ya qoldi.

Karlson o‘z qal‘asidan boshini ko‘tarib:

– Senga nima bo‘ldi? Nega yig‘layapsan? – deb so‘radi.

– Qayg‘uli bir voqea esimga tushib ketdi, – dedi Mittivoy duduqlanib.

– Tushunarli, – dedi Karlson, go‘shtdan qurilgan minorasi-ning bir bo‘lagini og‘ziga solarkan. Biroq og‘ziga solib yutishi bilanoq baqirib yubordi, ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radi Bok xonim.

– Bu zaharning o‘zi-ku... Ha, aytmoqchi, unga nima solganingni bizdan ko‘ra o‘zing yaxshiroq bilasan, – dedi Karlson, – tezroq katta shlangni olib kelgin, tomog‘im kuyib ketyapti! – u ko‘z yoshlarini artdi.

– Nega yig‘layapsan? – deb so‘radi Mittivoy.

– Mening ham esimga bir qayg‘uli voqea tushib ketdi, – deb javob qildi Karlson.

– Qanday voqea ekan? – deb so‘radi Mittivoy qiziqib.

– Mana shu zirvak sho‘rva, – dedi Karlson. Biroq bu gap Bok xonimga yoqmadi.

– Uyalmay sizlarmi, bolalar! Dunyodagi ming-minglab bolalar bu ovqatni jon deb ichishgan bo‘lardi.

Karlson cho‘ntagidan qalam bilan bloknot oldi.

– Iltimos, o‘sha ming-minglab bolalardan aqalli ikkitasining ismini, adresini aytib bersangiz, yozib olardim.

Biroq Bok xonim adres berishni istamadi.

– Olov yeydiganlar qabilasidagi kichkina yovvoyilar haqida gap boryapti shekilli, hammasi tushunarli, – dedi Karlson, – ular umr bo‘yi olov bilan oltingugurt yutishdan boshqani bilishmaydi.

Xuddi shu payt eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlab qoldi-yu, Bok xonim eshikni ochgani ketdi.

– Qani ko‘raylik-chi, kim keldiykin, – dedi Karlson. – Ehtimol, o‘sha olov yeydiganlardan bitta-yarimtasi kelgandir. Ular bu olovli bo‘tqa uchun bisotidagi bor narsalarini berishga ham tayyordir. Biz hushyor bo‘lishimiz kerak. U birdan arzonlashib ketsaya... Axir, Bok xonim bo‘tqaga ozmuncha tulki zaharini soldimi, bu zahar bebaho narsa-ku!

Karlson Bok xonim ketidan ketdi, Mittivoy esa uning orqasidan qolgisi kelmadi. Ular dahlizda Bok xonimning orqasida turib, kimningdir notanish ovozi eshitishdi:

– Mening familiyam Pek. Men shved radio va televideniyesi-ning xodimiman.

Mittivoyning a‘zoyi badani muzlab ketdi. U Bok xonimning yubkasi orqasidan sekin mo‘ralab qaradi, ostonada bir janob turardi. Bu o‘sha Bok xonim aytgan chiroyli, aqlli, tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to‘lgan kishilardan bittasi edi, bunaqa-

lar televideniya son-sanoqsiz, achib-bijib yotibdi, degandi Bok xonim.

– Xildur Bok xonimni ko'rsam bo'ladimi? – deb so'radi Pek.

– Bu menman, – deb javob berdi Bok xonim. – Men radio va televideniya uchun allaqachon to'laganman, tekshirishingizning hojati yo'q.

Janobi Pek muloyim kulimsirab qo'ydi.

– Men to'lov masalasida kelganim yo'q, – deb tushuntirdi u. – Men ajina haqidagi gaplarni bilmoqchi bo'lib keluvdim, siz bu haqda bizga yozib yuborgandingiz-ku... Biz shu material asosida yangi bir programma tayyorlasak degandik.

Bok xonim qip-qizarib og'iz ocholmay qoldi.

– Sizga nima bo'ldi, tobingiz qochib qoldimi? – deb jimlikni buzdi janob Pek, nihoyat.

– Ha, ha, negadir mazam qochdi, – dedi Bok xonim. – Bu hayotimda eng og'ir, mudhish daqiqa.

Mittivoy uning orqasida turar va o'zini xuddi Bok xonimday his etardi. E, xudo, endi shunisi yetmay turuvdi! Bir necha soniyadan keyin bu janob Pek Karlsonni hoynahoy sezib qoladi, ertaga ertalab oyisi bilan dadasi uyga qaytib kelganlarida, uylari atrofida son-sanoqsiz kabellarni, televizion kameralarni, mana bunaqa janoblarni ko'rishadi-yu, endi boshlari tashvishdan chiqmasligini tushunishadi. Voy, xudoyim, bu yog'i nima bo'ladi, Karlsonni darrov yashirish, daf qilish kerak.

Mittivoyning ko'zi dahlizdagi yog'och sandiqqa tushib qoldi. Unda Betan o'zining qo'lda tikilgan teatr kiyim-boshlarini, eski rekvizit va shunga o'xshash ashqol-dashqollarini saqlardi. Betan sinfidagi bolalar bilan birgalikda allaqanday bema'ni klub tashkil qilgandi: ular bo'sh vaqtlarida g'alati ust-boshlar kiyishib, bema'ni tomoshalar ko'rsatishardi. Mittivoyning fikricha, bularning hammasi bir bema'ni narsa edi, biroq ular buni o'zlaricha teatr o'ynash deb atashardi. Biroq hozir har xil kiyim-kechak solingan bu yog'och sandiq juda ish berdi!.. Mittivoy sandiqning qopqog'ini ochdi-da, hayajonlanib Karlsonga shivirladi:

– Yashirin!.. Mana bu sandiq ichiga tush! Tezroq bo'! Karlson nima uchun yashirinishi kerakligini tushunib yetgani-

cha ham yo'q, buni u shunchaki bir sho'xlik deb o'yladi. U Mittivoyga ayyorona bir qarab qo'ydi-da, sandiq ichiga tushdi Mittivoy shartta sandiq qopqog'ini yopdi. Keyin u hamon ostona-da gaplashib turishgan Bok xonim bilan janobi Pekka qo'rqa-pisa qarab qo'ydi... Ular biror nimani sezishmadimikin?

Biroq ular gapga juda berilib ketishganidan hech nima sezish-madi. Bok xonim janob Pekka nega o'zini yomon sezayotgani-ning sababini tushuntirayotgan edi.

– Bu ajina emas, – dedi Bok xonim, ko'z yoshlarini arang tiyib. – Bu shunchaki bolalarning bema'ni sho'xligi edi.

– Demak, hech qanday ajina bo'lgani yo'q, deng? – deb tak-ror so'radi janob Pek hafsalasi pir bo'lib.

Bok xonim ko'z yoshini ortiq tiyib turolmadi – ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Yo'q, ajina bo'lgani yo'q. Televideniyega chiqib gapira ol-mayman. Hech qachon... Faqat Frida gapirishi mumkin!..

Janob Pek uning qo'llarini ushlab tasalli bergan bo'ldi:

– Azizim Bok xonim, bunchalik kuyib-pishmang, o'zingizni urintirmang. Kim biladi, ehtimol, hali gapirarsiz ham.

– Yo'q, yo'q, butun umidlarim puchga chiqdi... – dedi Bok xonim va yuzini qo'llari bilan berkitib, sandiq ustiga o'tirib qoldi.

Bok xonim o'ksib-o'ksib yig'lardi. Mittivoyning unga juda rahmi keldi, xijolat bo'ldi, chunki hammasiga o'zini aybdor hisoblardi. To'satdan sandiq ichidan g'o'ldiragan ovoz eshitildi.

Voy, kechirasiz! – dedi Bok xonim xijolat bo'lib. – Qornim ochgandan bo'lsa kerak.

– Ha, qorin ochganda shunaqa g'o'ldiraydi, – dedi janob Pek uning gapini ma'qullab, – lekin nonushtangiz tayyor bo'ldi shekilli, juda ajoyib hid kelyapti. Bugun nonushtaga nima qiluv-dingiz? – deb so'radi janobi Pek qiziqsinib.

– E, arzimas narsa, go'shtli zirvak... Uni o'zim kashf et-dim... «Xildur Bok retsepti bo'yicha tayyorlangan zirvak» – uni shunday deb atadim, – dedi Bok xonim kamtarona, lekin iftixor bilan, keyin xo'rsinib qo'ydi.

– Juda mazali bo'lganga o'xshaydi, hididan sezyapman, – dedi janob Pek. – Ishtahani ochib yuboryapti-ya.

Bok xonim sandiq ustidan turdi.

– Iltimos, tatib ko‘ring... Mana bu shumtakalarga yoqmagan-mish, burunlarini jiyirishadi-ya.

Janob Pek, noqulay bo‘larmikin, deb biroz tortinib turdi-da, oxiri ikkovlashib oshxonaga kirib ketishdi.

Mittivoy sandiqni ochib, Karlsonga qarab qo‘ydi, u kiyimboshlar ustida bamaylixotir cho‘zilib yotganicha sekin g‘o‘ldirab qo‘yardi.

– O‘tinib so‘rayman, u ketgunicha qimirlamay jim yot, – deb shivirladi Mittivoy, – bo‘lmasa televizorga tushasan.

– Ha, jim yot emish, gapirishga oson, – dedi Karlson. – Bu yer ham tor, dim, o‘sha yashikdan qolishadigan yeri yo‘q, endi men uchun baribir.

Mittivoy havo kirsin deb sandiqning og‘zini sal ochib qo‘ydi-da, keyin oshxonaga chopib chiqib ketdi. U janob Pek Bok xonimning zirvagidan tatiganda nima bo‘lishini ko‘rmoqchi edi.

Janob Pek stol yonida xotirjam o‘tirib, go‘yo bunday shirin taomni umrida birinchi bor yeyayotganday zirvakni zo‘r ishtaha bilan ichardi. Mittivoy ko‘zlariga ishonmasdi. Janob Pekning ko‘zlarida qatra yosh ko‘rinmasdi. Bok xonimning ko‘zlaridan esa yosh duv-duv to‘kildirdi, bu ko‘z yoshlari zirvak tufayli emasdi, albatta. U hamon televizorda gapirolmazligini o‘ylab, xo‘rligi kelib yig‘lardi. Hatto janob Pekning Bok xonimning olovli ovqatini ko‘klarga ko‘tarib maqtashi ham unga tasalli berolmadi. Bok xonim o‘zini judayam baxtsiz his etardi.

Biroq shu payt sira kutilmagan voqea sodir bo‘ldi. Janob Pek birdan shiftga tikilib turdi-da, qichqirib yubordi:

– Topdim! Topdim! Ertaga kechqurun siz chiqib gapirasiz!

Bok xonim yoshli ko‘zlarini unga tikdi.

– Ertaga kechqurun qayerda gapiraman? – deb so‘radi u ma’yus.

– Qayerda bo‘lardi? Televizorda-da! – dedi janob Pek. – «Mohir pazanda» degan eshittirishda chiqasiz. Siz barcha shvedlarga «Xildur Bok zirvagi»ni qanday pishirishni gapirib berasiz...

Bok xonim shu gapni eshitdi-yu, hushidan ketib, polga gurs etib yiqilib tushdi. Biroq hademay o'ziga keldi-da, o'rnidan sap-chib turdi. Uning ko'zlari sevinchdan porlardi.

— Ertaga kechqurun deysizmi... Televizorda-ya? Zirvak haqi-da... Butun shved xalqiga gapirib beramanmi-a? Yo tangrim! Bu qanaqasi bo'ldi? Frida bo'lsa sira tan olmaydi, sen pishirgan ovqatlarni faqat cho'chqalarga berish mumkin deydi.

Mittivoy bu gapni nafasini ichiga yutib eshitdi, chunki bu-larning hammasi uning uchun juda qiziq tuyulardi. U sandiq ichidagi Karlsonni sal bo'lmasa unutayozibdi. Lekin shu payt dahlizda qandaydir g'ichirlagan ovozni eshitib juda qo'rqib ketdi. Ha, u bunday bo'lishini bilgandi... Karlson! Oshxonaning eshigi sal ochiq edi, Mittivoy Karlsonning u yoqdan bu yoqqa yurga-nini ko'rib qoldi. Biroq Bok xonim ham, janobi Pek ham hech nimani payqamadi.

Ha, bu Karlson edi! Ayni vaqtda bu Karlson emasdi! Voy xudoyim, u Betanning eski maskarad kiyimida ro'dapo bo'lib ko'rinardi. Egnidagi uzun baxmal yubka oyog'iga o'ralashib, yurishiga xalaqit berardi, ikkita to'r yoqaning bittasi ko'kragini, ikkinchisi yelkasini bezab turardi! U kichkinagina, do'mboqqina epchil qizchaga o'xshardi. O'sha kichkina epchil qizcha oshxona tomonga dadil kelardi.

Mittivoy oshxonaga kirmagin deb Karlsonga rosa imo-ishora-lar qildi-yu, lekin Karlson go'yo tushunmaganday yalang boshini irg'ab yaqinlashib kelaverdi.

— Yoshgina mag'rur qizcha mehmonxonada hozir bo'ldi-lar! — deb qichqirdi Karlson va yoqalarini o'ynab ostonada turib qoldi.

Uning turish-turmushini ko'rib, janob Pek angrayib qoldi:

— Iye, bu kim bo'ldi?.. Bu yoqimtoy qizcha qayoqdan kelib qoldi? Shu payt Bok xonim baqirib yubordi:

— Yoqimtoy qizcha! Kechirasiz, bu yoqimtoy qizcha emas, o'taketgan bezori, dilozor, shumtaka! Men bunaqasini umrimda ko'rgan emasman! Hoziroq bu yerdan jo'na, yaramas bola!

Biroq Karlson uning gapiga quloq solmadi.

— Yoshgina mag'rur qizcha raqsga tushadi va xursandchilik qiladi, — dedi u bo'sh kelmay.

U shunday dedi-da, o'yinga tushib ketdi. Mittivoy bunaqa raqsni ilgari hech ko'rmagandi, ha, janob Pek ham hoynahoy ko'rmagan bo'lsa kerak.

Karlson tizzalarini ko'tarib, oshxonada yugurib yurardi. U o'qtin-o'qtin sakrab to'r yoqalarini silkitib qo'yardi.

«Bu qanaqa bema'ni raqs, — deb o'yladi Mittivoy. — Bu ham mayli-ya, ishqilib uchmasa bo'lgani. Faqat uchmasin-da!»

Karlson to'r yoqalarni ustalik bilan o'rab olganidan parrak hech ko'rinmasdi. Mittivoy bunga juda xursand bo'ldi. Agar uchib shiftga ko'tarilguday bo'lsa, janob Pek hoynahoy hushidan ketib yiqiladi, keyin o'ziga kelishi bilanoq, bu yerga televideni-yedan odam yuboradi, ular kameralarini olib kelishadi.

Janob Pek bu g'alati raqsni ko'rib, qotib-qotib kulardi. Shundan keyin Karlson ham qiqirlab kula boshladi, yoqalarini silkitib, janob Pek yonidan o'tayotganida hatto bir-ikki marta ko'zini ham qisib qo'ydi.

— Judayam sho'x, quvnoq bola ekanmi? — dedi janob Pek. — U bolalar uchun beriladigan eshittirishda bimalol qat-nashishi mumkin.

Bu gapni eshitib Bok xonim juda tutaqib ketdi.

— U televizorda chiqadimi?! Unday bo'lsa, meni bundan xalos qiling. Agar siz televideniye studiyasini ostin-ustun qiladigan odam qidirib yurgan bo'lsangiz, ayni muddao, bu ishga bundan zo'rini topolmaysiz.

Mittivoy bosh irg'adi:

— Ha, bu to'g'ri gap. Studiya oyog'i osmondan kelganidan keyin, u beparvogina: «Parvo qilma, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap», deydi. Shuning uchun undan ehtiyot bo'ling!

Janob Pek zo'rlab o'tirmadi.

— Agar unday bo'lsa, keragi yo'q. Men shunchaki taklif qiluv-dim-da, bolalar son mingta!..

Janob Pek birdan shosha-pisha ketishga otlandi. Uning eshit-tirishi bor ekan.

Biroq shu payt Mittivoy Karlsonning qornidagi knopkasini paypaslab qidirayotganini ko'rib qoldi-yu, oxirgi daqiqada ham-masi oshkor bo'lib qolmasaydi deb qo'rqib ketdi.

– Yo‘q, Karlson... yo‘q, kerakmas, – deb shivirladi Mittivoy bezovta bo‘lib.

Karlson sira parvo qilmay zo‘r berib knopkani qidirardi, egni-dagi qavat-qavat to‘rlar xalaqit berardi.

Janob Pek ostonada turganda birdan Karlsonning motori gurillab qoldi.

– Vazastan ustidan vertolyotlar o‘tishini bilmas ekan-man, – dedi janob Pek. – Ular bu yerdan uchmasligi kerak edi, gurillagan ovozi ko‘plarga xalaqit beradi. Xayr, Bok xonim. Ertaga ko‘rishguncha!

Janobi Pek ketdi.

Karlson shiftga ko‘tarildi-da, bir necha bor aylandi, to‘r yoqalarini silkitib, hilpiratib Bok xonim bilan xayrlashdi.

– Yoshgina mag‘rur qizcha uzoq-uzoqlarga uchib keta-di! – deb qichqirdi u. – Xayr, hoy, hoy!

## CHIROYLI, AQLLI VA TOBIDA SEMIRGAN

*M*ittivoy tushki ovqatdan keyin vaqtini tepada, Karlsonning tomdagi uyida o‘tkazdi. U Karlsonga, Bok xonimni tinch qo‘yish, uni boshqa bezovta qilmaslik kerakligini tushuntirdi.

– Bilasanmi, u qaymoqli tort qilmoqchi, chunki oyim ham, dadam ham, Bosse ham, Betan ham ertaga uyga qaytib kelishadi.

Karlsonga bu gap rostday tuyuldi.

– Ha, agar tort qiladigan bo‘lsa, uni tinch qo‘yish kerak. Krem tayyorlayotganida uy zolimasining g‘ashiga tegish, uni kalaka qilish mumkinmas, bo‘lmasa u achiydi, unga qo‘shilib qaymoq ham achiydi.

Shuning uchun Bok xonim Svanteson oilasidagi so‘nggi soatlarini xuddi o‘zi xohlaganday xotirjam o‘tkazdi.

Mittivoy bilan Karlson ham tomdagi uyda, kamin yonida xotirjam o‘tirishardi. Ular o‘zlarini juda yaxshi his etishardi. Karlson Xeterge ko‘chasiga uchib borib, birpasda olma olib keldi.

– Men olmani besh erega sotib oldim, pulini halol to‘ladim, – dedi u Mittivoyga. – Meni o‘g‘irlik qilarkan deb shubhalanishlarini istamayman. Axir men dunyoda eng halol odamman!

– Nahotki bu olmalar atigi besh ere tursa?

– Bilasanmi, men ulardan narxini so‘rolmadim, – deb tushuntirdi Karlson, – chunki sotuvchi ayol, xuddi shu payt qahva ichgani ketgandi.

Karlson olmalarni simga terib, olov ustiga ilib qo‘ydi.

– Qani top-chi, dunyoda olmani kim yaxshi pishira oladi? – deb so‘radi Karlson.

– Sen, Karlson, – deb javob berdi Mittivoy.

Ular qo‘rda pishirilgan olma yeb, kamin oldida o‘tirishardi, tashqarida esa qorong‘ilik tobora quyuqlashardi. «O‘tinning chirsillab yonishi qanday chiroyli-ya! – deb o‘yladi Mittivoy. – Kunlar sovib qoldi. Kuz keldi shekilli».

– Qishloqqa uchib borib, biror dehqondan ko‘proq o‘tin sotib olmoqchiman. Dehqonlar o‘lgudek xasis bo‘lishadi, lekin baxtimga ular ham ba‘zida qahva ichgani ketishadi, – dedi Karlson.

U o‘rnidan turdi-da, olovga ikki dona tarasha tashladi.

– Men uy issiq bo‘lganini yaxshi ko‘raman, – dedi u. – Qishda o‘tinsiz qolish – yo‘q, bunaqa bo‘lsa men o‘ynamayman. Men buni uyalmasdan dehqonga ochiq aytishim mumkin.

Kaminda o‘t o‘chganidan keyin Karlsonning xonasi qorong‘i bo‘lib qoldi, u dastgoh tepasida shiftga osib qo‘yilgan chiroqni yoqdi, chiroq xonani, Karlson ustiga uyib tashlagan buyumlarni yoritdi.

Mittivoy, ikkovimiz bir-birimizdan narsa almashtirib olmaymizmi, deb so‘radi. Karlson, men doim tayyorman, dedi.

– Biroq sen biror narsa olmoqchi bo‘lsang, avvaliga mendan ruxsat so‘rashing kerak. Ba‘zida «ha» deyman, ba‘zida «yo‘q» deyman... Ko‘pincha «yo‘q» deyman, chunki bularning hammasi meniki, biror narsamdan ajralishni istamayman, bo‘lmasa men o‘ynamayman.

O‘shandan keyin Mittivoy dastgoh ustida yotgan hamma narsaga ketma-ket ruxsat so‘rayverdi, lekin bittagina siniq budilnikka ruxsat oldi, xolos. Bu budilnikni Karlsonning o‘zi buzib, o‘zi

yig'ib qo'ygan edi. Lekin baribir bu o'yin juda qiziqarli edi, Mittivoy bundan ham qiziqarli o'yinni tasavvur etolmasdi.

Biroq keyin bu o'yin Karlsonning joniga tegdi, u duradgorlik qilishni taklif etdi.

– Bu dunyoda eng qiziq mashg'ulot, juda ko'p ajoyib narsalar qilish mumkin, – dedi Karlson. – Har holda, men ham qila olaman.

U dastgoh ustidagi narsalarning hammasini polga tashladi-da, divanchaning tagidan taxta va g'o'lalar oldi. Karlson bilan Mittivoy arralashga, randalashga tushishdi. Hammayoqni taraqturuq ovoz bosib ketdi.

Mittivoy paroxod yasadi. U ikki taxtachani bir-biriga yopishtirdi-da, ustiga yumaloq g'o'lani jipslashtirdi. Chindan ham juda yaxshi paroxod hosil bo'ldi.

Karlson, kichkina qushchalar yashashi uchun uya yasab, uyimning oldiga osib qo'yishim kerak, dedi. Biroq u yasagan narsa na uyaga, na boshqa biror narsaga o'xshardi. U yasagan narsaning nimaligini aniqlash amri mahol edi.

– Bu nima? – deb so'radi Mittivoy.

Karlson boshini yoniga egib, o'zi yasagan buyumga qaradi.

– Shunchaki bir narsa, – dedi u. – Ajoyib kichkina narsa. Qani top-chi, dunyoda qo'li gul odam kim?

– Sensan-da, Karlson.

Kech kirdi. Mittivoyning uyga qaytib, uxlaydigan vaqti bo'lgandi. Karlson bilan, uning kichkina, fayzli uychasi bilan, dastgohi, tutab yonadigan lampasi, o'tinxonasi, uyni ham yoritib, ham isitib turadigan kamin bilan xayrlashishga to'g'ri kelgandi.

Bularni tashlab ketish og'ir edi, lekin hademay bu yerga yana qaytib kelishini Mittivoy bilardi. Karlsonning uychasi boshqalarning tomida emas, ularning tomida ekanligi qanday yaxshiya!

Ular chiqishdi. Osmonda yulduzlar jimirlardi. Mittivoy ilgari-lari bunchalik ko'p yulduzlarni hech ko'rmagandi, yana shunday yorug', shunday yaqin deng! Yo'q, u o'ylaganchalik yaqin emas, albatta, yulduzlar necha ming kilometr uzoqlikda edi. Mittivoy buni bilardi, lekin baribir... Karlsonning uychasi tepasida yul-

duzli chodir tikildi, go'yo uzatsang qo'ling yetadiganday, ayni vaqtda juda-juda uzoq edi.

– Nimaga qarayapsan? – deb so'radi Karlson sabrsizlik bilan, – men sovuqotdim. Xo'sh, uchasanmi yoki fikringdan qaytdingmi?

– Uchaman, – deb javob qildi Mittivoy. – Rahmat.

Ertasi kuni... Bu juda ajoyib kun bo'ldi-da! Avvaliga Bosse bilan Betan qaytib kelishdi, keyin dadasi, eng oxirida oyisi keldi. Lekin baribir eng muhimi oyisi edi. Bundan keyin, oyisi hech qayoqqa ketmasin-da! Hammalari – dadasi ham, Bok xonim ham, Bimbo ham oyisini o'rab olishdi.

– Charchaganingiz qoldimi? – deb so'radi Mittivoy. – Charchaganingiz shunchalik tez qoldimi-a?

– Sening xatingni olishim bilan qoldi, – dedi oyisi. – Sizlarning kasalligingizni, ajratib qo'yilganingizni eshitib, o'z ko'zim bilan ko'rmasam kasal bo'lib qolaman, deb o'yladim.

Bok xonim boshini sarak-sarak qildi.

– Siz bekor qildingiz, Svanteson xonim. Biroq men vaqti-vaqti bilan kelib, sizga ro'zg'orda qarashib turaman, – dedi Bok xonim. – Endi men hoziroq ketishim kerak. Bugun kechqurun televizorga chiqaman.

Hammalari hayron bo'lib qolishdi: oyisi ham, dadasi ham, Bosse ham, Betan ham.

– Rostdan-a? Hammamiz ko'ramiz. Albatta ko'ramiz, – dedi dadasi.

Bok xonim boshini mag'rur ko'tarib qo'ydi.

– Ishonaman, meni bugun butun shved xalqi ko'radi deb umid qilaman.

U ketishga shoshildi.

– Axir men sochimni tarashim, u yoq-bu yog'imga qarashim, vannada cho'milib olishim kerak, massajist va manikyurchi ayolning oldiga borishim, boshmog'imga yangi patak sotib olishim kerak. Televizorda chiqishdan oldin o'zimga bir oro berishim kerak.

Betan kulib yubordi.

– Yangi patak?.. Axir uni televizorda kim ko'radi?

Bok xonim unga norozi bo'lib qarab qo'ydi.

– Nima, ularni bitta-yarimta ko'radi deyaipmanmi? Har holda, menga yangi patak kerak... Boshdan oyoq yaxshi kiyingan bo'lsang, o'zingni tetik, ishonchli his etasan. Balki buni hamma tushunavermas. Lekin bizga o'xshash televizorda tez-tez chiqib turadigan odamlar buni yaxshi bilamiz.

Bok xonim shosha-pisha xayrlashdi-da, chiqib ketdi.

– Mana, uy zolimasi ham ketdi, – dedi Bosse, Bok xonimning ketidan eshik yopilgach.

Mittivoy o'ychan bosh irg'ab qo'ydi.

– Unga ancha o'rganib qoluvdim, – dedi u. – Qaymoqli tortni ham juda boplabdi, yuziga ananas kesib, chiroyli yasatdi.

– Tortni kechqurunga qoldiramiz. Qahva ichib, tort yeb, televizorda Bok xonimni tomosha qilamiz.

Xuddi shunday bo'ldi. Eshittirish vaqti bo'lganda Mittivoy Karlsonga qo'ng'iroq qildi. U parda orqasidagi ipni bir marta tortdi: bu, «tez uchib kel» degani edi. Karlson uchib keldi. Hamma oila a'zolari televizor oldiga to'planishdi. Chashkalar va tort stol ustiga qo'yilgandi.

– Mana, biz ham Karlson bilan keldik, – dedi Mittivoy yemakxonaga kirib.

– Mana, men ham keldim, – deb takrorladi Karlson, yumshoq kresloga yastanib o'tirib. – Nihoyat qaymoqli tort paydo bo'libdi, ayni muddao! Bir bo'lagini... katta bo'lagini hoziroq olsam maylimi?

– Bolalar tortni hammadan keyin olishadi, – dedi oyi-si. – Bundan tashqari, bu yerda men o'tiraman. Mittivoy ikkovingiz televizor oldida, polda o'tirishingiz mumkin, keyin bir bo'lakdan tort beraman.

Karlson Mittivoyga gap qotdi:

– Eshitdingmi? U senga doimo shunaqa muomala qiladimi? Bechora bola!

Keyin u kulimsirab qo'ydi, Karlson xursand edi.

– Uning menga ham shunday muomala qilishi juda yaxshi, chunki to'g'ri qilyapti, bo'lmasa men o'ynamayman.

Karlson bilan Mittivoy televizor ro'parasiga, polga o'tirib olishdi-da, Bok xonimning chiqishini kutishdi.

– Hozir boshlanadi, – dedi dadasi.

Chindan ham ko'p o'tmay ekranda Bok xonim, uning yonida janob Pek paydo bo'ldi. Programmani janob Pek olib borardi.

- Uy zolimasi xuddi tirikday-a, – dedi Karlson. – Hoy, hoy!
- Hozir bir maza qilib o'ynaymiz.

Bok xonim seskanib ketdi. U go'yo Karlsonning so'zlarini eshitganday edi. Balki u shunchaki hayajonlanayotgandir, chunki u butun shved xalqi oldida turar, ularga «Xildur Bokning zirvak sho'rvasi»ni qanday tayyorlash haqida gapirib berishi kerak edi.

- Ayting-chi, – deb boshladi janob Pek, – xuddi shu zirvakni pishirish fikri sizga qayoqdan kelib qoldi?

– O'z-o'zidan, – dedi Bok xonim. – Qozon-tovoq nimaligini mutlaqo bilmaydigan singling bo'lganidan keyin...

Shu payt Bok xonim jim bo'lib qoldi, chunki Karlson kichkina do'mboq qo'lchasini oldinga cho'zib, televizorni o'chirib qo'ydi.

- Uy zolimasini xohlasam, chiqaraman, xohlasam, chiqarmayman, bu mening ixtiyorimda, – dedi u. Biroq oyisi aralashdi.

– Televizorni yoqib qo'y, – dedi oyisi. – Boshqa bunday qilma, bo'lmasa, uydan chiqarib yuboraman.

Karlson Mittivoyning biqiniga turtib shivirladi.

- Sizlarnikida yana nima qilish mumkinmas?

– Jim o'tir, Bok xonimni ko'ramiz, – dedi Mittivoy.

– ...Zirvak mazali bo'lishi uchun unga tuz, garmdori, har xil ko'kat solib, uzoq qaynatish kerak, – deb gapida davom etdi Bok xonim.

Bok xonim hammaning ko'zi oldida zirvakka tuz, garmdori soldi, rosa qaynatdi, tayyor bo'lganidan keyin, ekrandan mug'ambirona jilmayib qarab:

- Tatib ko'rasizmi? – deb so'radi.

– Rahmat, shaxsan men tatib ko'rmayman, – dedi Karlson. – Lekin bilib qo'y, agar ismi-familiyasi bilan adresini bersang, o'zing aytgan o'sha ikki-uch nafar kichkina olov yeydiganlarni olib kelganim bo'lsin. Ular jon deb tatib ko'rishlari mumkin.

Keyin janob Pek Bok xonimga, televizorga kelib, zirvakni qanday tayyorlash haqida gapirib bergani uchun minnatdorchilik

bildirdi. Shu bilan eshittirish tugashi kerak edi-yu, lekin Bok xonim birdan so'rab qoldi:

– Ayting-chi, singlimga televizor orqali salom yo'llasam bo'ladi?

Janob Pek nima deyishini bilmay shoshib qoldi.

– Menga qarang... Ha, mayli, salom yo'llang, faqat tezroq bo'ling!

Bok xonim qo'lini silkitib, dedi:

– Salom, Frida, meni eshityapsanmi? Ishonamanki, stuldan yiqilib tushmagandirsan!

– Men ham bunga ishonaman, – dedi Karlson. – Bo'lmasa Nurlandda yer qimirlash bo'ladi-ya.

– Nimalar deb valdirayapsan? – deb so'radi Mittivoy. – Sen, axir, o'sha Fridaning qanaqaligini bilmaysan-ku. Balkim u Bok xonimga o'xshab semiz, barvasta emasdir.

– Nega bilmas ekanman, bilaman-da, – dedi Karlson. – Men ularning Freygaten ko'chasidagi uyida bir necha bor bo'lganman, «ajina-ajina» o'ynaganman.

Keyin Karlson bilan Mittivoy yana bir bo'lakdan tort yeyishdi, huqqavozning havoga birdaniga beshta tarelka otib, ularni baravar tutib olishini tomosha qilishdi. Mittivoy zerikib ketdi, biroq Karlson zavq bilan tomosha qilayotgani uchun Mittivoy ham xursand, baxtiyor edi.

Hamma narsa ko'ngildagiday edi. Hammalari: oyisi ham, dadasi ham, Bosse ham, Betan ham, Bimbo ham, hatto Karlson ham birga to'planishib, u bilan birga o'tirishganidan Mittivoy nihoyatda xursand, sevinchi ichiga sig'masdi.

Tortni yeb bo'lishganidan keyin Karlson yupqa bir chinni taqsimchani oldi-da, uni yalab tozalab, huqqavozga o'xshab osmonga otdi.

– Yashik ichidagi yigit juda abjir ekan-a, – dedi Karlson. – Qoyil qildi-ya! Qani top-chi, taqsimcha otishda dunyoda kim zo'r?

U taqsimchani shunday balandga otdiki, shiftga tegishiga sal qoldi. Mittivoy qo'rqib ketdi.

– Qo'y, otmagin, Karlson, kerakmas. Qo'y deyaрман!

Oyisi va boshqalar televizordagi raqqosaning raqsini tomosha qilib o'tirishardi. Shuning uchun, Karlsonning qilg'ini hech kim payqamadi.

Mittivoy bo'lsa hadeb: «Qo'y, Karlson, kerakmas» deb shivirlardi, lekin Karlsonning qulog'iga gap kirmas, u taqsimcha otish bilan ovora edi.

– Taqsimchalaring juda chiroyli ekan-da! – dedi Karlson va uni yana shiftga otdi. – To'g'rirog'i, chiroyli taqsimchalaring bor edi, – deb gapini to'g'riladi va taqsimcha siniqlarini terib olish uchun engashdi. – Hechqisi yo'q, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap.

Biroq oyisi taqsimchaning polga tushib chil-chil singanini eshitdi. U Karlsonni yaxshilab urdi-da:

– Bu mening eng yaxshi ko'radigan taqsimcham edi, bu hechqisi yo'q, ro'zg'orda bo'lib turadigan gap emas, – dedi.

Mittivoy dunyodagi eng zo'r huqqavozni bunchalik ranjitishganidan biroz xafa bo'ldi, lekin oyisining taqsimchaga juda achinganini tushunib turardi. Shuning uchun u oyisiga tasalli bergan bo'ldi:

– Oyi, yig'ib qo'ygan pulimdan sizga yangi taqsimcha olib beraman.

Lekin shu payt Karlson cho'ntagidan besh erelik tanga oldida, oyisiga uzatdi.

– Sindirgan narsam uchun o'zim to'layman. Mana, ol. O'zingga yangi taqsimcha sotib ol, qaytimini ham o'zingga olib qolishing mumkin.

– Rahmat, azizim Karlson, – dedi oyisi.

– Bilasanmi, qolgan pulga bir nechta arzon vaza sotib olgin, yana xafa bo'lganingda, jahling chiqqanida o'sha vazalarni menga otasan.

Mittivoy oyisining pinjiga kirdi:

– Oyi, siz Karlsondan xafa emasmissiz?

Oyisi avval Karlsonning, keyin Mittivoyning qo'lini silab qo'ydi-da, «sizlardan xafa emasman», dedi. Keyin Karlson xayrlasha boshladi:

– Xayr, uyga borishim kerak, bo'lmasa kechki ovqatga kech qolaman.

– Bugun kechki ovqatga nima yeysan? – deb so‘radi Mittivoy.

– «Tomda yashovchi Karlsonning zirvagi», – dedi Karlson. – Biroq men uy zolimasiga o‘xshab, unga zahar solmayman, ha, gapimga ishonaver. Qani top-chi, dunyoda zirvakni kim yaxshi pishiradi?

– Sen, Karlson, – dedi Mittivoy.

Oradan bir soatcha o‘tgach, Mittivoy o‘z karavotida yotardi, yonidagi savatda Bimbo uxlardi. Hammalari – oyisi ham, dadasi ham. Bosse ham, Betan ham, xonaga kirib, unga yaxshi yotib turgin deyishdi. Mittivoyning juda uyquasi kelgandi. Lekin u hali uxlagani yo‘q, Karlson haqida o‘ylayapti. Hozir Karlson nima qilayotgan ekan? Balki biror narsa yasayotgandir... Qush uyasimi yoki boshqa biror narsami...

«Ertaga, maktabdan kelganimdan keyin, – deb o‘yladi Mittivoy. – Karlsonga qo‘ng‘iroq qilib, yoningga borib, biror narsa yasasam maylimi, deb so‘rayman».

Keyin Mittivoy o‘zicha o‘yladi: «Karlsonning qo‘ng‘iroq o‘rnatgani juda yaxshi bo‘ldi-da, u bilan xohlagan vaqtimda gaplasha olaman». Uning birdan gaplashgisi kelib qoldi.

Mittivoy o‘rnidan sakrab turib, oyoqyalang deraza oldiga chopib bordi-da, ipni tortdi. Uch marta. Bu signal: «Dunyoda sening borliging qanday yaxshi, Karlson. Senday chiroyli, aqlli, tobida semirgan odamning bori qanday baxt-a!» degan ma‘noni anglatardi.

Mittivoy deraza oldida yana biroz turdi. U javob kutib turgani yo‘q, shunchaki o‘zi turdi. Buni qarangki, birdan Karlson uchib kelib qolsa bo‘ladimi.

– Ha, sen to‘g‘ri gapirding, – dedi u, – bu chindan ham juda yaxshi.

Karlson boshqa hech nima demadi-yu, o‘sha zahoti tomdagi yashil uyiga uchib ketdi.

# TOMDA YASHOVCHI KARLSON YANA SHO'XLIK QILYAPTI

## HAMMANING HAM KARLSON BO'LISHGA HAQQI BOR

**K**unlardan bir kun ertalab Mittivoy uyqu aralash oshxonadan kelayotgan hayajonli ovozlarni eshitib qoldi. Dadasi bilan oyisining nimadandir xafaligi shunday bilinib turardi.

– Mana, oqibati! – dedi dadasi. – Gazetada nimalar deb yozishganini bir ko'rgin-a. Ma, o'zing o'qiy qol.

– Dahshat! – deya xitob qildi oyisi. – Turgan-bitgani vahima-ku.

Mittivoy o'rnidan sapchib turdi. U ota-onasini shunchalik dahshatga solgan narsani tezroq bilishni istardi.

Gazetaning birinchi betida yirik harflar bilan quyidagi sarlavha terilgandi:

«Bu nima: uchar bochkami yo boshqa biror narsami?»

Sarlavhaning tagida esa maqola bosilgandi:

«Stokgolm ustida g'alati, noma'lum obyekt uchib yuribdi. Shohidlarning xabar qilishicha, keyingi paytlarda Vazastan atrofiga, kichkina pivo bochkasini eslatuvchi qandaydir uchuvchi buyumni bir necha bor ko'rishgan. U motorning guvillashiga o'xshash ovoz chiqaradi. Aviakompaniya vakillari bu uchishlar xususida bizga hech nimani ma'lum qilisha olmadi. Shuning uchun ham bu fazoga razvedka maqsadida uchirilgan ajnabiy yo'ldosh-josus degan taxmin tug'ildi. Bu uchishlar sir-asrori ochilishi, noma'lum obyekt qo'lga tushirilishi kerak. Agar u chindanam josus bo'lib chiqsa, tergov qilish uchun politsiya qo'lga topshirish kerak.

Vazastandagi g'alati uchishlar sirini kim ochadi?

Gazeta redaksiyasi 10000 kron miqdorida mukofot belgiladi. Omadi chopib shu sirli buyumni ushlagan odam 10000 kron mukofot oladi. Uni tutib redaksiyaga olib kelinglar-da, pulni olinglar!»

– Tomda yashovchi bechora Karlsonga jabr bo‘pti-da, – dedi oyisi. – Endi uning payiga tushishadi.

Mittivoy birdaniga ham qo‘rqib ketdi, ham jahli chiqdi, ham dili siyoh bo‘ldi.

– Nega endi Karlsonni o‘z holiga qo‘yishmaydi-ya! – deb baqirib yubordi u. – Axir, u hech qanday yomon ish qilyapgani yo‘g‘-u. Tomdagi uychasida tinch-xotirjam yashayapti, ba‘zi-ba‘zida u yoq-bu yoqqa uchadi, xolos. Nima, Karlson biror ish qiptimi?

– Yo‘q, – dedi dadasi, – Karlsonning hech qanday aybi yo‘q. Faqat u... senga qanday tushuntirsam ekan... haligi, sal g‘alatiroq, boshqacharoq-da...

Ha, bu gapda jon bor, Karlson qandaydir boshqacharoq, Mittivoyning bu gapga qo‘shilmay iloji yo‘q. Chindanam, tomda pakana, baqaloq odamning, yana yelkasida parragi, qornida tug-machasi bor odamchanning yashashi g‘alati emasmi?

Axir, Karlson xuddi shunday odamcha-da. Boz ustiga u Mittivoyning eng yaxshi do‘sti. Ha, ha, Krister ham, Gunilla ham emas, ayni shu Karlson uning chin do‘sti, lekin Mittivoy ularni ham juda yaxshi ko‘radi. Ba‘zida esa g‘oyib bo‘lib qolsa yo shunchaki band bo‘lsa, Krister va Gunilla bilan ham o‘ynaydi.

Karlson, Krister bilan Gunilla menga hecham teng kelolmaydi-da, deb ishontirmoqchi bo‘lar, Mittivoy ular haqida gapirdi deguncha joni chiqardi.

– O‘sha do‘mboqchalarni menga tenglashtirib o‘tiribsan-a, – derdi Karlson xunob bo‘lib. – Menga, shunday chiroyli, tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to‘lgan erkakka-ya! Bu nodon bolalaringni qanchasi menday ajoyib do‘st orttirish baxtiga sazovor bo‘lgan? Qani, javob ber!

Yo‘q, yo‘q, faqat men muyassar bo‘lganman, – derdi Mittivoy va har gal yuragi sevinchdan to‘xtab qolgudek bo‘lardi. Uning juda omadi kelgan-da, chunki Karlson aynan ularning tomida yashayapti-ya! Axir, Vazastanda bunaqangi eski, ko‘rimsiz,

Svantesonlar oilasi yashagan uylarga o'xshagan uylar kammi! Omadi kelgani shuki, Karlson boshqa uylarning tomiga emas, tasodifan bularning tomiga kelib qolgan!

To'g'ri, Karlsonning uylariga kelganidan Mittivoyning oyisi bilan dadasi avvaliga xursand bo'lishmadi. Bosse bilan Betan ham dastlab uni yoqtirishmagandi. Butun oila a'zolari – Mittivoy bundan istisno, albatta – Karlsonni eng taniq, eng qo'rs, eng sho'x bola, bunaqasi boshqa topilmaydi, deb hisoblashardi. Lekin asta-sekin hamma unga ko'nika boshladi. Endi ular uni hatto yoqtirib qolishgandi, eng muhimi, Karlsonning Mittivoyga juda kerakligini tushunishardi. Axir, Bosse bilan Betan Mittivoydan ancha katta edi-da, binobarin, Mittivoy o'zining eng yaxshi do'stisiz yashayolmasdi. Garchi uning Bimbo ismli ajoyib kuchukchasi bo'lsa ham, baribir Karlson unga juda-juda zarur edi.

– Menimcha, Karlson ham Mittivoysiz yashay olmaydi, – dedi oyisi.

Lekin avvaliga oyisi bilan dadasi Karlson haqida hech kimga og'iz ochmaslikka qaror qilishdi. Agar televideniyedagilar Karlsondan xabar topib qolishsa, uylarida nimalar bo'lishini, gazeta-yu jurnallar uning haqida, aytaylik, «Karlson o'z uyida» degan sarlavha ostida ustma-ust maqolalar berishini juda yaxshi bilardi.

– Birorta jurnalda Karlsonning suratini ko'rib qolsak, juda kulgili bo'ladi-da... – dedi Bosse. – Bir tasavvur qilgin-a, u mehmonxonasida qip-qizil atirgullarni tomosha qilib o'tiribdi...

– Ovozingni o'chir! – deb Mittivoy uning gapini shartta bo'ldi. – Karlsonning hech qanday mehmonxonasi yo'qligini bilasan-ku, atigi bitta kichkina xonasi bor, u yerda atirgul nima qilsin.

Ha, bularning hammasini Bossening o'zi ham yaxshi biladi. Bir kuni ularning hammasi – Bosse ham, Betan ham, oyisi ham, dadasi ham – Karlsonning hujrachasini ko'rishgan, to'g'ri, atigi bir marta. O'shanda ular tuynuk orqali tomga chiqishganda – odatda bu yerdan mo'ri tozalovchilar chiqishadi – Mittivoy mo'ri orqasidagi kichkina uychni ko'rsatdi.

Oyisi tomdan pastga, ko'chaga qarab, jindek qo'rqib ham ketgandi. Hatto boshi ham aylanganday bo'ldi-yu, mo'rini ushlab turishiga to'g'ri keldi.

– Mittivoy, tomga hech qachon yakka-yolg'iz chiqmayman deb, menga hozir va'da ber, – dedi oyisi.

– Xo'p bo'ladi, – deb to'ng'illadi Mittivoy biroz o'ylanib turgach. – Tomga hech qachon yolg'iz chiqmayman... chiqsam ham, Karlson bilan birga chiqaman, – deb qo'shib qo'ydi pichirlab.

Lekin, oyisi aftidan, uning oxirgi so'zlarini eshitmadi: ha, mayli, o'zidan ko'rsin. Axir, Karlsonning oldiga chiqmagin, deb Mittivoydan qanday talab qila oladi? Axir, Karlsonning har xil g'alati buyumlar to'lib-toshgan kichkina uychasida o'tirish qanchalik maza ekanligini onasi tasavvur ham etolmaydi-ku.

«Endi, mana shu bema'ni maqoladan keyin hammasi, hoynahoy, tugasa kerak!» – deb o'yladi Mittivoy alam bilan.

– Sen Karlsonni ogohlantirib qo'yishing kerak, – dedi dadasi – ehtiyot bo'lsin. Sal vaqt o'tguncha Vazastan bo'ylab uchmay tursin. Faqat sening xonangda o'ynashlaring mumkin, ana shunda uni hech kim ko'rmaydi.

– Bordi-yu, bezorilik qila boshlasa, o'sha zahotiyoy kalishini to'g'rilab qo'yaman, – deb qo'shib qo'ydi onasi va Mittivoyga kasha solingan tarelkani uzatdi.

Bimbo ham kashadan o'z ulushini oldi. Dadasi xayrlashib ishiga ketdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, oyisi ham qayergadir borib kelishi kerak ekan.

– Sayohatchilar byurosiga boraman, bilaychi, bizlarbop biror maroqli marshruti yo'qmikan. Dadang hademay otpuskaga chiqadi, – dedi oyisi va Mittivoyni yuzidan o'pdi. – Men tezda qaytaman.

Mittivoy yana yolg'iz qoldi. Bimbo, bir tarelka kasha va o'zining o'y-fikrlari-yu stol ustidagi gazeta bilan yakka-yolg'iz qoldi. U gazetani oldiga surdi-da, u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechira boshladi. Karlson haqidagi maqola tagida Stokgolmgaga turistlarni olib kelgan, endi Stremenda langar tashlab turgan kattakon kemanding surati berilgandi. Mittivoy uni uzoq tomosha

qildi – oq kema judayam chiroyli edi! Mittivoyning mana shu go'zal kema bortiga chiqib, qayoqqadir, uzoq-uzoqlarga suzib ketgisi kelib qoldi!

U ko'zini suratdan uzmaslikka urinardi-yu, lekin baribir nigo-hi dam-badam sarlavhaning yirik-yirik harflariga tushib qolardi:

«Bu nima: uchar bochkami yo boshqa biror narsami?»

Mittivoy birdan hayajonlanib ketdi. Karlson bilan iloji bori-cha tezroq gaplashish kerak, lekin uni cho'chitib yubormaslik uchun bu ishni nihoyatda ehtiyotlik bilan qilish kerak, yo'qsa, u to'satdan uchib ketishi va butunlay qaytib kelmasligi mum-kin!

Mittivoy xo'rsinib qo'ydi. Bir qoshiq kashani istar-istamas og'ziga soldi, lekin uni yutolmay, go'yo mazasini yaxshilab tatib ko'rmoqchi bo'lganday, tilining uchida bir zum ushlab turdi. Mittivoy mushtdekkina ozg'in bola edi, ishtahasining ham ma-zasi yo'q, axir, bunaqa bolalar oz emas-ku. U ovqat solingan tarelkani qoshiq yo vilka bilan soatlab cho'qilab o'tirishi, oxiriga-cha yemasligi mumkin.

«Kasha biram bemaza ekan-ey, – deb o'yladi Mittivoy. – Jindak shakar qo'shsam shirinroq bo'lar...» U qanddonga endi qo'lini cho'zgan ham ediki, deraza tomondan motorning guvil-lagan ovozi eshitildi-yu, o'sha zahoti oshxonaga Karlson uchib kirdi.

– Salom, Mittivoy! – deb qichqirdi u. – Dunyoda eng yaqin do'sting kimligini bilasanmi? Qani, top-chi, nega o'sha do'sting xuddi hozir paydo bo'ldi!

Mittivoy lunjida anchadan beri ushlab turgan kashani shosha-pisha yutdi.

– Dunyodagi eng yaqin do'stim, sensan, Karlson! Lekin nega hozir uchib kelganingni bilmayman.

– Sharti shuki, uch martagacha o'ylab topasan! – dedi Karlson. – Balki, sen nodon bolakayni sog'ingandirman? Ehti-mol, bu yerga yanglishib kelib qolgandirman, aslida Qirol parki-ga uchib bormoqchi bo'lgandirman? Balki bu yerda mazali kasha borligini sezgandirman? Bir, ikki, uch, gapir, cho'zma!

Mittivoyning yuzi yorishib ketdi.

– Hoynahoy, meni sog‘inganing uchun kelgandirsan, – dedi u xijolatomuz.

– Hecham-da! Qirol parkiga ham uchib bormoqchi emasdim. Demak, buyog‘iga o‘ylab o‘tirmasang ham bo‘ladi.

«Qirol parki! – deb o‘yladi Mittivoy qo‘rquv aralash. – Karlson u yoqqa hecham uchib bormasligi kerak. Umuman, u yerga qadam bosmasin, g‘ij-g‘ij odam, ko‘rib qolishadi. Hozir unga buni tushuntirib qo‘yish kerak».

– Menga qara, Karlson... – deb gap boshladi-yu Mittivoy, lekin o‘sha zahoti jim bo‘ldi, chunki Karlsonning nimadandir noroziligini payqab qoldi.

U Mittivoyga xo‘mrayib qaraganicha, hadeb lablarini chapil-latardi.

– Itday ochiqib kelasan-u, – deb to‘ng‘illadi Karlson, – bu bo‘lsa bir tarelka kasha oldida hech gap bo‘lmaganday xotirjam o‘tiraveradi, sochiqni bo‘yniga o‘rab olganiga o‘laymi. Tag‘in oying uchun bir qoshiq, dadang uchun bir qoshiq, Avgusta xolang uchun bir qoshiq kasha yeyishing kerak, deb ming‘illagani-ming‘illagan.

– Qaysi Avgusta xola uchun? – deb so‘radi Mittivoy uning kimligini tezroq bilgisi kelib.

– Mutlaqo tanimayman, – deb javob berdi Karlson.

– Unday bo‘lsa, uning sog‘lig‘i uchun kasha yeyishning nima keragi bor? – Mittivoy kulib yubordi.

Lekin Karlson kuladigan holatda emasdi.

– Hali, shundaymi! Demak, qayerdadir, dunyoning bir tupka-risida yashaydigan qandaydir qari xolalaring-u ammalaringni bil-maganing uchunoq sening do‘sting ochidan o‘lishi kerak ekan-da!

Mittivoy o‘rnidan sapchib turdi-da, bufetdan tarelka olib, Karlsonga, kashadan o‘zing istagancha solib ol, dedi. Hali ham qovog‘idan qor yog‘ib o‘tirgan Karlson kastrulkani oldi-da tarelka-ga kasha sola boshladi. Kashaning hammasini solib bo‘lganidan keyin, ko‘rsatkich barmog‘i bilan kastrulning chetlarini yaladi, qirmochigacha ham qoldirmadi.

– Oying tilla ayol-da, – dedi Karlson, – faqat, afsuski, judayam pishiq. Kashani bunchalar oz pishirishini birinchi bor ko‘rishim.

Kashaning oxirgi yormasigacha tarelkaga tushganidan keyingina Karlson yeyishga kirishdi, u shunday ishtaha bilan yerdiki, hatto quloqlarigacha qirsillab ketardi. Bir zum oshxonadagi hamma tovushlari qattiq chapillagan tovush bosib ketdi, kimdir kashani ochko'zlik bilan pok-pokiza tushirganida hamisha shunday tovush taraladi.

— Afsuski, Avgusta xolaning sog'lig'i uchun yeyishga hech nima qolmadi, — dedi Karlson kafti bilan og'zini artarkan. — Iye, buyoqda bulka non ham bor ekan-ku! Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik. Azizim, Avgusta xola, tashvish tortma, hammasi joyida, o'sha uzoq Tumba shahringda yoki xohlagan joyingda tinch-xotirjam yashayver. Sening sog'liging uchun kasha o'rniga ikkita bulka non yeyman. Balki, hatto uchta... yoki to'rtta, yo beshta yerman!

Karlson bulka nonlarni birin-ketin yeb bo'lgunicha Mittivoy jim o'tirib, do'stini qanday qilib yotig'i bilan ogohlantirish haqida o'ylardi. «Balki gazetani Karlsonning o'ziga bersam to'g'ri bo'lar? Hammasini o'zi o'qib chiqa qolsin», — degan qarorga keldi u va bir zum ikkilanib turganidan keyin gazetani Karlson tomonga surib qo'ydi.

— Birinchi betini ko'rgin-a, — dedi Mittivoy xomush. Karlson gazetaga ko'z yugurtirdi. Keyin juda qiziqib qoldi shekilli, do'mboq barmoqchasi bilan oq kema suratini niqtab ko'rsatdi.

— Voy! Kema ag'darilib ketibdi-ku! — deb xitob qildi u. — Falokat ustiga falokat-a!

— Gazetani teskari ushlab turibsan-ku, — dedi Mittivoy sekingina.

U Karlsonning o'qishni bilmasligiga ko'pdan beri shubhalanib yurardi. Lekin Mittivoy ko'ngilchan bola, u hech kimni xafa qilgisi kelmaydi. Karlsonni-ku, ranjitishni hecham istamasdi, shuning uchun ham: «Ha-ha-ha, sen o'qishni bilmas ekansand!» deb baqirib-chaqirmadi-da, gazetani sekin aylantirib qo'ydi, shu zahoti Karlson hech qanday baxtsizlik yuz bermaganini ko'rdi.

— Lekin bu yerda boshqa bir baxtsizlik haqida yozishibdi, — dedi Mittivoy. — Bir eshitib ko'rgin-a!

U uchar bochkacha va yo'ldosh-josus, uni tezda ushlash zarurligi, gazeta belgilagan mukofot haqida – xullas, butun maqolani boshidan oxirigacha ovoz chiqarib o'qib chiqdi...

– «Uni redaksiyaga olib kelsangiz, ko'rsatilgan pulni olasiz», – deb u o'qishni tugatdi-da, bir xo'rsinib qo'ydi.

Lekin Karlson xo'rsinmadi, aksincha, o'zida yo'q xursand edi.

– Xo'p, xo'p! – deb qichqirganicha turgan joyida sevinganidan dik-dik sakrardi. – Xo'p, xo'p, yo'ldosh-josusni ushladik desak ham bo'ladi! Redaksiyaga telefon qilib ayt, meni, tushki ovqatdan keyin boradi degin.

– Bu nima qilganing? – deb so'radi Mittivoy qo'rquv ichida.

– Yo'ldosh-josuslarning dunyodagi eng zo'r ovchisi kimligini bilasanmi? – Karlson shunday dedi-da, gerdaygancha barmog'i bilan o'zini ko'rsatdi. – Mana u, dahshatli Karlson! Men katta matrapim bilan uchganimda hech kim qochib qutulolmaydi. Modomiki, yo'ldosh-josus qayerdadir, shu atrofda, Vazastan yaqinida aylanib yurgan ekan, kechgacha uni matrapim bilan hoynahoy ushlayman... Ha, aytmoqchi, chamadoning bormi, o'n mingni nimada olib ketamiz?

Mittivoy yana bir xo'rsinib qo'ydi. Hamma narsa u o'ylagandan ko'ra ancha murakkab bo'lib chiqdi. Karlson hech nimadan shubhalanmasdi.

– Azizim Karlson, o'sha «uchar bochkacha» – bu o'zing ekanligingni, ular seni ovlab yurishganini nahotki fahmlamagan bo'lsang? Endi tushundingmi?

Karlson sevinganidan hamon dik-dik sakrardi, lekin bu so'zlarning asl ma'nosini birdan fahmlab qoldi. Tomog'iga bir nima tiqilib qolganday quldiragan ovoz chiqardi-da, Mittivoyga yeb yuborguday bo'lib tikildi.

– «Uchar bochkacha!» – deb o'shqirdi u. – Sen meni uchar bochkacha deb mazax qilyapsanmi! Sen-a, mening eng yaqin do'stim-a!

U novcharoq ko'rinishga urinib, qo'llarini baland ko'tardi-da, qornini ichiga tortdi.

– Nazarimda, – dedi u balanddan kelib, – sen mening chiroyli, aqlli, tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to'lgan erkak ekanligimni unutib qo'yganga o'xshaysan. Shundaymi, yo'qmi?

– Shunday, Karlson, shu-u... – deb guvrandi Mittivoy, hayajonlanganidan duduqlanib. – Ularning bu haqda gazetada yozishganlariga men aybdor emasman. Lekin ular seni nazarda tutishyapti, bu aniq.

Karlsonning battar jahli chiqdi.

«Omadi chopib shu sirli buyumni ushlagan...» – u maqoladagi bu so‘zlarni yana bir bor alam bilan takrorladi. – «Buyum!» – deb qichqirib yubordi qoni qaynab. – Meni buyum deb atashga kimning haddi sig‘di-ya! Men o‘sha yaramasning tumshug‘iga shunday tushirayki, ko‘zlari kosasidan chiqib ketsin.

Karlson shunday dedi-da, Mittivoy tomonga tahdid bilan bir necha qadam tashladi. Lekin harakati zoye ketdi. Chunki Bimbo o‘sha zahotiyog sapchib turdi. U-ku, hech kimning Mittivoyni chertishiga yo‘l qo‘ymaydi.

– Bimbo, joyingga bor, jim yot! – deb buyurdi Mittivoy. Bimbo indamay nari ketdi-da, mening buyoqda shay bo‘lib turganimni Karlson bilib qo‘ysin deganday irillab qo‘ydi.

Karlson skameykaga o‘tirdi. U nihoyatda xomush bo‘lib, nihoyatda ma‘yus tortib qoldi.

– Men bunaqasiga o‘ynamayman, – dedi u. – Rost, sen shunday badjahl ekansan, meni buyum deb mazax qilarkan-san, tentak kuchuklaringni menga xezlar ekansan, sen bilan o‘ynamayman.

Mittivoy judayam dovdirab qoldi. U nima deyishini, nima qilishini bilmasdi.

– Gazetada shunaqa deb yozishlariga men hecham aybdor emasman, – deb g‘o‘ldiradi u yana va jimib qoldi.

Karlson ham miq etmay, skameykada g‘amgin-ma‘yus o‘tirardi. Oshxonaga og‘ir jimlik cho‘kdi.

Karlson birdan xaxolab kulib yubordi. U o‘rnidan sapchib tur-di-da, mushti bilan Mittivoyning qorniga turtib qo‘ydi.

– Modomiki, men buyuk ekanman, har holda, o‘n ming kron turadigan dunyodagi eng yaxshi buyumman! Tushundingmi? Uqdingmi?

Mittivoy ham kula boshladi – Karlsonning yana ko‘ngli chog‘ bo‘lganidan xursand edi.

– Ha, bu to'g'ri, – deb tasdiqladi u, – sen o'n ming kron turasan. Menimcha, bunchalik qimmat turadigan odam kam bo'lsa kerak.

– Dunyoda hech kim yo'q, – dedi Karlson qat'iy. – Garov o'ynayman, senga o'xshagan nodon bola ko'pi bilan bir yuz yigirma besh kron turadi.

U zavqi toshib ketganidan qornidagi tugmachasini bosib, shiftga o'qday uchib chiqdi-da, shodon qiyqirganicha lampa atro-fida bir necha bor aylandi.

– Ha, xo'p! – deb qichqirardi u. – Mana, o'n ming kron turadigan Karlson uchib yuribdi! Ha, xo'p!

Mittivoy hech nimani o'ylamaslikka qaror qildi. Axir, Karlson chindanam aslida josus emas, demak, uni faqat Karlson bo'lgani uchungina tutishlari mumkin. Oyisi bilan dadasi ham Karlson uchun emas, o'z huzur-halovatlarini o'ylab qo'rqishayotganliklarini Mittivoy birdan tushunib qoldi. Ular, agar hamma Karlsonni ushlashga kirishsa, uning borligini yashirishning iloji bo'lmay qolishidan cho'chishardi. Mittivoyga, Karlsonga jiddiy hech nima xavf solmayotganday tuyuldi.

– Hech nimadan qo'rqmasang bo'ladi, Karlson, – dedi u Karlsonni tinchitishga urinib. – Sen, sen o'zing bo'lganing uchun senga hech nima qilisholmaydi.

– Bo'lmasam-chi, har kimning Karlson bo'lishga haqqi bor, – deb Karlson uning gapini ilib ketdi. – Holbuki, hozircha uning mana shunday ajoyib, tobida semirgan bitta nusxasi topildi.

Ular yana xonaning o'rtasida yonma-yon turib qolishdi, Karlson esa atrofga umid va sabrsizlik bilan alanglardi.

– Senda portlatsak bo'ladigan yangi bug' mashinasi yo'qmi? Yoki boshqa biror qiziqarli narsang yo'qmi? Eng muhimi, gumburlab portlasa bo'ldi-da. Ke, hozir sira kutilmagan bir gumburlash uyushtiramiz. Men biroz vaqtichog'liq qilmoqchiman, yo'qsa, sen bilan o'ynamayman, – dedi u va o'sha zahoti Mittivoyning stoli ustida yotgan qog'oz xaltachaga ko'zi tushib qoldi.

U qog'oz xaltachaga o'z oviga tashlangan kalxatday tashlandi. Oyisi bu qog'oz xaltachani Mittivoyning stoliga kecha kechqurun qo'ygan edi, unda ajoyib shaftoli bor edi. Mana endi,

o'sha shaftolini Karlson do'mboq barmoqlari bilan zo'r berib siqardi.

– Biz uni bo'lamiz, xo'pmi? – deb taklif qildi Mittivoy shosha-pisha. U ham shaftolini yaxshi ko'rardi, shuning uchun og'zini ochib o'tiradigan bo'lsa, quruq qolishini tushunardi.

– Bo'pti, – rozi bo'ldi Karlson, – bo'lamiz! Men o'zimga shaftolini olaman, sen esa qog'oz xaltachani. Bilib qo'y, men senga eng yaxshi bo'lagini beryapman, bu qog'oz xaltachadan qanchadan qancha qiziq narsalarni yasasa bo'ladi-ya!

– Yo'q, rahmat! – dedi Mittivoy qat'iy. – Biz avvaliga shaftolini bo'lamiz, keyin men senga qog'oz xaltachani jon-jon deb beraman.

Karlson norozi bo'lib bosh chayqadi.

– Men sendaqa ochofat bolani hecham uchratmagan-dim! – dedi u og'ir xo'rsinib. – Ha, mayli, hech qo'ymading-da, sen aytgancha bo'la qolsin...

Shaftolini bo'lish uchun pichoq kerak edi, Mittivoy oshxona-ga chopib ketdi. U pichoq olib kelib qarasaki, Karlson yo'q. Lekin Mittivoy shu zahoti stol tagidan go'yo kimdir biror shirin narsani shosha-pisha yeyayotgandagidaqa chapillagan tovushni eshitib qoldi.

– Menga qara, u yerda nima qilyapsan? – deb so'radi Mittivoy tashvish-la.

Karlson stol tagidan chiqqanida, iyagidan shaftoli shirasi oqib turardi. U do'mboq qo'lchasini cho'zdi-da, Mittivoyga shaftoli-ning g'adir-budir to'q-qizil danagini berdi.

– Ko'ryapsanmi, men senga doim eng yaxshi joyini bera-man, – dedi u. – Agar shu danakni eksang, kattakon shaftoli daraxti o'sib chiqadi, unda shirali shaftolilar g'arq pishib yotadi. Xo'sh, bu dunyoda eng saxiy odam kim? Men, talashib-tortishib ham o'tirmayman, axir, sendan atigi bitta bemaza shaftoli ol-dim-da!

Lekin Mittivoy, istagan taqdirida ham biror nima deb javob qilishga ulgurolmasdi, chunki Karlson ko'z ochib-yumguncha de-raza tokchasida paydo bo'ldi-yu tuvakdagi begoniya guli poyasi-dan shartta ushladi.

– Men shunaqa mehribonmanki, bu danakni ekishingga ham o‘zim yordam beraman.

– Tegma! – deb baqirdi Mittivoy.

Lekin kech bo‘lgan edi: Karlson gulni ildiz-pildizi bilan sug‘urib oldi-da, derazadan uloqtirdi.

– Bu nima qilganing? – deb baqirdi Mittivoy, lekin Karlson uning gapini eshitmasdi.

– Kattakon shaftoli daraxti-ya! Tasavvur qila olasanmi? Ellik yilligingda esa har bir mehmonga – kishi boshiga, tushundingmi? – bittadan shaftoli ulashib chiqasan. Axir, bu qanday zo‘r bo‘lishini bilasanmi?

– Lekin undan ham qizig‘i oyim begoniyasini otib yuborganingni bilib qolganidan keyin bo‘ladi, – dedi Mittivoy. – O‘zing tanangga bir o‘ylab ko‘rgin-a, gul hozir uyimiz oldidan o‘tib ketayotgan biron-bir boboyning boshiga tushgan bo‘lsa-ya. Xo‘sh seningcha, u nima degan bo‘lardi?

«Rahmat, azizim Karlson!» – u shunday degan bo‘lardi, – deya Karlson Mittivoyni ishontirmoqchi bo‘lardi. – «Mittivoyning nodon oyisi xohlaganiday, gulni tuvagi bilan pastga uloqtirmasdan, begoniyani ildizi bilan sug‘urib olganing uchun rahmat senga, azizim Karlson».

– Oyim buni hecham xohlamagan! – deb e‘tiroz bildirdi Mittivoy. – Nega bunday deyapsan?

Karlson bu orada danakni tuvakka tashlab, ustiga shoshapisha tuproq tortishga ulgurdi.

– Yo‘q, shuni xohlagan edi! – deb bo‘sh kelmasdi Karlson. – Buni qarang-a, oyisi, begoniyani tuvakdan olishga ruxsat bermasmish. Axir, buning oqibatida ko‘chadan o‘tib ketayotgan begunoh bir cholning bekorga o‘lib ketishi mumkinligi oyingni xayoliga ham kelmaydi-da. «Bitta chol kamaysa kamayibdi-da, – bu arzimagan narsa, ro‘zg‘orda bo‘ladigan gap, – deydi u, – ishqilib hech kim mening begoniyamga tegmasa bo‘lgani».

Karlson Mittivoyga g‘azabli tikildi.

– Xo‘sh, ana men begoniyani tuvagi bilan tashlab yubordim deylik, unda shaftoli danagini nimaga ekardik? Bu haqda o‘ylab ko‘rdingmi?

Mittivoy bu haqda o'ylab ko'rmagandi, shuning uchun ham qanday javob qilishini bilmasdi. Karlson bilan tortishish osonmas, ayniqsa, uning bunga mayli bo'lmasa. Lekin, yaxshiyamki, uning kayfiyati har o'n besh daqiqada o'zgarib turardi. Mana, hozir ham, u birdan qaqag'lashga o'xshash g'alati, lekin shodiyona ovoz chiqardi.

– Iye, qog'oz xaltachani unutib qo'yibmiz-u! – deb xitob qildi u. – U juda ermakbop narsa-da.

Mittivoy uni qanday qilib ermak qilishni bilmasdi.

– Yo'g'-e? – dedi u hayron bo'lib. – Xo'sh, xaltachani nima qilish mumkin?

Karlsonning ko'zlari chaqnab ketdi.

– Dunyoda eng kuchli qarsak chiqarish mumkin! – dedi u. – Ha, xo'p, hozir ajoyib qarsak yangraydi-da! Qani, boshladik.

U qog'oz xaltachani oldi-da, vannaxonaga chopib kirib ketdi. Mittivoy ham qiziqib, uning orqasidan chopdi. U dunyodagi eng kuchli qarsakni qanday qilishlarini juda-juda bilgisi kelardi.

Karlson vanna ustiga engashgancha qog'oz xaltachaga suv to'ldirardi.

– Nima, jinnimisan? Axir, qog'oz xaltachaga ham suv quyadimi? Nahotki shuni bilmasang?

– Ha, nima bo'пти? – deb so'radi Karlson va qog'oz xaltachaga suv quyish mumkinligiga Mittivoyning o'zi ishonch hosil qilsin deb, suv solingan qog'oz xaltachani uning burni tagida silkitdi, keyin yana Mittivoyning xonasiga chopib chiqib ketdi.

Mittivoy, hozir u bir baloni boshlamasaydi, deb qo'rqib, uning orqasidan chopdi. Ha, u bekorga cho'chimagan ekan... Karlson butun gavdasi bilan derazaga engashib olgan edi, yo'g'on, kalta, do'mboq oyoqchalarigina ko'rinardi, xolos.

– Hoy, xo'p, – deb baqirdi u, – pastga qaragin-a, hozir men dunyoda eng kuchli qarsak hosil qilaman!

– To'xta! – deb baqirdi Mittivoy va u ham deraza tokchasiga yotib oldi. – Kerakmas, Karlson, kerakmas! – deb yalindi u qo'rqa-pisa.

Lekin vaqt o'tgan edi. Qog'oz xaltacha pastga o'qday uchib tushib ketdi, Mittivoyning qo'shni uydagi sut kafesiga ketayotgan bir ayolning oyoqlari tagida xuddi bombaday portlab yirtilganini ko'rdi. Turgan gapki, bu dunyodagi eng kuchli qarsak o'sha ayolga mutlaqo yoqmad.

— Qara, qaragin, — dedi Karlson, — go'yo biz bir yarim stakan suv emas, balki fikus o'sib turgan tuvakni tashlab yuborganimizday uning yuragi chiqib ketdi-ya.

Mittivoy derazani qarsillatib yopdi. U Karlsonning har xil narsalarni ko'chaga tashlayverishini istamasdi.

— Menimcha, bunday qilish yaramaydi, — dedi Mittivoy jiddiy, lekin Karlson uning gapiga xaxolab kulib qo'ya qoldi.

U lampa atrofida bir necha bor aylanib uchdi-da, qiqirlab kulganicha Mittivoyning yoniga qo'ndi.

«Menimcha, bunday qilish yaramaydi!» — emish, — deb mazax qildi Mittivoy. — Xo'sh, seningcha, nima qilish mumkin? Sasigan tuxumlar solingan qog'oz xaltani pastga tashlashimiz kerakmidi? Bu ham oyingni ajoyib-g'aroyib istaklaridan birimi?

Karlson yana parvoz qildi-da, yana Mittivoyning oldiga gurs etib qo'ndi.

— Senga shuni aytib qo'yayki, sen ham, oying ham dunyodagi eng g'alati odamsizlar, lekin baribir sizlarni yaxshi ko'raman. — Karlson Mittivoyning yuziga shapillatib urib qo'ydi.

Mittivoy qizarib ketdi, u o'zida yo'q xursand, baxtiyor edi. Karlson uni sevadi, bu qanday yaxshi-ya! U oyisini ham yoqtiradi, bu aniq, lekin uning haqida ko'pincha bo'lmag'ur gaplarni ham gapiradi-da.

— O'zim ham hayronman, — deb tasdiqladi Karlson, hamon Mittivoyning yuziga shapillatib urarkan, zavq-shavqqa to'lib.

U Mittivoyning yuziga borgan sari ishtiyoq bilan urar, hatto oxirgisi ko'proq tarsakiga o'xshab ketdi, o'shandan keyin Karlson dedi:

— Voy, men judayam yoqimtoyman-da! Dunyodagi eng yoqimtoy odamman! Shuning uchun ham, menimcha, hozir ikkovimiz birorta juda yoqimli o'yinni o'ynashimiz kerak, xo'sh, rozimisan?

Mittivoy, albatta rozi bo'ldi, lekin shu zahotiy oq Karlson bilan qanaqangi yoqimli o'yin o'ynasak ekan, deb o'ylay boshladi.

— Mana, masalan, — deb taklif qildi Karlson, — shunday o'yin o'ynasak bo'ladi, aytaylik, stol — bu bizning solimiz, shunga tushib, toshqindan qutulib qolamiz... ha, aytmoqchi, toshqin boshlandi ham. U shunday dedi-da, eshik tagidan jildirab oqib chiqayotgan suvni ko'rsatdi.

Mittivoyning nafasi ichiga tushib ketdi.

— Nima balo, vannaxonadagi kranni bekitmovdingmi? — deb so'radi u dahshatga tushib.

Karlson boshini egdi-da, Mittivoyga mehr bilan qarab qo'ydi.

— Qani, top-chi, kranni bekitdimmi yo yo'qmi! Uchgacha sanayman! Mittivoy dahlizning eshigini lang ochib yubordi. Karlson haq edi. Dahshatli suv toshqini boshlangan edi. Vannaxona bilan dahliz suvga to'lib ketganidan xohlagan odam bemalol suv sachratib o'ynashi mumkin edi. Karlson xuddi shuni xohlab turgandi. U qiyqirganicha o'zini suvga otdi.

— Hoy-xo'p! — deb qichqirdi u. — Ba'zi kunlarning sadag'asi ketsang arziydi, maza bo'ldi-da.

Mittivoy vannaxonadagi kranni berkitdi-da, undagi suvni chiqarib yubordi, keyin dahlizdagi stulga behol cho'kkancha polga ko'z oldi qorong'ilashib tikilib qoldi.

— Voy, — dedi u sekin, — voy, oyim nima deydilar?

Karlson suvda sakrashni bas qildi-da, Mittivoyga ranjigan-simon qarab qo'ydi.

— E, bo'ldi-ey, buyog'ini juda oshirvording! — dedi u xunob bo'lib. — Oying bunchalar vaysaqi bo'lmasa! Bir necha chelak oddiy suvga... gapirishga arzimaydi-yu!

U yana bor bo'yicha sakragandi, Mittivoyning boshidan oyog'igacha suv sachradi.

— Suvda juda maza-ya, — dedi u. — Buning ustiga yana oyoqni yuvadigan vanna ham bor ekan. Nima, oying oyoq yuvishga qarshimi?

U yana sakragandi, Mittivoyning ustiga yana suv sachradi.

— Nahotki, oying oyoqlarini hech qachon vannada yuvmasa? Faqat ertadan kechgacha gul tuvaklarini derazadan pastga uloqtirib o'tiradimi? Shundaymi?

Mittivoy javob bermadi. Nima bo'lganda ham oyisi kelguncha hamma narsani yig'ishtirib, to'g'rilab qo'yish kerakligini o'ylardi.

– Karlson, biz iloji boricha tezroq... U gapini tugatmay stuldan sapchib tushdi-da, oshxonaga chopib kirib ketdi. O'sha zahoti qo'lida pol lattasi bilan qaytib keldi. – Qani, Karlson, menga qarashvor... – deb gap boshladi-yu, lekin Karlsonning xonada yo'qligini sezib qoldi.

U dahlizda ham, vannaxonada ham – hech qayerda yo'q edi. Lekin Mittivoy motorchaning guvillagan tovushini doim eshitib turdi. U deraza oldiga chopib keldi-da, tashqariga qaradi, semiz baliqni eslatuvchi allanarsa osmonga parvoz qilganini ko'rdi.

– Uchar bochkachami yoki boshqa biror narsami? – deb po'ng'illadi Mittivoy.

Yo'q, bu uchar bochkacha emas, bor-yo'g'i o'zining tomdagi zangori uychasiga uchib ketayotgan Karlson edi.

Lekin shu zahoti Karlson Mittivoyini ko'rib qoldi. U pastga o'qday sho'ng'idi-da, derazaning oldidan yashin tezligida uchib o'tib ketdi. Mittivoy qoyil qolib, unga pol lattasini silkitdi, Karlson ham do'mboq qo'lchasini silkitib qo'ydi.

– Hoy-xo'p! – deb qichqirdi u. – Mana, o'n ming kron turadigan Karlson uchib yuribdi. Hoy-xo'p!

U shunday dedi-da, uchib ketdi. Mittivoy bo'lsa latta bilan dahlizdagi polning suvini arta boshladi.

## KARLSON TUG'ILGAN KUNINI ESLAB QOLDI

**K**arlsonning omadi bor ekan, Mittivoyning oyisi sayohat byurosidan kelganida u uyda yo'q edi, chunki kelib begoniyaning yo'qolganini, uyning hammayog'ini suv bosganini ko'rib onasining astoydil jahli chiqdi, hali ham Mittivoy polni artishga ulgurgandi.

Bu bema'niliklar kimdan chiqqanligini oyisi darrov fahmladi, hatto dadasi tushlikka kelganida hammasini unga gapirib berdi.

– Ehtimol, men yaxshi ish qilmayotgandirman-u, – dedi oyisi, – chunki keyingi paytlarda Karlsonga anchayin o'rganib

qoluvdim, lekin bilasizlarmi, hozir undan qutulish uchun o'zim o'n ming kron berishga tayyorman.

– Voy, nimalar deyapsiz! – deb qichqirib yubordi Mittivoy.

– Ha, mayli, kelinglar, bu haqda boshqa gapirmaylik, – dedi oyisi, – ovqat mahalida hammaning kayfiyati yaxshi bo'lishi kerak.

Oyisi bu gapni tez-tez takrorlardi: «Ovqat mahalida hamma-ning kayfiyati yaxshi bo'lishi kerak». Mittivoy ham shu fikrda edi. Chindanam, agar ular gaplasha boshlashsa, doimo ko'ngillari chog' bo'lardi. Mittivoy ko'p gapirib, kam ovqat yerdi, ayniqsa, tushlikka suvda pishirilgan treska, yoki sabzavot sho'rva, yoxud selyodkadan tayyorlangan kotlet bo'lsa umuman, ovqat yeyishi-ning tayini bo'lmasdi. Lekin bugun oyisi stolga to'qmoqlangan buzoq go'shtidan tayyorlangan kotlet olib kelib qo'ydi, shirinlik o'rni-da – qulupnay berdi, chunki yozgi ta'til kunlari boshlangan bo'lib, Bosse bilan Betan safarga ketishayotgan edi. Bosse – yelkanli sport turini o'rgangani yaxt-klubga, Betan esa otlar ko'p bo'ladigan dehqonlar qishlog'iga jo'nayotgandi. Xullas, bu xayrlashuv bahonasi bilan tuzalgan tushlik bo'lib, oyisi uning kichik ziyofatday o'tishi uchun tayyorgarlik qilgan edi.

– Xafa bo'lma, Mittivoy, – dedi dadasi. – Biz ham, oying, sen, uchovimiz sayohatga ketamiz.

– Dadasi – ajoyib yangilik! – oyisining sayohat byurosiga borganini, surati gazetada berilgan o'sha kemaga biletlar buyurib kelganini gapirib berdi. Kema bir haftadan keyin dengizga chiqarkan, ular mana shu oppoq kemada rosa o'n besh kun suzib, turli portlarni tomosha qilisharkan.

– Axir, bu zo'r sayohat emasmi? – deb so'radi oyisi Mittivoydan.

Dadasi ham, Bosse bilan Betan ham uni rosa qiziqtirishdi.

– Bu juda mazza emasmi, Mittivoy?

– Shunday shekilli! – deb rozi bo'ldi Mittivoy.

U chindan ham, bu hoynahoy, zo'r sayohat bo'lsa kerak, deb o'yladi. Lekin ayni bir vaqtda, bu sayohatning unchalik mazza emasligini tushunib turardi, aynan nimasi yoqmayotganligini ham aniq bilardi: Karlson! Axir, Karlsonga juda zarur bo'lib turgan bir paytda qanday qilib uni yakka-yolg'iz qoldirib

keta oladi! Garchi, Karlson hech qanday josus emas, shunchaki oddiy Karlson bo'lsa-da, unga xavf-xatar tahdid solyapti, chunki odamlar o'n ming kron olish uchun uning payiga tushishadi-da. Mittivoy o'sha zo'r toshqindan keyin polni artar ekan, doim shu haqda o'ylardi. Axir, kimning miyasiga qanday fikr kelishini kim biladi deysan. Bordi-yu ular Karlsonni hayvonot bog'idagi katakka solib qo'yishsa-chi, yoki bundan ham yovuzroq bir narsa o'ylab topsa-chi. Nima bo'lganda ham ular Karlsonni tomdagi kichkina uychasida tinch-xotirjam yashashiga qo'yishmaydi. Bu turgan gap!

Mittivoy uyda qolib, Karlsonni qo'riqlashga qaror qildi. U o'sha zahoti stol atrofida o'tirib buzoq go'shtidan tayyorlangan kotletni pok-pokiza tushirarkan, hech qayoqqa borolmasligining sababini hammalariga tushuntirdi.

Bosse xaxolab kulib yubordi.

— Karlson katakda, qoyil-e! Mittivoy, o'zing bir tasavvur qilib ko'rgin-a, sen sinfdoshlaring bilan turli hayvonlarni tomosha qilgani hayvonot bog'iga borasan, lavhadagi yozuvlarni birma-bir o'qiysanlar. Ulardan birida «Oq ayiq», boshqasida: «Ayri shoxli los» yoki «Cho'l bo'risi», yoxud «Oddiy bobr» degan so'zlarni o'qib bora turib birdan: «Uchadigan Karlson» degan so'zga ko'zing tushadi.

— Ovozingni o'chir! — Mittivoy tutaqib ketdi. Lekin Bosse hamon xaxolab kulardi.

«Uchadigan Karlson, iltimos, bu hayvonga ovqat berilmasin». Agar uning qafasiga mana shunday deb yozib qo'yishsa, Karlson rosa darg'azab bo'lardi-da.

— Ahmoq, — dedi Mittivoy. — G'irt ahmoqsan.

— Axir, tushunsang-chi, Mittivoy, sen bormasang, bizlar ham hech qayoqqa ketolmaymiz-da, — dedi oyisi.

— Bermalol ketishlaring mumkin, — deb e'tiroz bildirdi Mittivoy. — Uyga Karlson ikkovimiz qarab turamiz.

— Ha-ha! Butun uyga suv bostiramiz-a, shundaymi? Hamma buyumlarni derazadan ko'chaga tashlab yuboramiz-a! — dedi Betan.

— Tentak, — dedi Mittivoy.

Bu gal dasturxon atrofida o'tirish har galgiday ko'ngilli bo'lmadi. Mittivoy aslida yumshoq, ko'ngilchan bola bo'lsa-da, lekin ba'zida juda qaysarlighi tutib qolishi mumkin. Mana, hozir ham o'z aytganida qattiq turib olib, muzokaralarga mayllik bildirmadi.

— Menga qara, qo'zichog'im, — deb dadasi endi gap boshlagan edi, so'zi og'zida qoldi, chunki shu payt eshikdagi pochta qutisiga nimadir tashlashdi-yu, Betan ruxsat so'ramasdan, o'rnidan sapchib turib ketdi.

U allaqanday sochi yelkasiga tushadigan bir boladan xat kutardi, shuning uchun ham Betan dahlizga o'qday otildi. Pochta qutisida chindanam xat yotardi, lekin u sochi uzun boladan Betanga yozilgan xat bo'lmay, balki boshi yaltiroq Yulius amakining dadasiga yozgan xati edi.

— Ovqat mahalida hammaning ko'ngli chog' bo'lishi kerak, — dedi Bosse. — Demak, ovqat paytida Yulius amakidan xat kelmasligi kerak.

Yulius amaki dadasining uzoq qarindoshi bo'lib, o'z doktori bilan maslahatlashish va Svantesonlarnikida bir-ikki kun mehmon bo'lish uchun Stokgolmgaga yiliga bir marta kelib ketardi. Yulius amaki mehmonxonada turishni istamasdi, juda qimmatga tushadi, derdi. Aslida u puldor odam edi-yu, lekin sarf-xarajatni yomon ko'rardi.

Svantesonlardan, hech biri Yulius amakining kelishini eshitib xursand bo'lmadi. Ayniqsa, dadasining hafsalasi pir bo'ldi. Lekin bunday paytlarda oyisi doim:

«Axir uning birgina qarindoshi sensan, uning sendan bo'lak hech kimi yo'q, odam achinadi. Bechora Yulius amakidan marhamatimizni ayamassligimiz kerak», — derdi.

Lekin bechora Yulius amaki uyimizda bir-ikki kun yashashi, bolalarga ustma-ust tanbeh bera boshlashi, dasturxon tepasida mijg'ovlik qilishi, bo'lar-bo'lmasga zorlanaverishi bilanoq oyimning peshonasida ajinlar paydo bo'lar va u ham Yulius amaki uyimizga qadam qo'ygan paytdan dadamga o'xshab kamgap va asabiy bo'lib qolardi. Bosse bilan Betan esa cholning ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilishardi, u mehmon bo'lib kelgan kundan boshlab deyarli uyda bo'lishmasdi.

«Faqat Mittivoygina unga mehribon edi», — derdi oyisi.

Lekin Mittivoyning ham sabri chidamasdi, Yulius amaki o'tgan safar ularnikiga mehmon bo'lib kelganida Mittivoy o'z albomiga uning rasmini chizdi-da, rasmning tagiga «To'nka» deb yozib qo'ydi.

Yulius amaki bu rasmni tasodifan ko'rib qolib:

«Otni o'xshatib chizolmabsan», dedi.

Yulius amaki hammani biror ishni do'ndirisholmaydi, deb hisoblardi. Qisqasi, uning yoqimsiz, sovuq mehmonligi aniq edi, shuning uchun ham u nihoyat narsalarini chamadonga joylab, uyiga, Vestergetlandga jo'nab ketganida, Mittivoyning nazarida uy birdan yorishib, xonalarda sho'x kuy yangraganday bo'lardi. Go'yo biror ko'ngilli narsa yuz berganday hammaning ruhi ko'tarilib, bir-birlariga dilkash bo'lib qolishardi, holbuki, aslida hech gap bo'lgani yo'q, shunchaki bechora Yulius amaki o'z uyiga jo'nab ketgandi.

Mana endi, xatda yozilganidek, u ikki haftacha turmoqchi ekan: «Sizlar hecham tashvish tortmanglar, bu kunlar juda ko'ngilli, fayzli o'tishiga ishonchim komil, qolaversa, doktor ham bir nechta ukol va massaj olishni buyurgan: ertalablari a'zoyi badanim negadir uvushib qolyapti-da».

— Mana, ozib-yozib bir sayri-sayohatga otlanganimizda... — dedi oyim hafsalasi pir bo'lib. — Bu yoqda Mittivoy bormayman, deb oyoq tirayapti, bu yoqda yana Yulius amaki mehmon bo'lib kelmoqchi!

Lekin shu payt dadasi stolga bir musht urdi-da, men nima bo'lganda ham sayohatga albatta jo'nayman, oyingni hatto o'g'irlab bo'lsa ham o'zim bilan birga olib ketaman, dedi. Mittivoy bilganini qilsin, xohlasa — biz bilan ketsin, xohlama — uyda qolsin. Xullas, o'zi hal qilsin. Yulius amaki xususida shuni aytishim kerakki, u bemalol kelishi, istagancha uylarida turishi, doktorga qatnashi, agar bu ma'qul kelmasa, o'zining Vestergetlandida qolishi mumkin, har holda — dadasi buni aniq-ravshan qilib gapirdi — xullas, u belgilangan kuni bandargohga borib, kemaga tushadi-yu, yo'lga ravona bo'ladi. Yulius amakilardakadan o'ntasi ham uni yo'ldan qoldirolmaydi.

– Ha, albatta, – dedi oyisi, – lekin baribir bu masalani har tomonlama chuqur o‘ylab ko‘rish kerak.

Oyisi hammasini puxta o‘ylab bo‘lganidan keyin, dedi: – Bok xonimdan iltimos qilib ko‘ramiz, balki ikkita o‘jar bo‘ydoq – Mittivoy bilan Yulius amakiga ro‘zg‘or ishlarida yordam berishga rozi bo‘lar.

– Ikkita emas, uchta bo‘ydoqqa, – dedi dadasi. – Uchinchi o‘jar bo‘ydoqning ismi Karlson, u tomida yashaydi. Karlsonni unutmanglar, axir, u erta-yu kech shu yerda bo‘ladi-ku.

Bosse qattiq kulganidan stuldan ag‘darilib tushishiga sal qoldi.

– Uy zolimasi, Yulius amaki va Karlson – ulfatlar juda topishibdi-da?

– Buyoqda Mittivoy ham bor-ku. Iltimos, uni esdan chiqarmalaring, – dedi Betan.

U ikkala qo‘li bilan Mittivoyni quchoqladi-da, g‘ayritabiiy hayrat ichida ko‘zlariga qaradi.

– Dunyoda mening ukamga o‘xshagan ajoyib odamlar bor-da! – dedi u. – U uyda uy zolimasi, Yulius amaki, tomida yashovchi Karlson bilan birga qolish uchunoq oyisi va dadasi bilan ajoyib sayohatga borishdan voz kechyapti.

Modomiki, shunday ajoyib, yaxshi do‘sting bor ekan, uni tashlab ketib bo‘lmaydi.

Mittivoy o‘ziga qanchalik qiyin bo‘lishiga aqli yetmayapti, deb bo‘lmasdi. Yulius amaki bilan Bok xonim atrofida girdikapalak bo‘lib uchib yuradigan Karlson uning boshiga qanday sho‘rishlar solishi haqida gapirma ham bo‘ladi. Ha, har holda, uyda kimdir qolishi va ularning boshini qovushtirib o‘tirishi kerak-da.

– O‘sha «kimdir» men-da, mendan bo‘lak hech kim bu ishni uddalayolmadi, tushundingmi, Bimbo? – dedi Mittivoy o‘rniga yotganidan keyin, yonidagi savatchada esa Bimbo pishillab uxlab yotardi.

Mittivoy ko‘rsatkich barmog‘ini cho‘zib, Bimboning bo‘yinbog‘ining tagini qashib qo‘ydi.

– Endi yaxshisi uxlaganimiz ma‘qul, – dedi u, – kechqurungi naqldan ertalabki aql yaxshi deyishadi-ku.

Lekin shu payt motorning guvillagan tovushi eshilib, xona-ga Karlson uchib kirdi.

– Juda g'alati ish bo'ldi-da! – deb xitob qildi u. – Hamma narsani miyamda saqlashim kerak, mabodo, biror narsani unut-dim-mi, vassalom, oxiri voy bo'ladi, orqa qiladigan odamim yo'ql..

Mittivoy karavotida turib o'tirdi.

– Xo'sh, nimani unutding?

– Tug'ilgan kunimni esimdan chiqaribman-a! Ma'lum bo'li-shicha, shu bugungi uzundan uzoq kun mening tug'ilgan kunim ekan, bu esa xotiramdan mutlaqo ko'tarilibdi, hech kim, biron kimsa: «Azizim Karlson, seni tabriklayman» demadi-ya.

– Tushunmayapman, – dedi Mittivoy hayron bo'lib, – bu-gun sakkizinchi iyun-ku, qanday qilib sening tug'ilgan kuning bo'lishi mumkin? Juda yaxshi esimda, sen aprelda tug'ilgansan.

– Ha, aprelda edi, – deb qo'shildi Karlson. – Xo'sh, nega endi mening tug'ilgan kunim doim ayni bir kunda bo'lishi kerak, axir, boshqa ajoyib kunlar ozmi. Mana, masalan, sakkizinchi iyun juda ajoyib kun, nega endi tug'ilgan kun uchun shu kunni tanlash mumkin emas? Balki sen bunga qarshidirsan?

Mittivoy kulib yubordi.

– Yo'q, qarshi emasman! Mayli, tug'ilgan kuningni istagan vaqtingda o'tkazaver.

– Unday bo'lsa, – dedi Karlson boshini muloyimlik bilan bir tomonga ekkancha, – iltimos, sovg'alarimni o'zinga bersang.

Mittivoy xayolparishonlik bilan o'rnidan turdi. Axir, zudlik bi-lan Karlsonga munosib sovg'ani topishning o'zi bo'lmaydi, lekin u bir urinib ko'rmoqchi bo'ldi.

– Hozir, tortmalarimni bir ko'ray-chi, – dedi u.

– Bo'pti, – deb rozi bo'ldi Karlson va sabr-toqat bilan kutish-ga hozirlandi. Lekin shu payt uning ko'zi shaftoli danagi ekilgan gul tuvakka tushib qoldi. Karlson uzoq o'ylab o'tirmay, tuvakka tashlandi-da, barmog'i bilan danakni tezda kovlab oldi. – Axir, o'sayaptimi, yo'qmi, ko'rib qo'yish kerak-ku. Iye, qaragin-a, me-nimcha, u kattaroq bo'lib qolibdi, – dedi u va danakni qaytadan tuproqqa ko'mib qo'ydi-da, iflos barmoqlarini Mittivoy pijamasi-ning etaklariga artdi. – Chamasi, yigirma yillardan keyin juda maza qilasana-da, – dedi u.

– Qanday qilib? – deb so‘radi Mittivoy ajablanib.

– Chunki sen kunduzi shaftoli daraxtining soyasida uxlashing mumkin! Qoyil-a, to‘g‘rimi? Unda karavotingni tashlab yuborishga to‘g‘ri keladi, umuman, mebel shaftoli daraxtiga to‘g‘ri kelmaydi... Xo‘sh, sovg‘alarim qani?

Mittivoy o‘zining kichkina mashinalaridan birini olib keldi, lekin Karlson boshini sarak-sarak qildi. Shundan so‘ng Mittivoy unga avvaliga jumboq o‘yinchoqni, keyin «Konstruktor»ni, so‘ng rang-barang mayda toshlar solingan xaltachani ko‘rsatdi, lekin Karlson har gal «yo‘q» deganday boshini chayqardi. Nihoyat, Mittivoy Karlsonga nima yoqishini fahmlab qoldi: to‘pponcha! U yozuv stolining yuqori tortmasidagi gugurt qutisida anchadan beri yotardi. Bu dunyodagi eng kichkina to‘pponcha, turgan gapki, eng chiroylisi ham edi. Dadasi uni Mittivoyga xoriждан olib kelib bergandi, Kristerni ham, Gunillaning ham o‘z vaqtida unga juda havasi keluvdi, chunki ular bunaqangi jajji to‘pponchani umrlarida sira ko‘rishmagan edi-da. Shunisi qiziqki, degandi dadasi, qanday qilib bu jajjivoy qarsillatib otarkin.

– Ehtiyot bo‘l, huda-behudaga otaverma, chunki atrofigdagi odamlar qo‘rqib ketishlari mumkin, – degandi dadasi, bu jajji to‘pponchani Mittivoyning kaftiga qo‘yarkan.

Ma‘lum sabablarga ko‘ra, Mittivoy o‘shanda bu to‘pponchani Karlsonga ko‘rsatmagan edi. Ha, aytganday, o‘yinchoq‘ini do‘stidan yashirishning yaxshi emasligini Mittivoyning o‘zi ham tushunardi. Buning ustiga, yashirishga ham hojat qolmagan-di, chunki Karlson uning tortmasini titkilaganda to‘pponchani ko‘rgandi.

Karlsonga ham bu jajji to‘pponcha juda yoqib qolgandi, albatta. «Ehtimol, shuning uchun ham bugun tug‘ilgan kunini nishonlamoqchi bo‘lgandir», – deb o‘yladi Mittivoy va chuqur xo‘rsinib, qutichani stol tortmasidan oldi.

– Tabriklayman seni, azizim Karlson! – dedi Mittivoy. Karlson sevinganidan qiyqirib yubordi-da, Mittivoyga tashlanib, uning ikki yuzidan cho‘lp-cho‘lp o‘pdi, keyin qutichani ochdi-da, shodon qaqag‘lab to‘pponchani oldi.

– Sen dunyodagi eng yaxshi do‘stimsan! – dedi u.

Mittivoy o'zini birdan baxtiyor, go'yo unda bunday to'pponchadan yana yuztasi borday judayam baxtiyor his etdi.

– Bilasanmi, – dedi Karlson, – u menga chindanam kerak. Bugun kechqurun.

– Nega endi? – deb so'radi Mittivoy tashvish aralash.

– O'rnimda yotib olib, qo'ylarni sanash uchun, – deb tushuntirdi Karlson.

Bu yerda shuni aytish kerakki, Karlson Mittivoyga uyqumning mazasi yo'q, deb bir necha bor noligan edi.

– To'g'ri, kechalari dong qotib uxlayman. Ertalablari ham. Lekin peshindan keyin o'rnimda u yoqdan bu yoqqa ag'anab chiqaman, mijja qoqmayman.

Ana o'shanda Mittivoy unga uyqusizlikka qarshi qanday kurashishni o'rgatgandi. Agar darrov uxlayolmasangiz, o'zingizni uxlayotgan qilib ko'rsating va devorchadan dik-dik sakrayotgan qo'ylar suruvini ko'rayotgan qilib tasavvur eting. Qo'ylarning hammasini, ular devor ustidan sakrayotganlarida birma-bir sanash kerak, shunda seni uyqu bosadi-yu uxlab qolasan, vas-salom.

– Bilasanmi, bugun kechasi sira uxlayolmadim, – dedi Karlson. – Yotib olib, qo'ylarni sanay boshladim. O'shalarning ichida bitta tirraqisi bor ekan, hecham sakragisi kelmay joyidan jilmaydi-ya.

Mittivoy kulib yubordi.

– Xo'sh, nega endi sakragisi kelmadi?

– Meni qiynamoqchi-da. U devorning oldida turib, og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga oladi-yu, lekin joyidan qimirlamaydi. Ana o'shanda to'pponcham bo'lsa uni sakrashga majbur qilardim, deb ko'nglimga tugib qo'ygandim. Mittivoy ana o'shanda stolingni tortmasida yotgan jajji to'pponchani ham esladimu bugun tug'ilgan kunim ekan, degan qarorga keldim, – dedi Karlson va xursand bo'lib to'pponchani silab qo'ydi.

Karlson sovg'asini o'sha zahotiyiq sinab ko'rmoqchi bo'ldi, albatta.

– Tekshirib ko'ramiz! – dedi u. – Hozir qarsillatib otaman, bir xursand bo'laylik! Yo'qsa, men sen bilan o'ynamayman.

Lekin Mittivoy qat'iyon rad etdi:

— Yo'q! Unda uydagilarni uyg'otib yuboramiz. Karlson yelkasini qisdi.

— Xo'sh, nima bo'пти? Bu arziyas narsa, ro'zg'orda bo'ladigan gap! Qaytadan uxlashadi-da. Bordi-yu sanagani qo'ylari bo'lmasa, o'zimiridan ularga qarz berib turaman.

Lekin Mittivoy o'z aytganida qattiq turib, to'pponchani sinashga yo'l qo'ymadi. Ana shunda Karlson boshqa chorasini topdi.

— Biznikiga uchib boramiz, — dedi u. — Axir, tug'ilgan kunimni nishonlashimiz kerak-ku... Uyda, mabodo, pirog topilmaydimi?

Lekin bu gal uyda pirog yo'q edi. Karlson ming'illay boshlagandi, Mittivoy, bu arziyas narsa, ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku, dedi.

— Esingda bo'lsin, — deb Karlson uning gapini shartta bo'ldi. — Pirog haqida «bu arziyas narsa, ro'zg'orda bo'ladigan gap» deyishmaydi. Ha, mayli, ilojimiz qancha, ziyofatni bulochkalar bilan o'tkaza qolamiz. Bor, nimaiki topsang, hammasini obkel!

Mittivoy oshxonaga kirdi-da, ancha-muncha bulochka ko'tarib keldi. Oyisi, ba'zi-ba'zida Karlsonga bir-ikkita bulochka berishga ruxsat etgandi. Hozir esa juda asqatib qoldi.

To'g'ri, oyisi Karlson bilan birga tomga uchib chiqishga ruxsat bermagandi, lekin bu Mittivoyni paqqos esidan chiqib ketgandi, agar hozir bitta-yarimta buni unga eslatguday bo'lsa, Mittivoy sidqidildan ajablangan bo'lardi. U Karlson bilan uchishga o'rganib qolgandi, hecham qo'rqmasdi, qo'llari bilan Karlsonni bo'ynidan mahkam quchoqlab olib, osmonga, to'ppa-to'g'ri tom-dagi uychaga o'qday uchib chiqayotganlarida hatto yuragi shuv etmasdi ham.

Stokgolmdagi iyun oqshomlariday oqshom hech qayerda bo'lmaydi. Hech yerda osmon mana shunday o'ziga xos ajib rangda nurlanib turmaydi, bu yerda g'ira-shira payt shunday yorqin, tiniq bo'ladiki, shahar ham, ko'rfazning oqish suvida aks etgan osmon ham g'aroyib manzara kasb etadi.

Bunday oqshomlar go'yo tomda yashovchi Karlsonning tug'ilgan kunini nishonlash uchun maxsus yaratilganday.

Mittivoy osmon bo'yoqlarining almashinishini miriqib tomosha qiladi, Karlson esa bunga mutlaqo parvo qilmasdi. Lekin ular pillapoyada mana shunday yonma-yon o'tirishib, bulochka yeyishib, ustidan sharbat ichishganlarida, Mittivoy bu oqshomning boshqa oqshomlarga sira o'xshamasligini aniq-ravshan tushungan edi. Karlson ham bu bulochkalar Mittivoyning oyisi odatda yopadigan boshqa bulochkalarga hecham o'xshamasligini aniq-ravshan tushunardi.

«Karlsonning uychasi ham dunyodagi uylarning birontasiga o'xshamaydi», – deb o'ylardi Mittivoy. Bu yerdagiday shinam xona, ajoyib pillapoya, go'zal manzara hech qayerda yo'q, bir qarashda keraksiz, bema'ni tuyulgan, aslida nihoyatda ajoyib narsalar hech qayerda bu yerdagidek ko'p to'plangan emas: Karlson, xuddi olmaxonga o'xshab hamma narsani uyiga tashib olib kelavergan. Karlsonning bu buyumlarni qayerdan olganini, qanday qo'lga tushirganini Mittivoy o'zicha tasavvur ham etolmasdi. Karlson kerak paytida topish oson bo'lsin uchun o'z boyliklarining ko'pini devorlarga osib tashlagandi.

– Ko'ryapsanmi, hammayoq saranjom-sarishta. Asbob-uskunalaridan bo'lak hamma narsa chap tomonga, asbob-uskunalar esa o'ng tomonga osib qo'yilgan, – deb tushuntirdi Karlson. – Rasmlar ham.

Ha, Karlsonning uyidagi devorda ikkita ajoyib rasm osig'liq turardi. Mittivoy ularni tomosha qilishni yaxshi ko'rardi. Bu rasmlarni Karlsonning o'zi chizgan. Ularning birida, varaqning chekkaginasiga zig'irdakkina qanotli hasharot rasmi solingan bo'lib, u «So'qqabosh xo'roz», deb atalardi. Boshqasida tulki tasvirlangandi, lekin rasm negadir «Quyonlarimning portreti» deb atalardi.

– Quyonlar ko'rinmaydi, chunki ularning hammasi tulkining qornida, – deb tushuntirardi Karlson.

Karlson og'zini bulochkaga to'ldirib kavshangancha dedi:

– Vaqtim bo'lganida uchinchi rasmimni chizaman. U «Sakrashni xohlamagan kichkina o'jar qo'zichoqning portreti», deb ataladi.

Lekin Mittivoy uning gaplarini beparvogina eshitardi, so'lim yoz oqshomining maftunkor tovushi-yu muattar hidlaridan

boshi aylanardi. U ko'chalaridagi gullayotgan lipa daraxtlarining xushbo'y hidini sezib turar, poshnalarning yo'lkaga tegib to'q-to'q etishini eshitardi – bu oydin kechada juda ko'p odamlar sayr qilib yurishardi. «Yoz oqshomining o'ziga xos tovushi bor-a!» – deb o'yladi Mittivoy. Oqshom nihoyatda sokin edi, qo'shni uylardagi har bir shitirlagan ovoz unga juda aniq eshitilardi: odamlar valdirashar, baqirib-chaqirishar, ashula aytishar, so'kinishar, kulishar, yig'lashar – hammasi aralash-quralash bo'lib ketgandi. Baland uyning tomida bir bola o'tirvolib, bir-biriga ulanib ketgan bu xilma-xil tovushlarni xuddi chinakam qo'yday tinglayotgani ulardan hech birining xayoliga kelmaydi.

«Yo'q, mening bu yerda Karlson bilan o'tirganimni, huzur qilayotganimni, bulochkani yeb, sharbat ichayotganimni ular bilishmaydi», deb o'ylardi baxtiyor Mittivoy.

To'satdan ularga eng yaqin boloxonada qandaydir qiyqiriq ovozlari eshitildi.

– Eshitdingmi? Bu mening bezori hakkalarim, – deb tushuntirdi Karlson.

– Kim? Kim deding? Fille bilan Rullemi?

Fille bilan Rulleni Mittivoy ham tanirdi. Bular butun Vazastanga dong'i ketgan uchiga chiqqan bezori va o'g'rilar edi. Ular qarovsiz yotgan hamma narsani olib ketishaverardi. Xuddi hakkalarga o'xshardi. Shuning uchun ham Karlson ularni «bezori-hakkalar» deb atardi. Bir yil avval ular Svantesonlarning uyiga o'g'rilikka tushishgandi, lekin Karlson ularni arvoq qiyofasiga kirib shunday qo'rqitib yuborgandiki, o'sha kunni hali-hali eslab yurishadi. O'shanda ular hatto kumush qoshiqchani ham olib ketisholmagandi.

Karlson Fille bilan Rullening boloxonadagi qichqirig'ini eshitiishi bilanoq, bu ishga aralashishga ahd qildi.

– Hozir ayni vaqti, ularni sal qo'rqitib qo'yish kerak, – dedi u. – Yo'qsa, bu bezori-hakkalarim birovlarining buyumini o'marishga ravona bo'lishadi.

Ular tomning tarnovidan yurishib, bezorilar boloxonasi tomon yo'nalishdi. Mittivoy kalta, semiz oyoqchalarda shunday chaqqon sakrash mumkinligini xayoliga ham keltirmagandi: Karlsonga yetib yurish amri mahol edi, boz ustiga, u tomma-tom sakrash

mashqini olmagandi-da, lekin baribir do'stidan orqada qolmaslikka jon-jahdi bilan tirishardi.

– Bezori-hakkalar qabih odamlar, – dedi Karlson, bo'rtikdan bo'rtikka sakrarkan. – O'zimga biror narsa olguday bo'lsam, doim uning uchun besh ere to'layman, chunki men dunyoda eng halol odamman. Lekin bisotimdagi bor besh erelik tangalar hademay tugab qoladi, bundan buyon o'zimga biror narsa olmoqchi bo'lsam, unda nima qilaman?... Boshim qotib qoldi...

Fille bilan Rulle o'tirgan boloxona derazasining pardasi tushirilgan bo'lsa ham, lekin ochiq edi. U yerda qiyqiriq avjiga chiqqandi.

– Qani, ko'raylik-chi, nima sababdan bunchalik vaqtichog'liq qilishyaptikin, – dedi Karlson, deraza pardasini surib qo'yib, xonaga mo'ralarkan. Keyin o'rnini Mittivoyga bo'shatib berdi. Mittivoy ham Fille bilan Rulleni yaxshilab ko'rib oldi. Ular polga uzala tushib yotib olishgan bo'lib, oldilarida gazeta yozilgandi. Aftidan, ular gazetani o'qib, o'zlarini tutolmay qiyqirib kulishayotganga o'xshaydi.

– Bilasanmi, hech narsadan-hech narsa yo'q, o'n ming kronlik bo'lib qolish-a! – deb baqirardi Rulle.

Buning ustiga u shu yerda, o'zimizda, Vazastanda uchib yuribdi-ya! Bu shodiyona kun bilan meni tabriklab qo'y, Rulle! – Fille shunday deb baqirgancha ichagi uzilguday bo'lib kulardi.

– Menga qara, Fille, – dedi Rulle, – men bir yigitni taniyman, u o'n ming kronni jon-jon deb oladi, ha-ha-ha!

Mittivoy ularning nima haqda gaplashayotganlarini fahmlashi bilanoq qo'rquvdan rangi oqarib ketdi, Karlson bo'lsa qiqirlab kulib qo'ya qoldi.

– Menam bir yigitni bilaman, o'yin-kulgini yaxshi ko'radi, – dedi u va to'pponchani qo'lga oldi. Tomda gumburlab o'q ovozi yangradi. – Eshikni ochinglar, politsiya! – deb o'shqirdi Karlson.

Rulle bilan Fille dag'-dag' titrashib, o'rinlaridan sapchib tushirdi.

– Nulle, biz yo'qmiz! – deb baqirdi Fille. U «Rulle biz yo'qmiz» demoqchi edi, lekin qo'rqqan paytlarida u doimo harflarni almashtirib yuborardi.

– Tezroq, garderobga! – deb buyurdi u va ko‘z ochib-yumguncha ikkalovi kiyim shkafiga yashirinib, eshiklarini zichlab yopib olishdi.

– Fille bilan Rulle uyda yo‘q, ular biz uyda yo‘qmiz, biz ketganmiz, deb tayinlashgandi! – to‘satdan Fillening qo‘rquvdan qaltiragan ovozi eshitildi.

Karlson bilan Mittivoy orqalariga qaytishdi-da, yana pillapoyaga o‘tirib olishdi, lekin Mittivoy endi ilgarigiday xursand emasdi: u Karlsonning xavfsizligini ta‘minlash qanchalik mushkul ekanligi to‘g‘risida o‘ylardi, ayniqsa, Rulle va Fillega o‘xshagan yaramaslar shunday yonma-yon yashasa, bu osonmas. Buning ustiga, yana uylarida Bok xonim bilan Yulius amaki bo‘ladi-ya, ha, aytganday, buni Karlsonga aytish butunlay esidan chiqibdi-yu.

– Menga qara, Karlson... – deb gap boshladi, Mittivoy. Lekin Karlson uning gapiga quloq solmasdi. U bulochkalarni ketma-ket tushirib, ustidan ko‘kimtir stakanchadan sharbat ichardi, bir vaqtlar bu stakancha Mittivoyniki edi, uch oy burun, bundan oldingi tug‘ilgan kunida uni Karlsonga sovg‘a qiluvdi. Karlson stakanchani xuddi yosh bolalarday ikki qo‘llab ushlab olgandi, sharbatni ichib bo‘lganidan keyin uni yana yosh bolalarday polda yumalatib o‘ynay boshladi.

– Voy! – deb baqirib yubordi Mittivoy, chunki ko‘kimtir stakanchaning sinib qolishini hecham istamasdi.

Baxtiga u sinmadi: Karlson oyog‘ining katta barmoqlarida ustalik bilan ushlab turardi. Gap shundaki, Karlson boshmog‘ini yechib qo‘ygandi, yirtiq, yo‘l-yo‘l paypoqlaridan yo‘g‘on barmoqlari do‘ppayib chiqib turardi.

– Menga qara, Karlson... – deb yana gap boshladi Mittivoy. Lekin Karlson o‘sha zahoti uning gapini shartta bo‘ldi:

– Mana sen, sanashni bilasan. Modomiki, mening butun turish-turmushimni o‘n ming kronga baholashgan ekan, katta barmoqlarim qancha turarkin, bir hisoblab ko‘r-chi.

Mittivoy kulib yubordi.

– Bilmadim. Nima, barmoqlaringni sotmoqchimisan?

– Ha, – dedi Karlson. – Senga. Arzon-garovga sotaman, chunki ular yap-yangi. Lekin, menimcha... – deb gapida davom etdi, – unchalik toza bo‘lmasa kerak.

– Voy, tentag-ey, – dedi Mittivoy, – axir, katta barmoqlarsiz qanday yurasan?

– Hecham ularsiz yurmoqchi emasman-da, – deb javob qildi Karlson. – Ular o'zimda qolaveradi, lekin seniki bo'lib hisoblanadi-da. Go'yo men ularni sendan qarzga olgan bo'laman.

Karlson katta barmoqlarining qanchalik yaxshi ekanligini Mittivoyni o'zi ko'rib ishonch hosil qilsin uchun oyoqlarini uning tizzasiga qo'ydi-da, dedi:

– Axir, o'zing bir o'ylab ko'r-a, har gal ularni ko'rganingda o'zingga-o'zing: «Mana shu do'mboq katta barmoqlari meniki» deysan. Bu ajoyib ish emasmi?

Lekin Mittivoy bunday bitimdan qat'iy bosh tortdi. U g'aladonida yotgan bor pulini – besh erelik tangalarini Karlsonga shunday ham berishga va'da qildi. U Karlsonga aytishi kerak bo'lgan narsani tezroq gapirsam derdi.

– Menga qara, Karlson, – dedi u, – qani, top-chi, oyim bilan dadam sayohatga ketganlarida menga kim ko'z-quloq bo'lib turadi?

– Menimcha, dunyoda bolalarga eng yaxshi ko'z-quloq bo'lib turadigan odam, – dedi Karlson.

– Nima, sen o'zingni nazarda tutayapsanmi? – deb so'radi Mittivoy har ehtimolga qarshi, holbuki, Karlson o'zini nazarda tutayotganligi shundog'am aniq-ravshan edi.

Karlson «ha», degandek bosh silkib qo'ydi.

– Agar sen mendan ham yaxshi ko'z-quloq bo'ladigan odamni ko'rsatsang, besh ere olasan.

– Bok xonim, – dedi Mittivoy. U bolalarga eng yaxshi ko'z-quloq bo'ladigan odam shunday yonginasida turganida, oyisi Bok xonimni chaqirganini Karlson bilsa jahli chiqsa kerak, deb qo'rqqandi, yo'q, aksincha, sira kutilmaganda, u ko'zlari chaqnaib, xursand bo'lib ketdi.

– Hoy-xo'p! – Bor aytgan gapi shu bo'ldi. – Hoy-xo'p!

– Xo'sh, bu «hoy-xo'p»ing bilan nima demoqchisan? – deb so'radi Mittivoy negadir ich-ichidan cho'chib.

– «Hoy-xo'p» deganim, bu «hoy-xo'p» demoqchi bo'lganimda, – deb ishontirmoqchi bo'ldi Karlson, lekin ko'zlari shubhali yaltirab ketdi.

– Ha, aytmoqchi, Yulius amaki ham keladi, – deb gapida davom etdi Mittivoy. – U doktor bilan maslahatlashib, davo-  
lanishi kerak, chunki ertalablari a'zoyi badani uvushib qolayot-  
ganmish.

Mittivoy Karlsonga Yulius amakining tabiati og'irligi, oyisi  
bilan dadasi oq kemada sayohat qilib kelgunicha Yulius amaki  
ularnikida turishi, Bosse bilan Betan esa yozgi ta'til kunlarida  
har tomonga jo'nab ketishi to'g'risida gapirib berdi.

– Ochiq gap, buyog'i nima bo'lishini bilmayman, – dedi  
Mittivoy tashvish-la.

– Hoy-xo'p! Ular ikki haftani juda yaxshi o'tkazishadi, eslari-  
dan chiqmaydi, menga ishonaver, – dedi Karlson.

– Sen kimni gapiryapsan? Oyim bilan dadamnimi yo Bosse  
bilan Betannimi? – deb so'radi Mittivoy.

– Uy zolimasi bilan Yulius amakini gapiryapman, – deb  
tushuntirdi Karlson.

Mittivoy battar tashvishga tushdi, lekin Karlson Mittivoyni  
tinchitish uchun uning chakkasiga urib qo'ydi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! Ular bilan juda yayrab-  
yashnab o'ynaymiz, chunki biz ikkovimiz dunyodagi eng mehri-  
bon, ochiqko'ngil odamlarmiz... Har holda, men shunday odam-  
man.

U shunday dedi-da, Mittivoyning qulog'i tagida to'pponchani  
qarsillatib otdi, Mittivoy bexos joyida sakrab tushdi.

– Bechora Yulius amaking ham doktorga borib yurmaydi, –  
dedi Karlson. – Uni o'zim davolayman.

– Sen-a? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib. – Axir, sen  
Yulius amakini qanday davolashni bilasanmi?

– Men bilmaymanmi, men-a? – dedi Karlson jahli chiqib. –  
Va'da beraman, u birpasda otday bo'lib ketadi... Buning uchun  
uchta protsedura bor.

– Qanaqa protsedura ekan? – deb so'radi Mittivoy ishonqi-  
ramay.

– Qitiqlash, jahlini chiqarish, tentaklik qilish, – dedi Karlson  
jiddiy. – Boshqa dori-darmonning keragi yo'q, men bunga kafil-  
man!

Mittivoy pastga tashvishlanib qaradi, chunki ko'pchilik odamlar derazalaridan boshlarini chiqara boshlashdi – aftidan, odamlar kim otganligini bilmoqchi bo'lishsa kerak. Shu payt u Karlsonning to'pponchani yana o'qlayotganini ko'rib qoldi.

– Qo'y, o'qlama, Karlson, o'tinib so'rayman, – deb yalinib-yolvordi Mittivoy. – Boshqa otmagin!

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik, – dedi Karlson. – Menga qara, – deb so'zida davom etdi u bir zum jim turgandan keyin, – hozir bir narsani o'ylab qoldim. Sen nima deysan, uy zolimasining a'zoyi badani ham uvushmasmikina?

Lekin Mittivoy javob berishga ulgurmagan ham ediki, Karlson qiyqirib to'pponcha ushlagan qo'lini baland ko'tardi-da, qarsilatib otib qoldi.

Vag'illagan o'q ovozi tomlar osha uchib, qayerdadir so'ndi. Qo'shni hovlilarda qo'rqib ketgan, jahli chiqqan odamlarning g'ovur-g'uvur ovozlari eshitildi, kimdir politsiyani chaqirish kerak, deb o'shqirdi. Mittivoyni endi toqati toq bo'ldi. Lekin bu olatasir Karlsonning parvoyiga kelmas, u oxirgi bulochkani xotirjam kavshab o'tirardi.

– Namuncha qiy-chuv ko'tarishmasa? – deb hayron bo'lardi u. – Nima, ular bugun tug'ilgan kunim ekanligini bilishmaydimi?

U bulka nonning so'nggi bo'lagini yutdi-da, sho'x bir qo'shiqni boplab kuylab yubordi, u bu yoz oqshomida yoqimli yangrardi:

Gurla gulxan,  
O'ynaymiz,  
Gir aylanib kuylaymiz:  
Chivi-chivi, chirik-chirik,  
Dirk-dirk  
Tarala.  
Tavallud ayyom esa  
Oftob to'kma xon insa  
Xo'plar...  
Barala:  
Chivi – yovuz,  
Qovuz-qovuz!<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> She'rlarni Erkin Holiqov tarjima qilgan.

**O**'sha oqshom, ya'ni oyisi bilan dadasi sayohatga jo'nab ketgan kuni qiyalab yoqqan yomg'ir deraza oynalarini tinimsiz chertib, tarnovlardan shovullab oqib tushardi. Ularning ketishidan rosa o'n daqiqa burun shilta-yu shalabbo hamda g'azabnok Bok xonim xonaga o'qday otilib kirdi.

– Hayriyat-e! – deb shivirladi oyisi. – Axiyri keldi-ya!

U Bok xonimni kuni bilan ko'zi to'rt bo'lib kutgani uchun ham hozir ancha asabiy edi, albatta, lekin kaltafahm Bok xonim buni hatto sezmedi.

– Oldinroq kelishimning iloji bo'lmadi. Hammasiga Frida aybdor, – dedi u xo'mrayib.

Oyisi Bok xonim bilan ko'p narsalar xususida gaplashib olishi kerak edi. Lekin endi bunga vaqt qolmagandi: tashqarida ularni taksi kutardi.

– Eng muhimi, bolaga yaxshi qarasangiz bo'lgani, – dedi oyisi ko'zlari yoshlanib.

– Men bor ekanman, unga hatto pashshayam ozor bermaydi, – deb ishontirdi Bok xonim. Shunda dadasi, bunga ishonchim komil, dedi.

Dadasi uyda hamma narsa ko'ngildagiday bo'lishiga qattiq ishonardi. So'ngra oyisi bilan dadasi xayrlashish oldidan Mittivoyni bag'rilariga bosishdi, keyin maydonchaga chiqishdi-da, liftga kirib g'oyib bo'lishdi...

Mana, Mittivoy Bok xonim bilan yolg'iz qoldi. Gavdasi beso'naqay, qo'pol, asabiylashgan Bok xonim oshxonadagi stol atrofida o'tirib, kattakon qizg'ish qo'llari bilan ho'l sochini silabsiypab qo'yardi. Mittivoy unga hadiksirab qaradi-da, o'zining xayrixohligini bildirish uchun iljaygan bo'ldi. Hali ham esida, Bok xonim ularnikida birinchi bor turganida Mittivoy undan qo'rqardi, avvaliga uni juda yomon ko'rib yurdi. Lekin hozir sharoit butunlay boshqacha, uning bu yerdaligiga, uydaligiga qaytaga xursand bo'lishi kerak. Garchi, Bok xonimning Karlson bilan uchrashuvi hech qanday yaxshilikdan darak bermasa-da,

Mittivoy bu uy zolimasining ularnikida turishga rozi bo'lgani uchun ham undan minnatdor edi. Aks holda, oyisi Karlsonga ko'z-quloq bo'lib tursin, deb uning uyda qolishiga sira ham rozi bo'lmasdi, ha, bu turgan gap. Shuning uchun ham Mittivoy Bok xonim bilan avvalboshdanoq shirinso'z bo'lgisi keldi, binobarin:

— Fridaning ahvoli qalay, — deb so'radi u muloyimlik bilan. Bok xonim javob bermay, to'ng'illab qo'ya qoldi. Frida Bok xonimning singlisi edi. Mittivoy uni umrida ko'rmagan, lekin u haqda ko'p eshitgandi, hatto keragidan ortiqcha. Bularni albatta Freygaten ko'chasidagi uyda singlisi Frida bilan birga yashaydigan Bok xonimning o'zidan eshitgandi, lekin, aftidan, ular unchalik totuv turishmasdi. Mittivoy Bok xonimning o'z singlisidan xursand emasligini, uning fe'l-atvorini kibr-havoli va g'alati deb hisoblashini tushundi. Hammasi Fridaning televideni-yeda chiqib, arvohtar haqida gapirganidan boshlandi, Bok xonim esa buni hecham kechirolmasdi. To'g'ri, keyinchalik uning o'zi ham televideniya chiqib, qayla tayyorlashdagi o'zining ajoyib usuli to'g'risida butun Shvetsiyaga gapirib berdi. Lekin bu Fridani o'ziga bo'ysundirish uchun kamlik qildi: singlisi hamon o'zini nokamtar va g'alati tutardi. Shuning uchun ham Bok xonim Mittivoyning: «Fridaning ahvoli qalay?» degan savoliga o'zicha po'ng'illab qo'ya qoldi.

— Menimcha, hammasi joyida, — deb axiyri javob qildi uy zolimasi, po'ng'illab bo'lganidan keyin. — Bechora o'ziga qalliq topibdi.

Mittivoy bunday holda nima deyishini aniq bilmasdi, lekin, baribir, albatta nimadir deyishi kerak, axir, u o'zini g'amxo'r qilib ko'rsatmoqchi edi-da. Shuning uchun ham u:

— Bok xonim, sizning ham qallig'ingiz bormi? — deb so'radi. Lekin uning qovun tushirgani aniq edi, chunki Bok xonim o'rnidan sapchib turganidan, stolni qattiq surganidan ustidagi idishlar jaranglab ketdi.

— Xudoga shukurki, yo'q! — dedi u. — Istamayman ham. Axir, hamma ham Fridaday tannoz bo'lavermaydi-ku.

U birdan gapirishdan to'xtab, jonbozlik bilan idish-tovoqlarni yuva boshladiki, suv har tomonga sachrardi. Keyin nimadir esiga tushib, Mittivoyga tashvishli nigoh tashladi-da:

– Menga qara, ishonamanki, o'tgan gal sen bilan birga o'ynagan o'sha beodob semiz bola endi kelmayotgandir? – deb so'radi.

Tomda yashovchi Karlsonning chiroyli, aqlli, tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to'lgan erkakligini Bok xonim sira tushunolmayapti-da. U Karlsonni Mittivoyning tengdoshi, maktabdosh o'rtog'i, oddiy bir sho'x bola, deb hisoblardi. O'sha oddiy sho'x bolaning negadir ucha olishi uni hecham ajablantirmasdi. U bunaqangi motorchani pul bo'lsa o'yinchoq magazinidan sotib olish mumkin, deb o'ylardi, hozir bolalarni juda erkalatib yuborishganda, deb javragani-javragandi. «Bu ketishda hademay hali maktabga bormagan bola ham Oyga uchadigan bo'ladi», – derdi u. Mana, endi u Karlsonni eslab qoldi-da, uni «beodob, semiz bola» deb atadi. Bu gap Mittivoyga hecham yoqmadi.

– Karlson hecham semiz emas... – deb endi gapira boshlagan ham ediki, eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi.

– O', ana Yulius amakiyam keldi! – dedi Mittivoy va eshikni ochgani chopib ketdi.

Lekin ostonada Yulius amaki emas, Karlson turardi. Uning ust-boshi jiqqa ho'l, sirqib tushgan suv polda xalqob bo'lib qolgandi, ko'zlari esa ta'na aralash boqardi.

– Derazani ochiq qoldirish – kimningdir esiga kelmagani uchun qayoqlarga uchib bormadim! – dedi Karlson tutaqib.

– Axir o'zing, yotadigan vaqtim bo'ldi deding-ku! – o'zini oqlagan bo'ldi Mittivoy, chunki Karlson chindanam shunday degandi. – To'g'ri, bugun ham kelib qolishing mumkinligini o'ylamabman.

– Har holda, noumid bo'lmasliging kerak edi-da, – bo'sh kelmadi Karlson. – Axir, aziz Karlsoncham birdan kelib qolsa-ya, ha, qanday yaxshi bo'lardi-ya, ha, ha, kirib kelsa-ya, chunki uy zolimasini ko'rgisi kelib qolar, deb o'ylasang bo'lardi-yu. Ha, shuni o'ylashing kerak edi.

– Nima, sen chindanam uni ko'rmoqchimisani? – deb so'radi Mittivoy qo'rquv aralash.

– Hey-xo'p! – qichqirdi Karlson. – Bo'lmasam-chi!

Mittivoy Karlsonning Bok xonim bilan uchrashuvini uzoqqa cho'za olmasligini juda yaxshi tushunardi-yu, lekin buning bi-

rinchi kechayoq yuz berishiga hecham tayyor emasdi. U hozir Karlson bilan gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi, lekin Karlson xuddi izni topgan ov itiday hadeb oshxonaga talpinardi. Mittivoy bari-bir uning yengidan ushlab tortdi.

– Menga qara, Karlson, – dedi u ishonchliroq qilib gapirishga urinib, – axir, u seni mening maktabdosh o'rtog'im deb yuribdi, menimcha, bu yaxshi, mayli, bundan keyin ham shunday deb o'ylayversin.

Karlson birdan serrayib qoldi, keyin har gal biror yangi narsani o'ylab topganida bo'lganidek jo'shib-toshib ketdi.

– U mening maktabga borishimga chindanam ishonadimi-a? – deb takror so'radi sevinchini yashirolmay va oshxonaga otildi.

Bok xonim kimningdir yaqinlashib kelayotgan oyoq tovushini eshitdi. U Yulius amakini kutayotgandi, keksa janobning yo'lakdan bunday shaxdam qadamlar tashlab kelayotganidan biroz ajablendi ham. Sabri chidamay eshikdan ko'zini uzmasdi: u o'zicha Yulius amaki juda basavlat, orasta odam bo'lsa kerak, deb o'ylardi. Eshik sharaqlab ochilib, oshxonaga Karlson o'qday otilib kirganida, u xuddi ilon ko'rganday qichqirib yubordi.

Karlson uning vahimaga tushganini payqamadi ham. U ikki sakrab Bok xonimning oldiga bordi-da, uning norozilikdan burishgan yuziga tikildi.

– Sinfimizda birinchi o'quvchi kimligini bilasanmi? – deb so'radi Karlson. – Qani top-chi, kim hammadan yaxshi hisoblashni yozishni biladi, yana... Xullas, hammadan yaxshi kim?

– Uyga kirganda ko'rishish kerak, – dedi Bok xonim. – Sizlarda birinchi o'quvchi kimligi meni mutlaqo qiziqtirmaydi. Har holda, sen bo'lmasang kerak, bu shundayam ravshan.

– Bu gaplaring uchun rahmat, – dedi Karlson va tumsayib oldi, lekin chetdan qaralganda, u o'ylanib o'tirgandek bo'lib ko'rinardi. – Har holda, hisobda mendan zo'ri yo'q, – dedi u nihoyat ma'yus va yelkalarini uchirib qo'ydi. – E, parvo qilma, bu ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku, – deb qo'shib qo'ydi va birdan xursand bo'lib dik-dik sakray boshladi. U Bok xonim atrofida gir-gir aylanib, allanimalar deb g'o'ldirardi, asta-sekin qo'shiqqa o'xshash bir nima tug'ildi:

Gurla gulxan,  
O'ynaymiz,  
Gir aylanib kuylaymiz.

– Kerakmas, Karlson, qo'y, kerakmas, – deb Mittivoy uni tinchitmoqchi bo'lardi, lekin foydasi yo'q edi.

Chivi-chivi, chirik-chirik,  
Dirk-dirk,  
Tarala, –

deb zavq-shavq bilan kuylardi Karlson. U «tarala» degan so'zga yetganda avvaliga o'q otildi, ketidan quloqni teshgudek qichqiriq yangradi. Karlson to'pponchasidan o'q uzdi, qichqirgan Bok xonim edi. Mittivoy avvaliga. Bok xonimni hushidan ketdi deb o'yladi, chunki u o'zini stulga tap etib tashladi-da, ko'zlarini yumganicha anchagacha indamay o'tirdi, lekin Karlson:

Chivi – yovuz,  
Qovuz-qovuz!

deb yana ashulasini boshlashi bilan u ko'zlarini ochdi-da:

– Hozir men senga chivi – yovuz nimaligini ko'rsatib qo'yaman, yaramas bola, bir umr eslab yurasan, – dedi jahl bilan.

Karlson unga javob ham qilmadi, lo'ppi ko'rsatkich barmog'i bilan Bok xonimning iyagi tagidan changakday ilib oldi, keyin yoqasiga qadalgan chiroyli to'g'nag'ichni bigiz qilib ko'rsatdi.

– Chiroyli narsa, – dedi u. – Uni kimdan tortib olding?

– Karlson, bas qil, o'tinib so'rayman! – deb qichqirdi Mittivoy qo'rqib, chunki u Bok xonimning qanchalik g'azabga minganini ko'rib turardi.

– Sen uyat... nomus degan narsani bilmas ekansan, – dedi u tutilib, so'zlarni arang topar ekan, keyin o'shqirdi: – Qorangni o'chir! Eshityapsanmi? Qorangni o'chir, deyapman.

– Tinchlan! – dedi Karlson. – Men shunchaki so'radim-da, odob bilan savol berganingdan keyin, odob bilan javob olishingga umid qilasan.

– Jo'na! – deb baqirdi Bok xonim.

– Birinchidan, men bir narsani aniqlab olmoqchiman, – dedi Karlson. – Ertalablari badaning uvushishini sezmayapsanmi? Agar sezsang, seni davolashimni xohlaysanmi?

Bok xonim Karlsonga otish uchun biror og'ir narsa qidirib oshxonaga ko'z yugurtirib chiqdi, Karlson xizmatga tayyor odamday shkaf oldiga chopib keldi-da, ichidan gilam qoqqichni oldi-da, uni uy zolimasining qo'liga tutqazdi.

– Hey-xo'p! – deb qichqirdi u, yana oshxona ichida gir aylanib choparkan. Hey-xo'p, mana endi nihoyat hamma narsa boshidan boshlanadi.

Lekin Bok xonim gilam qoqqichni xonaning bir burchagiga uloqtirdi. U o'tgan safar qo'lida gilam qoqqichi bilan uning orqasidan quvib qanchalik charchagani hali-hali esida, o'sha holni yana boshidan kechirishni istamasdi.

Mittivoy, bu ishlarning oxiri voy bo'lmasa edi, deb qo'rqardi. Bok xonim aqlidan ozmagunicha Karlson xonani necha bor aylanib chiqishini o'zicha chamalab ko'rdi. «Unchalik ko'p aylanolmaydi», – degan qarorga keldi Mittivoy, u tushundiki, hozir eng muhimi – Karlsonni oshxonadan tezroq olib chiqib ketish. Karlson uning oldidan «hey-xo'plab» o'n birinchi marta aylanib o'tayotganida Mittivoy uning yoqasidan mahkam ushlab oldi.

– Karlson, – deb yalinib-yolvordi u, – o'tinib so'rayman, yur, mening xonamga!

Karlson istar-istamas uning orqasidan ergashdi.

Nihoyat, unga zavq-shavq baxsh eta boshlaganimda bu mashqlarimizni to'xtatish bema'nilik-ku! – deb to'ng'illadi u. – Yana bir necha daqiqa mashq qilsak, u ham dengiz arsloniday tetik, sho'x, o'ynoqi bo'lardi, bunga ishonchim ko'mil!

Karlson, odatdagiday, birinchi navbatda shaftoli urug'ini kovlab olib ko'rdi, uning qancha o'sganligini bilmoqchi edi. Mittivoy ham uni ko'rish uchun Karlsonning yoniga keldi, uning yelkasiga qo'lini qo'ygandan keyingina bechora Karlsonning suvga tushgan bo'lkaday ivib ketganini sezdi – aftidan, u jalada uzoq uchganga o'xshaydi.

– Nahotki sovuq yemasang, axir, hammayog'ing ho'l-ku? – deb so'radi Mittivoy.

Karlson, shu vaqtgacha bunga e'tibor bermaganga o'xshaydi, hozir birdan esiga tushib qoldi.

— Albatta sovuq yedim, — dedi u. — Lekin bu haqda bit-ta-yarimta qayg'urarmidi? Eng yaxshi do'sting suvga tushgan bo'lkaday ivib kelsa, sovuqdan tishi-tishiga tegmasa-yu, bunga bitta-yarimta parvo qilarmidi? Biror kimsa uning ho'l ust-boshini yechib tashlashga majbur qilarmidi, ustiga yumshoq, chiroyli, cho'milganda kiyadigan xalatni kiydirib qo'yarmidi? Kimdir oshxonaga chopib kirib, uning uchun shokolad pishirib berarmidi, yog'li shirin bulochkadan ko'proq olib kelib berarmidi, majburan o'ringa yotqizib, tezroq uxlashi uchun chiroyli, mungli allani aytarmidi?.. Birontasi o'z do'sti haqida g'amxo'rlik qildimi? — Karlson balandparvoz gaplarini shu tariqa tugatdi-da, Mittivoyga ta'nali qarab qo'ydi.

— Yo'q, hech kim g'amxo'rlik ko'rsatgani yo'q, — deb tan oldi Mittivoy, uning ovozi qaltirab, yig'lab yuborishiga sal qoldi.

Mittivoy, Karlsonning fikricha, bunday paytda eng yaxshi do'sti uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini qilish uchun oyog'ini qo'lga olib chopdi. Eng qiyini Karlson uchun Bok xonimdan shokolad bilan yog'li shirin bulochka olish edi, lekin unga qarshilik ko'rsatgani Bok xonimning kuchi ham, vaqti ham qolmagandi, chunki u har daqiqa kelib qolishi mumkin bo'lgan Yulius amaki uchun jo'ja qovurardi.

— Agar issiq shokolad ichging kelsa, o'zingga o'zing pishirib ol, — dedi u.

Mittivoy hammasini qoyil qilib uddaladi. Oradan bir necha daqiqa o'tar-o'tmas, oq xalat kiyib olgan Karlson Mittivoyning ko'rpa-to'shagida o'tirib qaynoq shokolad ichar, ishtaha bilan shirin bulochka yerdi, vannaxonada esa uning ko'ylagi, shimi, ich kiyimlari, paypog'i, hatto botinkasi ham quritish uchun osib qo'yilgandi.

— Menga qara, — dedi Karlson, — ajoyib, mungli allani aytmasang ham bo'ladi, yaxshisi, tepamda mijja qoqmay kechasi bilan o'tirib chiq.

— Kechasi bilan? — so'radi Mittivoy.

Karlson javob berolmadi. U xuddi shu payt bulochkani butunicha og'ziga tiqqan edi, shuning uchun «ha» degandek bosh

irg'ab qo'ya qoldi. Bimbo tinimsiz akillardi. Unga Karlsonning Mittivoyning o'rnida yotgani yoqmasdi. Lekin Mittivoy Bimboni qo'liga oldi-da, qulog'iga:

– Men divanga yotishim ham mumkin, tushundingmi? Savatingni ham o'sha yerga olib borib qo'yamiz, – deb shivirladi.

Bok xonim oshxonada nimalarnidir taraq-latar, Karlson buni eshitib, alam bilan dedi:

– U mening birinchi o'quvchi ekanligimga ishonmadi.

– Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, – dedi Mittivoy. U Karlsonning na yolchitib o'qiyolmasligini, na yozolmasligini, na hisoblayolmasligini allaqachon payqagandi, yana Karlsonning Bok xonimga, hammasini qoyil qilaman, deb maqtanganini aytmay-sizmi!

– Sen mashq qilishing kerak, – dedi Mittivoy. – Qo'shuvni sal o'rgatib qo'yaymi, xohlaysanmi?

Karlson pishqirib yuborgandi, shokolad tomchilari har tomon-ga sachrab ketdi.

– Xohlaysanmi, seni sal kamtar bo'lishga o'rgatib qo'yaymi? Nahotki sen, meni o'shani, qo'... bilmaydi deb o'ylasang... Qanday atalardi?

Ha, aytmoqchi, og'zaki hisoblashda mashq qilish uchun bari-bir ularning vaqti ham yo'q edi, chunki xuddi shu payt eshik qo'ng'irog'i uzoq jiringladi. Mittivoy, buning nihoyat Yulius amaki bo'lishini darrov fahmladi-yu eshikni ochgani o'qday otildi. U Yulius amakini bir o'zi kutib olishni xohlardi. Mittivoy, Karlson bu payt uning o'rnida bemalol yotaversa bo'ladi, deb hisoblardi. Lekin Karlson bunday deb hisoblamasdi. U xalatining etagi oyoqlariga o'ralashib allaqachon Mittivoyning orqasida turardi.

Mittivoy eshikni lang ochib yubordi, ostonada chindanam ikki qo'lida ikki chamadon ko'tarib olgan Yulius amaki turardi.

– Xush kelibsiz, Yulius amaki... – dedi Mittivoy, lekin so'zini oxirigacha tugata olmadi, chunki shu payt kuchli o'q ovozi yangradi-da, Yulius amaki xuddi o'q yegan odamdek polga gurs etib yiqildi.

– Karlson! – deb shivirladi Mittivoy fig'oni falakka chiqib. Shu to'pponchani Karlsonga sovg'a qilganiga hozir juda-juda afsuslandi! – Nega bunday qilding?

– Bu salyut-ku! – deb qichqirdi Karlson. – Muhtaram mehmonlar, aytaylik, prezident yoki qirollar kelganida ularni hamisha salyut bilan kutib olishadi.

Mittivoy hozir o'zini shu qadar baxtsiz his qildiki, ho'ngrab yig'lab yuborishga ham tayyor edi. Bimbo tinimsiz akillar, o'q ovozi eshitib chopib kelgan Bok xonim ham oh-voh qilib, qo'llarini ishqalar, kiraverishdagi kichkina gilamcha ustida xuddi ag'darilgan daraxtday qimir etmay yotgan bechora Yulius amaki ustiga engashganicha yig'lardi. Faqat Karlsongina hamon pinagini buzmay jim o'tirardi.

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik, – dedi u. – Hozir uni xushiga keltiramiz.

U Mittivoyning oyisi gullarga suv quyadigan gul chelakni oldi-da, undan Yulius amakining ustiga suv quya boshladi. Bu chindanam yordam berdi, Yulius amaki sekin ko'zlarini ochdi.

– Yomgir, yomg'ir, – deb g'o'ldiradi u hali ham esi kirarli-chiqarli bir holatda. Lekin boshi tepasida engashib turgan odamlarning tashvishli yuzlarini ko'rganidan keyin o'ziga keldi. – Nima bo'ldi o'zi? – deb so'radi u hech narsaga tushunolmay.

– Salyut beriluvdi, – deb tushuntirdi Karlson, – endi ko'plar salyutdan keyin mana shunday dush ham qabul qilishadi.

Bu orada Bok xonim Yulius amakiga parvona bo'ldi. Uni sochiq bilan yaxshilab artganidan keyin, mehmon turadigan xonaga boshlab ketdi. O'sha yerdan Bok xonimning ovozi eshilib turardi: u Yulius amakiga, bu semiz bola Mittivoyning maktabdosh o'rtog'i ekanligini, har safar qandaydir bema'ni sho'xliklar qilishini tushuntirardi.

– Karlson! – dedi Mittivoy. – Endi hech qachon salyut uyushtirmayman, deb va'da ber.

– Xotirjam bo'linglar, – deb to'ng'illadi Karlson qosh-qovog'i osilib. – Mehmonlarini tantanavor, xushchaqchaqlik bilan kutib olishlariga yordam bergani ataylab kelsang-u hech kim buning uchun senga rahmat aytmasa, ikki yuzingdan o'pmasa, sen

dunyoda eng quvnoq yigitsan, deb zavq-shavqqa to'lib baqirib-chaqirmasa-ya! Hech kim! Hammang ham bo'sh, nimjonsizlar, salga hushlaringdan ketib yiqilasizlar! Yig'loqisizlar... Shunaqa odamsizlar!

Mittivoy unga javob bermadi. U Yulius amakining o'z xonasida allanimalar deb ping'illayotganiga quloq solib turardi. Matras ham qattiq, karavot ham kalta, ko'rpa ham juda yupqa... Xullas, uyda Yulius amakining paydo bo'lgani darhol sezildi-qoldi.

– U hech qachon xursand bo'lmaydi, – dedi Mittivoy Karlsonga. Faqat o'zidan ko'ngli to'q.

– Bu odatini birpasda yo'qotamiz, – dedi Karlson, – faqat sen yaxshilab iltimos qilgin-da.

Lekin Mittivoy Karlsondan bitta narsani: Yulius amakini o'z holiga qo'yishni yaxshilab iltimos qildi.

## KARLSON MITTIVOYNIKIDA TUNAB QOLDI

**B**ir soatdan keyin Yulius amaki stol atrofida o'tirib, qovurilgan jo'jani pok-pokiza tushirar, Bok xonim, Mittivoy, Karlson va Bimbo esa uning yonida ko'zlarini undan uzishmay turishardi. «Qiroлга o'xshaydi-ya», o'yladi Mittivoy. Qirollar ovqatlanayotganlarida saroy a'yonlari ular atrofida ko'zlarini uzmay qarab turishlari to'g'risida muallimlari maktabda hikoya qilib berishgandi.

Yulius amaki semiz, ko'rinishdan ancha takabbur, o'ziga bino qo'ygan odam edi. «Keksa qirollarning ko'rinishi ham, hoynahoy, shunday bo'lsa kerak», deb o'yladi Mittivoy.

– Kuchukni yo'qotinglar! – dedi Yulius amaki. – Mittivoy, o'zing bilasan-ku, itlarga toqatim yo'q.

– Lekin Bimboning hecham zarari tegmaydi, – deb e'tiroz bildirdi Mittivoy. – U, akillamaydi, umuman, yuvosh, beozor.

Yulius amaki yuzini istehzoli bujmaytirdi, ha, aytmoqchi biror ko'ngilsiz gap aytmoqchi bo'lsa doim shunday qiladi.

– Ha, zamon juda o'zgarib ketdi, – dedi u. – Kichkina bolalar buyurganingni qilish u yoqda tursin, hatto kattalarga gap qaytaradi. Hozir shunaqa bo'lib qoldi, bu menga hecham yoqmaydi.

Karlson shu vaqtgacha ko'zini qovurilgan jo'jadan uzolmagan-di, lekin bu gaplardan keyin chuqur o'yga tolib, Yulius amakiga uzoq tikilib qoldi.

– Yulius amaki, – dedi nihoyat Karlson, – qani aytchi, senga biror kimsa, qachonlardir, sen chiroyli, aqlli, tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to'lgan erkaksan deganmi?

Yulius amaki shunday maqto'v gaplarni eshitaman, deb sira o'ylamagandi. U juda xursand bo'ldi – buni sezdirmaslikka qancha urinmasin, baribir ko'rinib turardi. U faqat kamtarona jilmaydi-da:

– Yo'q, menga bu gapni hech kim, hech qachon aytmagan, – dedi.

– Demak, aytmagan-a? – deb o'ychanlik bilan takror so'radi Karlson. – Unday bo'lsa, nega endi bunday bema'ni fikr miyangga kelib qoldi?

– Karlson, bas qil... – dedi Mittivoy ta'na aralash, chunki u, Karlson chindanam o'zini yomon tutyapti, deb hisoblardi.

Lekin endi Karlson astoydil xafa bo'ldi.

– «Karlson, bas qil, Karlson bas qil, Karlson, bas qil!» emish. Sendan faqat shu gapni eshitaman, xolos! – dedi u jahl bilan. – Nega endi sen doim gapimni bo'lasan? Hecham yomon qiliq qilayotganim yo'q-ku.

Yulius amaki Karlsonga xo'mrayib qarab qo'ydi. Keyin, bu bola e'tibor berishga arzimaydi, deb o'yladi shekilli, yana jo'jani yeyishga tutindi. Bok xonim esa nuqul ovqatni uni oldiga surib, yana bir bo'lagini yeyishini iltimos qilardi.

– Qalay, mazali bo'ptimi? – deb so'radi.

Yulius amaki jo'janing oyog'ini tishlari bilan mahkam tishladi-da, keyin huddi mayna qilayotgandek dedi:

– Ha, rahmat! Lekin bu jo'janing yotganigayam besh yilcha bo'lgandir, buni aniqlashimga tishlarim yordam beryapti.

Bok xonim qizarib ketdi, alam qilganidan peshonasi tirishdi.

– Bunaqa jo'janing umuman tishi bo'lmaydi, – dedi u ranjib. Yulius amaki Bok xonimga yana ham istehzoli qarab qo'ydi.

– Uniki bo'lmasa, mening tishim bor, – dedi u.

– Faqat kechasi emas-da, – deb aniqlik kiritdi Karlson. Mittivoy qisqichbaqaday qizarib ketdi. Axir, u Yulius amaki ux-

laganida, uning tishlari karavot yonidagi tumbochka ustida suv solingan stakanda yotishini Karlsonga gapirib bergandi-da.

Baxtiga, o'sha payt Bok xonim Yulius amakining jo'jani qattiq deganiga hech chidayolmay alamidan ho'ngrab yig'lab yubordi. Bok xonim uchun uning pazandalik san'atini tan olmaslikdan ham og'ir haqorat yo'q edi, shuning uchun ham u hozir o'ksib yig'lardi.

Yulius amaki, Bok xonim bu gapni bunchalik ko'ngliga yaqin olar, deb o'ylamagandi, albatta. U taom uchun shosha-pisha minnatdorchilik bildirib, stol atrofidan xijolat tortib turdi-da, borib tebranma kursiga o'tirdi, gazetani ochib, yuzini hammadan to'sib oldi.

Karlson unga darg'azab bo'lib tikildi.

— Qanday yaramas odamlar bor-a! — dedi u va Bok xonimning oldiga chopib kelib, uni yelkasiga qoqa boshladi. — Hechqisi yo'q, parvo qilma, azizim, — derdi u Bok xonimni yupatishga urinib, — jo'ja qattiqmishmi — bu arziyas narsa-yu, ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku. Jo'jani qovurishni shu vaqtgacha o'rganolmagan bo'lsang, nima, sen aybdormisan?

Bok xonim Karlsonni kuchining boricha itarib yuborgan edi, u koptokday yumalab borib, Yulius amakining tizzasiga o'tirib qoldi.

— Hey-xo'p! — deb qiyqirdi Karlson va Yulius amaki es-hushini yig'gunicha g'ujanak bo'lib yotib oldi-da, mamnun kulimsirab dedi: — Kel, o'ynaymiz, sen bobo, men nevara bo'laman! Menga ertak aytib bergin, lekin judayam vahimali bo'lmasin, yo'qsa, qo'rqaman.

Yulius amakining hecham Karlsonga buva bo'lgisi yo'q edi, buning ustiga, gazetada qiziq bir maqolaga ko'zi tushib qolgandi. U uzoq o'ylab o'tirmadi-da, Karlsonni yoqasidan dast ko'tarib, polga qo'yib qo'ydi. U Bok xonimga o'girildi-da, baland ovozda:

— Bilasizmi, men hozir nimani o'qidim? — deb so'radi u. — Go'yo sizlarda, Vazastan rayonida qandaydir yo'ldosh-josus uchib yurganmish. Siz eshitdingizmi?

Mittivoy qo'rquvdan tarashaday qotib qoldi. Endi shu yetmay turuvdi. Shu mash'um gazeta kelib-kelib Yulius amakining

qo'liga tushadimi-a! Axir, o'shandan beri oradan bir haftadan ortiq vaqt o'tdi-yu!

Lekin, baxtiga, Yulius amaki hozircha gazetada yozilgan narsa ustidan kulardi, xolos.

— Ular, hamma narsani, har qanday yolg'on-yashiqni bo-saveramiz, deb o'ylashadi, — dedi u. — Ularning vazifasi bit-ta — gazetani ko'proq sotish. Josus... tutqich bermas! Hammasi bo'lmag'ur gap! Bok xonim, siz bu sirli uchib yuradigan boch-kachani biron marta ko'rganmisiz?

Mittivoyning nafasi ichiga tushib ketdi. «Agar u Yulius amakiga hozir, mana bu tarbiyasiz semiz bola ham ucha oladi, deb gapirib qolsa bormi, o'ldim deyaver, — o'ylardi Mittivoy, — har holda, bu gapdan keyin Yulius amakida albatta shubha tug'ilishi mumkin».

Lekin Bok xonim, aftidan, Karlsonning o'zida, uning ucha olishida hech qanday g'ayritabiiy narsa bor, deb hisoblamasa ke-rak, bundan tashqari, u hali ham o'zini bosolmay piqillab yig'lar, gapiradigan holatda emasdi.

— Uchadigan bochkacha? Bu to'g'rida hech eshitganim yo'q, — dedi u nihoyat, ko'z yoshlarini ichiga yutib. — Gazetaning odatdagi bir uydirmasi-da.

Mittivoy yengil xo'rsinib qo'ydi. Agar u Karlsonni Yulius amakining oldida hech qachon, hecham uchmaslikka ko'ndira olsaydi, unda bu ishlar tinchib ketarmidi.

Mittivoy buni hoziroq iltimos qilish uchun Karlson tomonga o'girildi, lekin u go'yo shamol uchirib ketgandek g'oyib bo'ldi-qoldi. Mittivoy xavotirlanib, shu zahotiyoy qidirmoqchi bo'luvdi, lekin Yulius amaki uni chaqirib qoldi. U Mittivoyning o'qishlarini bilmoqchi, og'zaki hisobda qanaqaligini sinab ko'rmoqchi edi, holbuki, hozir yozgi ta'til kunlari, darslar to'g'risida gapiradigan vaqt emasdi. Nihoyat, Mittivoy uning oldidan chiqib ketishning ilojini topdi, u Karlson, mening xonamda emasmikin deb o'ylab, o'sha tomonga chopib ketdi.

— Karlson! — deb baqirdi u ostonadan hatlab kirarkan. — Karlson, qayerdasan?

— Sening pijama ishtoningdaman, — deb javob qildi Karlson. — Agar o'sha ikki ingichka ichakni ishton deyish mumkin bo'lsa!

U karavotning chetiga o'tirib olib, ishtonni kiymoqchi bo'lar, lekin qancha urinmasin, sira uddasidan chiqolmasdi.

– Senga Bossening pijamasini beraman, – dedi Mittivoy, u akasining xonasiga chopib kirdi-da, katta pijamani olib keldi, Unga Karlsondek semiz odam ham sig'ib ketdi.

To'g'ri, pijamaning pochasi bilan yengi ancha uzun edi, lekin Karlson buning darrov chorasini topdi – uzoq o'ylab o'tirmadi-da, ularni shartta qirqib tashladi. Mittivoy og'zini ochishga ham ulgurolmadi, lekin ochig'ini aytganda, u ko'pam xafa bo'lmadi. Axir, pijama – bu arzimas narsa-yu, ro'zg'orda bo'ladigan gap-ku, deb mulohaza yuritardi u. Pijamaning nobud bo'lgani uning shodon kayfiyatini buzolmasdi: Karlson unikida tunab qoladi, axir, bu qanday ajoyib hodisaki!

Mittivoy o'zi uchun divanga Bossening choyshabini yozdi-da, Bimboning korzinkasini yoniga qo'ydi. Bimbo darrov kelib yotdi-da, uxlashga urinib ko'rdi, lekin dam-badam ko'zlarini ochib, Karlsonga shubha aralash qarab qo'yardi.

Karlson yaxshiroq o'rnashib olay deb, Mittivoyning karavotida tinimsiz g'imirlardi.

– Men o'zimga issiq uyacha qurib olmoqchiman, – dedi u.

«Bu ola-bula pijamada u chindanam qushga o'xshaydi, – deb o'yladi Mittivoy. – Agar adyolni hamma tomondan qistirib qo'ysa, u xuddi uyada yotgandek yotadi».

Lekin Karlson Mittivoyning adyolni qistirib qo'yishini istamasdi.

– Hali ertaroq, – dedi u. – Avvaliga biroz vaqtixushlik qilaylik. Men to'shakda zerikib yotishga rozi emasman. Bu yerda ham ish topiladi. Aytaylik, yog'li kolbasali buterbrod yeyish mumkin, «qop-qop» o'ynasak bo'ladi, yostiqlar jangini uyushtirish mumkin. Biz buterbrodlardan boshlaymiz.

– Axir, yaqindagina shirin kulchadan bir tog'orasini yeding-ku.

– Agar, karavotda yotib, zerikadigan bo'lsak, men o'ynamayman, – dedi Karlson. – Buterbrodlarni obkel!

Mittivoy sekin oshxonaga kirdi-da, buterbrod tayyorladi. Unga hech kim xalaqit bermadi. Bok xonim mehmonxonada Yulius amaki bilan gaplashib o'tirardi. Aftidan, u Yulius amakining, jo'ja qattiq ekan, deb uni ranjitganini kechirganga o'xshaydi.

Mittivoy xonasiga bermalol qaytib keldi-da, Karlson yotgan karavotning oyoq tomoniga o'tirdi. U Karlsonning buterbrodni ishtaha bilan yeyayotganini ko'rib, sevinchi ichiga sig'masdi. Eng yaqin do'stingning senikida tunab qolishi qanday yaxshi-ya. Karlson bu gal ham hamma narsadan xursand edi.

– Buterbrod zo'r, sen ham zo'rsan, uy zolimang ham yaxshi, – dedi u. – Garchi, u mening birinchi o'quvchi ekanligimga ishonmagan bo'lsa ham, baribir yaxshi, – deb qo'shib qo'ydi u va qovog'i osilib ketdi. Ha, bu narsa uni ancha ranjitgandi.

– E, bunga e'tibor berma! Ana, Yulius amaki ham mening birinchi o'quvchi bo'lishimni xohlaydi, men hecham birinchi emasman.

– Yo'q, rahmat, men bunga rozi emasman, – dedi Karlson. – Qani endi, men seni haligi, o'shanga sal o'rgatolsam edi... Nima deb atovding?

– Qo'shuvga, – dedi Mittivoy. – Sen menga o'rgatmoqchi bo'lyapsanmi?

– Ha-da, chunki men qo'shish bo'yicha dunyoda eng yaxshi mutaxassisman.

Mittivoy xaxolab kulib yubordi.

– Hozir tekshirib ko'ramiz-da, – dedi u. – Rozimisan? Karlson bosh irg'adi.

– Boshla! Mittivoy boshladi.

– Mana, aytaylik, oyim senga uchta olma berdi, deylik...

– Men unga rahmat deyman.

– Gapimni bo'lmagin, – dedi Mittivoy. – Agar sen oyimdan uchta olma, dadamdan ikkita, Bossedan ikkita, Betandan uchta, mendan bitta olma olsang...

U gapini tugata olmadi, chunki Karlson bas degandek, barmog'i bilan po'pisa qildi.

– O'zim ham biluvdim-a! – dedi u. – Sen oiladagilarning eng xasisi ekanligingni oldinam bilardim, demakki, bunda bir gap bor!

– Shoshma, hozir gap bu haqda emas, – dedi Mittivoy, lekin Karlson o'jarlik bilan o'zinikini ma'qullardi:

– Qani endi sen menga katta paket bersang, uni darrov ochsam-u ichida bir kilo olma, ikki dona nok, yana bir hovuch mayda sariq olxo'ri bo'lsa, shunaqasi bor, bilasanmi?

– Bas, qil, – dedi Mittivoy. – Axir, senga qo'shishni o'rgatish uchun olmalarni misol uchun aytyapman-da. Xullas, sen oyimdan bir dona olma olding, deylik...

– Shoshma, – deb baqirdi Karlson jahl bilan, – men bunaqasiga o'ynamayman. Xo'sh, hozirgina menga bermoqchi bo'lgan ikkita olmani u qayoqqa yo'qotdi?

Mittivoy og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Azizim Karlson, bunga olmalarning hech dahli yo'q. Ular menga, senga qo'shishni tushuntirib berishim uchungina kerak. Endi gap nimadaligini tushundingmi?

Karlsonning jahli chiqdi.

– Nima, meni tushunmaydi deb o'ylaysanmi? Orqamga o'girilishim bilanoq oying ikki olmamni urib ketdi.

– Bas qil, Karlson, – dedi yana Mittivoy. – Shunday qilib, agar sen oyimdan uchta olma olsang...

Karlson mamnun bo'lib bosh irg'adi.

– Ana ko'rdingmi! Har kim o'zini himoya qila bilishi kerak, men buni hamisha bilardim. Men tartib bo'lishini yaxshi ko'raman: nimaiki meniki bo'lsa, demak, meniki. Oyingdan uchta, dadangdan ikkita, Bossedan ikkita, Betandan uchta, sendan bir dona olma oldim, chunki sen juda xasissan...

– Xo'sh, hammasi bo'lib qancha olmang bor? – so'radi Mittivoy.

– Sen qancha deb o'ylaysan?

– O'ylab nima qilaman, men aniq bilaman, – dedi Mittivoy qat'iy.

– Qani, bilsang, ayt-chi! – deb so'radi Karlson.

– Yo'q, buni sen aytishing kerak.

– Juda maqtanchoqsan-da! Ayt. Garov o'ynaymanki, yanglishasan!

– Ovora bo'lasan! – dedi Mittivoy. – Senda o'n bitta olma bo'ladi.

– Sen shunday deb o'ylaysanmi? – takror so'radi Karlson. – Bekorlarni aytibsan, yanglishding. Chunki men o'tgan kuni Lidingendagi bir bog'dan yigirma oltita olma uzib oluvdim, keyin undan uchtasini yedim, bittasini tishladim – xo'sh, endi nima deysan?

Mittivoy indamadi, u nima javob qilishini bilmasdi. Keyin u birdan fahmlab qoldi.

– Ha-ha! Gaplaring g'irt yolg'on, – dedi u. – Chunki iyunda daraxtlarda hali olma bo'lmaydi.

– To'g'ri, bo'lmaydi, – deb qo'shildi Karlson. – Unday bo'lsa sizlar qayoqdan oldilaring, olma o'g'rilari!

Mittivoy Karlsonga qo'shishni o'rgatish niyatidan qaytdi.

– Qo'shishning nimaligini endi bilib oldingmi?

– Bu ham olmani uzishdek bir gap, men buni ilgarilari ham bilardim, – dedi Karlson. – Bunga meni o'rgatish kerakmas, o'zimam bemalol uddalayman. Axir, men olmalarni bir-biriga qo'shish bo'yicha dunyodagi eng yaxshi ustaman-ku, qo'lim sal bo'shadi deguncha, ikkalamiz shahar tashqarisiga uchib ketamiz, ana o'shanda qo'shishga qanday kirishish kerakligini senga ko'rsataman.

Karlson kolbasa bilan nonning oxirgi burdasini chaynab yutdi-da, yostiqlar jangiga kirishishga qaror qildi. Lekin u yostiqni Mittivoyni boshiga otgan ham ediki, Bimbo zo'r berib akillay boshladi.

«B-r-r!» – irilladi Bimbo yostiqning bir uchidan tishlaganicha. Lekin Karlson yostiqning boshqa uchidan ushlab o'ziga tortdi. Bimbo bilan Karlson yostiqni har tomonga tortqilayverdi, axiyri u yorilib ketdi. Bimbo jag'larini ochdi. Karlson yostiqni ilib oldi-da, shiftga qarata otdi. Patlar chir-chir aylanib, karavotda xaxolab kulib yotgan Mittivoyning ustiga to'kilardi.

– Qor yog'di shekilli, – dedi Karlson. – Qara, juda qalin yog'yapti! – dedi u qoyil qolib va yana yostiqni osmonga otdi.

Lekin Mittivoy, bu yostiqlar jangini bas qilish, umuman, yotib uxlash kerak, dedi. Vaqt ham ancha bo'lgandi, ular Yulius amakining Bok xonimga, yaxshi yotib turing, deyapganini eshitishdi.

– Endi borib o'zimning kalta karavotimga yotaman, – dedi u. Shu payt Karlson birdan jonlanib ketdi.

– Hey-xo'p! – deb qiyqirdi u. – Yana bir qiziq narsa top-ganga o'xshayman.

– Xo'sh, yana nima o'ylab topding? – hayron bo'ldi Mittivoy.

– Juda qiziq narsa, agar uyingda emas, balki bitta-yarimtanikida mehmon bo'lib, o'sha yerda yotib qolsang, bu o'yinni boshlash mumkin, – deb tushuntirdi Karlson.

– «Qop» o'yinimi? Birovning o'rniga biror narsa tashlab qo'yishmi? Yo'q, kech bo'ldi. Bu ishni qilmaysan, xo'pmi?

– Ha, kech bo'ldi, – deb qo'shildi Karlson.

– Ha, albatta, kech bo'ldi, – dedi Mittivoy yengil tortib.

– Men endi bu ishni qilmayman, – deb uni ishontirdi Karlson.

– Juda soz! – xursand bo'ldi Mittivoy.

– Chunki bu ishni avvalroq qilishga ulgurgandim, – deb gapini tugatdi Karlson.

Mittivoy o'tirib qoldi.

– Rostdanmi? Nahotki, Yulius amakiga shunday qilgan bo'lsang? Karlson zavqdan qiyqirib yubordi.

– Voy, ayyor-ey, qayoqdan bila qolding?

Mittivoy yostiq jangi vaqtida juda ko'p kulgandi, garchi Karlsonning nojo'ya ish qilganini bilib tursa ham, ichagi uzilganidan ingranib qo'ydi.

– Yulius amakining juda jahli chiqadigan bo'ldi-da!

– Hozir tekshirib ko'ramiz-da, – dedi Karlson. – Uyning narigi tomoniga uchib o'tib, yotoqxonaning oynasidan mo'ralashga to'g'ri keladi.

Qiyqirib kulayotgan Mittivoy birdan jim bo'lib qoldi.

– Hecham-da! Bordi-yu seni ko'rib qolsa-chi! U seni o'sha yo'ldosh-josus deb o'ylaydi... Buning oqibati nima bo'lishini o'zing ham bilasan-ku...

Lekin Karlson judayam o'jar edi.

– Bitta-yarimtaning to'shagiga «qop» tashlab qo'yganingda, o'sha jafokash odamning qanchalik jahli chiqqanini albatta ko'rish kerak, yo'qsa bu o'yindan hech ma'no chiqmaydi, – deb ishontirardi u. – Tashvish tortma, shamsiya tagiga yashirinib olaman!

U shunday deb Mittivoyning oyisini qizil shamsiyasini olib kelgani dahlizga chopib chiqib ketdi, chunki hamon sharillab yomg'ir yog'ardi.

– Bossening pijamasi ho'l bo'lmasin deyapman-da, – dedi Karlson.

U deraza tokchasida shamsiyani ochib, uchishga tayyor turardi. «Bu juda xavfli-ku», deb o'yladi Mittivoy va iltijo-la:

– Ko'zingga qara, ehtiyot bo'! – dedi. – Hushyor bo'l, hech kim ko'rmasin, yo'qsa, hamma ish rasvo bo'ladi!

– Xotirjamlik bo'lsin, xotirjamlik! – dedi Karlson, shunday dedi-yu, yomg'ir qo'yniga sho'ng'idi.

Mittivoy esa uyda qoldi, qattiq hayajonlanganidan hadeb barmog'ini tishlardi.

Daqiqalar nihoyatda sekin o'tardi. Yomg'ir chelaklab quyardi. Mittivoy zoriqib kutardi. Shu payt u birdan Yulius amakining yurakni ezadigan dod-faryodini eshitib qoldi. Zum o'tmay ochiq derazadan Karlson uchib kirdi. U motorini mamnunlik bilan o'chirdi-da, suvi sirqib tushsin uchun shamsiyani kichkina gilamcha ustiga qo'ydi.

– U seni ko'rdimi? – deb so'radi Mittivoy qo'rquv aralash. – O'rniga yotganmidi?

– Yotmoqchi bo'layotgandi, u juda o'jar odam-ku, – deb tushuntirdi Karlson. Shu payt yana ularning qulog'iga Yulius amakining qichqirig'i eshitildi.

– Borib ko'rib kelay-chi, unga nima bo'ldiykin, – dedi Mittivoy va yotoqxonaga qarab chopdi.

Yulius amaki choyshabga o'ralganicha qimir etmay o'tirardi: o'takasi yorilganidan rangida qon qolmagandi, ko'zlarida dahshat, polda, yonida esa yostiq bilan gula qilib o'ralgan adyol yotardi.

– Sen menga kerak emassan, – dedi Yulius amaki, Mittivoy uning oldiga borganida. – Bor, Bok xonimni chaqir.

Lekin Bok xonimning o'zi ham uning qichqirganini eshitgan shekilli, oshxonadan chopib keldi-da, ostonada serrayib turib qoldi.

– Voy, xudoyim! – deb xitob qildi u. – Nahotki, o'rinni qaytadan solayotgan bo'lsangiz?

– Yo'q-yo'q, – deb uni ishontirmoqchi bo'ldi Yulius amaki, – lekin bu yerda o'rinni yangi moda bo'yicha solishlari umuman menga yoqmadi... Lekin hozir bu ko'nglimga sig'maydi.

U jim bo'lib, sekin ingradi. Bok xonim uning oldiga keldi-da, kaftini peshonasiga bosdi.

– Nima bo'ldi? Tobingiz qochdimi, janobi Iyensen?  
– Ha, mazam qochdi, – deb arang gapirdi Yulius amaki. – Kasal bo'lsam kerak... Bora qol, – deb qo'shib qo'ydi u, Mittivoyga murojaat qilib.

Mittivoy chiqib ketdi. Lekin u Yulius amaki yana nima derkin deb o'ylab, eshikning orqasida birpas turdi.

– Men aqlli, ziyrak odamman, – deb gapida davom etdi Yulius amaki. – Gazetalardagi har xil sirli hodisalar, turli bema'ni gaplar bilan meni laqillatisholmaydi... demak, kasal bo'lsam kerak,

– Nima bo'ldi? – deb takror so'radi Bok xonim.

– Ko'zimga arvohlar ko'rindi... Isitmam bor shekilli, demak, alahsiraganman, – dedi Yulius amaki, keyin shivirlab davom etdi. Mittivoy uning so'zlarini arang eshitoldi. – Bu voqeani bitta-yarimtaga gapirib berishingizni istamasdim, Bok xonim, lekin nazarimda bu yerga qizil shamsiyali uchib yuruvchi Gnom<sup>1</sup> kelganday tuyuldi.

## KARLSON SHOVQIN-SURON KO'TARADI VA QUYMOQ PISHIRADI

rtalab Mittivoy uyg'onsa, Karlson allaqachon g'oyib bo'libdi. Bossening g'ijim-g'ijim bo'lgan pijamasi polda yotardi. Deraza lang ochiq edi, demak, Karlson o'zining hujrasiga uchib ketgan bo'lsa kerak, deb o'yladi Mittivoy. Achindi, albatta, lekin bir tomondan ketganiga suyundi. Bok xonim urishmaydi. Karlson Mittivoyning qoshida tunaganini uning bilishi shart emas. Lekin, qiziq, Karlson bo'lmasa darrov hammayoq huvillab qoladi, zerikkaningdan dod devorging keladi. To'g'ri, undan keyin uyni yig'ishtirish oson emas. Lekin u ketdi deguncha, Mittivoy darrov uni sog'ina boshlaydi. Mana hozir ham, uning yo'qligini ko'rdi-yu, Mittivoyning unga salom yo'llagisi kelib qoldi. U deraza oldiga keldi-da, parda orqasiga yashirib qo'yilgan chilvirchani uch marta tortdi. Bu Mittivoy xabar berishi uchun Karlson yasab bergan qo'ng'iroqqa ulan-

<sup>1</sup> G n o m – G'arbiy Yevropa afsonalarida: yer ostidagi xazinani saqlovchi badbashara, sersoqol mitti odam.

gan chilvircha edi. Chilvirchani tortsang, Karlsonning tomidagi qo'ng'iroqcha jiringlar edi. Har bir jiringlashning nimani anglatishini Karlsonning o'zi o'rgatib qo'ygandi.

– Bir marta jiringlatsang, bu «kelgin» deganing bo'ladi, – dedi Karlson. – Ikki marta jiringlatsang: «Tezroq kel» degani, uch martasi: «Dunyoda shunday chiroyli, aqlli, tobida semirgan erkak, Karlson, senday dovyurak, har tomonlama ajoyib odam borligiga rahmat» degani bo'ladi.

Mittivoy hozir Karlsonga xuddi shu gaplarni aytmoqchi edi. Shuning uchun ham u chilvirchani uch marta tortgandi, Karlsonning tomidagi qo'ng'irog'i uch marta jiringladi. Buni qarangki, o'sha zahoti javob ham oldi. To'pponchadan o'q uzildi, keyin Mittivoy (to'g'ri, masofa ancha bo'lgani uchun yaxshi eshitilmadi) Karlsonning: «Chivi-chivi, dirk, dirk, tarala!» deb o'z ashulasini boshlab yuborganini eshitdi.

– Kerakmas, Karlson, kerakmas! – deb shivirladi Mittivoy. Nodon Karlson! Tomda bamaylixtir yuribdi, o'q uzyapti, ashula aytyapti-ya. Axir, Fille bilan Rulle eshitib qolishlari mumkin-ku, poylab turib, qo'lga tushirishlari, keyin redaksiyaga topshirib, o'n ming so'm pul olishadi!

– Menga nima, o'zi aybdor, – dedi Mittivoy, korzinkasida yotgan Bimboga murojaat qilib, u ham go'yo hamma narsani tushunib turganday Mittivoydan ko'zini uzmasdi. Mittivoy shimi bilan ko'ylagini kiydi-da, uydagilarning uyg'onishini kutib, Bimbo bilan o'ynay boshladi.

Yulius amaki, hali uxlayapti shekilli, har holda, u yotgan xonadan hech qanday ovoz kelmasdi, lekin oshxonadan hozirgina tuyilgan qahvaning xushbo'y hidi dimog'iga urildi. Mittivoy Bok xonimning nima tayyorlayotganini bilmoqchi bo'lib o'sha tomonga ketdi.

Bok xonim stol ustiga muk tushib, qahva ichardi. Qiziq, Mittivoy yoniga borib o'tirgandi, u hech nima deb e'tiroz bildirmadi. Hech qanday kashadan darak yo'q edi, aksincha, Bok xonim, nonushtaga biror mazali narsa tayyorlash uchun ataylab barvaqt turgandi. To'g'ri, dolchin hidi kelib turgan bulochka solingan ikki lagancha bufetda turardi, stol ustidagi non savatda ham bulochkalar tog' qilib uyib qo'yilgandi. Mittivoy buloch-

kadan bittasini oldida, o'ziga stakanga sut quydi. Ular qarama-qarshi o'tirib olib, miq etmay nonushta qilishardi. Nihoyat Bok xonim gap ochdi:

– Qiziq, Frida qanday yashayotganiyin?

Mittivoy sut solingan stakandan ko'zlarini uzdi-da, uy zolimasiga hayron bo'lib qarab qo'ydi. Ular bir-biriga sira o'xshashmaydi, lekin u Karlsonni sog'inganday Bok xonim ham Fridani qo'msar ekan-da.

– Bok xonim, siz Fridani sog'inyapsizmi? – deb so'radi u mehr bilan.

Lekin Bok xonim javob o'rniga g'amgin kulimsiradi:

– Sen Fridaning qanaqaligini bilmaysan-da!

Ochig'ini aytganda, Frida Mittivoyni mutlaqo qiziqtirmasdi. Lekin Bok xonim uning haqida gaplashishni juda-juda istagani uchun ham Mittivoy:

– Fridaning qallig'i kim? – deb so'radi.

– Yaramas yigit, – dedi Bok xonim og'ir xo'rsinib. – Ha, bilaman, razil odam, u Fridaning puliga ko'z olaytiryapti, buni boshidayoq sezganman.

Bok xonim bu haqda o'ylashi bilanoq tishlarini g'ichirlatib qo'ydi. «Bechora, deb o'yladi Mittivoy, – gaplashadigan odami bo'lmasa kerak, Frida haqida gapirgisi keldi-da, mengaki gapiryaptimi, demak, hech kimi yo'q-da». Mittivoy oshxonada ancha o'tirib, Frida va uning Filipp haqidagi sira tugamaydigan hango-malarni, Filippning «ko'zlaring juda chiroyli-da, burning juda jozibali, har qanday havoda ham kishini maftun etadi», degan maqtovlariga uchib, Frida esini yo'qotib qo'yganligi to'g'risidagi uzundan uzoq gaplarini eshitishga to'g'ri keldi.

«Burning juda jozibali emish», – deb takrorladi Bok xonim va o'zicha to'ng'illab qo'ydi. – To'g'ri, agar o'rtacha kattalikdagi kartoshkani yuzning husni deb hisoblaydigan bo'lsak, unda...

– Filipp-chi, uning ko'rinishi qanday? – deb so'radi Mittivoy o'zini qiziqayotgan qilib ko'rsatib.

– Xudoga shukr, bu haqida hech qanday tasavvurga ega emasman, – dedi Bok xonim. – Frida uni menga ko'rsatgani ham yo'q.

Bok xonim Filippning kim bo'lib ishlashini ham bilmasdi. Lekin Frida, uning birga ishlaydigan Rudolf nomli o'rtog'i borligi haqida gapirib bergandi.

– Fridaning gaplariga qaraganda, o'sha Rudolf menga to'g'ri kelarkan, lekin u men bilan bordi-keldi qilishni istamaydi, chunki Fridaning fikricha men yoqimsiz ekanman. Meni burnim chiroyli emas emish, umuman, ko'rimsiz ekanman, – dedi Bok xonim va yana allanimalar deb to'ng'illab, o'rnidan turdi-da, nimadir olib kelgani dahliz tomonga yo'naldi. U xonadan chiqishi bilan oq, derazadan Karlson uchib kirdi.

Mittivoyning astoydil jahli chiqdi.

– Menga qara, Karlson, axir, iltimos qiluvdim-ku, Bok xonim bilan Yulius amakining oldida uchmagin degandim-ku!

– Shuning uchun ham hech kim ko'rmasin deb hozir uchib keldim-da, – dedi Karlson. – Ularga umuman ko'rinmayman, – deb kulib qo'ydi va stol tagiga kirib oldi.

Bok xonim jun koftasini yo'l-yo'lakay kiyib oshxonaga qaytib kirganida Karlson stol tagida jim o'tirardi, dasturxonning shokilalari uni yashirib turardi.

Bok xonim o'ziga yana qahva quydi-da, bulochkadan bittasini olib hikoyasini davom ettirdi.

– Ajoyib kartoshka-burnim bilan maqtana olmasligimni boya aytdim-ku, bu Fridaning ustunligi.

Shu payt qayoqdandir, g'alati, sun'iy ovoz eshitildi:

– To'g'ri, burning ko'proq bodringga o'xshaydi.

Bok xonim o'tirgan joyida bir sakrab tushdi, chashkadagi qahva chayqalib to'kildi, u Mittivoyga shubha aralash qarab qo'ydi.

– Bu gapni sen aytdingmi, behayo?

Mittivoy qizarib ketdi, nima deyishini bilmasdi.

– Yo'q, – deb g'o'ldiradi u. – Menimcha, radiodan sabzavot haqida – har xil pomidor-u bodring to'g'risida gapirishyapti.

Mittivoy ustalik qilib chorasini topdi, chunki qo'shnilarning radiosi chindanam Svantesonlar oshxonasiga eshilib turardi, bu haqda Bok xonim bir necha bor shikoyat qilgan edi.

U uzoq vaysamadi, chunki shu payt oshxonaga Yulius amaki kirib keldi, u ham qahva ichmoqchi edi. U qoqilib, turtinib, stol

atrofini bir necha bor aylanib chiqdi, har qadam tashlaganida ingranib qo'yardi.

— Juda dahshatli tun bo'ldi-da! — deb xitob qildi chol. — Avliyo Iyeremey haqqi, bu qanaqa tun! Avvallari ham ertalablari a'zoyi badanim uvushardi-yu, lekin hozir, haligi voqealardan keyin, xudo ko'rsatmasin, aytmang!..

Keyin u stol atrofiga o'tirdi-da, go'yo chuqur o'yga tol-gan odamday, indamay bir nuqtaga tikilib qoldi. «U qandaydir o'zgarib qopti-ya», deb o'yladi Mittivoy undan ko'zini uzmay.

— Lekin, baribir, shu oqshom uchun taqdirimdan minnat-dorman, — dedi u biroz jimlikdan keyin. — U meni butunlay boshqa odam qildi-qo'ydi.

— Juda soz, chunki keksaligingda hech nimaga yaramasding. Yana o'sha g'alati sun'iy ovoz eshitildi, Bok xonim yana o'tirgan joyida dik etib sakrab tushdi va Mittivoyga shubha aralash qa-rab qo'ydi.

— Yana o'sha Lindberglarning radiosi... Eski mashinalar to'g'risida eshittirish beryapti shekilli.

Yulius amaki hech nimani sezmedi. U o'z o'y-fikrlariga shu qadar g'arq bo'lgan ediki, hech nimani eshitmasdi. Bok xonim unga qahva olib kelib qo'ydi. Yulius amaki, qaramasdan buloch-kaga qo'l uzatdi, lekin olishga ulgurmasdi, chunki shu payt stol ostidan kichkinagina do'mboq qo'lcha ko'rindi-yu savatni o'ziga tortdi. Lekin Yulius amaki buni payqamadi. U hamon o'z o'ylari bilan band edi, qaynoq qahvaga bulochka o'rniga barmoqlarini tiqib olgandagina o'ziga keldi-yu bulochkani hali ham olmaga-nini, qahvaga botiradigan hech nimasi yo'qligini tushundi. U kuygan qo'lga puflab, jahli chiqdi. Keyin yana o'yga toldi.

— Osmon bilan yer o'rtasida, odatda o'ylaganlaridan ko'ra mustahkam aloqa mavjud, men buni shu oqshom tushun-dim, — dedi u jiddiy va bulochkani olgani qo'lini cho'zdi. Yulius amaki yana hech nimani sezmedi, u hamon o'ylardi, barmoq-larini og'ziga tiqib tishlamoqchi bo'lgandagina hushyor tortdi, chunki qo'lida bulochka yo'q edi-da. O'shandan keyin yana jahli chiqdi. Biroq yangi Yulius amaki avvalgiga qaraganda ancha yumshoq, mehribon edi, shu bois u darrov tinchib qola qoldi.

Bulochkani olishga boshqa urinmadiyam, xayolga cho'mganicha qahvasini ichib tamomladi.

Bulochkalarni har holda kimdir yeyapti-ku. Nima bo'lganda ham bulochkalar birin-ketin g'oyib bo'lardi, lekin qayoqqaligini birgina Mittivoy bilardi. U qiqirlab kular, hatto Karlsonga bulochkalar tiqilib qolmasin deb sezdirmasdan stol tagiga bir stakan sut uzatdi.

Karlson ayni shu narsani «bulochkalarni sindirish» deb atardi. Buning amalda qanday bo'lishini Bok xonim Karlsonning avvalgi kelishlarida bir necha bor ko'rgan edi.

– Odamlarning hamma bulochkalarini pok-pokiza tushirib, ularni ajoyib ravishda sindirish mumkin, – dedi Karlson kunlardan birida. U aslida «bo'ysundirish» deyish kerakligini bilardi, lekin «sindirish» ancha ta'sirli eshitiladi, deb ishontirmoqchi bo'lardi.

Mana endi Karlson, garchi, Bok xonim buni tushunmagan bo'lsa ham, «bulochkalarni makkorona sindirish»ni yana bir bor uyushtirdi. Yulius amaki ham buning farqiga bormadi. U haddan ziyod iqtidorli bo'lishiga qaramay, «bulochkalarni sindirish»ni mutlaqo payqamadi, faqat nimalarnidir o'ylagani-o'ylagan edi. Lekin u birdan Bok xonimning qo'lini shartta ushladi-da, yordam so'rayotganday uni qattiq siqdi.

– Men bu xususda kim bilandir gaplashib olishim kerak, – dedi u nihoyat. – Buning alahlash emasligiga, aqli-hushim joyidaligiga endi hecham shubha qilmayman, lekin gnomni aniq ko'rdim.

Bok xonimning ko'zlari olayib ketdi.

– Gnomni ko'rdim, dedingizmi?

– Xuddi shunday, – deb javob berdi Yulius amaki. – Shuning uchun men endi yangi olam – ertaklar olamiga tushib qoldim. Bok xonim, meni to'g'ri tushuning, shu bugun kechasi hammasi menga aniq ravshan namoyon bo'ldi. Modomiki, gnomlar chindanam bor ekan, demak, alvastilar ham, jinlar ham, arvohlar ham – xullas, ertaklarda tasvirlangan o'sha maxluqlarning hammasi bo'lishi mumkin.

Balki, uchadigan josuslar ham bordir, – deb gap qistirmoqchi bo'lgan edi Bok xonim, lekin bu Yulius amakiga yoqmadi.

– Bema’nilik, – dedi u, – bularning hammasi tirajini oshirish uchun gazetalar tarqatayotgan uydirma.

U Bok xonim tomonga engashdi-da, uning ko’zlariga qaradi.

– Axir, o’zingiz o’ylab ko’ring, – deb gapini davom ettirdi ishonch bilan. – Axir, ota-bobolarimiz ajinalarga, alvastilarga, arvohlarga, xullas, shunga o’xshagan narsalarga ishonishgan-ku. Xo’sh, biz qanday qilib bu narsalar yo’q deb o’zimizni-o’zimiz ishontira olamiz? Nahotki biz ota-bobolarimizdan aqlliroqmiz, deb o’ylasak? Yo’q, beburd, o’ziga bino qo’ygan odamlargina bu bema’ni gapni aytishlari mumkin.

Bok xonim beburd bo’lib ko’rinishni hecham istamasdi, shuning uchun u, alvastilar siz taxmin qilganingizdan ham ko’proq uchraydi, deb uning gapini ma’qullay qoldi. Agar haqi rostini aytadigan bo’lsak, ajinalar ham bor narsalar.

Lekin shu payt Yulius amakiga o’z mulohazalarini hozircha to’xtatishga to’g’ri keldi, chunki u doktor bilan oldindan kelishib qo’rganligi uchun hozir ketishi kerak edi. Mittivoy bilan Bok xonim bajonidil uni eshikkacha kuzatib qo’yishdi. Mittivoy unga shlapasini olib berdi, Bok xonim esa paltosini kiydirib qo’ydi. Bechora Yulius amakining qiyofasi chindanam odamni rahmini keltirardi. «Yaxshiyam, u doktor huzuriga ketyapti», deb o’yladi Mittivoy va ohista uning qo’liga qoqib qo’ydi. Bok xonimning ham yuragiga g’ulg’ula tushib qolgandi, xavotirlanib so’radi:

– O’zingizni qanday sezyapsiz, janob Iyensen?

– Men qayoqdan bilay? Hali doktorga ko’ringanim yo’g’-u, – dedi.

Yulius amaki zardasi qaynab. Mittivoy: «Garchi u shu oqshom ertaklar olamiga tushib, yangi kishiga aylangan bo’lsa ham, lekin baribir eski Yulius amakidan ba’zi bir odatlar saqlanib qolibdi», degan xulosaga keldi.

Yulius amaki ketganidan keyin Mittivoy bilan Bok xonim oshxonaga qaytib kelishdi.

– Endi yana bulochka bilan qahva ichib, birpas bo’lsa ham xotirjam, osoyishta o’tirishim kerak, – dedi Bok xonim, keyin bufet tomonga o’girilib qichqirib yubordi: tarelkalarda bitta ham bulochka qolmagandi. Ularning o’rnida katta qog’oz xalta yo-

tardi, unga g'alati qing'ir-qiyshiq harflar bilan: «irtyaklar alimida him bulkani yaxsi kurushidi Gnum» deb yozilgandi. Bok xonim xatni o'qib chiqdi-da, jahl-la qovog'ini uydi.

– Gnomning, mabodo uning borligi rost bo'lsa ham bulochka o'g'irlashiga, – dedi u, – hech qachon ishonmayman. U juda-yam aqli, rahmdil, bunaqa ahmoqona ish qilishni o'ziga ep bilmaydi. Yo'q, meni laqillatolmaysan, buni kim qilganini bilaman.

– Kim ekan? – deb so'radi Mittivoy.

– Oldingga kelib turadigan o'sha beodob, semiz bola-da, ismi Karlsonmidi, nimaydi? Qaragin, oshxonaning eshigi ochilib qolib-di-ku! U mana bu yerda bekinib turgan-da, hamma gaplarimizni eshitgan, dahlizga chiqqanimizda esa bu yoqqa kirib olgan.

Bok xonim jahli chiqib bosh chayqadi:

– Gnommish! Aybni boshqalarga to'nkaydi-yu o'zi esa rasmana yozishniyam bilmaydi.

Mittivoyning Karlson haqidagi gap-so'zni davom ettirishga hushi yo'q edi, shuning uchun ham gapni qisqa qildi:

– Har holda, bu gnomning ishi bo'lsa kerak, – deb o'ylayapman. Ketdik, Bimbo!

Mittivoy har kuni ertalab Bimbo bilan Vaza parkida sayr qilardi, Bimbo uchun bu eng yoqimli mashg'ulot hisoblanardi, chunki u parkda ko'plab boshqa yoqimtoy kuchuklarni uchratardi, ular bilan hidlashib xumordan chiqardi.

Mittivoy bu yerda, odatda, Krister va Gunilla bilan o'ynardi, lekin bugun ularni qidirib topolmadi. «Balki, ular dam olgani jo'nashgandir», deb o'yladi Mittivoy. Ha, mayli, ketsa, ketishavermaydimi, unga nima, hozircha Karlson bilan Bimbo bor, zerikmaydi.

Shu payt yonlariga kattakon bir it Bimboga tashlanmoqchi bo'lib keldi, Bimbo dadil jangga kirib, bu nodon ko'pakka kimligini ko'rsatib qo'ymoqchi edi-yu, lekin Mittivoy ushlab qoldi.

– Qayt, orqaga! – deb buyurdi u. – Buzoqday keladigan it bilan kuch sinashishga hali yoshlik qilasan.

U Bimboni quchog'iga oldi-da, Bimbo tinchlanguncha o'tirib turish uchun skameyka qidirib atrofga alangladi. Lekin hammasi band edi – odamlar oftobda isinib o'tirishardi. Mittivoy bo'sh

joy qidirib, parkning etagigacha bordi. U yerdagi skameykada ikkita yigit o'tirishardi, ularning qo'lida bir shishadan pivo bor edi. Mittivoy ularni darrov tanidi: Fille bilan Rulle. Mittivoy qo'rqib ketib, o'tib ketmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin nimadir, uni ayni shu skameykaga ohanraboday tortardi. Fille bilan Rulle hali ham Karlsonni poylab yurishibdimi-yo'qmi, u shuni bilmoqchi edi. Ehtimol, ular bu haqda gapirib qolishar, sirasini aytganda, u nimadan ham qo'rqardi? Fille bilan Rulle hech qachon uni ko'rishmagan, binobarin, tanishmaydi. Bo'pti, ayni muddao! Demak, ularning yonida istagancha o'tirishi mumkin. Axir, oldi-qochdi romanlardagi ayg'oqchilar ham jinoyatchilarning iziga tushganlarida ana shunday qilishadi — yonlariga o'tirib olib, indamay gapini eshitib olishadi-da.

Xullas, Mittivoy skameykaga kelib o'tirdi-da, butun vujudi bilan tinglay boshladi, lekin Fille bilan Rulle sezib qolmasin, deb ahyon-ahyonda Bimbo bilan gaplashib qo'yardi.

Lekin, aftidan, Mittivoy hech nimani bilolmaydi shekilli. Fille bilan Rulle indamasdan pivo ichishardi. Nihoyat, pivoni ichib bo'lishdiyamki, baribir churq etishmasdi. Keyin Fille birdan gapirib qoldi:

— Biz uni qo'lga tushiramiz, albatta, axir, qayerda turishini bilamiz-ku. Uyiga qanday uchib kelganini bir necha bor ko'rganman.

Mittivoy qo'rqqanidan nafasi ichiga tushib ketdi. U dahshatga tushdi. Endi Karlsonga juftagini rostlashga to'g'ri keladi. Fille bilan Rullelar uning tomdagi kichkina uychasini ko'rishibdi-da! Ha, hamma ish rasvo bo'libdi!

Mittivoy yig'lab yubormaslik uchun mushtini tugdi, qancha urinmasin buning hech ilojini qilolmay, ko'zlariga yosh olganida Rulle gapirib qoldi:

— Ha, uning derazadan uchib kirganini menam ko'p ko'rganman, bu bultur yozda o'zimiz o'g'rilikka tushgan o'sha kvartirada, esingdami? To'rtinchi qavatda, esimda, eshigidagi tunukachaga familiyasi ham yozib qo'yilgandi — Svanteson.

Mittivoyning hayratdan ko'zlari katta ochilib ketdi. Ehtimol, qulog'iga shunday eshitilgandir? Nahotki, Fille bilan Rulle chin-

danam Karlsonni Svantesonlarnikida yashaydi deb o'ylashsa? Bu qanday baxt! Bu, Karlson istagan vaqtida o'z uyida yashirinish olishi, xavf-xatarsiz yashashi mumkin degan so'z-da! Fille bilan Rulle uning iziga tushisha olmasdi! Ha, bu oson ish emas-da. Axir, tomida mo'ri tozalovchidan boshqa kim ham yurardi.

Xullas, Fille bilan Rulle tomdagi kichkina uy to'g'risida hech nima bilisholmasdi-da, lekin, baribir, hozircha do'stining hayoti xavf ostida. Agar, astoydil uning iziga tushishsa, bechora Karlsonning holi nima kechardi! Bu tentak hech qachon tuzukroq yashirinishni bilmaydi.

Fille bilan Rulle yana anchagacha indamay o'tirishdi, keyin Rulle shivirlab dedi (Mittivoy arang eshitdi): Shu bugun kechasi borsak-chi.

Xuddi shu payt Fille skameykada yolg'iz o'zlari emasligini birdan eslab qoldi. U Mittivoyga bir qarab qo'ydi-da, baland ovozda:

– Ke, shu kechasi chuvalchang kovlagani boramiz! – dedi. Lekin Mittivoyni laqillatish oson emas. U, Fille bilan Rullening bugun kechasi nima qilmoqchi bo'lishayotganini juda yaxshi bilardi: ular Karlsonni qo'lga tushirishga urinib ko'rishadi, ular bu payt Karlson Svantesonlarnikida tinch-xotirjam uxlayotgan bo'ladi, deb o'ylashadi-da.

«Bu to'g'rida Karlson bilan gaplashib olish kerak, qancha tez bo'lsa, shuncha yaxshi!» – degan qarorga keldi o'zicha Mittivoy.

Lekin Karlson tushlikka yaqin keldi. Bu gal u derazadan uchib kirmadi-da, eshikning qo'ng'irog'ini ustma-ust bosdi. Mittivoy eshikni ochgani chopib ketdi.

– Voy, kelganing juda yaxshi bo'ldi-da! – deb gap boshladi Mittivoy, lekin Karlson uning gapini oxirigacha eshitmay, to'ppa-to'g'ri oshxonaga, Bok xonimning oldiga o'tib ketdi.

– Xo'sh, eplab-seplab nima pishiryapsan? – deb so'radi u. – Odatdagiday yana chandirday qattiq go'shtmi? Yo yasama jag'ni hisobga oldingmi?

Bok xonim plita oldida turib, Yulius amakiga jo'jadan ko'ra biror yengil, yumshoqroq ovqat qilib berish taraddudida quymoq

pishirardi. Orqasida Karlsonning ovozini eshitib shartta burilgan edi, bir cho'mich suyuq xamirni plitaga to'kib yubordi.

— Hoy, menga qara! — deb baqirdi u darg'azab bo'lib. — Axir, uyalmaysanmi? Bu yerga kelishga qanday yuzing chidaydi! Beor bulochka o'g'risi, ko'zimga qanday qaraysan-a!

Karlson do'mboq qo'lchalari bilan yuzini berkitdi-da, barmoqlari orasidan unga mug'ambirona qarab qo'ydi.

— Yo'q, nega endi, qarasa bo'ladi, faqat ehtiyoj bo'lish kerak-da, — dedi u. — To'g'ri, sen dunyodagi birinchi go'zal emas-san, lekin hamma narsaga ko'niksa bo'ladi-ku, shuning uchun hechqisi yo'q, qaragam ham bo'laveradi! Axir, eng muhimi, yoqimlisan, istarang issiq. Quymoqdan ber!

Bok xonim Karlsonga telbalarday qaradi-da, keyin Mittivoyga murojaat qildi:

— Bu bolaning ham biznikida tushlik qilishini oying menga ogohlantirganmidi-a? Nahotki u shunday deb buyurgan bo'lsa?

Mittivoy iloji boricha mujmal, lekin samimiy javob berishga harakat qildi:

— Har holda, oyimni fikricha, Karlson...

— Javob ber, yo ha de, yo yo'q de, — uning gapini bo'ldi Bok xonim. — Oying, Karlson, biznikida tushlik qilishi kerak dedimi?

— Har holda, u bunga... — Mittivoy yana chaynalib mujmal javob qilmoqchi bo'lgandi, lekin Bok xonim dag'dag'a bilan uning gapini bo'ldi:

— Yo ha, yo yo'q, deb javob bergin dedim-ku! Oddiygina, jo'n savolga doimo «ha» yo «yo'q», deb jo'ngina javob qilsa bo'ladi-ku, menimcha, bu qiyin bo'lmasa kerak.

— Bir tasavvur qilgin-a, qiyin, — deb gapga aralashdi Karlson. — Hozir men senga oddiy bir savol beraman, bunga o'zing ham ishonch hosil qilasan. Xo'p, quloq sol! Sen ertalablari konyak ichmay qo'ydingmi, qani, yo ha, yo yo'q, deb javob bergin?

Bok xonimning nafasi ichiga tushib ketdi, mana hozir hushidan ketib yiqiladiganday edi. U bir nima deb javob qilmoqchi bo'ldi-yu, lekin bir og'iz bir nima deb gapirolmadi.

– Ana, ko'rdingmi, – dedi Karlson tantanavor ohangda. – Savolimni yana takrorlayman: ertalablari konyak ichmay qo'ydingmi?

– Ha, ha, bo'lmasam-chi, – dedi Mittivoy ishonch bilan, uning Bok xonimga juda yordam bergisi kelardi.

Bok xonim endi quturib ketdi.

– Yo'q! – deb baqirdi u tamom esankirab.

Mittivoy qizarib ketdi, Bok xonimni qo'llab-quvvatlash uchun gapga aralashdi:

– Yo'q, yo'q, ichib turibdi!

– Afsus, afsus, – dedi Karlson. – Ichkilikbozlik yaxshilikka olib kelmaydi.

Bok xonimning tinka-madori qurib, holsizlanib stulga o'tirib qoldi. Lekin Mittivoy nihoyat to'g'ri javobni topdi.

– U ichishni to'xtatgani yo'q, chunki u hech qachon boshlamagan edi, tushundingmi? – dedi u Karlsonga murojaat qilib.

– Men-ku, tushunib turibman, – dedi Karlson, keyin Bok xonimga o'girilib qo'shib qo'ydi. – Tentak ekansan, doim ham «ha» yoki «yo'q», deb javob berib bo'lmasligiga endi o'zing ishonch hosil qildingmi... Qani, quymoqdan cho'z!

Lekin Bok xonimning Karlsonga hecham quymoq bergisi yo'q edi. U o'rnidan baqirib sapchib turdi-da, oshxonaning eshigini lang ochib yubordi.

– Yo'qol ko'zimdan! – deb qichqirdi u. – Jo'na!

Karlson eshik tomonga yurdi. U boshini baland ko'targancha mag'rur qadam tashlardi.

– Ketaman, – dedi u. – Jon deb ketaman. Quymoq pishirish boshqalarning ham qo'lidan keladi!

Karlson ketganidan keyin Bok xonim bir necha daqiqa miq etmay o'tirdi. Lekin sal o'ziga kelganidan keyin xavotirlanib soatiga qarab qo'ydi.

– Yulius amakingdan hamon darak yo'g'-u! – dedi u xo'rsinib. – Axir, ketganiga ancha bo'ldi-yu! Bir korhol bo'lmadimikin, deb qo'rqyapman. U, hoynahoy, Stokgolmni ham yaxshi bilmasa kerak.

Mittivoy ham tashvishga tushib qoldi.

– Ha, u adashib qolishi mumkin. Shu payt telefon jiringlab qoldi.

– Yulius amaki bo'lsa kerak! – deb xitob qildi Mittivoy. – Uyga qanday borishni bilolmayapman, deb telefon qilayotgandir.

Bok xonim telefon turgan dahlizga yugurib chiqib ketdi, Mittivoy unga ergashdi.

Lekin telefon qilgan Yulius amaki emasdi, buni Bok xonimning odatdagiday ming'irlab gaplashayotganidan Mittivoy darrov fahmladi.

– Ha, ha! Senmisan, Fridamisan! Xo'sh, ahvollaring qalay? Bema'ni qilig'ingni haliyam tashlaganing yo'qmi?

Mittivoy birovlarining gapini eshitgisi yo'q edi, shuning uchun ham xonasiga kirdi-da, o'qimoqchi bo'lib, qo'lga kitob oldi, lekin dahlizdan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz baribir eshitilib turardi, suhbat hali-veri tugaydiganga o'xshamasdi.

Mittivoyning qorni ochgandi. G'ashiga tegayotgan bu g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlarning ertami-kechmi tugashini, Yulius amakining uyga kelishini va nihoyat ular stol atrofiga o'tirishlarini u fahmlardi. Lekin u hech kimni kutmay, shu topda ovqatlanishni istardi. Bok xonim telefon trubkasini qo'yishi bilanoq u ko'nglidagi gapini aytish uchun dahlizga chopib chiqdi.

– Ha, mayli, qorningni to'ydirishim mumkin, – dedi u muloymgina va uni o'zi bilan birga oshxonaga boshladi. Lekin u eshik oldida qoqqan qoziqdek turib qoldi. U barvasta gavdasi bilan hammayoqni to'sib turgani uchun ham Mittivoy hech nimanı ko'rolmadi. Mittivoy faqat uning darg'azab bo'lib baqirganini eshitdi, lekin Mittivoy sabri chidamay uning yubkasining yonidan boshini chiqarib qarab, Karlsonni ko'rdi.

Karlson stol atrofida o'tirib, bamaylixotir quymoqni tushirardi.

Mittivoy, Bok xonim Karlsonni o'ldirib qo'ymasmikin deb qo'rqib ketdi, chunki vajohati juda yomon edi. Lekin u oldinga shartta tashlanib, quymoq solingan tarelkani tortib oldi-da:

– Sen... sen... sen yaramas bolasan! – deb o'shqirdi. Karlson uning barmoqlariga sekin urib qo'ydi-da, dedi:

– Mening quymoqlarimga tegma! Men ularni Lindberglardan halol pulimga, besh erega sotib oldim.

U og'zini katta ochdi-da, bir necha quymoqni birdaniga jig'ildoniga urdi.

– Axir, aytdim-ku, quymoq pishirish boshqalarning ham qo'lidan keladi, deb. Quymoqni topish juda oson: qayerdan tutun chiqsa, o'sha yerda quymoq-da.

Mittivoy yana Bok xonimga ich-ichidan achindi, chunki u hecham o'ziga kelolmasdi.

– Xo'sh, unday bo'lsa, mening quymoqlarim qani? – dedi ingragancha va plitaga qarab qo'ydi. U yerda quymoq soladigan katta chuqur tarelka bo'm-bo'sh turardi. Uy zolimasining yana qoni qaynab ketdi. – Sen iflos bolasan! – deb o'shqirdi u. – Ularni ham sen yegansan.

– Hecham-da! – dedi Karlson jahli chiqib. – Shu ishni qilmaganim uchun menga rahmat degin. Meni ayblashni bilasan, xolos.

Shu payt zinada oyoq tovushlari eshitildi. Xayriyat, Yulius amakiyam kelyapti. Mittivoy, Yulius amakining chalkash-chulkash ko'chalarda adashib qolmaganidan xursand edi. Bundan tashqari, u kelishi bilan bu dahanaki jang tugardi.

– Juda soz! – dedi Mittivoy. – Demak, uyni topib kelibdi-da.

– Izma-iz kelsin deb uning g'amini yegan menman, yo'qsa hech qachon topib kelolmasdi, – dedi Karlson.

– Yana qanaqa iz? – deb so'radi Mittivoy hayron bo'lib. – O'sha men qoldirgan iz-da, – dedi Karlson. – Chunki men dunyoda eng g'amxo'r, mehribon odamman!

Lekin shu payt qo'ng'iroq jiringladi-yu, Bok xonim shoshapisha eshikni ochgani ketdi. Mittivoy ham Yulius amakini kutib olgani yugurib chiqib ketdi.

– Xonadonimizga xush kelibsiz! – dedi Bok xonim dabdabali ohangda.

– Biz adashib qoldingizmi, deb o'ylovdik, – dedi Mittivoy. Lekin Yulius amaki Bok xonimga ham, Mittivoyga ham lom-mim demay, qat'iy so'radi:

– Menga shuni tushuntirib bering-chi, nega endi hamma uylarning eshik dastalariga quymoq ilib qo'yishibdi?

U shunday dedi-da, Mittivoyga shubha aralash qarab qo'ydi. Mittivoy:

– Balki, bu gnomning ishidir? – deb g‘o‘ldiradi qo‘rquv aralash. Bu xususda Karlsonning fikrini bilgani oshxonaga chopib chiqib ketdi.

Lekin Karlson oshxonada yo‘q edi. U yerda ikkita bo‘sh tarelka turardi, kleyonkada esa to‘kilgan murabbo qorayib ko‘rinardi.

Yulius amaki, Mittivoy va Bok xonimga puding bilan qanoatlanishga to‘g‘ri keldi.

Mittivoy puding uchun sut-qatiq magaziniga chiqib ketdi. Uni yuborishganda yo‘q demadi, chunki Mittivoy quymoq osilgan eshik dastalarining qanaqa ko‘rinishda bo‘lishini ko‘rmoqchi edi.

Lekin eshik dastalarida hech qanday quymoq yo‘q edi. U hamma zinalarni aylanib chiqdi, lekin hech qayerda bitta ham quymoq ko‘rmadi. U, bularning hammasini Yulius amaki o‘ylab chiqargan bo‘lsa kerak, degan fikrga ham bordi, lekin birdan gap nimadaligini tushunib qoldi... Eng oxirgi zinada Karlson quymoq yeb o‘tirardi.

– Quymoqlar shirin bo‘pti, lekin ular o‘z xizmatini o‘tab bo‘ldi, – dedi u. – Yulius amaki boshqa adashmaydi, u endi yo‘lni bilib oldi.

U quymoqni og‘ziga to‘ldirib, jahl bilan to‘ng‘illadi.

– Uy zolimalaring juda noinsof xotin-da! Mening quymoqlarimni sen yegansan deydi-ya, men chaqaloqday begunoh edim. Mana endi, uning gapiga bularni ham yeyishga majburman.

Mittivoy xaxolab kulib yubordi.

– Sen, Karlson, dunyoda eng ko‘p quymoq yeydigan odamсан, – dedi u, keyin nimanidir eslab, birdan jiddiy bo‘lib qoldi. – Aftidan, ular bugun kechasi seni qo‘lga tushirishga urinib ko‘rishadi. Buning nimaligini bilasanmi?

Karlson yog‘liq barmoqlarini birma-bir yalab chiqdi-da, xursand bo‘lib g‘o‘ldiradi.

– Bu, biz bu oqshomni xursandchilikda o‘tkazamiz, degani, – dedi u. – Hoy-xo‘p! Hey-xo‘p!

## KARLSON – XURRAK BO'YICHA DUNYODA ENG YAXSHI MUTAXASSIS

*A*sta-sekin qorong'ilik cho'ka boshladi. Karlson kuni bilan uyda bo'lmadi. Aftidan, uy zolimasi «quymoqxo'rlikdan» keyin o'ziga biroz kelib olsin deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Mittivoy Yulius amaki bilan temiryo'l muzeyiga ketdi. Yulius amaki bu muzeyni juda yaxshi ko'rardi. Mittivoy ham. Keyin ular uyga qaytishib, kechki ovqatni Bok xonim bilan birga yeyishdi. Hamma ish ko'ngildagiday ketayotgandi – Karlson qorasini ko'rsatmasdi. Lekin Mittivoy xonasiga qaytib kelsa, uni Karlson kutib o'tirgan ekan.

Ochig'ini aytganda, Mittivoy uning kelganiga xursand ham bo'lmadi.

– Doimo, o'ylamay ish qilasan-da! – dedi u. – Nega endi bugun uchib kelding?

– Shunaqayam bema'ni savol berasanmi? – deb hayron bo'ldi Karlson. – Axir, senikida tunab qolmoqchiman-ku, nahotki shuni tushunmasang?

Mittivoy xo'rsinib qo'ydi. Karlsonni Fille bilan Rulledan qanday ehtiyot qilsam ekan, deb kuni bilan bosh qotirdi. Balki politsiyaga qo'ng'iroq qilsamikan? Yo'q, bu to'g'ri kelmaydi, chunki unda Fille bilan Rullening nima uchun Karlsonni ush-lashmoqchi bo'lishganini albatta gapirib berishi kerak, bu esa juda xavfli.

Karlsonning esa parvoyi falak, hech nimani o'ylamaydi ham, qo'rqmaydi ham. U deraza oldida turib, shaftoli danagini xotir-jam kovlayotgandi, chunki uning bir kecha-kunduzda qancha o'sganini bilmoqchi edi. Lekin Mittivoy chindanam juda qo'rqib qolgandi.

– Nima qilishimizni bilmay qoldim, – dedi u.

– Fille bilan Rulleni gapiryapsanmi? – deb so'radi Karlson. – Mana, men bilaman-da. Ta'sir qilishning uch usuli bor – tiymoq, maynavozchilik va vahshiylik, uchovini ham ishga solmoqchiman.

Mittivoy, eng ma'quli yashirinib olish, deb hisoblardi. U, Karlson bugun kechasi bilan tomdagi uyida o'tirib chiqadi, sich-qonday yashirinib oladi, deb umid qilardi. Lekin Karlson unga berilgan barcha bema'ni maslahatlarning ichida eng bema'nisi seniki, dedi.

Lekin Mittivoy bo'sh kelmadi. Yulius amaki unga bir xalta karamel sovg'a qildi, u shu konfet yordamida Karlsonni fikridan qaytaraman, deb o'ylardi. U Karlsonning havasini keltirish uchun xaltachani uning shunday burni tagida silkitdi va pisanda qilganday dedi:

– Agar hozir uychangga uchib borib, joyingga yotib uxla-sang, shu xaltachadagining hammasi seniki.

Lekin Karlson Mittivoyning qo'lini siltab tashladi.

– Uh, shunchalik iflosmisan! – deb xitob qildi. – Menga bu bema'ni karamellaringni keragi yo'q. Meni juda olgisi kelib turibdi deb o'ylab, kekkaymagin!

U og'zini ma'yus qiyshaytirdi-da, nari ketdi, burchakka tikilib, skameykaga o'tirib oldi.

– Bunchalik yaramasligingni bilmagan ekanman, – dedi u. – Bunaqa qilsang o'ynamayman.

Mittivoyning juda hafsalasi pir bo'ldi. «Bunaqa qilsang o'ynamayman», deganidan ham dahshatliroq narsa yo'q! Mittivoy o'sha zahotiyoq uzr so'radi va yana Karlsonning ko'nglini olish-ga urindi, lekin hech uddasidan chiqolmadi. Karlson lab-lunjini osiltirib o'tirardi. U o'lguday o'jar edi.

– Yana nima qilish kerakligini bilolmay boshim qotib qol-di, – dedi Mittivoy hafsalasi pir bo'lib.

– Mana, men bilaman-da, – dedi Karlson. – Agar ko'nglim-ga yoqadigan biror ish qilsang, aniq aytolmayman-u, balki o'ynarman... Ha, hech nima yo'g'ida, karamel solingan xaltacha ham bo'laveradi.

Mittivoy xaltachani darrov uning qo'liga tutqazgandi, Karlson u bilan o'ynashga rozi bo'ldi.

– Hoy-xo'p! – deb qichqirdi u. – Nimalar bo'lishini tasav-vur ham qilolmaysan! Hozir kerak narsalarning hammasini tay-yorlab qo'yamiz.

«Karlson yotib qoladigan bo'lsa, men o'zimga divanga joy solishim kerak», deb o'yladi Mittivoy va Bossening xonasiga chopib ketayotgandi, Karlson uni to'xtatib qoldi. U, joy solishning hojati yo'q, chunki bugun kechasi baribir hech kim uxlamaydi, dedi.

– Uy zolimasi bilan amakingdan boshqa hech kim mijja qoqmaydi, umid qilamanki, ular dong qotib uxlashadi, chunki g'ala-g'ovur ko'tarishimizga to'g'ri keladi, – deb tushuntirdi Karlson.

Yulius amaki chindanam eldan burun yotoqxonaga kirib ketdi. U juda charchagandi – axir, o'tgan kechasi yomon uxlagandida, ertasiga esa kuni bilan yuraverib oyoqdan qolgandi. Bok xonim ham quymoq va bulochka mojarolari bilan bog'liq besaranjomliklardan keyin dam olishi kerak edi. U ham xonasiga, Betanning xonasiga ancha vaqtli kirib ketdi: oyisi, ular dam olishdan kelguncha Bok xonim o'sha yerda yotib turadi, deb qaror qilgandi.

Lekin ketishdan oldin ikkovi, Yulius amaki ham, Bok xonim ham Mittivoyga xayrli tun tilash uchun uning oldiga kirishdi. Karlson esa ularning qadamini eshitishi bilanoq shkafiga yashirinib oldi. U o'zicha aqlli ish qilyapman, deb o'yladi.

Yulius amaki esnay turib dedi:

– O'ylaymanki, qizil shamsiyali gnom yana huzurimizga kelib, hammamizga uyqu baxsh etar.

«Shubhalanmasang ham bo'ladi», deb o'yladi o'zicha Mittivoy, lekin ovoz chiqarib dedi:

– Tuningiz xayrli bo'lsin, Yulius amaki, maza qilib uxlashingizni tilayman! Xayrli tun, Bok xonim!

– Senam hoziroq yotgin. Xayrli tun, Mittivoy! Ikkovi ham chiqib ketishdi.

Mittivoy, har ehtimolga qarshi, mabodo Bok xonim yoki Yulius amaki birdan kechasi turib, uning uxlayotgan-uxlamayotganligini tekshirib ko'rmoqchi bo'lishsa, deb o'ylab chaqqon pijamasini kiyib oldi.

Mittivoy bilan Karlson Bok xonim va Yulius amakining uyquga ketishini kutishmoqchi bo'lishdi, shuning uchun ham qartada «ahmoq-ahmoq» o'ynashga o'tirishdi. Lekin Karlson doim

g'irromlik qilar, faqat yutgisi kelardi, salga «bunaqa qilsang, o'ynamayman», deb turib olardi. Mittivoy iloji boricha uning yutishiga imkon berardi, axiyri, baribir Karlson yutqizganida, u qartalarni tezda aralashtirib yubordi-da:

– Hozir o'ynab o'tirishga vaqtimiz yo'q, ishga kirishish kerak, – dedi.

Bu orada Yulius amaki bilan Bok xonim uxlab ham qolishdi – qizil shamsiyali gnom ularning oromini buzmadi. Karlson ularning xurragiga quloq solib, anchagacha u eshik bilan buni-sining orasida yurdi.

– Dunyoda eng zo'r xurракchi kim, bilasanmi? Qani, topchi! – deb buyurdi Karlson, keyin Mittivoyga Yulius amaki bilan Bok xonimning qanday xurрак otishlarini ko'rsatib berdi.

– «Brr-ps-ps» – bu Yulius amaki, Bok xonimning xurragi butunlay boshqacha jaranglaydi: «Brr-osh, brrr-osh!»

Lekin shu zahoti Karlsonning miyasiga yangi fikr kelib qoldi: karameldan bittasini Mittivoyga bergan, o'zi o'ntachasini yegan bo'lsa ham undan hali ancha bor edi, demak, hali ishga kirishgan paytda shirinlik haqida o'ylamaslik uchun xaltachani hech kim ko'rmaydigan joyga yashirib qo'yish kerak.

– O'zing bilasan, biz axir o'g'rilarni kutyapmiz-ku, – deb tushuntirdi u. – Po'lat sandig'imiz yo'g'a?

Mittivoy, agar po'lat sandig'imiz bo'lganida, unga, avvalo, seni yashirib qo'ygan bo'lardim, afsuski, po'lat sandig'imiz yo'q-da, dedi.

Karlson o'ylanib qoldi.

– Xaltachani amakingni xonasiga qo'yaman, – dedi u nihoyat. – Ular, mening xurragimni eshitsa, yo'lbars bo'kiryapti deb o'ylashadi-yu, kirishga yuraklari betlamaydi.

U yotoqxonaning eshigini sal ochgan edi «brr-ps-ps, brr-ps-ps» degan ovoz yana ham qattiqroq, dahshatliroq eshitildi. Karlson xursand bo'lib qiqirlab kuldi-da, qo'lida xaltacha bilan qorong'ida g'oyib bo'ldi. Mittivoy buyog'i nima bo'larkin, deb kutib turardi.

Hademay u qaytib keldi, Yulius amakining yasama jag'larini qo'lida mahkam ushlab olgandi.

– Bu nima qilganing, Karlson! – dedi Mittivoy esi chiqib. – Ularni nega olding?

– Nahotki sen, karamelimni tishi bor odamga ishonib topshirib qo'yadi deb o'ylasang! – dedi Karlson. – Bir tasavvur qilgin-a, amaking kechasi uyg'onadi-yu xaltachamga ko'zi tushadi! Agar tishlari yonida bo'lsa, amaking kechasi uyg'onib, ularni darrov ko'radi-yu konfetlarimni pok-pokiza tushiradi. Endi, baxtimga bu ishni qilolmaydi.

– Yulius amaki shundayam hech qachon bunday qilmasdi, – deb ishontirdi Mittivoy. – U birovning konfetidan bittasini ham olmaydi, hecham tegmaydi.

– Nodon, u huzurimga ertaklar mamlakatidan pari kelib, menga sovg'a-salom olib kelibdi, deb o'ylaydi-da, – dedi Karlson.

– Nega endi shunday deb o'ylarkan, axir, o'sha karamelni menga o'zi sotib olib berdi-yu? – dedi Mittivoy jahli chiqib, lekin Karlsonning qulog'iga hech gap kirmasdi.

– Bundan tashqari, bu tishlar baribir menga kerak, – dedi u. – Menga yana pishiq, chilvir ham kerak.

Mittivoy oshxonaga kirib, kir yoyadigan chilvirni olib kelib berdi.

– Buni nima qilasan? – deb so'radi Mittivoy juda bilgisi kelib.

– O'g'rilar uchun tuzoq qilmoqchiman, – deb javob berdi Karlson – Bu o'g'rilarni dahshatga soladigan, yuragini oladigan, o'lguday xavfli tuzoq bo'ladi.

U shunday dedi-da, tuzoq qo'ymoqchi bo'lgan joyini – tor peshayvonni ko'rsatdi.

– Xuddi shu yerga, faqat shu yerga qo'yish kerak, – dedi Karlson. Kiraverishda, ravoqning ikki tomonida bittadan stul turardi.

Karlson o'g'rilar uchun noyob va ancha makkorona o'ylangan tuzoqni qurishga kirishdi, u kir yoyadigan chilvirni stullar orasida poldan sal balandlikda bir necha bor tortdi-da, keyin uni mahkam qilib bog'ladi. Agar bitta-yarimta qorong'ida eshikdan kirib, dahlizga o'tmoqchi bo'lsa, albatta, shu to'siqqa qoqilib yiqiladi.

O'tgan yili Fille bilan Rullening ularnikiga o'g'rilikka tushgani hali ham Mittivoyni esida. Ular uzun simni pochta yashigining tirqishiga tiqib, qulf «tishi»ni ilib olib, eshikni ochishgan. Ular

bu gal ham kvartiraga, hoynahoy, shu yo'l bilan kirishmoqchi bo'lishadi. Nima ham derdik, agar ular xonada tortilgan chilvirga chuvalashib qolishsa, juda adolatli ish bo'ladi.

– Umuman, men tashvish tortmasam bo'ladi, – dedi u. – Fille bilan Rulle eshik oldiga kelishlari bilanoq Bimbo qattiq vovillab, butun uyni uyg'otadi-yu, ular tiraqaylab qochib qolishadi.

Karlson go'yo quloqlariga ishonmaganday Mittivoyga bir o'qrayib qaradi.

– E, hali shunaqami? – dedi. – Bundan chiqdiki, o'g'rilar uchun tuzoqni bekorga qilibman-da! Yo'q, bunaqa bo'lsa, men o'ynamayman. Kuchukni darrov yo'qotish kerak.

Mittivoyning astoydil jahli chiqdi:

– Nimalar deb valdirayapsan! Axir, uni qayoqqa yo'qotaman! Bu haqda o'ylab ko'rdingmi?

– Unday bo'lsa, dedi Karlson, Bimbo bir kechani mening tom-dagi uychamda o'tkazishi mumkin. Mening divanimga cho'zilib bemalol uxlashi, goh-gohida sekin pishillab qo'yishi mumkin. Ertalab, Bimbo uyg'onishi bilan Karlson unga qiyma go'sht olib borib beradi, va'dasida turadi. Faqat Mittivoy yaxshilab o'ylab, es-hushini yig'ib olsin-u Bimboni unikiga jo'natishga rozi bo'lsin.

Lekin Mittivoy es-hushini yig'ib olmadi. U, Bimboni uydan ketkazib yuborish – bu bema'nigarchilik, deb hisoblardi. Bundan tashqari, agar Fille bilan Rulle vovillab turgan itga ro'para kelsa, zo'r ish bo'lmaydimi!

– Sen hamma ishni buzmoqchisan-da, – dedi Karlson alam bilan. – Yayrab, to'yib xursandchilik qilishimga sira qo'ymaysan! Hamma narsaga: «Yo'q, yo'q, mumkinmas», deysan. Menga faqat xalaqit berasan. Men na tiya olaman, na yig'lata olaman, na jinnilik qila olaman, hech nima qilolmayman! Sen hech narsani bir paqirga olmaysan, senga kuchuging to'yguncha akillasayu kechasi qiy-chuv ko'tarsa bas.

– Axir, tushunsang-chi... – deb gap boshlagan edi Mittivoy, lekin Karlson uning gapini shartta bo'ldi:

– Bunaqada men o'ynamayman. Ana o'zing bilganingcha tinchlantiraver, men o'ynamayman.

Mittivoy Bimboni savatni ichidan olgan edi, norozi bo'lib iriladi, chunki uning uyqusi kelgandi. Karlson kuchukni qo'lga olib, uchib chiqib ketayotganida Mittivoy Bimboning hayronlikdan katta ochilgan ko'zlarini ko'rib qoldi.

– Qo'rqmagin, Bimbo! Hademay seni qaytarib olib kela-man! – deb qichqirdi Mittivoy, o'zigami, Bimbogami tasalli berish uchun.

Karlson bir necha daqiqadan so'ng qaytib keldi, kayfiyati juda yaxshi edi.

– Senga Bimbodan salom. Qani, top-chi, u nima dedi? «Uying juda shinam-a, Karlson», ha, u shunday dedi. Keyin: «Sening kuchuging bo'lsam maylimi?» deb qo'shib qo'ydi.

– Ha-ha, uning bunday deyishi mumkinmas!

Mittivoy xaxolab kulardi: u Bimbo kimniki ekanligini bilardi, buni Bimbo ham bilardi.

– Ha, ana endi hammasi joyida bo'ldi, – dedi Karlson. U xursand edi. – Axir, o'zing tushunasan-ku, bizga o'xshagan yaqin, mehribon do'stlar hamisha bir-birlariga yon bosishi kerak: bittasi doimo ikkinchisining aytganiga yurishi kerak.

– Ha, albatta, lekin negadir, doimo sen o'sha ikkinchi bo'lib qolasan! – dedi Mittivoy miyig'ida kulib. U Karlsonning xulq-atvoridan juda hayratda edi.

Boshiga Karlsonning kuni tushgan odam yaxshisi kechasi tomdagi uyida, divanchada xotirjam yotib, mabodo Fille bilan Rulle chindanam uyga o'g'rilikka tushgudek bo'lsa, jon-jahdi bilan vovillab ularni qo'rqitishni Bimboga qo'yib berishi kerak-da, axir, buni har qanday odam ham tushunishi kerak-ku. Lekin Karlson butunlay buni aksini qildi, yana eng ma'quli mana shu deb Mittivoyni ishontirdi ham. Mittivoy ham ishona qoldi, chunki uning o'zi ham mana shunday sarguzashtlarga ishqiboz edi, bu gal Karlsonning qanday qilib «tiyishini» juda-juda bilgisi keldi.

Karlson shoshardi: u, Fille bilan Rulle har daqiqada kelib qolishi mumkin, deb hisoblardi.

– Hozir men bir ish qilamanki, ularni kelishi bilanoq o'takasi yoriladi, – dedi u. – Bu tentak kuchukning bizga hecham keragi bo'lmaydi, ha, gapimga ishonaver.

U oshxonaga chopib kirdi-da, shkafni titkilay ketdi. Mittivoy hamma ishni sekin, imi-jimida bajargin, deb iltimos qildi, chunki Bok xonim Betanning xonasida, shunday devor orqasida uxlardi.

– Unday bo'lsa sen qorovul bo'lib tur! – deb buyurdi u. – «Brr-j-j» yoki «brr-ash» degan tovush qulog'ingga eshitilmay qoldimi, darrov menga bir amallab sezdirmasdan bildirgin.

U o'ylanib qoldi, miyasiga bir fikr kelgandi.

– Bilasanmi, nima qilasan? Sen o'zing xurrak ota boshlaysan, iloji boricha balandroq. Mana bunday qilib: «Grrr-ah-ah, grrr-ah-ah».

– Nega endi? – deb so'radi Mittivoy tushunmay.

– Shuning uchunki, agar amaking uyg'onib qolsa, Bok xonim xurrak otyapti deb o'ylaydi, bordi-yu, Bok xonim uyg'onsa, amaking deb o'ylaydi, ikkovida ham shubha tug'ilmaydi. Lekin men «grrr-ah-ah»ni eshitdimmi, demak, bu sening signaling ekanligini bilaman: ulardan birontasi uyg'ongan-u hushyor bo'lib turishim kerak! Ana shundan keyin shkafga kiranman-da, yashirinanman! Xo'sh, qalay, qani top-chi, dunyoda eng zo'r to'polonchi kim ekan?

– Fille bilan Rulle kelib qolishsa-chi, unda nima qilaman? – deb so'radi Mittivoy qo'rqa-pisa, chunki o'g'rilar tushganda dahlizda yakka-yolg'iz turishning o'zi bo'ladimi, axir, Karlson ham kvartiraning narigi boshida, oshxonada bo'ladi-da.

– Senam xurrak otasan, – dedi Karlson, – lekin sal boshqacharoq, mana bunday qilib: «Grr-o-ga, rr-ogo».

«Bu xurraklarni eslab qolish ko'paytirish jadvalini o'rganishdan ham qiyin bo'lsa kerak», deb o'yladi Mittivoy. Bu «brr-ps-ps», «grr-ah-ah», «grr-o-go»larni adashtirib yuborish ham hech gap emas-da, lekin yanglishmaslikka astoydil urinib ko'radi.

Karlson ich kiyimlar, sochiq-dasturxonlar yotgan tokchalarni rosa titkiladi-da, idish-tovoq artiladigan sochiqlarning hammasini bir quchoq qilib to'pladi.

– Bu sochiqlar kamlik qiladi, – dedi u. – Lekin baxtimizga, vannada ham sochiq bor.

– Nima qilmoqchisan o'zi? – deb surishtira ketdi Mittivoy.

– Mo‘miyo! – deb javob berdi Karlson. – Dahshat soladigan, qo‘rqitadigan, ajal keltiradigan mo‘miyo. Bu tuzoqdan ham xavfli.

Mittivoy, mo‘miyo nimaligini aniq bilmasdi, lekin buning Misr ehromlari bilan bog‘liq bir narsa ekanligini eshladi. U, bu ehromlarga podsholar va lashkarboshilarni dafn qilishlarini bilardi, ular go‘yo sovuqdan toshday qotib qolgan, ko‘z kosalari bo‘m-bo‘sh g‘iloflarday yotishardi. Dadasi bir kuni bu haqda gapirib bergandi. Otasining aytishicha, bu podsholar va lashkarboshilarni hayotligida qanday bo‘lsa, shunday saqlab qolish uchun ularni mo‘miyolashadi. Keyin ularni xuddi bint bilan o‘raganday mato bilan o‘rab chiqishadi. «Lekin Karlsonning qo‘lidan mo‘miyolash kelmasa kerak», deb o‘yladi Mittivoy va hayron bo‘lib so‘radi:

– Mo‘miyoni qanday qilasan?

– Uni idish-tovoq artadigan sochiqqa boplab yo‘rgaklab qo‘yaman... Sen bundan tashvish tortmay qo‘ya qol, – dedi Karlson. – Sen qorovullikda turib, o‘z ishingni bajargin, men o‘z ishimni uddalayman, xotirjam bo‘l.

Mittivoy qorovullikda turdi. U eshik orqasidan eshitilayotgan: «Brr-ps-ps», «grr-ah-ah» degan tovushlarga quloq solardi. Hammasi o‘ylaganlariday bo‘lyapti, shekilli. Lekin, keyinroq Yulius amakisi alog‘-chalog‘ tush ko‘rdi-yov, chunki uning xurragi cho‘zinchoq «ps-ps-ps» o‘rniga «grr-mm, grmm-mm» qilib mungli ohangda eshitila boshladi. Mittivoy, buni oshxonada nima balolarnidir qilayotgan dunyodagi eng zo‘r xurrakchiga borib xabar qilsammikin, deb o‘yladi, lekin shu payt, nima qilsam ekan, deb tashvish tortib turganida, kimningdir zinadan tez-tez yurib chiqib kelayotganini, keyin gursillagan tovush va bo‘loxonador qilib so‘kinganini eshitdi. Demak, o‘g‘rilar tuzog‘ining ishga tushgani aniq, binobarin, Fille bilan Rulle shu yerda, kvartirada. Shu bilan birga u «grr-ah-grr-ah» degan tovushlarning butunlay tinganligini payqab, esi chiqib ketdi. Voy, u endi nima qiladi? U alamidan Karlson eslab qolgini, deb buyurgan hamma tovushlarni o‘zicha birma-bir takrorlab chiqdi, nihoyat «gr-o-go» degan qandaydir mungli bir ovoz chiqarishga urinib ko‘rdi, bunga yana qandaydir «gpp-ah» degan tovushlar ham aralashib ketdi, lekin bularning hammasi xurrakka hecham o‘xshamasdi.

U yana bir bor:

– Grr-ah, grrr-ah... – deb ovoz chiqarishga urinib ko'rdi. O'chir ovozingni! – degan tovush keldi qayoqdandir, tuzoq qo'yilgan tomondan, u qorong'ida kichkina va semiz bir narsaning qorasini ko'rdi, u stullar orasiga tortilgan chilvirda pitir-pitir qilib, chiqib ketishga jon-jahdi bilan urinardi. Bu – Karlson edi.

Mittivoy uning oldiga chopib bordi-da, stullarni ko'tarib, turib olishiga yordam berdi. Lekin Karlson unga rahmat demadi. U juda darg'azab edi.

– Sen aybdorsan, – deb to'ng'illadi. – Axir, men senga vannadan sochiq olib kelgin deb buyurgandim-ku!

Chindanam u Mittivoyni soqchilikda qoldirib, o'zi vannaga chopib ketgandi, bechora yo'lida o'g'rilar uchun tuzoq borligini butunlay unutgandi. Xo'sh, Mittivoyda nima ayb?

Ha, aytmoqchi, aybdorni aniqlashga ularda vaqt qolmagandi, chunki Bok xonimning eshik dastasini burayotganini ikkovi ham eshitdi. Har soniya g'animat edi.

– Yashirin! – deb shivirladi Mittivoy.

Karlson oshxonaga chopib ketdi, Mittivoy esa xonasiga kirib yashirindi-da, o'zini karavotga otdi.

U bu ishlarning hammasini eng so'nggi daqiqalarda qildi. U adyolni boshiga tortdi-da, «grr-ah» deb xurrak otishga jur'atsizgina urinib ko'rdi, lekin yana hech ish chiqmadi, keyin o'rnida jimgina yotib, Bok xonimning uning xonasiga kirib, karavotining oldiga kelganini eshitdi. U ehtiyotlik bilan bir ko'zini sal ochdi-da, Bok xonimning tungi ko'ylagida boshi tepasida turganini ko'rdi, ko'ylagi qorong'ida oqarib ko'rinardi, u shu qadar tikilib qaraganidan Mittivoyning butun a'zoyi badani zirqirab og'rirdi.

– O'zingni uxlayotgan qilib ko'rsatmay qo'ya qol, – dedi Bok xonim, lekin uning ovozi qahrli emasdi. – Seniyam momaqaldiroqning guldurashi uyg'otib yubordimi?

– Ha... balki...

Bok xonim mamnun bo'lib bosh irg'adi.

– Men kechasi momaqaldiroq bo'lishini kunduziyoq sezuvdim. Havo dim edi, nafasing qaytadi! Lekin sen qo'rqmagin, – dedi

u va Mittivoyni boshini siladi. – Mayli, gumburlayversin, shaharda bu hecham xavfli emas.

Keyin u chiqib ketdi. Mittivoy qimirlashga yuragi dov bermay, karavotda ancha vaqt yotdi. Keyin o'rnidan sekin turdi. U Karlsonga nima bo'ldiykin, deb tashvish tortardi, shuning uchun ohista oshxonaga kirdi.

Kirishi bilan birinchi ko'rgan narsasi mo'miyo bo'ldi.

Yana qanday mo'miyo deng! Mo'miyo kursida o'tirar, Karlson esa uning yonida sherday gerdayib turardi, devoriy shkafdan topib olgan cho'ntak fonari bilan uni yoritardi.

– Qara, u chiroylimi? – deb so'radi u.

«U – podshoni emas; balki malikaning mo'miyosi!» deb o'yladi Mittivoy. Malika yumaloq, semiz edi, chunki idish-tovoq artiladigan sochiqlar ustidan Karlson vannada topgan hamma paxmoq sochiqlarni o'rab chiqqan edi. Uning boshi qo'l sochiqlardan yasalgan bo'lib, ustidan paxmoq sochiqlar bilan o'rab chiqilgandi, unda katta-katta ko'zlar teshilgan bo'lib, atrofi qora bo'yoqda hoshiyalangandi. Lekin, eng muhimi, mo'miyaning tishlari bor edi. Haqiqiy tishlar – Yulius amakining tishlari. U tishlarini sochiqlarning popuklariga tiqib, ishonchliroq bo'lsin deb, ikki tomonidan ham plastir bilan yopishtirib qo'ydi. Dahshatga soladigan yurakni yorib, ajal keltiradigan mo'miyo! Mittivoy uni ko'rishi bilan seskanib ketdi.

– Nega plastir yopishtirding? – deb so'radi u.

– U soqolini qirtishlagandi, – deb tushuntirdi Karlson va mo'miyaning chakkasiga urib qo'ydi. – Hey-xo'p, u oyimga shunaqayam o'xshaydiki, uni «Oyijon» deb atamoqchiman.

U shunday deb mo'miyoni quchoqlab dahlizga olib chiqib ketdi.

– Fille bilan Rullega Oyijonim bilan uchrashish juda ko'ngilli bo'ladi-da!

## KARLSON – DUNYODAGI ENG ZO'R TUNGI TO'POLONCHI

*M*ana, nihoyat, kimdir pochta yashigining tirqishiga uzun simni tiqdi. Ochig'ini aytganda, Mittivoy bilan Karlson buni ko'rishmadi, chunki dahliz qorong'i bo'lib, qancha tikilsang ham hech nimani ko'rolmasding, lekin ular nimaningdir jiringlaganini, g'ichirlaganini aniq eshitishdi, endi shubhalanmasa bo'ladi – ular ko'pdan beri kutishayotgani Fille bilan Rulle edi!

Mittivoy bilan Karlson dahlizdagi yumaloq stol tagida cho'kkalab o'tirib, nima bo'lishini kutishdi. Oradan bir soatcha vaqt o'tdi. Mittivoyni hatto mudroq bosdi. Lekin yashikda nimaningdir g'ichirlaganini eshitdi-yu, darrov uyg'onib ketdi. Voy, mana hozir boshlanadi. Uyqusi qochdi, qattiq qo'rqqanidan a'zoyi badani jimirlashib ketdi, Karlson unga tasalli bermoqchi bo'ldi.

– Hey-xo'p! – deb shivirladi u. – Hey-xo'p.

Buni qarang-a, oddiygina sim bilan qulfnı osongina ochsa bo'larkan-a! Keyin eshik sekin ochildi-da, kimdir ichkariga kirdi, boshqasi o'sha yerda, dahlizda qoldi! Mittivoyning nafasi ichiga tushib ketdi – chindanam aqlga sig'maydigan ishlar bo'layotgandi. Shivir-shivir va oyoq tovushlari eshitildi... Birdan taraq-turuq ovozlari: «O', bu nima gumbur-gumbur!» – ikki odamning sekin, bo'g'iq qiyqirgani eshitildi. Ana shundan keyingina Karlson stol tagida fonarchasini yoqdi, lekin shu zahoti yana o'chirib qo'ydi, biroq fonarchaning bir lahzalik nuri devorga suyab qo'yilgan, kishiga dahshat soluvchi, ajal keltiruvchi, mash'umona tirjayib tishlari – Yulius amakining tishlarini ko'rsatib turgan mo'miyoga tushdi. Yana dod-faryod, bu gal qattiqroq eshitildi.

Keyingi voqealar negadir ayni bir vaqtda yuz berganidan Mittivoy hech nimani anglayolmay ham qoldi. U eshiklarning lang ochilganini eshitdi Yulius amaki bilan Bok xonim o'z xonalaridan chiqishdi, shu payt Mittivoy dahlizda kimningdir oyoq tovushini eshitdi. Karlson Onajonini bo'yniga boylab qo'ygan tizginidan o'ziga tortgan edi, u polga gursillab yiqildi. Keyin u Bok xonimning dahlizdagi chiroqni yoqish uchun vklu-

chatelni bir necha marta buraganini eshitdi, lekin chiroq yonmadi, chunki Karlson oshxonadagi saqlovchi shitdagi hamma probkalarni burab olib qo'ygandi. «Yaxshisi, qorong'ida to'polon qilgan ma'qul», – dedi u. Mana, Bok xonim bilan Yulius amaki dahlizni qanday qilib yoritishni bilolmay, garang bo'lib turishardi.

– Momaqaldiroq juda dahshatli bo'ldimi! – dedi Bok xonim. – Hammayoq gumbur-gumbur bo'lib ketdi-yu! Elektrni ham o'chirib qo'yishganlari bejiz emas ekan-da.

– Bu momaqaldiroqmidi? – deb so'radi Yulius amaki. – Men butunlay boshqa narsa bo'lsa kerak, deb o'ylovdim.

Lekin Bok xonim, bu hoynahoy, momaqaldiroq bo'lishi kerak, yanglishishim mumkin emas deb, Yulius amakini ishontirmoqchi bo'lardi.

– Xo'sh, boshqa nima bo'lishi mumkin? – deb so'radi u.

– Menimcha, yana o'sha afsonaviy maxluqlar kelishdi, ular bu kecha shu yerda uchrashishdi, – deb tushuntirdi Yulius amaki unga.

Sirasini aytganda, u «afshonaviy maxluqlar» dedi, chunki u birdan negadir «s» tovushi o'rniga «sh» tovushini ishlata boshlagan edi. «Axir, u tishsiz qolgan-ku», – deb fahmladi Mittivoy, lekin o'sha zahotiyoq buni unutvordi. U hozir faqat Fille bilan Rulle to'g'risidagina o'ylashi mumkin. Ular qayerda? Qochib ketishdimi? Axir, u eshikning taraqlab yopilganini eshitgani yo'q-ku. Hoynahoy, ular dahlizda, qorong'ida bekinib turishgan bo'lsa kerak, balki qoziqqa ilib qo'yilgan paltolarning orqasiga yashirinib olishgandir? U, qanchalik qo'rqinchli! Mittivoy Karlsonga mumkin qadar yaqinroq bordi.

– Xotirjamlik bo'lsin, faqat xotirjamlik, – deb shivirladi Karlson. – Hademay biz ularni yana qo'lga tushiramiz.

– Ha, albatta, ular ikki kishi shekilli, – dedi Yulius amaki ma'nodor qilib. – Lekin uyda yashash mumkin bo'lmay qoldi!

Keyin Yulius amaki bilan Bok xonim ikkovi g'oyib bo'lishdi, ularning har qaysisi o'z xonasiga kirib ketishdi shekilli, yana hammayoq jimjit bo'lib qoldi. Karlson bilan Mittivoy stol tagida o'tirishib, buyog'i nima bo'lishini kutishardi... «Oradan juda uzoq vaqt o'tdi-yov», deb o'yladi Mittivoy. Yana «brr-ps-ps»

va «brr-ash» degan ovoz eshitildi, avvaliga uzilib-uzilib, sekin eshitildi, lekin keyin bu ovozlar shu qadar zo'raydiki, Yulius amaki bilan Bok xonimning yana dong qotib uxlab qolishgani aniq edi.

Ana shundan keyingina qorong'ida bekinib turishgan Fille bilan Rulle yana yo'lga tushishdi. Ularning nafas olgani eshilib turardi. Mittivoyni esi chiqib ketdi. Ular o'sha zahoti fonarchasini yoqishdi – buni qarang-a, ularda ham fonarcha bor ekan-a – nur yo'lakda lipillab o'ynardi. Dasturxon chetlari pastgacha tushib turardi, lekin, baribir, Fille bilan Rulle stol tagida ularning uchovini ham – uni, Karlson va Onajonisini ko'rib qolishlari mumkin edi. Mittivoy ko'zlarini yumib, nafas chiqarmay turdi, shunday qilsam, ko'rinmasam kerak, deb o'ylardi. Fille bilan Rullening pichirlashib gaplashishgani shunday yonlarida eshitalardi.

– Ajinani sen ham ko'rdingmi? – deb so'radi Fille.

– Iye, bo'lmasam-chi! – dedi Rulle. – Oppoq sharpa! U shunday devor oldida turuvdi, hozir g'oyib bo'ldi.

– Stokgolmdagi uylarning birontasida ham bu yerdagiday ajina ko'p emas, buni ikkovimiz ko'pdan beri bilamiz-ku, – dedi Fille.

– Bu yerdan juftakni rostlaylik, tezroq ketaylik, – deb taklif qildi Rulle.

Lekin Fille ko'nmadi.

– Hecham-da! O'n mingni deb bir emas, yuzta ajina bilan olishishga tayyorman, buni ikkala qulog'ing bilan ham eshitib ol.

U oyoqlariga tuzoq chilvirlari bog'lab qo'yilgan stullarni asta ko'tardi-da, qochishga to'g'ri kelsa oyoq ostida xalaqit bermasin deb, joy-joyiga olib borib qo'ydi. Shu ham hazil bo'ldi-yu, deb bu yerda turadigan bolalarni rosa so'kdi.

– Juda ehtiyot bo'lish kerak! Shunday ham hammayog'im shishib, momataloq bo'lib ketdi.

U fonarchasi bilan burchak-burchakni yoritib, yana timirs-kilana boshladi.

– Kel, nima qayerda turganini ko'raylik-chi, keyin qidirishga tushamiz, – dedi u.

Fonarcha nuri yana yo'lakda lipillab o'ynay boshladi, nur har gal stolga yaqinlashganda Mittivoy ko'zlarini chirt yumib, g'ujanak bo'lib olardi. Uzoq o'tirganidan oyoqlari uvushib, jon-siz bo'lib qoldi, nazarida oyoqlari stol tagiga sig'may, dasturxon ostidan chiqib turganday – Fille bilan Rulle ko'rib qoladiganday tuyulaverardi.

Buning ustiga, u Karlsonning yana Onajonisi bilan shug'ullanayotganini payqab qoldi. Fonarcha yorug'i ulardan sal nari ketdi-yu stol osti qorong'ilashdi, lekin, baribir, Mittivoy Karlsonning Onajonisini tashqariga olib chiqib, orqasi bilan stolga suyak qo'yganini aniq ko'rdi. Fonarcha nuri orqasiga qaytib, naq uning yuziga tushdi-yu irjayib turgan tishlarini yoritdi.

Yana ikki marta vahimali qichqiriq eshitildi, keyin oyoq to-vushlari eshik tomondan keldi.

Karlsonga jon kirdi.

– Qani, yur, – deb shivirladi u Mittivoyning qulog'iga, o'zi Onajonisini sudraganicha yo'lak tomon emaklab ketdi-da, Mittivoyning xonasiga kirib, ko'zdan yo'qoldi.

Mittivoy unga arang yetib ulgurardi.

– Qanday yaramas odamlar bor-a! – dedi Karlson eshikni qiya qilib yoparkan. – Mo'miyoni ajinadan ajratisha olmaydi-ya, menimcha, bu razilligu!

U sekin boshini chiqardi-da, qorong'i dahlizda nimalar bo'layotganini bilish uchun quloq soldi. Mittivoy ham quloq tutdi: u hozir eshik yopiladi, deb umid qilardi, lekin o'ylagani bo'lmadi. Fille bilan Rulle shu yerda edi, ular shivirlashib gap-lashishardi.

– O'n ming kron-a! Rulle, buni unutma! Bilib qo'y, hech qanday ajina-yu arvoh meni to'xtata olmaydi!

Ular anchagacha pichirlashib turishdi. Karlson butun vujudi bilan quloq solardi.

– Yur, amakingni xonasiga kiramiz, – dedi u. – Hey-xo'p! Hozir o'zimizni ovuntiramiz.

U Onajonisining qo'lidan ushladi-da, Mittivoyning o'rniga yotqizib qo'ydi.

– Haysan-xo'psan, Onajonisi, mana endi, nihoyat, odamga o'xshab uxlaydigan bo'lding, – dedi u, bolasini yotqizayotgan

onaday ko'rpani ustiga yoparkan. Keyin Mittivoyni qulog'iga shivirladi: — Qaragin-a, dilbar emasmi?

U mo'miyoni cho'ntak fonarchasi bilan yoritdi-da, ma'qullaganday chakkasiga urib qo'ydi.

Keyin u Bok xonim Mittivoyning oldiga kelganida karavotidan olib, yaxshilab taxlab stul suyanchig'iga osib qo'ygan yopqichni ham Onajonisining ustiga yopdi. «Sovuq yeb qolmasin deyapti-da», deb o'yladi Mittivoy va qiqirlab kuldi. Go'yo karavotda semiz bola tinch, xotirjam uxlab yotganday edi, chunki Onajonisi boshigacha burkanib olgandi.

— Salom, Mittivoy! — dedi Karlson. — Endi, senam jindak mizg'ib olsang bo'ladi.

— Qayerda? — deb so'radi Mittivoy yana hayron bo'lib. Buning ustiga Onajonisiga ko'zi tushishi bilan uyqusi qochib ketardi. — Axir, men karavotda mo'miyo bilan yonma-yon yotolmayman-ku.

— Ha-ya, lekin karavot tagida yotishing mumkin-ku, — dedi Karlson va o'zi kirpiday yumalab, karavot tagiga kirib ketdi.

Mittivoy ham uning yoniga yotdi.

— Mana endi, haqiqiy josusning xurragini eshitasan, — dedi Karlson.

— Nima, josuslar boshqacharoq xurrak otishadimi? — yana hayron bo'ldi Mittivoy.

— Ha-da, ular juda makkorona, mug'ambirona xurrak otishadiki, eshitsang, jinni bo'lib qolish hech gapmas. Mana bunday: «Xoooo, dooo, dooo!»

Josus xurragi goh burgutning qirqirashiga, goh yirtqichning irillashiga o'xshab ketardi, chindanam bu tovush kishini dahshatga solardi, boz ustiga, u tobora kuchayardi. Mittivoy qo'rqib ketdi.

— Jim! Sekinroq! Fille bilan Rulle kelib qoladi-ku.

— Axir, josus xurragi aslida shuning uchun kerak-da, — deb tushuntirdi Karlson.

Shu payt kimdir eshik tutqichidan ushlab, uni sekin ochdi. Qorong'iga fonarcha nuri yorib kirdi-yu, Mittivoy uning yorug'ida Fille bilan Rulleni aniq ko'rdi, ular ehtiyotlik bilan oyoq uchida xonaga kirib borishardi.

Karlson tobora baland va dahshatli xurрак otardi. Mittivoy vahimaga tushib, o'zicha o'yladi: «Bekor shunday qilyapti. Ular bizni ko'rib qolishadi». To'g'ri, yopqich polgacha tushib, u bilan Karlsonni fonar nuri va sinchkov ko'zlardan yashirib turardi. «Lekin, baribir, u buni qoyilmaqom o'ylab topdi-da», — derdi o'zicha Mittivoy.

— Xooo, xooo! — yanada qattiqroq xurрак otardi Karlson.

— Mana, nihoyat, qidirgan narsamizni topdik, shekilli, — dedi Fille ovozini pastlatib. — Bolalar bunday xurрак otishmaydi, bu, hoynahoy, o'sha. Bir qaragin-a, shunaqayam semiz, qo'pol, beso'naqay. Ha, aniq, o'sha!

— Xooo! — g'azab bilan xurрак otdi Karlson: uni semiz, beso'naqay deganlari Karlsonga hecham yoqmadi, buni uning xurragidan sezsa bo'lardi.

— Qo'l kishaning tayyormi? — deb so'radi Rulle. — Uni darrov kishanlash kerak, yo'qsa, qochib ketadi.

Yopqich shitirladi. Keyin Mittivoy Fille bilan Rullening, go'yo ularga havo yetishmayotganday, xirillagan ovozini eshitdi, u Fille bilan Rullening yostiqda yotgan mo'miyoning dahshat soluvchi irjaygan tishlarini ko'rishganini fahmladi. Lekin ular baqirib yuborishmadi ham, oldi-orqasiga qaramay qochishmadi ham, faqat qandaydir g'alati tarzda nafas olishardi.

— E, bu oddiy qo'g'irchoq-ku... — dedi Fille hayratlanib.

— Unday bo'lsa, ayt-chi, — dedi Rulle, — qo'g'irchoq bu yerga qayerdan kelib qoldi! Axir, uni hozirgina dahlizda ko'ruvdik-ku, yo bu boshqasimi?

— Ha, odam hayron qoladi, — deb qo'shildi Fille. — Xo'sh, xurрак otayotgan kim?

Lekin Fille buni aniqlayolmadi, chunki yaqinlashib kelayotgan oyoq tovushlari eshitildi. Mittivoy Bok xonimning zalvarli qadamini darrov tanidi-yu tashvishga tushib qoldi! Hozir shunaqayam shovqin-suron ko'tariladiki! Momaqaldirroq guldurashi buni oldida hech gapmas!

Lekin vahimali hech nima bo'lgani yo'q.

— Tezroq garderobga kir! — deb shivirladi Fille. Mittivoy o'girilib qarashga ham ulgurmasdanoq o'g'rilarning ikkovi ham garderobga yashirib olishdi.

Yana Karlsonga jon kirdi. U kirpiday dumalab-dumalab garderob oldiga bordi-da, eshigini kalit bilan qulflab bekitib qo'ydi. Keyin yana chaqqon va tez emaklab, karavot tagiga kirib oldi. Shu zahoti xonaga Bok xonim kirib keldi, uning o'zi ham egnidagi tungi oq ko'ylagi-yu qo'lidagi shami bilan tap-tayyor ajinaga o'xshardi.

– Hozirgina xonamda timirskilanib, fonarcha bilan hamma burchaklarni yoritib yurgan senmiding, Mittivoy? – deb so'radi u qat'iy.

– Yo'q, men emas, – deb javob berdi Mittivoy, talmovsira-gan ovozda.

– Unda nega uxlamayapsan? – deb so'radi Bok xonim shubhalanib, keyin qo'shib qo'ydi: – Nega endi boshinggacha bekitib olding? Seni yaxshi eshitolmayapman.

U, Mittivoy nega yopqichni boshigacha yopib olgan deb o'ylab, uni yulib olib tashladi. O'sha zahoti dahshatli qiyqiriq yangradi. «Bechora Bok xonim, axir, u Fille bilan Rullega o'xshab dahshat soluvchi, ajal keltiruvchi mo'miyoni ko'rib o'rganmagan, ko'zi pishmagan-da», deb o'yladi Mittivoy. U karavot tagidan chiqish payti kelganini tushundi. Baribir, Bok xonim uni topib oladi, bundan tashqari, Fille bilan Rullega bas kelish uchun uning ham yordami kerak. Axir, ular bir umr garderobda qolisholmaydi-ku! Mittivoy o'rmalab chiqdi.

– Qo'rqmang, – dedi u jur'atsizgina. – Onajonimiz xavfli zot emas, lekin manavi garderobda ikki o'g'ri qamalib o'tiribdi.

Bok xonim Onajonisi bilan uchrashganidan keyin hali o'ziga kelmagan edi, Mittivoyning garderobda ikki o'g'ri o'tiribdi, deganini eshitib, judayam jahli chiqib ketdi.

– Nimalar deb valdirayapsan! Bu qanaqa bema'ni gap! Garderobda o'g'rilarga balo bormi! Iltimos, ko'p vaysama!

Lekin qat'iy ishonch hosil qilish uchun garderob eshigi oldiga keldi-da, qichqirdi:

– Ichkarida kim bor?

Javob bo'lmadi, Bok xonim yanayam tutaqib ketdi.

– Javob beringlar! Bitta-yarimta bormi? Agar hech kim bo'lmasa, hech kim yo'q, deb aytish mumkin-ku.

Lekin shu payt u garderoib ichida shitirlagan ovoz eshitdi-yu Mittivoyning to'g'ri gapirganini tushundi.

— Dovyurak bola! — deb xitob qildi u. — Mushtday bola ikki katta o'g'riga bas kelolsa-ya! Qahramon!

Karavot g'ichirladi-yu, uning tagidan Karlson emaklab chiqdi.

— Hecham bu uning ishi emas, — dedi Karlson. — Hammasini men qildim.

U Bok xonim bilan Mittivoyga o'qrayib qarab qo'ydi.

— Shunday dovyurak, mard, har jihatdan yaxshi bo'lganim uchun o'zimga rahmat, — dedi u. — Shunday aqlli, shunday chiroyliman, hecham semiz, beso'naqay emasman, ha!

Bok xonim Karlsonni ko'rishi bilan sal bo'lmasa aqldan ozib qolay dedi.

— Sen... Sen! — deb o'shqirdi-yu, lekin shu zahoti o'zini qo'lga oldi, zero, hozir quymoq uchun Karlsonni koyishning vaqti ham, o'rni ham emasdi, chunki jiddiy narsalar to'g'risida o'ylash kerak edi. — Bor, tez borib Yulius amakini uyg'ot, keyin politsiyaga qo'ng'iroq qilamiz... Voy, yalang'ochman-u... borib, xalatimni yelkamga tashlab olay, — dedi u kechasi kiyadigan ko'ylagiga xijolatomuz nazar tashlarkan.

U shosha-pisha chiqib ketdi. Mittivoy Yulius amakini uyg'otgani chopib ketdi. Lekin avvaliga Onajonisining jag'larini olib qo'ydi. U, jag'larning hozir Yulius amakiga ko'proq kerak bo'lishini tushunardi.

Yotoqxonada «grr-ps-ps» degan tovush bir tekisda eshitalardi. Yulius amaki xuddi yosh boladek uxlardi.

Tong yorisha boshlagandi. Mittivoy g'ira-shira qorong'ilikda tumbochka ustidagi suv solingan stakanni arang ko'ra oldi. U jag'larni stakanga soldi. Yulius amakining ko'zoynagi bilan karamel solingan xaltacha shunday stakanining yonida yotardi. Mittivoy xaltachani oldi-da, keyin Karlsonga berish uchun pi-jamasining cho'ntagiga soldi. Yulius amaki uni ko'rmagani ma'qul, bo'lmasa bu qayoqdan kelib qoldi, deb so'rab-surishtirishi mumkin.

Mittivoy, tumbochkada yana nimadir bo'lishi kerakligini esladi. Ha-da, bo'lmasam-chi, Yulius amakining soati bilan hamyoni bo'lishi kerak edi-ku. Soat ham, hamyon ham joyida yo'q. Biroq

Mittivoy hozir bunga unchalik e'tibor bermadi. Unga Yulius amakini uyg'otish topshirilgan, u shu ishni qilishi kerak.

Yulius amaki darrov uyg'ondi.

– Yana bir gap bo'ldimi?.. – U birinchi galda tishlarini olib, taqib oldi-da, keyin dedi: – Qiziq, hademay uyimga, Vestergetlandimga qaytib ketaman, u yoqda sutkasiga o'n olti soatlab uxlasam bo'ladi, bu yerda-chi, bu yerda kechasi bilan tinchlik yo'g'-a...

«Ha, u, balki haqdir», o'yladi Mittivoy va nega hoziroq turi-shi kerakligini unga tushuntira boshladi.

Yulius amaki shosha-pisha Mittivoyning xonasiga yo'naldi, Mittivoy uning orqasidan pildirab chopib borardi. Bok xonim ham xalatini kiyib o'sha tomonga shoshildi, hammalari eshik oldida to'qnashishdi.

– O'-o', azizim janobi Iyensen, buni qarang-a, uyimizda o'g'rilar! – dedi Bok xonim yig'laguday bo'lib.

Mittivoy Karlsonning xonada yo'qligini, derazaning lang ochiqligini darrov sezdi. «Uyiga uchib ketgan bo'lsa kerak. Juda yaxshi, juda soz! Xayriyat-e, omadim bor ekan, chunki uning Fille va Rulle bilan ham, politsiya bilan ham uchrashmagani ma'qul. Zo'r ish bo'ldi-da, hatto odamning ishongisi kelmaydi-ya», deb o'yladi Mittivoy.

– Ular garderobga qamab qo'yilgan, – deb tushuntirdi Bok xonim ham qo'rqqanidan, ham xursand bo'lganidan kularkan.

Lekin Yulius amaki boshigacha berkitilgan mo'miyo hali ham cho'zilib yotgan Mittivoyning karavotini ko'rsatdi-da:

– Keling, avval Mittivoyni uyg'otaylik-chi! – dedi.

Shu payt yonginasida turgan Mittivoyga ko'zi tushib, hang-u mang bo'lib qoldi.

– Modomiki, ko'rib turgan ekanman, demak, u o'rnidan turibdi-da, – deb ming'illadi Yulius amaki, – unda karavotda uxlab yotgan kim bo'ldi?

Bok xonim bir seskanib tushdi. U, karavotda kim, to'g'rirog'i, nima yotganini bilardi-da. O'g'rilar oldida u farishtadek gap edi.

– Dahshatli bir narsa, – dedi u. – Qanchalik bahaybatligini siz tasavvur ham etolmaysiz! Xuddi ertaklar olamidan kirib keldanday.

Yulius amakining ko'zlari charaqlab ketdi. U hecham qo'rqmadi, aksincha, adyol tagida yotgan «o'sha dahshatli narsa»ni do'stona shapillatib urib qo'ydi.

– Qandaydir bahaybat, semiz, ertaklar olamidan kelgan bir nima dedingizmi? Afsonaviy maxluq! Yo'q, men uni hoziroq ko'rishim kerak, o'g'rilar bilan keyinroq shug'ullanamiz.

U shunday dedi-da, yopqichni shartta sidirib tashladi.

– Hi-hi! – deb chiyilladi Karlson va yuzlari gul-gul yonib karavotda turib o'tirdi. – Bu yerda afsonaviy maxluqni emas, bor-yo'g'i meni topganliging qanday yaxshi bo'ldi-ya! Bu qanday xursandchilik-a, to'g'rimi?

Bok xonim Karlsonga achchiq ta'na aralash qarab qo'ydi.

– Kechasi hammamizni laqillatgan ham shumi? – deb so'radi Yulius amaki xafa bo'lib.

– Shunaqaga o'xshaydi. Sal qo'lim bo'shasin, adabini berib qo'yaman, – dedi Bok xonim. Keyin u nimanidir esladi shekilli, Yulius amakining qo'lini qo'rquv aralash ushlab qo'ydi. – Azizim, janobi Iyensen, axir, biz politsiyaga telefon qilishimiz kerak-ku.

Lekin shu payt sira kutilmagan voqea yuz berdi.

Garderobdan shivirlagan ovoz eshitildi:

– Qonun nomidan talab qilamiz, eshikni oching! Biz politsiyadanmiz.

Bok xonim, Yulius amaki va Mittivoy sarosimaga tushib qolishdi. Birgina Karlson hecham ajablanmadi, aksincha, juda jahli chiqib ketdi.

– Politsiyadanmiz? Bu gaplarni boshqa birovga gapiring, manfur o'g'rilar!

Shu payt Fille garderob ichidan turib: «Bu yerga xavfli josusni ushlagani kelgan politsiyachilarni tutib qolganlaring uchun katta jarima to'laysizlar», deb qichqirdi... «Juda ustomon ekan-a, gapni bu tomonga burib yubordi-ya», – deb o'yladi Mittivoy.

– Iltimos, ochinglar, shkakni tezroq ochinglar, hammasi joyida bo'ladi! – qichqirdi Fille.

Yulius amaki ishonib, shkak eshigini ochdi. Fille bilan Rulle garderobdan chiqishdi, ularning ko'rinishi, turish-turmushi shunday shubhali ediki, buni ko'rib Yulius amaki bilan Bok xonimning esxonalari chiqib ketdi.

– Politsiyadanmiz, dedinglarmi? – deb takror so‘radi Yulius amaki, shubhalanib. – Xo‘sh, unda nega formada emassizlar?

– Sababi, biz yashirin politsiyaning maxfiy xodimlarimiz, – dedi Rulle. – Biz bu yerga uni olib ketgani kelganmiz, – deb qo‘shib qo‘ydi Fille va shartta Karlsonning qo‘lidan ushladi. – Bu juda xavfli josus.

Bu gapni eshitib Bok xonim qah-qah urib kuldi.

– Josus! – Shu – josusmi! Shu-ya! Ha-ha-ha! Ana hangoma-yu mana hangoma! Bu yaramas bola – Mittivoyning maktabdosh o‘rtog‘i. Karlson karavotdan sapchib turdi.

– Yana sinfda birinchi o‘quvchiman! – deb u gapni ilib ketdi. – Birinchi o‘quvchiman, chunki quloqlarimni qimirlata olaman. Yana qo‘shishni ham bilaman.

Lekin Fille uning gaplariga ishonmadi. U qo‘l kishanni oldida, sekin Karlson tomon yura boshladi. U juda yaqin kelganida Karlson o‘zining kalta semiz oyoqchalari bilan Fille tomonga pildirab ketdi. Fille jahl bilan allanimalar deb po‘ng‘illadi-da, be-toqat bo‘lib, bir oyog‘ida sakray boshladi.

– Bilib qo‘y, biror joyingni urib ko‘kartiraman, – deb ogohlantirdi Karlson. Mittivoy esa, o‘g‘rilarning doim hamma joyi ko‘karib yuradi, deb o‘yladi. Gap shundaki, Fillening chap ko‘zi shishib, ko‘m-ko‘k ko‘karib ketgandi.

«Qilmishlariga yarasha jazolarini olishsin-da, – degan fikrga keldi Mittivoy. – Axir, u bularning uyiga bostirib kirdi-yu, mana endi Karlsonni, uning Karlsonini olib ketib, o‘n ming kron-ga sotishmoqchi. Razil o‘g‘rilar, mayli, butun a‘zoyi badanlari momataloq bo‘lib yursin».

– Ular politsiyachilar emas, bu yolg‘on, – dedi u. – Ular o‘g‘rilar, men ularni taniyman.

Yulius amaki xayolga cho‘mib, yelkasini qashib qo‘ydi.

– Ha, biz xuddi shuni aniqlashimiz kerak, – dedi u.

U, bularning kimligi – politsiyachilarmi yo o‘g‘rilarmi ekanligi aniqlanmaguncha hammalarini oshxonada o‘tirib turishni taklif qildi.

Bu orada hammayoq yorishib ketdi. Hattoki osmondagi yulduzlar ham xiralashdi. Yangi kun boshlanayotgandi. Mittivoy esa Fille bilan Rullening safsatasini eshitishdan ko‘ra, o‘ringa

yotib, miriqib uxlashni istardi, hozir ko'ngliga boshqa hech nima sig'masdi.

– Bizning Vazastanda uchar-josus paydo bo'lganligini na-hotki gazetadan o'qimagan bo'lsangiz? – deb so'radi Rulle va cho'ntagidan buklangan gazetani oldi.

Lekin bu maqola Yulius amakini shubhalantirdi.

– Gazetada yozilgan bema'ni, bo'lmag'ur gaplarning hammasiga ishonaverish kerak emas, – dedi u. – Lekin men yana bir bor o'qib chiqishga tayyorman. Shoshmang, hozir ko'zoynagimni olib chiqay.

U xonasiga kirib ketdi-yu, lekin o'sha zahoti darg'azab bo'lib qaytib chiqdi.

– Bunaqa politsiyachilardan o'rgildim! – deb o'shqirdi. – Hamyonim bilan soatimni o'g'irlashibdi-yu! Marhamat qilib, hamma narsamni hoziroq qaytarib bersangiz!

Lekin endi Fille bilan Rullening ham jahli chiqib ketdi.

– Politsiyachilarni soat bilan hamyonni o'g'irlashda ayblash xavfli, – dedi Rulle.

– Nima, shuni ham bilmaysizmi? – deb so'radi Fille. – Politsiyaga tuhmat qilganingiz uchun qamalib ketishingiz ham hech gap emas. Balki, bu narsalardan xabaringiz yo'qdir?

Birdan Karlsonning yuzi o'zgardi-yu, xuddi Yulius amakiday o'shqirdi, buni ustiga uni itarib yubordi. Qoni qaynab ketganligi shunday yuzidan bilinib turardi.

– Xo'sh, karamel solingan xaltacham-chi? – deb o'shqirdi u. – Uni kim oldi?

Fille unga g'azab bilan tikildi.

– Nima, bunda ham bizni aybdor qilyapsanmi?

– Yo'q, men esimni yeganim yo'q, – dedi Karlson. – Tuhmat – bu jiddiy gap. Lekin men bir narsani aytib qo'yishim kerak: agar xaltachani olgan bo'lsangiz-u hoziroq qaytarib bermasangiz, boshqa ko'zingni ham ko'kartirib qo'yaman.

Mittivoy shosha-pisha cho'ntagidan xaltachani oldi.

– Mana, konfetlaring, – dedi u xaltachani Karlsonga uzatar-kan. – Men uni senga bergani oluvdim.

Bu orada gapga Fille aralashdi:

– Ha, hammasi tushunarli! O‘zlaringni ayblaringni bizlarga to‘nkamoqchimisizlar. Yo‘q, bunaqasi ketmaydi.

Shu paytgacha jim o‘tirgan Bok xonim ortiq chidayolmay, o‘z mulohazalarini aytgisi keldi.

– Soat bilan hamyonni kim o‘g‘irlagani menga ayon. Uning qiladigan ishi shu, bir qarasang, bulochka o‘g‘irlaydi, bir qarasang, quymoq, xullas, qo‘liga ilingan narsani qo‘ymaydi.

U shunday deb Karlsonni ko‘rsatdi, Karlsonning jahli chiqib ketdi.

– Hoy, menga qara! – deb o‘shqirdi u. – Bu, axir tuhmatku, axir, tuhmat uchun javob berishadi, nima, shuni ham bilmaysanmi?

Lekin Bok xonim Karlsondan teskari o‘girilib oldi. U Yulius amaki bilan jiddiy gaplashib olishi kerak edi. Uning fikricha, bu janoblar maxfiy politsiyadan bo‘lishlari ham mumkin edi. Shuning uchun ham ularning ko‘rinishlari juda g‘alati, yana juda yomon kiyinishgan. Bok xonim, hamma o‘g‘rilar ham juldur-juldur kiyimda yurishadi, deb o‘ylardi, axir, u haqiqiy qulfbuzar o‘g‘rini hech qachon ko‘rmagan-da.

Fille bilan Rullega darrov jon kirdi. Fille, bu ayolning donoligini, dilbarligini ko‘rishim bilanoq sezdim, tanishganimdan juda xursandman, omadim bor ekan, dedi. U dalda berarmikin, deganday Yulius amakiga bir necha bor murojaat qildi.

– Juda ajoyib ayol-a, bunaqalar kam topiladi, to‘g‘ri emasmi? Nahotki, siz boshqa fikrda bo‘lsangiz?

Bu xususda Yulius amakining ilgari qanday fikrda bo‘lganligi ma‘lum emas-ku, lekin hozir Fillening fikriga qo‘shilishga majbur edi. Bok xonim esa bu maqtov gaplardan xijolat bo‘lib yerga qarab, qizarardi.

– Ha, shaqildoq ilonday kam uchraydigan ayol, – deb to‘ng‘illadi Karlson.

U burchakda Mittivoyning yonida o‘tirib, karamelni ustma-ust og‘ziga solib, qarsillatib chaynagani butun xonaga eshitilib turardi. Xaltacha bo‘shaganidan keyingina u o‘rnidan sapchib turdi-da, xonada u yoqdan bu yoqqa sakray boshladi. Bir qarashda, u o‘ynayotganday tuyulardi, lekin aslida mana shunday

bema'ni sakrashlar yordamida Fille bilan Rulle o'tirgan stullarga asta-sekin yaqinlashib oldi.

— Sizday benazir ayolni yana bir bor ko'rishni istardik, — deb bo'sh kelmasdi Fille. Bok xonim esa battar qizarib, xijolatdan boshini ko'tarolmasdi.

— Ha, albatta, albatta, Bok xonim topilmas, ajoyib ayol, — deb uning fikriga qo'shildi Yulius amaki, — lekin men, har holda, soatim bilan hamyonimni kim olganini bilishni istardim.

Fille bilan Rulle go'yo uning bu gaplarini eshitmaganday beparvo turishardi. Fille Bok xonimga shunday mahliyo bo'lib qolganidan, boshqa hech narsa bilan ishi bo'lmay qoldi.

— Ko'rinishi ham dilbar, to'g'ri emasmi, Rulle? — dedi Fille sekin, lekin Bok xonim eshitadigan qilib. — Ko'zlari chiroyli... burni-chi, burnini aytmaysanmi, bunaqa burun har qanday havoda ham husnini yo'qotmaydi, to'g'rimi, Rulle?

Bu gapni eshitib Bok xonim o'tirgan joyidan sapchib turdi, ko'zlari olayib ketdi.

— Nima? — deb baqirdi u. — Nima dedingiz? Fille dovdirab qoldi.

Men faqat shuni aytmoqchi edimki... — deb g'o'ldiradi, lekin Bok xonim uni gapirtirmadi.

— Ishonchim komilki, bu Filipp, — dedi u. Shunda birdan Bok xonim Mittivoyning nazarida Onajonisiga o'xshab ketdi.

Fille mot bo'ldi.

— Siz qayoqdan bilasiz? Nima, mening haqimda eshitgan-midingiz?

Bok xonim istehzoli jilmayib, bosh irg'adi.

— Bizning to'g'rimizda biror gap eshitganmisiz, deb so'rayapsizlar-a? Bo'lmasam-chi, gapimga ishonavering! Uning ismi, hoynahoy, Rudolf bo'lsa kerak-a, shundaymi? — deb qo'shib qo'ydi va qo'li bilan Rulleni ko'rsatdi.

— Qiziq. Xo'sh, qayoqdan bildingiz? Balki, tanishlarimizni tanirsiz? — deb so'radi Fille, og'zi qulog'iga yetib, yayrab kularkan.

Bok xonim yana masxaraomuz iljayib, bosh irg'adi.

— Ha, bo'lsa bordir. Freygatenlik Frida Bok xonim. Siz uni taniysiz shekilli? Uning ham burni juda chiroyli, har qanday havoda ham husnini yo'qotmaydi, xuddi menikiday-a, shundaymi?

Ko'rinib turibdi, Fille burunlarni ta'riflayman deb qovun tushirib qo'yganini sezdi-yu, darrov tumshayib oldi. Bu ham gapmi, bu yerdan tezroq juftakni rostlashni istab qoldi, aftidan, Rulle ham bu yerda ko'p o'tirmoqchi emasdi. Lekin ularning orqasida Karlson turardi. Sira kutilmagandan vang'illab o'q uzildi. Fille bilan Rulle qo'rqanlaridan o'rinlaridan sapchib turib ketishdi.

– Otmagin! – deb baqirdi Fille, chunki Karlson ko'rsatkich barmog'ini uning orqasiga sanchib turardi, u bo'lsa, buni to'pponchaning og'zi deb o'yladi.

– Qani hamyon bilan soatni buyoqqa olib qo'yinglar! – deb buyurdi Karlson. – Yo'qsa, shartta otaman.

Fille bilan Rulle cho'ntaklarini asabiy titkilay boshladilar, oradan bir zum o'tar-o'tmas soat va hamyon Yulius amakining tizzasida paydo bo'ldi.

– Voy, yaramas-ey! – deb baqirdi Fille, so'ngra Rulle ikkovi dahlizga yashin tezligida otilib chiqib ketdi. Ularni hech kim to'xtatib qolmadi, eshikni sharaqlatib yopishdi-da, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Birinchi bo'lib Bok xonim o'ziga keldi-yu, orqalaridan ketma-ket chopib chiqdi. U maydonchada turib, zinadan pastga orqaloldiga qaramay chopib tushayotgan o'g'rilar orqasidan qichqirdi:

– Gapimga ishonaver, Frida bu voqealardan albatta xabar topadi! U juda xursand bo'ladigan bo'ldi-da.

Bok xonim go'yo ularni quvib yetmoqchi bo'lganday, zinapoyaning bir necha pog'onasidan sakrab tushdi, keyin to'xtadi-da, orqalaridan qichqirib qoldi:

– Endi Freyगतenga qadam bosishni xayollaringga keltirmalaring, yo'qsa, qon to'kiladi. Gapimni eshityapsizlarmi?... Qon...

## KARLSON YULIUS AMAKINI ERTAKLAR OLAMIGA OLIB KIRDI



ille va Rulle bilan bo'lib o'tgan o'sha to's-to'polonli kechadan keyin Karlson yana ham kekkayib ketdi.

«Jahondagi eng zo'r Karlson huzuringda!» – Mittivoyni har kuni ertalab mana shu qichqiriq uyg'otardi. Bir zum o'tmay xonaga Karlson uchib kirardi. Har kuni ertalab,

qanchalik o'sganini bilish uchun u birinchi navbatda tuvakdan shaftoli danagini olardi, keyin har doim Mittivoyning stoli tepasidagi eski oyna oldiga borardi. Bu kichkina oyna edi, lekin o'zini yaxshilab ko'rib olish uchun Karlson uning atrofida uzoq uchib yurardi. Lekin bu ishni bo'lib-bo'lib qilishga to'g'ri keldi, chunki butun gavdasining aksi oynaga sig'masdi.

U uchib yurar ekan, dimog'ida qandaydir qo'shiqni xirgoyi qilardi, bu qo'shiqda u o'zini, ko'rgan-kechirganlarini kuylardi. «Jahondagi eng zo'r Karlson... hi-ti-ti-hi, o'n ming kron turadi... U yana o'g'rilarni qo'lga tushirdi, to'pponchadan otdi... Juda g'alati oyna... Unda jahondagi eng zo'r Karlsonni to'la-to'kisligicha ko'rib bo'lmay-di-ya... Lekin nimaiki ko'rinsa, o'sha chiroyli... hi-ti-ti-hi... Ha, tobida semirgan, ha, ha... Yana har jihatdan yaxshi...»

Mittivoy bu gapga qo'shildirdi. U ham Karlson har jihatdan yaxshi deb hisoblardi. Eng qizig'i shundaki, Yulius amaki ham bora-bora, asta-sekin unga astoydil mehr qo'ydi. Axir, soat bilan hamyonni unga Karlson qaytarib olib berdi-da. Bu yaxshilikni Yulius amaki tezda unutib yuborolmasdi. Bok xonim esa, aksincha, doimo undan jahli chiqib yurardi, lekin Karlson bunga parvo qilmasdi, unga ovqatini vaqtida berib tursa bo'lgani edi, Bok xonim esa buni hech kanda qilmasdi.

«Agar mening qornimni to'ydirishmasa, men men bo'lmay qolaman», — degan edi bir marta Karlson.

Bok xonim, Karlsonning kunda-shundaligini yoqtirmasdi-yu, lekin haydab solishga ham botinolmasdi, chunki Mittivoy bilan Yulius amaki uning ustida suv o'girib ichishardi. Agar Karlson ayni ovqatga o'tirayotgan paytda kelsa, Bok xonim doim norozi bo'lib ming'illardi, lekin biror chora ko'rishga ojiz edi. Karlson hamma bilan birga ovqatlanardi.

Fille va Rulle bilan bo'lib o'tgan o'sha sarguzashtli kechadan keyin u muntazam uchib keladigan bo'ldi, go'yo bu tabiiy bir narsaday edi.

Karlson o'sha tundagi sho'xliklaridan biroz charchagan ko'rinadi, chunki ertasiga tushki ovqat paytida uchib keldi. U Mittivoyning xonasiga uchib kirdi-da, oshxonadan nimaning hidi kelyapti, deganday darrov hidlay boshladi.

Mittivoy ham o'sha kuni uzoq uxladi (u Bimboni yonida birga olib yotdi) – ma'lum bo'lishicha, butun kechasi o'g'rilar bilan ovora bo'lgandan keyin dam olish kerak ekan – u Karlsonning kelishi oldidan uyg'ondi. To'g'rirog'i, u o'zi uyg'ongani yo'q, oshxonadan eshitilayotgan qandaydir g'alati tovushdan uyg'onib ketdi. Bok xonim u yoqdan bu yoqqa yurib, ashula aytardi. Baland ovozda aytardi. Mittivoy ilgarilari uning ashula aytganini hecham eshitmagandi. Shuning uchun ham hozir bas qilsa kerak, deb o'ylardi, chunki bu juda dahshat edi. Qandaydir, tushuntirib bo'lmaydigan sababga ko'ra bugun Bok xonimning kayfi juda chog' edi. Ertalab uyiga, Fridaning oldiga borib kelishga ulgur-gandi, ehtimol xuddi shu narsa uning ko'nglini tog'day ko'tarib yuborgandi shekilli, ovozining boricha ashula ayta boshlagan. «Eh, Frida, bu sening eng yaxshi...» – deb kuylardi u, lekin Frida uchun eng yaxshi narsa nimaligini Mittivoy shu-shu bilolmadi, chunki Karlson oshxonaga, uning huzuriga uchib kirib, baqirdi:

– Jim bo'li! Ovozingni o'chir! Sen mana shunday bo'kirganingda, odamlar, Karlson uni uryapti deb o'ylashlari mumkin.

Bok xonim jim bo'ldi-da, qosh-qovog'i osilib eskaloplarni qovura boshladi. Yulius amaki kelganidan keyin hammalari yumaloq stol atrofiga o'tirishib, ovqatlanishdi. «Hammalari birga o'tirishib, o'sha kechadagi voqeani muhokama qilishyapti, hammasiga ham yaxshi», deb o'yladi Mittivoy. Karlson ham tushlikdan xursand bo'lib, Bok xonimni ko'klarga ko'tarib maqtardi.

– Bugun bir iting ketib, eskaloplarni boplab tayyorlabsan, – dedi uning ko'nglini ko'tarib.

Bok xonim tumtayib oldi. U faqat og'ir xo'rsindi-da, lablarini qimtid.

Kichkina qolipchalarga qo'yib tayyorlangan shokolad puding ham Karlsonga ma'qul bo'ldi. Mittivoy o'z porsiyasidan bir qoshiq yeyishga ulgurmasidanoq Karlson o'z porsiyasini bir yamlab yutdi-da, dedi:

– Ha, puding zo'r bo'пти, shubhasiz, lekin bilaman, bundan ikki baravar shirin narsa bor.

– Nima ekan? – deb qiziqib so'radi Mittivoy.

– Shunaqa pudingdan ikkitasi-da, – deb tushuntirdi Karlson va o'ziga yana quyib oldi. Bu demak Bok xonim shirinliksiz qoladi, degan gap, chunki shokolad to'rt porsiya tayyorlangandi-da.

Karlson Bok xonimning norozi bo'lib qaraganini sezib, do'mboq ko'rsatkich barmog'ini ko'tardi.

– Axir, tushunsang-chi, stol atrofida semiz odamlar ham o'tirishibdi, ular albatta ozishlari kerak. Payqadingmi, ular ikki kishidan kam emas. Ismlarini aytib o'tirmayman, har holda, men emasman, mana bu qiltiriq ham emas, – dedi u va barmog'i bilan Mittivoyni turtib ko'rsatdi.

Bok xonim lablarini battar qisib, lom-mim demadi. Mittivoy Yulius amakiga xavotirlanib qarab qo'ydi, lekin u bu gaplarni eshitmadi, shekilli. U hamon allanimalar deb ming'illardi. Shahar politsiyasi juda rasvo-da! U uchastkaga telefon qilib, bo'lgan voqeani gapirib berdi, lekin uning so'zlari ularda hech qanday qiziqish uyg'otmadi. O'sha kechasi yana 313 ta uyga o'g'ri tushdi, ular bilan ham shug'ullanishimiz kerak, deyishdi. Ular, faqat nima yo'qolgani bilan qiziqishdi.

– O'shandan keyin, – deb Yulius amaki o'z hikoyasini yana bir boshdan takrorladi, – ha, bir dovyurak, aqlli bola sharofati bilan o'g'rilar uydan quruq ketishga majbur bo'lishdi, deb tushuntirdim.

Shunday dedi-da, Yulius amaki Karlsonga, qoyil qilding, deganday qarab qo'ydi, u bo'lsa xo'rozday ko'kragini kerib, Bok xonimga g'olibona nazar tashladi.

– Xo'sh, bunga nima deysan? Jahondagi eng zo'r Karlson o'g'rilarni to'pponcha bilan qo'rqitadi! – deb xitob qildi u.

To'g'risini aytganda, bu to'pponchadan Yulius amaki ham qo'rqib ketdi. U o'z narsalarini qaytib olganidan juda xursand va minnatdor edi, lekin, baribir, u bolalar otish quroli bilan yurmasligi kerak, deb hisoblardi, Fille bilan Rulle qochib ketishganidan keyin, Mittivoy buning o'yinchoq ekanligini Yulius amakiga tushuntirguncha ona suti og'ziga keldi. Shundayam Yulius amaking bunga sira ishongisi kelmasdi.

Tushki ovqatdan keyin Yulius amaki sigara olgani mehmonxonaga kirib ketdi. Bok xonim stoldan idish-tovoqlarni yig'ishtirib, yuva boshladi, hatto Karlson ham hozir uning kayfiyatini buzol-

masdi. «Eh, Frida, bu sen uchun eng yaxshi!..» – deb xirgoyi qila boshladi. Lekin shu payt u bironta ham sochiq yo'qligini ko'rdi-yu, yana jahli chiqdi.

– Hayronman, bu sochiqlarning hammasi qayoqqa yo'qolibdiya, – dedi u va sarosimada oshxonaga ko'z yugurtirib chiqdi.

– Mana men, dunyoda eng zo'r sochiq qidiruvchi! – deb xitob qildi Karlson ko'kragiga urib. – Sen undan yaxshilab iltimos qilsang, Karlson aqlini peshlab ko'rgan bo'lardi, lekin mu'loyim so'rash sening qo'lingdan kelmaydi-da!

Karlson Mittivoyning xonasiga chopib kirdi-da, bir quchoq sochiqni ko'tarib chiqdi. Sochiqlar kir-chir bo'lib, g'ijimlanib ketgandi. Buni ko'rib Bok xonimning tepa sochi tikka bo'ldi.

– Bu sochiqlarni qayerda bunchalik kir qilding? – deb o'shqirdi u Karlsonga.

– Ular ertaklar olamiga sayohat qilishdi, – dedi Karlson.

Shu tariqa kunlar o'taverdi. Mittivoy oyisi bilan dadasidan otkritka oldi. Ular sayohat juda soz o'tayotganini, Mittivoy ham vaqtini xursandchilik bilan o'tkazayotgan hamda Yulius amakiyu Bok xonim bilan ham tinch-totuv yashayotgan bo'lsa kerak degan umiddamiz, deyishibdi.

Xatda tomدا yashovchi Karlson to'g'risida eslanmagandi, bu Karlsonni qattiq ranjitdi.

– Ularga o'zim otkritka yozardim-u, lekin marka olishga besh erem yo'q-da, – dedi u. – «Garchi sizlarni mening uy zolimasi bilan qanchalik til topishganligim mutlaqo qiziqtirmasa ham, – deb yozgan bo'lardim ularga, – shuni ma'lum qilib qo'yayki, muomalamiz yaxshi, chunki men to'pponchadan o'q otib, o'g'rilarini quvib yubordim, uy zolimasi yo'qotgan hamma sochiqlarni topib berdim».

Mittivoy Karlsonning pochta markasi olish uchun besh eresi yo'qligidan baxtiyor edi. U, oyisi bilan dadasi bunday otkritka olmasligi kerakligini tushunardi.

Mittivoy aqchadonini allaqachon ochib undagi bor pulini Karlsonga bergan edi, bu pullarni esa do'sti tiyini ham qoldirmay sarflab bo'lgandi, endi bo'lsa jahli chiqardi.

– Bu qanaqa bema’nilik, – deb to’ng’illarda Karlson, – axir, narxim o’n ming kron tursa-yu, yonimda esa pochta markasi olish uchun hatto bir mirim ham bo’lmasa! Sen nima deysan, Yulius amaki oyoqlarimdagi katta barmoqlarimni sotib olishga rozi bo’lmasmikin?

– Mittivoy, u hech qachon rozi bo’lmaydi, dedi.

– Balki, rozi bo’lar? U menga juda qoyil qolib yuribdi-yu, – deb bo’sh kelmasdi Karlson.

Lekin Mittivoy so’zida qattiq turdi. Karlson jahli chiqdi-da, tomdagi o’z uychasiga uchib ketdi va Mittivoy «tezroq uchib kelgin» deb ikki marta signal berganidan keyingina qaytib uchib keldi, chunki ovqatlanadigan vaqt bo’lgandi-da.

«Oyim bilan dadam Yulius amaki Bok xonim bilan murosa qilib yashayaptimikin, deb xavotir olishyapti shekilli, chunki bu xususda maxsus yozishti-ku, deb o’yladi Mittivoy, – lekin ular behudaga bezovta bo’lishyapti. Yulius amaki va Bok xonim bir-birlari bilan juda apoq-chapoq». Mittivoy buni har kuni sezib bilib turardi, ular bir-birlari bilan bajonidil gaplashishardi. Ular ko’pincha mehmonxonada uzoq o’tirib qolishardi, Yulius amaki ertaklar olami to’g’risida nimalarnidir tinimsiz gapirardi, Bok xonim unga kulib turib, xushmuomalalik bilan javob qilardiki, Mittivoy, shu o’zimizning Bok xonimmi, deb tanimay qolardi.

Bora-bora Karlsonda hatto qandaydir shubhalar tug’ila boshladi. Bu Bok xonim mehmonxona eshigini yopib oladigan o’sha kundan paydo bo’lgandi. Gap shundaki, ikki yoqqa suriladigan bu eshikdan Svantesonlar hech qachon foydalanishmasdi, mehmonxonani dahlizdan faqat pardalargina ajratib turardi. Mana endi, Bok xonim birdan negadir o’sha eshikni bekitadigan bo’lib qoldi. Mabodo, xonaga Karlson kirib qolguday bo’lsa, Yulius amaki, bolalar boshqa joyda o’ynashlari kerak, bizlar qahvamizni bemalol, xotirjam o’tirib ichmoqchimiz, deb uni haydagudek qilib chiqarib yuborardi.

– Mening ham qahva ichgim bor, – derdi Karlson xunob bo’lib, – menga tezroq qahva quyib, sigarangizdan chektiring, sizlar bilan birpas o’tiraman!

Lekin Yulius amaki uni o'sha zahotiyiq xonadan chiqarib yubordi. Bok xonim esa yayrab kulardi. Nihoyat uning qo'li baland keldi-ya.

– Men bunga ortiq chidayolmayman! – dedi bir kuni Karlson. – Ularning adabini berib qo'yaman.

Ertasiga ertalab, Yulius amaki doktorga ko'ringani, Bok xonim salaka xarid qilgani bozorga ketganida Karlson qo'lida katta parma bilan uning xonasiga kirdi. Mittivoy bu parmani ilgarilari ham ko'rgandi: u tomdagi uyning devorida osig'liq turardi, nega endi Karlson uni bu yerga olib kelganini Mittivoy juda-juda bilgisi kelardi. Lekin shu payt pochta yashigiga nimadir tashlashdi, Mittivoy uni olgani dahlizga chopib chiqib ketdi. Ikkita otkritka kelgandi, bittasi Bossedan, boshqasi Betandan. Mittivoy quvonchi ichiga sig'may, ularni qayta-qayta o'qib chiqdi, xullas, bu o'qishni tugatganda Karlson ham o'z ishini qilib bo'lgan ekan: u mehmonxona eshigini parmalab katta teshik ochibdi.

– Nima qilib qo'yding, Karlson! – deb baqirdi Mittivoy qo'rquv ichida. – Axir, eshiklarda ham teshiklar ochishadimi? Nega bunday qilding?

– Nega bo'larkan? Ularning xonada nima ishlar qilishini ko'rish uchun-da! – deb javob berdi Karlson.

– Axir, uyalmaysanmi! Teshikdan mo'ralash odobsizlik, deydi oyim.

– Sening oying juda dono ayol. U mutlaqo haq. Qulf teshigi ko'zlar emas, kalit uchun ishlangan-da. Lekin bu axir qulf teshigi emas, balki kichkina ko'zcha-yu. Ko'zchani esa ko'zlar uchun qilishadi-da, axir, bu so'zning ma'nosidan ham ko'rinib turibdi-yu. Xo'sh, endi nima deb e'tiroz bildira olasan?

Mittivoy jo'yali javob berolmadi.

Bu payt Karlson og'zidagi saqichini oldi-da, ko'rinmasin, deb ko'zchani saqich bilan berkitib qo'ydi.

– Hoy-xo'p! – deb xitob qildi. – Xursandchilik qilmaganimizga ham ancha bo'ldi-ya, lekin so'z beramanki, bugun kechamiz xushchaqchaq o'tadi, hecham zerikmaymiz.

Karlson parmani qo'lga olib uchishga hozirlandi.

– Mening qiladigan yana bir ishim bor, – deb tushuntirdi. – Lekin salakaga yetib kelaman.

– Nima ish ekan? – deb so‘radi Mittivoy.

– Arzimagan ish, aqalli markaga yetadigan pul tushadi-yu, – dedi Karlson va uchib ketdi.

Lekin salakani dudlay boshlaganlarida Karlson qaytib kelib, kuni bilan kayfi chog‘ bo‘lib yurdi. U cho‘ntagidan besh erelik tangani oldi-da, uni Bok xonimga uzatdi.

– Bu senga mukofot o‘rnida, – dedi u. – O‘zingga biror bezak sotib olarsan: marjonmi yoki boshqa biror narsami!

Bok xonim tangani jahl bilan otib yubordi.

– Men senga bezakni ko‘rsatib qo‘yaman! – deb o‘shqirdi, lekin shu payt Yulius amaki kirib qoldi-yu, Bok xonimning ovozi tindi.

– Qaragin-a, ertaklar ishqibozi kelishi bilan u ipakday mu-loyim bo‘lib qoladi-ya! – deb shivirladi Karlson Mittivoyga.

Bok xonim bilan Yulius amaki odatdagiday, qarama-qarshi o‘tirib olib qahva ichgani mehmonxonaga kirib ketishdi.

– Mana endi, ularning uyoqda nima ish qilishlarini ko‘rsak bo‘ladi, – dedi Karlson. – Men u bilan til topishishga so‘nggi bor urinib ko‘rdim, lekin u menga qarshi urush e‘lon qildi. Nima ham derdik, uning popugini pasaytirish va tiyish bilan yana bir bor shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Endi mendan shafqat kutma-sin!

Karlsonning ko‘krak cho‘ntagidan sigara olganini ko‘rib, Mittivoy hang-u mang bo‘lib qoldi. U gugurt chaqib, sigarasini tutatdi-da, mehmonxona eshigini taqillatdi. Hech kim: «Marhamat», deb chaqirmadi, lekin, baribir, u sigarasini buruq-satib, betakalluf kirib bordi.

– Kechirasiz, bu chekish xonasi shekilli, – dedi u viqor bilan. – Demak, bu yerda sigaramni chekib tamomlasam bo‘larkan-da.

Yulius amaki darg‘azab bo‘ldi. U Karlsonning sigarasini shart-ta yulib oldi-da, ikkiga bo‘lib tashladi, agar chekkaningni yana bir bor ko‘rsam, shunday adabingni berayki, bir umr esingdan chiqmaydigan bo‘ladi, dedi. Hatto Mittivoy bilan o‘ynashga ham ortiq ruxsat bermayman, deb dag‘dag‘a qildi.

Karlson xafa bo‘lib, lablarini cho‘chchaytirdi, ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lgandi, u alamiga chidayolmay oyog‘i bilan Yulius amakini sekin tepib qo‘ydi.

– Ikkovimiz ancha apoq-chapoq bo‘lib qoluvdig-a, yaramas Yulius amaki!– deb to‘ng‘illadi va dilozoriga shunday o‘qrayib qaradiki, Yulius amaki to‘g‘risida qanday fikrda ekanligi aniq-ravshan edi.

Lekin Yulius amaki uni o‘sha zahoti xonadan chiqarib yubordi-da, eshikni qattiq yopib, qulflab qo‘ydi. Umrida birinchi marta.

– Mana, o‘zing ko‘rib turibsan, bularni tiymaslikning hech iloji yo‘q, – dedi Karlson Mittivoyga.

U mushti bilan eshikni yana taqillatar ekan, qichqirdi:

– Har holda, meni yaxshi sigara bilan mehmon qilarsan, deb o‘ylayman.

Keyin Karlson qo‘llarini cho‘ntaklariga soldi-da, nimanidir shaldirata boshladi. Aftidan, tangalar bo‘lsa kerak. Ha, chindanam, cho‘ntaklari besh erelik tangalarga liq to‘la edi.

– Ha, omadim keldi, boyib qoldim, – dedi u. Mittivoy tashvishga tushib qoldi.

– Shuncha pulni qayoqdan olding?

Karlson javob o‘rniga sirli ko‘z qisib qo‘ydi.

– Buni faqat ertaga bilasan, – dedi u.

Mittivoy battar bezovta bo‘la boshladi. Axir, Karlson qayoq-qadir uchib borib keldi-ku, o‘sha pullarni o‘g‘irlagan bo‘lsa-ya! Axir, uning bu ishi Fille bilan Rullening qilgan ishidan yaxshi emas-ku, ha, buning olmalarni qo‘shishdan hech yaxshi joyi yo‘g‘-u, o‘zi maqtanganday qo‘shishga ustasi farang. Mittivoy qattiq hayajonlanganidan nima qilarini bilmay qoldi. Lekin hozir bu haqda o‘ylab o‘tirishga vaqt yo‘q edi, chunki Karlson eshik teshigidan saqichni sekin, ehtiyotlik bilan chiqarib oldi.

– Ha, ayb o‘zlaringda! – dedi u va bir ko‘zini teshikka tutdi. Lekin, go‘yo dahshatli bir narsani ko‘rganday, o‘sha zahoti orqasiga tashlandi. – Bu nima rasvogarchilik! – dedi Karlson qoni qaynab.

– Ular nima qilishyapti? – Mittivoy ham bilishni juda istardi.

– Menam shuni bilmoqchi edim, lekin ular g‘oyib bo‘lishdi. Yulius amaki bilan Bok xonim odatda kichkina divanchada o‘tirishardi, uni teshikdan bemalol ko‘rsa bo‘lardi. Karlson

og'zida sigarasi bilan xonaga kirganida ular shu divanchada o'tirishgandi. Lekin hozir ular u yerda yo'q edi. Mittivoy teshikdan qarab o'zi ham bunga ishonch hosil qildi. Aftidan, ular deraza oldidagi divanga o'tib o'tirishgan bo'lsa kerak, bu Karlsonning fikricha o'taketgan razillik, hatto makkorlik edi. Jindek vijdoni bor odamlar, deb ishontirmoqchi bo'lardi Karlson, doimo shunday o'tirishadiki, ularni qulf teshigidan yoki ko'zchadan bermalol ko'rsa bo'ladi.

Bechora Karlson! U dahlizdagi stulga o'tirganicha, bir nuqtaga g'amgin tikilib qoldi. U bu gal aniq yutkazgandi. Uning ko'zcha haqidagi ajoyib g'oyasi bema'ni bir narsa bo'lib chiqdi: bu og'ir zarba edi.

— Ketdik, — dedi u nihoyat. — Yur, xonangni bir titkilab ko'raylik-chi, ehtimol, qaqir-ququrlar orasidan tiyish uchun biror asbob toparmiz.

Karlson Mittivoyning qutilarini uzoq titkiladi, lekin qidirgan narsasi hadeganda ko'ziga tushavermadi. Bir payt u xursand bo'lganidan hushtak chalib yubordi-da, uzun shisha naychani oldi, Mittivoy bu naycha orqali no'xat otardi.

— Tiyish uchun ajoyib asbob! — deb baqirdi Karlson. — Qani endi yana biron-bir narsa topsak, zo'r bo'lardi-da!

U yana bir ajoyib narsa topdi — havo shari, uni istagancha puflab katta qilish mumkin edi.

— Hoy-xo'p!.. — deb xitob qildi Karlson, u sharchani naychaga bog'layotganda do'mboq qo'lchalari sabrsizlik bilan qaltirardi. Keyin u naychani labiga tutib, sharni puflab shishirdi, sariq shardagi qora bo'yoq bilan chizilgan chehraning asta-sekin juda kattalashib borayotganini ko'rib sevinchdan baqirib yubordi.

— Bu bilan chollarni tasvirlash mumkin, — dedi Mittivoy.

— Ha, buning yordamida istagan narsangni tasvirlash mumkin, — deb uni ishontirdi Karlson, keyin yana sharchadan havo chiqardi. — Eng muhimi, buning yordamida boplab tiyish mumkin.

Xullas, ish yurishib ketdi. Juda qoyilmaqom bo'ldi, lekin Mittivoy xaxolab kulaman deb, sal bo'lmasa ishni buzib qo'yay dedi.

– Hoy-xo‘p, – deb shivirladi Karlson va shisha naychaga boylangan havo sharchasini ehtiyotlik bilan teshikchaga tiqdi. So‘ngra naychaga kuchining boricha pufladi, Mittivoy esa yonida turib, ichagi uzilguday bo‘lib kulardi. U deraza oldidagi divanda o‘tirishgan Yulius amaki bilan Bok xonimning birdan, shunday ko‘zlari oldida, nimqorong‘ida allaqanday cholning oyga o‘xshash yum-yumaloq yuzi xuddi pufakdek paydo bo‘lib, tobora kattayishini ko‘rishlarini o‘zicha tasavvur qildi. Mittivoy, buning qanchalik dahshatli bo‘lishini fahmlardi.

– Xuddi ajinaga o‘xshab uvillash kerak, – dedi Karlson. – Hozircha sen puflab tur, sharchaning dami chiqib ketmasin.

Mittivoy puflay boshladi. Karlson esa zo‘r berib ingranar, uh tortardi. Aftidan, mehmonxonani ichidan berkitib o‘tirishgan o‘sha ikki odam bu ingrashlarni eshitib, oyga o‘xshagan cholni ko‘rishgan bo‘lishsa kerak, har holda ichkaridan qiyqiriq eshitildi. Karlson xuddi shunday bo‘lishini kutgandi.

– Ular baqirishyapti, – dedi Karlson xursand bo‘lib va shu zahoti qo‘shib qo‘ydi: – Endi eng muhimi – buyog‘ini bo‘shashtirmaslik kerak.

U shunday dedi-da, yana sharchaning damini chiqara boshladi. Past va sirli hushtaksimon ovoz eshitildi, shaffof chol erib ketganidan keyin Karlson dami chiqarilgan rezina sharchani naychasi bilan teshikchadan chaqqon chiqarib oldi-da, yana teshikchani saqich bilan berkitib tashladi, o‘zi bo‘lsa xuddi kirpiday yumalab-yumalab dasturxon yopilgan stol tagiga, boya o‘g‘rilarni kutib, yashiringan o‘sha stol tagiga kirib ketdi. Mittivoy uning orqasidan borib yashirinishga arang ulgurdi-yu, shu zahoti qulf shaqillab, eshik qiya ochildi-da, Bok xonim boshini chiqarib dahlizga mo‘raladi.

– Menimcha, bolalar bo‘lsa kerak, – dedi u. Lekin uning orqasida turgan Yulius amaki boshqacha fikrda edi.

– Senga necha bor aytdim-ku, biz ertaklar olamida, sirli bir olamda yashayapmiz deb. Afsonaviy maxluqlar yopiq eshiklar, devorlar orasidan ham bemalol o‘tishaveradi, sen bo‘lsang, buni tushunging kelmayapti!

Bok xonim taqdirga tan berib, agar yaxshilab o‘ylab ko‘rsam, bu narsalarni tushunaman, albatta, dedi itoatgo‘ylik bilan. Lekin

u bu afsonaviy maxluqlarning Yulius amaki bilan qahva ichishlariga xalaqit berishlarini sira-sira istamasdi, shuning uchun Yulius amakini qaytadan mehmonxonaga boshlab olib kirib ketdi. Karlson ham, Mittivoy ham yana yopiq eshik orqasida qolishdi. «Teshikdan qarashning ham hech qizig'i yo'q», deb o'yladi Mittivoy. Karlson ham shu fikrda edi. Ha, buni qarang-a, Karlson ham shunday deb hisoblayapti.

Shu payt, baxtlariga, telefon jiringlab qoldi. Qandaydir ayol ovozi Bok xonimni so'radi. Mittivoy, Freyगतendan Frida telefon qilayotganini fahmladi-yu juda sevinib ketdi. Endi uning Bok xonimga xalaqit berishga to'la haqqi bor edi, garchi u aslida yaxshi bola bo'lsa ham, bu ishni bajonidil qildi.

– Bok xonim, sizni telefonga chaqirishyapti! – deb qichqirdi u va mehmonxona eshigini gursillatib urdi.

Lekin foydasi bo'lmadi.

– Band ekanlar, deb ayt! – deb qichqirdi Bok xonim yopiq eshik orqasidan. Frida ham Bok xonimning Yulius amaki bilan tanho o'tirishlariga xalaqit berishga afsonaviy maxluqlarga o'xshab ojizlik qilardi.

Mittivoy telefon oldiga qaytib keldi-da. Bok xonim kelolmas ekan, dedi. Lekin Frida, opasining hozir nima bilan mashg'ul ekanligini, nega endi telefonga kelolmasligining sababini juda-juda bilgisi kelardi, shuning uchun ham Mittivoyni savolga ko'mib tashladi. Sira bo'lmagach, Mittivoy axiyri shunday dedi:

– Yaxshisi, o'zingiz ertaga so'rab bilarsiz.

U telefon trubkasini joyiga qo'ydi-da, Karlson nima qilayotganikin, deb atrofiga qaradi. Lekin Karlson hech qayerda yo'q edi. Mittivoyning qidirmagan joyi qolmadi, axiyri oshxonaga yugurdi. U lang ochiq deraza oldiga keldi-da, deraza tokchasida g'alati bir maxluqni ko'rdi. U yerda oyisining sevimli supurgisini allaqanday sirli maxluq ot qilib minib olib, uchishga tayyor turardi. Garchi bu maxluq ko'rinishda kichkina ajinaga o'xshasa ham, aslida u Karlson edi: yuziga qora surtilgan, boshida ro'mol, yelkasida esa alvastilar yopinchig'i – oyisining katta guldor peshbandi hilpirardi.

– Menga qara, Karlson, – dedi Mittivoy qo'rqib, – uchib yurganingni Yulius amaki ko'rmasligi kerak!

– Men Karlson emasman, – dedi Karlson bo'g'i ovozda, – men ajinaman, dunyodagi eng badjahl, eng dahshatli ajinaman.

– Voy! – deb qichqirib yubordi Mittivoy.

– Ha, ha, men ertaklar olamidan kelgan eng xavfli maxluqman, – deb bo'sh kelmasdi Karlson. – Meni ko'rganda hammaning sochi tikka bo'lib ketadi.

Ajina iyun oqshomining g'ira-shira qorong'iligida uchib yurardi. Mittivoy uning orqasidan nima qilishini bilmay qarab turardi. Keyin u Bossening xonasiga chopib kirdi, chunki uning derazasi ham mehmonxona derazasi bilan bir tomonda edi.

Ajina Mittivoyni ko'rib iljaydi-da, qo'lini silkitdi. – ha, bu ayni muddao bo'ldi, chunki Mittivoyga, bu haqiqiy ajina bo'lib tuyula boshlagandi – so'ngra ajina mehmonxona oynasidan mo'raladi. Bok xonim bilan Yulius amaki, aftidan, uni payqashmadi shekilli, chunki Mittivoyning qulog'iga ularning bir me'yordagi g'o'ng'illashi hamon eshitilib turardi. Birdan oqshom sukunatini qattiq qichqiriq buzdi. Ajinaning yurakni ezadigan qichqirig'i eshitildi-yu (u boshqalarning e'tiborini tortmoqchi edi), mehmonxonadagi g'o'ng'illash shu zahoti tindi.

Ajina esa Mittivoy oldiga qaytib uchib keldi-da, boshidagi ro'mol bilan egnidagi yopinchiqni yulib tashladi, yuzidagi qurumni oppoq deraza pardasiga artidi-yu, yana boyagi-boyagi Karlsonga aylandi-qoldi, supurgi bilan Bossening ajinalar kiyadigan kiyimini karavot tagiga uloqtirdi.

– Risolaga to'g'ri kelmaydigan ishlar-a? – dedi Karlson va og'ir xo'rsinib Mittivoyni oldiga keldi. – Qariyalarga o'zlarini bunday tutishlarini qonun yo'li bilan ta'qiqlab qo'yish kerak.

– Xo'sh, ular nima qilishayotganakan? – deb so'radi Mittivoy. Karlson asabiy bosh chayqadi.

– Yulius amaki uning qo'lini ushlab olgan! Qo'lini ushlab o'tiribdi! Axir, bu qanaqasi, uy dilozorining qo'lini ushlasa-ya, Xo'sh, sen bunga nima deysan?

Karlson gaplarim qanday ta'sir qildi, deb Mittivoyga tikildi, u o'zicha Mittivoy hozir hayratdan hushidan ketib qolsa kerak, deb o'ylagandi, lekin kutgani bo'lmagandan keyin Karlson o'shqirdi:

– Nima, gaplarimni eshitmayapsanmi? Bir-birlarining qo‘lini ushlab o‘tirishibdi-ya! Tavba, dunyoda shunday tentaklar ham bo‘larkan-da!

## DUNYODAGI ENG BADAVLAT KARLSON

**B**u kunni Mittivoy hech qachon unutmaydi. Uning o‘zi barvaqt uyg‘ondi: «Dunyodagi eng yaxshi Karlson» uni uyg‘otgani uchib kelmadi. «Juda g‘alati-ya», deb o‘yladi Mittivoy va gazeta olib kelgani pochta yashigiga chopib ketdi. U Yulius amaki qo‘lidan gazetani tortib olmasidan burun undagi hamma yolg‘on-yashiq gaplarni o‘qib chiqishga ulgurmoqchi edi.

Lekin u gazetadan hech qanday oldi-qochdi narsalarni topolmadi. Mittivoy, umuman, hech qachon gazetaning birinchi sahifasidan nariga o‘tolmasdi. Lekin hozir birdan uning ko‘zi:

### «SIR OCHILDI – BU YO‘LDOSH JOSUS EMAS EKAN»

degan sarlavhaga tushib qoldi.

Bu sarlavha ostida Vesterbron ustida uchib yurgan Karlsonning – ha, bu yerda xato bo‘lishi mumkin emas – rasmi berilgandi. Gazetada uning surati ham bosilgandi. U savlat to‘kib turar va kulimsirab parragi bilan qornidagi knopkasini ko‘rsatardi.

Mittivoy maqolani o‘qiy boshladi, o‘qib chiqqanidan keyin esa yig‘lab yubordi.

«Bugun redaksiyamizga g‘alati bir odam keldi. Bu chiroyli, aqlli va tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to‘lgan erkak – u o‘ziga ana shunday ta‘rif berdi – keldi-da, biz va‘da qilgan o‘n ming kron miqdoridagi mukofotni unga topshirishimizni talab qildi. Bu odamning bizga tushuntirishicha, Vazastan sirini boshqa birov emas, ayni uning o‘zi ocholgan, lekin men hech qanday josus emasman, gapimga ishonmaslikka sizlarda hech qanday asos yo‘q, dedi u bizga. «Men faqat uy zolimasi hamda amakiga o‘xshagan odamlarning orqasidangina ayg‘oqchilik qilaman», – dedi u. Bularning hammasi bachkana, beozor gaplar-

dir, bizning fahmimizcha, bu «josus» oddiy, semiz o'quvchi bola ekan, bizni ishontirib aytganidek, o'z sinfida birinchi o'quvchi ekan, lekin bu bolaning bir narsasi borki, uni har qanday yosh bola ham ishlata oladi, bu aslida kichkina motorcha bo'lib, uning yordamida uchish mumkin, ha, aytmoqchi, buni suratdan ham ko'rsa bo'ladi. Bolaning gapiga qaraganda motorcha dunyodagi eng zo'r ixtirochi tomonidan ishlangan, lekin u, bu haqda batafsil gapirib berishdan bosh tortdi. Biz, o'sha ixtirochi, agar ana shunday motorlarni ko'plab ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysa, katta millioner bo'lib ketardi desak, bola bu gapimizga shunday javob qildi: «Yo'q, rahmat, havoni uchib yuruvchi bolalar bilan ifloslantirish kerak emas, ikkovimiz – men bilan Mittivoyning uchib yurganimiz yetar».

Shu joyini o'qiganida Mittivoy kulimsirab qo'ydi; «Ha, shu nisiga ham rahmat, Karlson boshqa birov bilan emas, faqat u bilan uchishni xohlabdi-yu», – keyin bir xo'rsindi-da, o'qishda davom etdi.

«Lekin shuni e'tirof etish kerakki, bola odamda negadir g'alati taassurot qoldiradi. U tinimsiz gapiradi, savollarimizga qandaydir g'alati javob qaytaradi, hatto ismi-familiyasini aytishni ham xohlamadi: «Mening Oyijonim – mo'miyo, otam – gnom», – dedi u oxirida, shundan boshqa hech nima bilolmadik. U inglizchada uncha-muncha gapiradi, ehtimol, otasi inglizdir, agar bolaning valdirashlaridan to'g'ri anglagan bo'lsak, aftidan, otasi mashhur uchuvchi bo'lishi kerak. Uchishga bo'lgan qiziqish, havas, hoy-nahoy, otasidan o'g'liga o'tgan. Bola, va'da qilingan mukofotni olishga haqqim bor, dedi. «Bu pullarni Fille bilan Rulle yoki boshqa bir bezori emas, men olishim kerak», – dedi u. Ana shu pullarning hammasini besh erelik tangalar bilan berishimizni iltimos qilyapti, chunki uning fikricha o'sha erelargina «haqiqiy pullar» ekan. U oldimizdan cho'ntaklarini besh erelik tangalarga to'ldirib chiqib ketdi. Tangalarning qolganini zambilg'altakda olib ketmoqchi. Redaksiya ma'lum qiladiki, ularni istagan vaqtda olib ketishi mumkin. Garchi gaplarining hammasini ham tushunmagan bo'lsak-da, suhbatimiz ancha qiziqarli bo'ldi. «Bilib qo'yinglar, sizlar menga faqat taxminan to'ladilaring», – bu

uning oxirgi so'zlari bo'ldi, shundan keyin u derazadan uchib chiqdi-da, Vazastan tomon yo'l oldi.

Bola, nomi gazetaga tushishidan qo'rqib, ismini aytishdan bosh tortdi, «chunki Mittivoy buni xohlamaydi» dedi u, aftidan, ukasini juda yaxshi ko'radiganga o'xshaydi, har holda, kishida shunday taassurot tug'iladi. Biz bolaning nomini to'la aytolmaymiz, lekin o'quvchilarimizga shuni ma'lum qilamizki, ismi «Karl» hijosi bilan boshlanib «son» hijosi bilan tugaydi. Modomiki, kishi gazetada o'z ismining bosilishini xohlamas ekan, biz bu bilan hisoblashishga majburmiz. Shuning uchun ham biz butun maqola davomida uni «Karlson» emas, «bola» deb atadik, holbuki, aslida ham uning ismi Karlson».

— U ukasini juda yaxshi ko'radi, — deb ming'illab o'qidi Mittivoy va yana xo'rsinib qo'ydi. Keyin deraza oldiga keldida, chilvirni qattiq jaranglatdi, bu Karlsonga «uchib kel» degan signal edi.

O'sha zahoti Karlson uchib keldi. U xursandligidan gul-gul yonardi.

— Gazetada biror qiziq gap bor ekanmi? — deb so'radi u odatdagiday tuvakchadan shaftoli danagini kovlab olarkan. — Agar chindanam qiziq narsa bo'lsa, ovozingni chiqarib o'qi.

— Senda o'zi uyat degan narsa qolmabdi, — dedi Mittivoy. — Hamma ishni rasvo qilganingni nahotki tushunmasang. Endi ikkovimizni bir zum ham tinch qo'yishmaydi.

— Xo'sh, kimga tinchlik kerak? — deb hayron bo'lib so'radi Karlson iflos qilgan qo'llarini Mittivoyni pijamasiga artarkan. — Doimo o'yin-kulgi, xursandchilik bo'lishi kerak, yo'qsa, men o'ynamayman. Qani, endi o'qiy qol!

Karlson kichkina ko'zguda o'zini yaxshilab ko'rish uchun xonada aylanib uchib yurar ekan, Mittivoy maqolani ovoz chiqarib o'qiy boshladi. U «haddan ziyoda semiz» degan so'zlarni, umuman, Karlsonni ranjitadigan joylarini tushirib qoldirdi-da, qolganini boshidan oxirigacha o'qib berdi, Karlson o'zida yo'q xursand edi.

Ajoyib tanishuv — bu mening haqimda. Ha, bu gazetaning har bir so'zi haqiqat.

«U ukasini juda yaxshi ko'radi», — deb o'qidi Mittivoy va Karlsonga savol nazari bilan qaradi. — Bu so'zlar ham haqiqatmi?

Karlson uchishdan to'xtadi-da, o'ylanib qoldi.

— Ha, umuman, to'g'riku-ya, — dedi u istar-istamas. — Qiziq, senday esipast bolani yaxshi ko'rishning o'zi qiziq! Ha, bularning hammasi mening mehribonligimdan, chunki men dunyodagi eng mehribon, eng yoqimtoy odamman. Qani, davomini o'qi.

Lekin Mittivoyning o'pkasi to'lib o'qiyolmadi: demak, Karlsonning uni juda yaxshi ko'rishligi rost ekan-da! Boshqasi bilan qancha ishi bor!

— Ismimni gazetada atamasliklarini ulardan iltimos qilib yaxshi qilibmanmi, a? — dedi Karlson. — Men buni faqat sen uchun qildim, axir, sen meni sir, butunlay sir saqlamoqchisan-ku.

Keyin u gazetani oldi-da, unda bosilgan ikki rasmni ham havas bilan uzoq ko'zdan kechirdi.

— Bu rasmda qanchalik chiroyliligim ko'rinmay qolgan-da, — dedi u. — Tobida semirganligim ham bilinmaydi, shundan tashvishdaman, mana, ko'rgin-a!

U gazetani Mittivoyning burni tagiga tiqdi, lekin o'sha zahoti yana qaytib oldi-da, parragini ko'z-ko'z qilayotgan rasmini cho'lp-cho'lp o'pa boshladi.

— Hoy-xo'p, o'zimni suratimni ko'rganimda «ura!» deb qichqirgim keladi.

Lekin Mittivoy gazetani uning qo'lidan tortib oldi.

— Har holda, Bok xonim bilan Yulius amaki uni ko'rmasligi kerak, — deb tushuntirdi u. — Bunga aslo yo'l qo'yish mumkin emas.

U gazetani bir necha bor bukladi-da, stol tortmasining ichkarisiga tiqib qo'ydi. Oradan bir zum o'tar-o'tmas Yulius amaki xonasining eshigini qiya ochdi-da, so'radi:

— Gazeta sendami, Mittivoy?

Mittivoy «yo'q» deganday bosh chayqadi.

— Yo'q, menda emas.

Chindanam gazeta unda emas, stol tortmasida edi-da.

— Ha, aytmoqchi, Yulius amakining o'sha kuni gazetani odatdagiday hadeb so'rab-surishtirmagani juda g'alati tuyuldi. Uning

o'y-fikrlari, aftidan, biror boshqa ko'ngilli narsa bilan band bo'lsa kerak, chunki baxtiyorligi shunday yuzidan ko'rinardi. Boz ustiga, u oxirgi marta doktorga borishi kerak edi. Bir necha soatdan keyin u uyiga, Vestergetlandga jo'nab ketadi.

Bok xonim unga buyumlarini joylashtirishga yordamlashardi. Mittivoy bilan Karlson uning yo'l-yo'lakay Yulius amakiga berayotgan o'gitlarini eshitib qolishdi: paltongizni ustki tugmasini solish esingizdan chiqmasin, yo'qsa shamollab qolishingiz mumkin, ko'chadan o'tayotganingizda ehtiyot bo'ling, ertalab, och qoringa chekmang!

— Bu uy zolimasining aql-farosatini qara-ya! — dedi Karlson. — U o'zini, hoynahoy, uning xotiniman deb tasavvur qilayotgan bo'lsa kerak-da!

Lekin o'sha kun sira kutilmagan voqealarga to'la bo'ldi. Yulius amaki ketishi bilanoq Bok xonim telefonga tashlandi. U shunday baqirib gapirdiki, Mittivoy bilan Karlson beixtiyor uning hamma so'zlarini eshitdi.

— Allo! Frida, bu senmisan? — dedi u shosha-pisha. — Xo'sh, chiroyli burunchangni ahvoli qalay?.. Bilasanmi, men buni eshitdim, lekin sen burnim xususida boshqa tashvish tortmasang bo'ladi, chunki men uni Vestergetlandga ketganimda o'zim bilan birga olib ketmoqchiman... Ha, sal bo'lmasa esimdan chiqay debdi, men Vestergetlandga ko'chib o'tmoqchiman... Yo'q, yo'q, uy xodimasi sifatida emas, men erga tegyapman, garchi shunday semiz bo'lsam ham... Xo'sh, sen bunga nima deysan? Ha, albatta, kimligini bilishga to'la haqqing bor... Janobi Yulius Iyensenga, ha, shu odamga... ha, bu haq gap, sen hozir Iyensen xonim bilan gaplashyapsan, jonginam Frida... He, ko'rib turibman, ko'ngling buzilib ketdi... yig'layapsan... Qo'y, qo'y, Frida, xafa bo'lma, sen ham hali o'z tengingni, yaxshi odamni uchratasan... Meni kechirgin, sen bilan ortiqcha gaplashishga vaqtim yo'q, hozir qallig'im kelib qoladi... Keyin o'zim yana telefon qilarmen, Fridochka.

Karlson Mittivoyga ko'zlarini katta ochganicha hayron bo'lib qarab turardi.

– Menga ayt-chi, tentaklarni davolaydigan dorilaring bormi? – deb so‘radi u nihoyat. – Agar bo‘lsa, uni hoziroq Yulius amakiga berish kerak, o‘shandayam eng kattasini berish kerak.

Lekin Mittivoy bunday dori-darmonlar to‘g‘risida hech nima eshitmagandi.

Karlson achingansimon xo‘rsinib qo‘ydi, Yulius amaki doktor oldidan kelganidan keyin esa, uning yoniga sekin bordi-da, besh erelik tangani cho‘ntagiga indamay solib qo‘ydi.

– Iye, bu nima qilganing? – deb so‘radi Yulius amaki.

– Ko‘nglingga yoqqan biror nima sotib olarsan, – dedi Karlson g‘amgin, – ha, sen bunga muhtojсан.

Yulius amaki Karlsonga minnatdorchilik bildirdi-yu, lekin u hozir shu qadar xursand va baxtiyor ediki, kayfiyatini ko‘tarish, ko‘ngil ochish uchun besh erega hecham muhtoj emasdi. Yulius amaki, men juda baxtli odamman, bu kunlarni sira-sira unutmayman, deb ustma-ust takrorlardi. Bundan tashqari, bu yerda unga ajoyib ertaklar olami ochildi. To‘g‘ri, deraza oldidan uchib o‘tayotgan ajinani ko‘rganida u biroz qo‘rqdi, ha, buni inkor etmaydi, lekin...

– Shunchaki ajina emas, – deb uning so‘zini to‘g‘riladi Karlson, – dunyodagi mana man degan ajinalarning alvastisi.

– Lekin eng muhimi, ota-bobolarimiz bilan yana bir bor diydor ko‘rishdim, – deb o‘zinikini ma‘qullardi Yulius amaki, – bundan juda-juda xursandman. Bu ajoyib, ertaknamo kunlar o‘tib ketdi-yu, lekin u go‘zal, afsonaviy malika qalbini zabt etdi, mana endi to‘y-u tomosha bo‘ladi.

– Afsonaviy malika! – deb takrorladi uning so‘zini Karlson, uning ko‘zlari charaqlab ketdi. U rosayam xaxolab kuldi-da, keyin Yulius amakiga qarab boshini chayqadi, so‘ng yana kulishga tushdi.

Bok xonim oshxonada g‘imirlab yurardi: Mittivoy uni hech qachon bunchalik xursand, xushchaqchaq ko‘rmagandi.

– Men ham ajinalarni juda yaxshi ko‘rib qoldim, – dedi u, – chunki agar o‘sha ajinalardan bittasi derazamiz oldidan uchib o‘tmaganida, bizlarni qo‘rqitib yubormaganida, sen, Yulius, hoynahoy, hech qachon bo‘ynimga osilib olmasding, umuman, hech gap bo‘lmasdi.

Karlson alamidan bir sakrab qo'ydi, keyin yelkasini uchirdi.

– Hechqisi yo'q, bu turmushda, ro'zg'orda bo'ladigan gapku! – dedi u. – Lekin, menimcha, bizning Vazastanda ajinalar ko'p bo'lmasa kerak.

Bok xonim esa endi to'y haqida gapirardi, u daqiqa sayin yana ham baxtiyor, yana ham saodatli ko'rinardi.

– Sen, Mittivoy, to'yimizda bo'lasan, – dedi u. – Senga qora baxmaldan kostum tikib berishadi, shunday chiroyli bo'lib ketasan-ki, asti qo'yaver.

Mittivoy bir seskanib tushdi. Qora baxmal kostum-a... Krister bilan Gunilla uni rosa mazax qilishadi-yu!

Lekin Karlsonning ko'ngliga kulgi sig'masdi. U astoydil xafa bo'lgandi.

– Bunaqada men o'ynamayman, men ham to'yda bo'lishni istayman, menga ham qora baxmaldan kostum tikib berishlarini xohlayman!.. Yo'q, men bunaqada o'ynamayman!..

Endi miriqib kulish navbati Bok xonimga keldi.

– Ha, sen qatnashsang, to'y xarala-tarala bilan o'tadi, hech kimni zeriktirmaysan.

– Menam shunday deb o'ylayman, – uning gapini ilib ketdi Karlson, – qora baxmal kostumni kiyib, orqangda nuqul besh eregi tangalarni tashlab turaman, to'pponchamdan otaman! Axir, salutsiz to'y to'y bo'ladimi!

Yulius amaki shu qadar baxtiyor ediki, u hammaning ham baxtli bo'lishini juda-juda istardi, shuning uchun ham u Karlsonni o'sha zahoti to'yga taklif qildi. Lekin Bok xonim, unday bo'lsa to'y mensiz o'tadi, dedi.

O'sha kuni ham yana kech kirib, qosh qoraydi. Mittivoy Karlsonning tomida o'tirardi, qorong'ilik quyuqlashib butun Vazastanda chiroqlar yondi, Stokgolmda ham – qayoqqa qaramagin, miltillagan chiroqlar.

Ha, kech kirdi. Mittivoy Karlsonning yonida o'tiribdi, bu juda yaxshi. Xuddi hozir Vestergetlanddagi kichik bir stansiyada poyezd to'xtadi-yu vagondan Yulius amaki tushdi. Oq kema qayerdadir, dengizda, Stokgolmgga qarab suzib ketyapti, uning palubasida oyisi bilan dadasi turishibdi. Bok xonim Fridaga dalda berish uchun Freyगतendagi o'z uyida o'tiribdi. Bimbo o'zining

savatchasida uxlab yotibdi. Lekin bu yerda, tomda, Mittivoy o'zining eng yaxshi do'sti bilan o'tiribdi, ikkovi Bok xonim pishirgan yog'li shirin bulochkani yeyishardi. Hammasi ham juda soz. Lekin, baribir, negadir Mittivoyning ko'ngli notinch, tashvishda.

Agar Karlson bilan do'stlashsang, tinchlik nimaligini bilmaysan.

— Senga qo'limdan kelgancha tushuntirishga urinib ko'rdim, — dedi Mittivoy. — Seni shu vaqtgacha ehtiyot qilib, saqlab keldim, bu to'g'ri. Lekin endi buyog'iga nima bo'ladi, bilmayman.

Karlson og'ziga bulochkani butunicha tiqdi-da, yutib yubordi.

— Juda tentaksan-da! Endi ular bir necha besh eregi tangani olish uchun izimga tushishlari mumkin, men bu ishlarning hammasiga chek qo'ydim: tushunsang-chi, axir, Fille bilan Rullega endi orqamdan quvib yurishlariga hojat qolmadi.

Mittivoy ham bulochkani olib, bir chetini tishladi.

— Yo'q, tentak men emas, sensan. Endi, butun Vazastan, har holda, tentaklar orqangdan gala-gala bo'lib yurishadi, izingdan qolishmaydi, qanday uchishingni yaxshilab ko'rish yoki motoringni o'g'irlab ketish payidan bo'lishadi.

Karlsonga jon kirdi.

— Sen shunday deb o'ylaysanmi? Agar gaping rost bo'lsa, bugun bir xursandchilik qilsam bo'larkan.

Mittivoyning astoydil jahli chiqdi.

— Qanday eplaysan, — dedi u darg'azab bo'lib, — sendan so'rayapman, olomon atrofingni halqaday o'rab olsa, qanday eplaysan.

— Bilasanmi, buning uch usuli bor: tiyish, yo'q qilish, maynabozchilik. Menimcha, uchovini ham birdaniga qo'llashga to'g'ri keladi.

Karlson boshini bir tomonga egdi-da, Mittivoyga mug'ambirona qarab qo'ydi.

Karlson shunday kulgili ko'rinaridiki, Mittivoy beixtiyor kulimsiradi-yu, ko'ngli ko'tarildi. Karlson qo'llarini cho'ntaklariga tiqib, xursand bo'lib besh eregi tangalarini jaranglatdi.

– Hoy-xo‘p, badavlat, ham chiroyli, ham aqlli, ham tobida semirgan, ayni kuch-quvvatga to‘lgan erkak, mana men-da, dunyodagi eng yaxshi Karlson, har jihatdan yaxshi, sen buni tushunasanmi, Mittivoy?

– Ha, – deb javob berdi Mittivoy.

Lekin Karlsonning cho‘ntagida faqat besh ereali tangalar emas, yana kichkina to‘pponcha ham bor edi, Mittivoy uni to‘xtatishga ulgurmasidanoq butun Vazastan bo‘ylab o‘q ovozi yangradi.

«Ha, yana boshlandi», deb o‘yladi Mittivoy, qo‘shni uylarning derazalari ochilganini ko‘rib, odamlarning hayajonli, tashvishli ovozlari eshitib.

Lekin Karlson odatdagi qo‘shig‘ini boshlab, katta, do‘mboq barmoqlarini kuy ohangiga moslab chertardi:

Gurla gulxan,  
O‘ynaymiz,  
Gir aylanib kuylaymiz:  
Chivi-chivi, chirik-chirik,  
Dirk-dirk  
Tarala.  
Tavallud ayyom esa  
Oftob to‘kma xon insa  
Ho‘plar...  
Barala:  
Chivi – yovuz,  
Qovuz-qovuz!

## MUNDARIJA

### MITTIVOY VA TOMDA YASHOVCHI KARLSON

|                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------|-----|
| Tomda yashovchi Karlson .....                                          | 3   |
| Karlson minora quradi.....                                             | 11  |
| Karlson chodir tikdi.....                                              | 20  |
| Karlson garov o'ynadi .....                                            | 29  |
| Karlsonning qilmishlari.....                                           | 44  |
| Karlsonning «arvoh-arvoh» o'ynagani.....                               | 57  |
| Karlson Alberg laqabli o'qimishli kuchuk bilan tomosha ko'rsatadi..... | 70  |
| Karlson Mittivoyning tug'ilgan kuniga keladi.....                      | 82  |
| Tomda yashovchi Karlson yana uchib keldi.....                          | 96  |
| Karlsonning uyida .....                                                | 111 |
| Karlsonning jahli chiqdi.....                                          | 119 |
| Karlson ziyofat berdi.....                                             | 129 |
| Karlson va televizor .....                                             | 140 |
| Karlsonning qo'ng'irog'i .....                                         | 150 |
| Vazastanlik jajji ajina.....                                           | 159 |
| Karlson ajina emas, shunchaki Karlson.....                             | 167 |
| Yoshgina mag'rur qizcha uzoq-uzoqlarga uchib ketdi.....                | 179 |
| Chiroyli, aqlli va tobida semirgan .....                               | 188 |

### TOMDA YASHOVCHI KARLSON YANA SHO'XLIK QILYAPTI

|                                                               |     |
|---------------------------------------------------------------|-----|
| Hammaning ham Karlson bo'lishga haqqi bor .....               | 197 |
| Karlson tug'ilgan kunini eslab qoldi.....                     | 212 |
| Karlson – birinchi o'quvchi .....                             | 229 |
| Karlson Mittivoynikida tunab qoldi.....                       | 238 |
| Karlson shovqin-suron ko'taradi va quymoq pishiradi.....      | 248 |
| Karlson – xurrak bo'yicha dunyoda eng yaxshi mutaxassis ..... | 263 |
| Karlson – dunyodagi eng zo'r tungi to'polonchi .....          | 274 |
| Karlson Yulius amakini ertaklar olamiga olib kirdi.....       | 288 |
| Dunyodagi eng badavlat Karlson .....                          | 301 |

*Adabiy-badiiy nashr*

**ASTRID LINDGREN**

**MITTIVOV VA KARLSON**

(O'smir yoshdagi bolalar uchun, III gr.)

Ertak-qissa

*Ikkinchi nashri*

Tarjimon *Husan Ro'zimatov*

Muharrir *Sh. Beknazarova*

Rassom *N. Jo'raboyev*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *D. Husanova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Tugusheva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.

2020-yil 13-martda bosishga ruxsat etildi.

Ofset qog'ozi. Bichimi 70×100<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.

«Virtec Antiqua Uz» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 25,35. Nashr tabog'i 19,68.

Nusxasi 10 000. Buyurtma №20-48.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

*e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)*

*[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)*

**Lindgren, Astrid.**

**L 55**      **Mittivoy va Karlson [Matn]: ertak-qissa. Ikkinchi nashri.**  
 / A. Lindgren. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. –  
 312 b.

**ISBN 978-9943-28-761-7**

**UO‘K 821.113.6-343.4**


**KBK 84(4Shve)**

**L 55**





28.000 g



7+



«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-28-761-7



9 789943 287617